

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

QURILISH TEXNOLOGIYA FAKULTETI

PEĐAGOGIKA VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR KAFEDRASI
*Бундан ташқари таълим технологиялари: диалогик ёндошув, мунозарат
таълим. Бинго, блиц, ажурали арра, нилуфар гули, меню, мунозара, у*

“pedagogika psixologiya” fanidan

O‘quv-uslubiy majmua

	SILLABUS	
II.	FANNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLAR	
1	Hozirgi zamon psixologiyasi predmeti maqsadi va uning vazifasi.	
2	Psixologiyaning ilmiy - tadqiqot metodlari	
3	Faollik, faoliyat va uning turlari	
4	Shaxs. Muloqot, Guruh, Jamoa	
5	Psixik jaryonlar. Diqqat, Sezgi. Idrok, xotira, tafakkur, xayol	
6	Psixik jaryonlar. Diqqat, Sezgi. Idrok, xotira, tafakkur, xayol	
7	Shaxsning individual xususiyatlari	
8	Kishi xayot tarzining yosh davrlari. Xar bir yosh davrining qisqacha tavsifi	
9	Pedagogikaning predmeti, maqsadi va vazifalari	
10	Pedagogikada asosiy tushunchalar	
11	XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar	
12	Mustaqil O‘zbekistonda ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya, pedagogik fikrlar	
13	Ta’lim qonuniyatlari va qoidalari	
14	Tarbiyaning umumiy usullari	
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	
1	Hozirgi zamon psixologiyasi predmeti	
2	Bumerang texnologiyasi	
3	Faollik, faoliyat va uning turlari	
4	SHaxs. Muloqot. Guruh. Jamoa	
5-6	SHaxsning bilish jarayonlari va kasbiy rivojlanishi	
7	SHaxsning individual xususiyatlari	
8	Kishi xayot tarzining yosh davrlari. Xar bir yosh davrining qisqacha tavsifi	
9	Pedagogikaning predmeti, maqsadi va vazifalari	
10	Pedagogikada asosiy tushunchalar	
11	XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar	
12	Mustaqil O‘zbekistonda ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya, pedagogik fikrlar	
13	Ta’lim qonuniyatlari va qoidalari	
14	Tarbiyaning umumiy usullari	
V	KEYSLAR BANKI	
VI.	MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	
VII.	GLOSSARIY	
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	

SILLABUS

Fanning qisqacha tavsifi													
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Namangan muhandislik pedagogika instituti		Do'stlik ko'chasi, 12-uy										
Kafedra:	Pedagogika va pedagogik texnologiyalar		Texnik yo'nalish tarkibida										
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	110000-Texnik bakalavr	Texnik bakalavr yo'nalishi 3-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan											
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	P.f.n.dotsent Boltaeva Muxayyo Lutfillaevna	e-mail:	Boltaeva11 @inbox.uz										
Dars mashg'ulotini o'tkazishning vaqti va joyi:	Dekanat tomonidan ishlab chiqilgan dars jadvali asosida institut o'quv binolarida	Kursning boshlanish va davom etish muddati:	Texnik bakalavr o'quv rejasiga muvofiq beshinchi va oltinchi semestrda										
Individual grafik asosida professor-o'qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti:	Haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari 15.00 dan 17.00 gacha												
Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv turlari bo'yicha taqsimoti	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td colspan="4" style="text-align: center;">Auditoriya soatlari</td> </tr> <tr> <td style="width: 25%;">Ma'ruza:</td> <td style="width: 10%; text-align: center;">36</td> <td style="width: 25%;">seminar</td> <td style="width: 10%; text-align: center;">36</td> </tr> </table>		Auditoriya soatlari				Ma'ruza:	36	seminar	36	<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 50%;">Mustaqil ta'lim:</td> <td style="width: 50%; text-align: center;">66</td> </tr> </table>	Mustaqil ta'lim:	66
Auditoriya soatlari													
Ma'ruza:	36	seminar	36										
Mustaqil ta'lim:	66												
Fanning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi:	"Kasbiy pedagogika", "Kasbiy psixologiya", "Umumiy pedagogika" Pedagogik mahorat												
Fanning mazmuni													
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<u>Fanni o'qitishdan maqsad</u> –talabalarda Pedagogika.Psixologiya uning predmeti, maqsadi, qonuniyatlari haqida, fanning kelib chiqish tarixini, bilish jarayonlarini, ularni shaxs kamolotidagi ahamiyati, shaxslararo munosabatlar, individual xususiyatlar hamda												

	<p>ularni shakillanib namoyon bo'lishini, har bir yosh xususida qisqacha tavsif, kasblarning insonga qo'yadigan talablari haqida tushunchalar bilan tanishtirish va ulardan faoliyat jarayonda samarali foydalanish mahoratini shakllantirishdir, hamda zamonaviy ilmiy bilimning o'zgartirilishini tashkil etishdir.</p> <ul style="list-style-type: none"> - <u>Fanning vazifasi</u> -Talabalar «Pedagogika.Psixologiya» fanining mazmun mohiyatini anglashi, shaxsning o'ziga xos ta'lim-tarbiyasi, psixik jarayonlarini xolat va individual xususiyatlarini, kasb egallashga doir psixologil bilimlarni <i>bilishi kerak</i>; - davlatimizning barkamol avlodni aqlan va jismonan rivojlanish muammolari yuzasidan chiqargan qonun-qoidalariga amal qilish va sog'lom, har tomonlama etuk avlod yaratishga intilish, mohir pedago hamda tarbiyachi, <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
Talabalar uchun talablar	<p>Institutning odob-ahloq kodeksi talablarigi qat'iy rioya qilish, shuningdek:</p> <ul style="list-style-type: none"> -professor-o'qituvchi auditoriga kirganida o'tirgan joydan turib "Assalomu alaykum" deb kutib olish; - uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish; -professor-o'qituvchidan so'ng dars mashg'ulotiga kech kelgan talaba auditoriyaga kiritilmaydi; -professor-o'qituvchi va guruhdoshlarga qo'pollik qilmaslik, so'z talashmaslik, hurmat bilan munosabatda bo'lish; -Institutning ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish; -kiyinish talablari (madaniyati) ga rioya qilish; -mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqmaslik (umuman dars jarayonida auditoriyadan sababsiz chiqishga ruxsat berilmaydi); -uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish; -ko'chirmachilik (plagiat) qilmaslik, qat'iy man etiladi; - darslarga qatnashish majburiy, sababsiz 2 (ikki) va undan ortiq dars qoldirgan talaba keyingi mashg'ulotlarga fakultet dekani ruxsati bilan kiritiladi; -sababli dars qoldirilgan taqdirda, professor-o'qituvchiga ma'lumotnoma (spravka) taqdim etish;

	<p>- har qanday holatlarda ham qoldirilgan darslar qayta o‘zlashtirilishi shart;</p> <p>-ma’ruza va seminar darslariga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;</p> <p>- qo‘shimcha ravishda bajarilgan taqdimot, mustaqil ish, esse, referat, kreativ fikrlash darajasi, turli xil tadbirlar va ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruzalar bilan ishtirok etganligi uchun +2 <i>bonus ballar</i> beriladi;</p> <p>-talabaga o‘z vaqtida bajarilmagan mustaqil ish, uy vazifasi, tartib-intizomi bo‘yicha -2 <i>jarima ballar</i> belgilanadi;</p> <p>-talaba reyting balidan norozi bo‘lsa fan bo‘yicha nazorat turlari e’lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat qiladi va apellyasiya komissiyasi shu kunning o‘zida talabaning arizasini ko‘rib chiqib xulosa chiqaradi.</p>
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	<p>Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha.</p>

Fan mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti:

№	Mavzu	Auditoriya soatlari			Mustaqil ish
		Jami	SHu jumladan:		
			Ma'ruza	Amaliy (seminar)	
1.	Hozirgi zamon psixologiyasining predmeti, maqsadi va vazifasi	8	2	2	6
2.	Psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlari	4	2	2	4
3.	Faollik. Faoliyat va uning turlari	4	2	2	4
4.	Shaxs. Muloqot. Guruh. Jamoa	4	2	2	4
5.	Psixik jarayonlar: Sezgi. Idrok. Xissiyot va emotsiyalar	4	2	2	4
6.	Psixik jarayonlar: Diqqat. Xotira. Tafakkur. Xayol.	4	2	2	4
7.	Shaxsning individual psixologik xususiyatlar.	8	4	4	2
8.	Yosh davrlari psixologiyasi. Kishi xayot tarzining yosh davrlari. O'smirlilik va o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari	8	4	4	2
9.	Kirish. Pedagogikaning maqsad va vazifalari	8	4	4	2
10.	Pedagogikada asosiy tushunchalar	4	2	2	2
11.	XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim tarbiya va pedagogik fikrlar	4	2	2	2
12.	Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy xayot, ta'lim-tarbiya, pedagogik fikrlar	4	4	4	2
13.	Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari.	4	2	2	2
14.	Tarbiyaning umumiy usullari	4	2	2	2
15.	jami	72	36	36	48

Talabalar bilimini baholash tizimi:

t/r	Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi	Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball	JN va ON ballar taqsimoti	
I. Joriy nazoratdagi ballar taqsimoti		40 ball	<i>1-JN (20 b)</i>	<i>2-JN (20 b)</i>
<i>Amaliy mashg'ulotlarda</i>				
1.	Talabaning amaliy mashg'ulotlarda faolligi, muntazam ravishda konspekt yuritishi uchun	30	15	15
2.	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi (keys-stadilar, esse, referat, taqdimot va boshqa turdagi mustaqil ta'lim topshiriqlari)	10	5	5
II. Oraliq nazorat		30 ball		
1.	Oraliq nazorat (ma'ruza o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi)	15	Semestrning 8-haftasi	
2	Talabaning mashg'ulotlarda faolligi, ishtiroki, savollarga to'g'ri javob berganligi uchun	15		
III. YAkuniy nazorat		30 ball	Semestrning oxirgi ikki haftasida	
Jami:		100 ball		

Izoh: yakka tartibda va guruh bo'yicha topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin: keys-stadi, taqdimot, esse, vaziyatli masalalar, variantlar asosida savol-javob.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichining namunaviy mezonlari:

T/r	Talabaning fanni o'zlashtirish darajasi (bilim, malaka va ko'nikma darajasi)	Ballar
A)	<i>Xulosa va qarorlar qabul qilish;</i>	<i>86-100 ball</i>
	• <i>ijodiy fikrlay olish;</i>	
	• <i>mustaqil mushohada yurita olish;</i>	
	• <i>olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;</i>	
	• <i>mohiyatini tushunish;</i>	

	<ul style="list-style-type: none"> • <i>bilish, aytib berish;</i> 	
	<ul style="list-style-type: none"> • <i>tasavvurga ega bo'lish.</i> 	
B)	<i>Mustaqil mushohada yurita olish;</i>	
	<ul style="list-style-type: none"> • <i>olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;</i> 	
	<ul style="list-style-type: none"> • <i>mohiyatini tushunish;</i> 	71-85 ball
	<ul style="list-style-type: none"> • <i>bilish, aytib berish;</i> 	
	<ul style="list-style-type: none"> • <i>tasavvurga ega bo'lish.</i> 	
V)	<i>Mohiyatini tushunish;</i>	
	<ul style="list-style-type: none"> • <i>bilish, aytib berish;</i> 	55-70 ball
	<ul style="list-style-type: none"> • <i>tasavvurga ega bo'lish.</i> 	
G)	<i>Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik.</i>	
	<i>Bilmaslik</i>	0-54 ball

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-21 jildlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1996-2013.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. -Toshkent: O'zbekiston, 2006.
3. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -Toshkent: O'zbekiston, 2009.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka
6. erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
8. Ivanov P.I, Zufarova M.E Umumiy psixologiya Darslik.-Toshkent, 2008.
9. Jalilova S.X, Xaydarov F.I, Halilova N.I. Kasbiy psixologiya (o'quv qo'llanma)-Toshkent 2010.
10. Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Xalq merosi. 2002.
11. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya.-O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent- 2010.

	<p>12. Zunnunov A. “Pedagogika tarixi”. Darslik.Toshkent. “SHarq” 1997 y</p> <p>13. Xoshimov K, Safo Ochil. “O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi”. Darslik. “O‘qituvchi” Toshkent. 1995 y.</p> <p>14. Mavlonova R va b. “Pedagogika”. Darslik.O‘qituvchi. 2001y.</p> <p>Elektron ta’lim resurslari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.lex.uz 2. http://www.ziyonet.uz 3. http://www.gov.uz
Qo‘shimcha adabiyotlar:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2007. 2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Universitet. 1999. 3. SHodmonova SH.S.Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish Monografiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. 4. G‘aybullaev N.R. “Pedagogika”. Toshkent. 2000 y. 5. G‘oziev E.G‘. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. Toshkent.: «Universitet», 2003.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI



Nilufar guli texnologiyasi

Texnologiya didaktik muammolarni echishning samarali vositalaridan bo‘lib, nilufar guli ko‘rinishiga ega. Asos, unga birikkan to‘qqizta “gulbarg” (kvadrat, to‘rtburchak yoki aylana)larni o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

O‘quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

	<i>Abu Ali Ibin Sino qarashl ari</i>	

	<i>Amur Temur qarashl ari</i>	

	<i>Abu Rayxo n Beruni y qarash lar</i>	

	<i>Abu Nasr Farobi y qarashl ari</i>	

	<i>SHarq mutafak kirlarini ng ruxiy xodisala rga oid qarashla ri</i>	

	<i>Alishe r Navoi y qarash lar</i>	

	Zaxirid in Muxam mad Bobur qarashl ari	

	Mirzo Ulug‘be k qarashla r	

	Al Xorazi miy qarash lari	

Assasment metodi

Assesment - inglizcha so‘z bo‘lib, “baho”, “baholash” ma’nosini bildiradi.

Bugun bu usul ta’lim tizimiga ham joriy etilgan bo‘lib, talabalarning bilim darajasi, malaka va ko‘nikmasini baholashga xizmat qiladi. SHuning uchun ushbu metoddan foydalanib keysni samarali hal etish mumkin.

TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
Psixologiyasining tadqiqot metodlarining klassifikatsiyasi nechta turdan iborat?	Matematik statistika metodlari ustida ishlash Styudentning -t mezonni tahlili. Personning chiziqd koeffitsientini aniqlash metodlaridan foydalanish maxsus matematik bilim talab qiladi. Ushbu metoddan foydalanilmasa natijalar ishonchliligiga shubha paydo bo‘ladi.
BELGILAR:	AMALII HARAKATLAR
Genetik metodlar, praksimetrik metodlar psixometrik metodlar, eksperimental metodlar, rangli assotsiativ test, kuzatish, suhbat, intervyu so‘rovnoma, varaqalar, testlar, tarjimai hol, eksperiment, mehnat mahsulini tahlil qilish va matematik statistika metodlari	Matematik statistik metodlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish, test natijalarini qayta ishlovchi kompyuter dasturlarini o‘rganish

“KONVERT” usuli



Konvert usuli yordamida mavzuga oid savol hamda muammolar keng yoritiladi va tahlil qilinadi.


O‘quv topshiriq: Guruh sardorlari bittadan konvertlardan tanlaysizlar, har bir konvert ichida uchtadan mavzuga oid savollar bo‘lib, barchangizni faol ishtirokingiz yordamida istagan grafik organayzer asosida savollarga javob yozasizlar va izohlaysizlar.

“KLAUSTER” metodi

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni o‘quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumshtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. Grafik organayzerdan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

Grafik organayzer yordamida o'quvchi (talaba)lar topshiriq bo'yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:

Namuna:



“VENN DIAGRAMMASI”

Grafik organayzer o'quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

YOZUV taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:

Grafik organayzer o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

Grafik organayzerni qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. O'quvchi (talaba)larning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar Mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

Namuna



SWOT –таҳлили методи

Metodning maksadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni taxlil kilish, takkoslash orkali muammoni xal etish yullarini topishga, bilimlarni mustaxkamlash, takrorlash, baxolashga, mustakil, tankidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat kiladi.

- S - кучли томони
- W - кучсиз томони
- O - имкониятлари
- T - хавф-хатар

Strengths	Weakness
Opportunities	Threats

«BLITS-SO‘ROV» texnologiyasi.

Ushbu texnologiya biror jarayonning ket-ma-ketligini to‘g‘ri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh a‘zolari va boshqa guruhlarning a‘zolarini fikrlari bilan tanishishga imkon beradi.

Harakatlar ketma-ketligi aval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishiga yordam beradi.

BLITS-SO'ROV JADVALI					
Gurux bahosi	Gurux hatosi	To'g'ri javob	YAkka xato	YAkka baho	Jarayon bosqichlari

“YOZMA ISH” strategiyasi

Strategiya o'quvchi (talaba)larda mustaqil, ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi va har bir o'quvchini mustaqil ravishda faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Ta'limda strategiyani qo'llashda o'quvchi (talaba)larga quyidagi sxema asosida ish ko'rish taklif qilinadi:

Strategiya asosida ishlash uchun o'quvchi (talaba)larga 9-10 daqiqa vaqt beriladi.

Uni kichik guruhlarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchi (talaba)larni guruhlariga birlashtirish uchun raqamli kartochkalardan foydalanish qulay. Har bir kichik guruh alohida mavzular asosida hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashi mumkin. Hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashda guruh a'zolarining birgalikda, o'zaro fikr almashib faoliyat yuritishlariga erishish maqsadga muvofiqdir. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruhning ishi taqdimot asosida namoyish etiladi. O'qituvchi hikoyaning mazmuni, saviyasi va orfografik xatolariga e'tibor bergan holda guruh ishini baholaydi.

Strategiyani qo'llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLAR

1-MAVZU. Hozirgi zamon psixologiyasi predmeti, maqsadi va uning vazifasi.

Reja:

1. Psixologiya predmeti haqida tushuncha.
2. Psixik hodisalar.
3. Buyuk mutafakkirlar ruhiy hodisalar haqida.
4. Fanlar tizimida psixologiyaning o'rni.
5. Psixologiya tarmoqlari.
6. Hozirgi zamon psixologiyasining maqsadi, vazifalari va ahamiyati.

Psixologiya-lotinchacha «psyux» -ruh, jon, «logos» -fan, ta'limot degan so'zlardan olingan bo'lib, ruh, jon haqidagi fan degan ma'noni anglatadi. Psixologiya faniga beriladigan ta'riflar ham juda xilma-xil bo'lib, shulardan ayrimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak faktlar, ularning qonuniyatlari va psixika mexanizmlari haqidagi fandir.

Psixologiya-kishining ichki dunyosi, uni bilib olish va hayotda qo'llanish haqidagi fandir.

Ko'rinib turiptiki, barcha ta'riflarda ham psixika haqida so'z bormoqda. Xo'sh, psixika nima?

Psixika lotinchacha psyux so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ruh, jon degan ma'noni bildiradi. Psixika sezgi, idrok, tafakkur, hissiyot, iroda, xotira va boshqa shu kabi tushunchalar bilan guruhlariga ajratilib, hammasi birgalikda kishining psixikasi, kishining ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ham ataladigan tushunchalarni hosil qiladi. Bundan tashqari biz amaliyotda psixik hodisalar, ruhiy hodisalar degan iboralarga ham juda ko'p duch kelamiz.

Psixika- yuksak taraqqiy etgan materiyaning ya'ni miyaning mahsuli bo'lib, tirik mavjudotning tashqi olamni miyada aks ettirilishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab hodisalar xossasi majmuidir.

MS: Psixika nima? Kasb-xunar kollejida, ishlab chiqarish korxonasi va oilada qulay psixologik muhit yaratish uchun nima qilish kerak?

Psixikaning qisqa va sodda ta'rifi-ob'ektiv olamni sub'ektiv aks ettirilishidir. Psixika barcha jonzotlarga, jumladan insonga xosdir. SHuning uchun ham biz ko'pincha inson psixikasi, hayvon psixikasi degan iboralarni eshitib qolamiz. Tashqi olamni aks ettirish bilan bog'liq bo'lgan biologik, fizik hodisalarni ham uchratib qolamiz, lekin biz bularni bir-biridan nimalar bilan farq qilishini bilib olishimiz kerak. (Masalan, refleks, instinkt, tropizm va h.).

Ilmiy psixologiyaning predmeti deganda, avvalo psixik hayotning konkret faktlari nazarda tutiladi, psixik hayotga doir har bir fakt esa ham miqdor, ham sifat jihatidan xarakterli xususiyatga ega.

Psixologiyaning o'rganadigan ob'ekti psixik hodisalardir.

Psixik hodisalar o'z navbatida uch asosiy guruhga bo'linadi: psixik holatlar, psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar. Psixik holatlar psixik faoliyatning vaqtinchalik dinamikasi bilan xarakterlanadigan hodisalar bo'lib, bu kishining ichki dunyosining muhim tomonlarini hisobga olgan holda faoliyatga ta'sir etadigan omillardir. Psixik holatlarga charchash (toliqish), emotsional zo'riqish (affekt, stress), monotoniya (diqqinapaslik, zerikish), uyqu holati, uyg'oqlik holati va boshqalar.

Psixik jarayonlar-sezgi a'zolariga tashqi ta'sir shakllari, inson va tashqi muhit, ichki kechinmalari o'rtasida bog'lanishlar shakli bo'lishi mumkin. Odatda psixik jarayonlar deganda sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, hissiyot, iroda tushuniladi.

Psixik hodisalarning uchinchi guruhi-psixik xususiyatlar bo'lib, odamdagi takrorlanmas, bir-biridan farqlab olish uchun zarur bo'lgan xususiyatlardir. Bu xususiyatlar kishining o'ziga, atrofida odamlarga, narsalarga, mehnatga munosabatlarida, bir so'z bilan aytganda uning xulq-atvorida namoyon bo'ladigan xususiyatlardir.

Psixik xususiyatlar ichida shunday xillari ham borki, bular shaxsning o'ziga xos, individual xususiyatlari deb aytiladi. Bular-temperament, xarakter, qobiliyatdir.

Psixologiya tashqi olamni aks ettirish haqidagi fan bo'lganligidan kelib chiqib u jismoniy aks ettirish, fiziologik aks ettirish, psixik aks ettirish, psixika haqida ta'limot deb aytishga imkon beradi. Psixologiyani o'rganadigan ob'ektlari o'zaro ta'sirlanuvchi real olam voqeligidir. Psixologiya fanining predmeti-psixikaning namoyon bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishdir. Psixologiyaning vazifasi psixologik faktlar va qonuniyatlarni o'rganish bilan bir qatorda psixik faoliyatning mexanizmlarini aniqlashdan iboratdir.

SHunday qilib, psixologiya fan sifatida psixika faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi.

Psixologiya qadimiy fanlardan hisoblanadi. Uning paydo bo'lishi kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Ijtimoiy hayot ehti-yojlari qadim zamonlardan buyon kishini tevarak-atrofdagi odamlarning psixik jihatdan tuzilish xususiyatlarini farqlay bilishga va ularni o'z hatti-harakatlarida hisobga olishga majbur etib kelgan.

Har qanday odam o'z tajribalariga asoslanib, o'ziga atrof voqelikni u yoki bu tarzda idrok qilishiga qarab, atrof olamni idrok qilishiga, narsa va hodisalarni farqlashiga karab, anglab etishiga qarab farqlanadi, o'ziga hisob beradi. Biz qushlar ovozi va muzika kuylarini eshitamiz va farqlaymiz, turli narsalarni ko'ramiz, turli hidlarni, turli taomlar mazasini sezamiz va bu haqda tasavvurga ega bo'lamiz. Odam o'zini o'rab turgan olamni bilibgina qolmay, shu olamdagi narsa va hodisalarga o'z munosabatini ham bildiradi. Odam o'z atrofidagi olamni idrok qilibgina qolmay unga o'ziga xos munosabatda ham bo'ladi, ya'ni o'zining faolligini namoyon qiladi, tegishli xulosa chiqaradi, maqsadga intiladi, tashabbus va shijoat ko'rsatadi, qiyinchiliklarni engib o'tishga harakat qiladi, boshqacha qilib aytganda o'z iroda kuchini namoyish etadi.

Va nihoyat, har bir odam bir-biridan nimasi bilandir farq qiladi, masalan bir odam musiqa bilan qizikadi, boshqa birov sport bilan qiziqadi, bir odam matematikaga qobiliyatli bo'lsa, boshqa birov badiiy ijod bilan shug'ullanishni ma'qul ko'radi, birov qiziqqon, serjahl, o'zini tutolmaydigan bo'lsa, boshqa birovi bosiq, andishali, birov mehnatkash va kamtarin bo'lsa boshqa birovi yalqov, dimog'dor bo'lishi mumkin. Bularning barchasi inson psixikasidagi tafovutlardir.

Psixologiyaning fan sifatida shakllanishi qadimgi olim-mutafakkirlar-Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu), Geraklit, Demokrit, Gippokrat, Galen va vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy nomlari bilan, va nihoyat rus olimlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlov nomlari bilan bog'liqdir.

Hayot psixologiya zimmasiga murakkab nazariy va amaliy vazifalarni yuklaydi. Psixologiyaning asosiy nazariy vazifasi psixik faoliyatning mohiyatini, uning sodir bo'lish va rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishdan iboratdir. Insonning barcha hayoti va faoliyati jarayonida uning psixikasini o'rganish va boshqarish psixologiyaning amaliy vazifasi hisoblanadi. Bu vazifalarni hal qilish, asosiy ma'lumotlarni to'plash va umumiy nazariyani boyitish davrida psixologiyada birqancha mustaqil sohalar ajralib chiqdi. Dastlabki vaqtlardan boshlab, hatto hozir ham ayrim mamlakatlarda psixologiya falsafaning tarkibida deb hisoblab kelingan.

Psixologiya inson va uning kamoloti bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir necha fanlar bilan - fiziologiya, pedagogika, etnografiya singari fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

MS: Psixologiya faning tarmoqlarini sanang.
--

Ijtimoiy hayot ehtiyojlari qadim zamonlardan buyon kishini tevarak atrofidagi odamlarning psixik jihatdan tuzilish xususiyatlarini farqlay bilishga va ularni o'z hatti-harakatlarida hisobga olishga majbur etib kelgan. Ibtidoiy odamning tasavvurida ruh tanadan batamom ajratilmagan bo'ladi. Bunday tasavvurlar hayot hodisalari va ongni, shu jumladan, uyqu, o'lim, hushidan ketish va shu kabilarni noilmiy, primitiv tarzda talqin qilish oqibatida tarkib topgandir.

Keyinchalik jamiyat taraqqiy eta borgan sari, rejalashtirish va ijroning, jismoniy mehnat va ishlab chiqarishning, ma'naviy kuchlarning tabaqalashuvi, sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi va kishining mavhumlashtirish qobiliyati rivojlana borishi munosabati bilan jonning moddiylikdan xoli tabiati haqidagi g'oyalar paydo bo'ldi. SHu bilan birga oldingi, antimistik, afsonaviy

tasavvurlar o'rnini ruhni borliqning naturfalsafiy manzarasi nuqtai nazaridan tushuntirishga intilishlar egallay boshladi

Naturfaylasuflar - Fales (e.o. VI. asr), Anaksimenes (e.o. V.asr), Geraklit (e.o. VI-V. asr) ruhni olam ibtidosini tashkil etuvchi narsalar-suv, havo, olovning odamlar va hayvonlarga jon ato etuvchi shakli tarzida talqin qilishgan.

Platon (Aflotun) (e.o. 428-347. asr), bu faylasuflar orasida alohida ajralib turadi. U jonning qismlari to'g'risidagi tushunchani yaratdi. SHunday qismlar deb aql-idrokni, jasoratni, orzu-istakni alohida ajratib ko'rsatdi va ular tananing turli qismlari (bosh, ko'krak, qorin bo'shligi) ga joylashgan bo'ladi degan fikrni ilgari surdi. Platonning fikricha, jonning qismlari odamlarda bir xil taqsimlangan bo'lib, ulardan birining boshqalariga qaraganda ustun bo'lishi individning u yoki bu sotsial guruhga mansubligini belgilaydi.

Platonning shogirdi Aristotel (e.o. 384-322) ning ta'limoti ancha ilgari lab ketdiki, u psixologik fikrlarni tabiiy - ilmiy asosga qayta qurib, uni biologiya va tibbiyot bilan bog'ladi. Buni o'zining «Jon to'g'risida» degan asarida bayon qildi.

Aristotel ruhiy faoliyatni o'rganishning tajriba usulini, ob'ektiv metodni himoya qilib chiqqan edi. Aristotel kishilik tafakuri tarixida birinchi bo'lib ruh, jon va tananing ajralmas ekanligi g'oyasini ilgari surdi. «Ruh darg'azab bo'layotir, deb aytish biror kishining ruh mato to'qiyapti yoki uy qurayapti deyishi bilan barobardir» - deb yozgan edi Aristotel. Jon qismlarga bo'lina olmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanish, his etish, harakatga keltirish, aql-idrok kabi turlariga oid sa'i-harakatlarda namoyon bo'ladi. O'simliklar, hayvonlar ruhi va aql idrokli zot ruhi to'g'risidagi ta'limotlari bilan Aristotel oliy qobiliyatlar sodda qobiliyatlardan va ularning negizida paydo bo'lishini bildiradigan rivojlanish prinsipini joriy etdi. Odamda hayot va psixika rivojlanishining ibtido darajasi mavjuddir. Sezgi dastlabki bilish qobiliyati bosqichi hisoblanadi. Sezgi tasavvurlar shaklida iz qoldiradi. Aristotel ilgari sezgi azolariga ta'sir o'tkazgan narsalar obrazlarining tasavvur tarzida mavjudligini kashf etdi. U shuningdek bu tasvirlar o'xshashligi, turdoshligi va keskin farqlanishi kabi uchta yo'nalishda birlashuvini ham ko'rsatdi. Bu bilan psixik hodisalar assotsiatsiyasi (bog'lanishi) ning asosiy turlarini ochib berdi. Aristotel organizmning tabiatdan olgan imkoniyatlarni faqat o'zining xususiy faolligi orqaligini ro'yobga chiqarishiga asoslangan holda xarakterning real faoliyatida shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi. Kishining adolatparvar va ko'ngilchan bo'lishi uning adolatli va me'yoridaagi harakatlarni tez-tez takrorlayverishi natijasida ro'y beradi, deydi.

Geraklit, Demokrit, Aflotun, Aristotellarning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta, asos bo'ldi. Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hozir biz psixika deb atayotgan darajaga nisbatan qo'llanila boshladi. Psixika kategoriyasi zamirida ong haqidagi tushuncha maydonga keldi. Kishi faqat idrok va tafakkurga ega bo'lib qolmasdan, balki ularni unga mansubligini e'tirof etishga ixtiyoriy harakatlar qilibgina qolmasdan, balki bu harakatlarni uni o'zi qilayotganini bilishga ham qodirdir.

Eramizdan oldingi ikkinchi asrda Rimlik vrach Galen fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikani fiziologik negizi haqidagi tasavvurlarni boyitdi va ong tushunchasiga yaqinlashib keldi. U diqqat, xotira, mulohaza ishtirok etadigan harakatlarni kishi, masalan, uyqusida bajaradigan harakatlardan chegaralanishni ko'rsatib berdi. Unisi ham, bunisi ham ruh bilan idora qilinadi shu tariqa, ruh va ong haqidagi qarashlar turli davrlarda turlicha talqin qilinib, turli falsafiy-psixologik nazariyalar, oqimlar paydo bo'lishiga olib keldi.

III asrda Plotin, IV-V asrda Avgustin ong haqidagi ta'limotni yaratdilar. O'rta asrlarga kelib diniy ideologiya ta'sirida ayrim olimlar xudoning ruxsoriga etishga da'vat eta boshladilar, jumladan X asrda Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino shunday ta'limot asosida psixikani ilmiy tushuntirishga muvaffaq bo'ldilar.

XVII asr biologik va psixologik bilimlar taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Fransuz olimi Dekart (1596-1650) xulq-atvorning reflektor tabiati haqidagi ta'limotini yaratdi. Ingliz olimi Gobes (1588-1679), fransuz olimi Spinoza (1632-1677) olamning bir butunligini, tana va jon to'g'risidagi ta'limotni yaratdilar. Ingliz olimi Djon Lokk (1632-1704) empirik (tajriba) asosidagi ta'limotni empirik psixologiyani yaratdi, shundan keyin rus olimlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, I.E.Vvedenskiy, A.A.Uxtomskiy, inikos nazariyalarini yaratdilar. Tanaga nisbatan ham, ruhga nisbatan ham qarashlarda tub burilish yuz berdi. Inson tanasi mashinaga o'xshatiladi, texnika qurilmalariining tuzilishi qanday prinsiplarga asoslangan bo'lsa, tana

tuzilishi ham shunday prinsiplarga asoslangan deb tasavvur etiladi, binobarin tana ham mashina singari ruhni boshqarishiga muhtoj emas deb qaraladi.

Refleks haqidagi tushuncha organizmning tashqi ta'sirga qonuniy javob reaksiyasi sifatida paydo bo'ldi.

I. M. Sechenov (1829-1905) «Bosh miya reflekslari» (1963) asarida «ongli va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan iboratdir», degan xulosaga kelgan edi.

Ongning harakati (psixik hodisa) ruhning tanasiz mohiyat xususiyati emas, balki Sechenov tili bilan aytganda, "Ro'y berish usuliga ko'ra" (tuzilishiga, ro'y berish xiliga qarab) refleksga o'xshash jarayondir. Psikik hodisa kishiga o'z sezgilarini, g'oyalarini his-tuyg'ularini kuzatish chog'ida beriladigan narsalardangina iborat emas. U xuddi refleks kabi tashqi quzg'ovchining ta'sirini va unga javoban harakat reaksiyasini ham o'z ichiga oladi. Psikik jarayonlar ongning o'zida paydo bo'lib, ongning o'zida tugallanadi, degan fikrni Sechenov mutlaqo noto'g'ri fikr deb hisoblagan edi.

Psixologiya fanini rivojlanishi natijasida uning o'rganish ob'ektiga faqat jon emas, balki uni sodir bo'lishi "Ruhiy" yoki psikik hodisalardir. Odatda psikik hodisalarning uchta katta guruhi bor: psikik jarayonlar, shaxsni psikik xususiyatlari va psikik holat.

Psikik jarayonlar-bu ob'ektiv olamni sub'ektiv aks ettirishning turli shakllaridir. Psikik jarayonlarni psikik funksiyalar deb ham aytiladi. Psikik jarayonlarni asosiy turlari quyidagilardir: sezgi, idrok, xotira, tasavvur, xayol, tafakkur, nutq, hissiyot, iroda bo'lib, o'z navbatida uch guruhga bo'linadi: bilish jarayonlari, emotsional jarayonlar, irodaviy jarayonlar. Psikik holatlar va psikik xususiyatlarni yuqorida sanab o'tgan edik.

Psikik jarayonlarning roli nimadan iborat? Bu organizmni signal yoki boshqaruv funksiyasi bo'lib, harakatni o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashtiradi va shu bilan foydali, moslashuvchan samaraga erishilishini ta'minlaydi. Psikik jarayon, ma'lumki, o'zicha emas, balki miyaning mohiyati, uni tegishli bo'lmali funksiyasi sifatida tashqi olam haqidagi axborolarning qayoqqa ketishi, qaerda saqlanishi, va qayta ishlanishini ko'rsatuvchi javob faoliyatining boshqaruvchisidir.

I. M. Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psikik jihatdan boshqarilishi g'oyasini ilgari surdi. Bu muhim nazariy qoidalar I. P. Pavlov (1849-1939) tomonidan tajriba yo'li bilan tasdiqlandi va konkretlashtirildi. U hayvonlarni shuningdek, odamning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etdi. I. P. Pavlovning ushbu qonuniyatlarga nisbatan barcha qarashlari odatda ikki xil signal sistemasi haqidagi ta'limot deb aytiladi.

Hayvonlar o'z hatti-harakatlarida birinchi signal sistemasiga amal qiladi. Xayvonlarning butun psikik faoliyati birinchi signal sistemasi darajasida yuz beradi. Odamda ham birinchi signal sistemasining signallari (konkret timsollar, tasavurlar), uning xulq-atvorini boshqarish va yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. M: svetofor, yo'l ko'rsatkichlari, belgilar va xokazolar kishi hatti-harakatlarini qisman avtomatlashtirishiga xizmat qiladi. Hayvonlardan farqli o'larok, odamda birinchi signallar sistemasi bilan bir qatorda uning alohida boyligi va afzalligi bo'lgan ikkinchi signal sistemasi ham mavjuddir. Ikkinchi signallar sistemasining signallari talaffuz etilgan, eshitilgan, o'qilgan so'zlar-ikkinchi signallardan iboratdir.

Aytilganlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, psixikani ob'ektiv olamning sub'ektiv tarzi, voqelikning miyadagi aksi deb hisoblashga haqlimiz.

Psixologiya psixikani o'rganishning o'z konkret ilmiy vazifalariga, o'zining konkret tadqiqot mavzusiga ega. Psikologiya ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektlari bo'lgan sub'ektning ichki, psikik holatiga tashqi ta'sirotlar natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar jarayoni qanday kechishini o'rganadi.

30-yillarning o'rtalariga kelib psixologiya fanining asosiy prinsiplari: determinizm prinsipi, ong va faoliyatning birligi prinsipi, psixikaning faoliyatda rivojlanishi prinsipi aniq ifodalab berildi.

1. Determinizm prinsipi psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi o'zgarishiga qarab o'zgarishini anglatadi.

2. Ong va faoliyat birligi prinsipi psixologiyada qabul qilingan prinsipi ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, lekin ular bir-biriga aynan o'xshash ham emas, ammo birlikni tashkil

etadi. Ong va faoliyat birligi prinsipi psixologlarga xulq-atvorni, faoliyatni o'rganayotib, harakatning maqsadlariga erishishni muvaffaqiyatini ta'linlovchi ichki psixologik mexanizmlarni aniqlash, ya'ni psixikaning ob'ektiv qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

3. Psixika va onging faoliyatda rivojlanish prinsipi shuni anglatadiki, psixika agar faoliyat samarasi va rivojlanish mahsuli sifatida qaraladigan bo'lsagina u to'g'ri tushunilishi va aynan bir xil tarzda izohlab berilishi mumkin.

Hozirgi zamon psixologiyasi shakllanishining turli bosqichlarida va amaliyotning har xil sohalari bilan bog'liq ilmiy fanlarning juda ham keng tarmoqli tizimi tashkil etadi.

Psixologiya tarmoqlarini tasnif qilish uchun quyidagi psixologik jihatlar asos qilib olinadi: 1. Konkret faoliyat; 2. Rivojlanish; 3. Odamning jamiyatga, o'zi yashayotgan muhitga munosabatlari.

Hozirgi zamon psixologiyasi tarmoqlarini uch guruhga ajratish mumkin: 1. Psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari-umumiy psixologiya, zoopsixologiya. 2. Kishilarga ta'sir etish, ularga ta'lim va tarbiya berish, psixik rivojlanishni boshqarish, ya'ni psixik taraqqiyot sharoitlarini o'rganadigan soha psixologiyasi (yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya) 3. Har turli faoliyat sohalaridagi kishilar psixikasini o'rganuvchi psixologiya-mehnat psixologiyasi, muxandislik psixologiyasi, sport psixologiyasi, yuridik psixologiya, savdo psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, san'at psixologiyasi va h.

Bu tarmoqlar ichida yana bir qancha tarmoqlar ham mavjudki, bular tegishli soha odamlari uchungina zarurdir. Masalan, yosh psixologiyasi o'z navbatida maktabgacha tarbiya psixologiyasi, kichik maktab yoshi psixologiyasi, o'smirlik psixologiyasi, o'spirinlik psixologiyasi, oliy maktab psixologiyasi, qarilik davri psixologiyasi-gerontoliya singari tarmoqlarga ajralishi mumkin.

SHuningdek, psixik rivojlanishda normadan og'gan bolalar, ya'ni anomal taraqqiyot psixologiyasi yoki maxsus psixologiya ham bor. Patopsixologiya - kasallar psixologiyasi. Oligofrenopsixologiya - aqli zaiflar psixologiya si, surdopsixologiya - kar-soqovlar psixologiyasi, tiflo psixologiya - ko'zi ojizlar psixologiyasi.

Hozirgi zamon psixologiyasidagi oqimlar

Bixeviorizm-AKSHda E.Torndayk, D.Uotson kabi olimlar dastlab hayvonlarda keyinroq odamlar xulqini o'rganish asosida xulq- atvor psixologiyasini yaratdilar. Bixeviorizmning formulasi S→R (Stimul reaksiya) tasirga javob berishdan iboratdir.

Neobixeviorizm-tajriba yo'li bilan tasirni o'rganish, oraliq uzulishlar bo'lishi haqida, buning asosida geshtalt ya'ni tasvir haqidagi ta'limotdir. Uning asoschilari Tolmen hisoblanadi, xuddi shu ta'limot asosida avstriyalik vrach psixiatr Z.Freyd psixoanaliz ta'limotini yaratdi.

Tushunish psixologiyasi - bu oldindan his etish ya'ni intuitsiyaga asoslangan qarash bo'lib, uning asoschisi V.Dilten (1833-1911) hisoblanadi. U tabiiy ilmiy va diniy ilmiy degan ikki yo'nalishdagi fanlar tizimini taklif qildi.

Neofreydizm-avstriyalik A.Alfred (1870-1937) shvetsariyalik YUng Karl Gustav analitik psixologiyani, amerikalik Xorney (1885-1952) psixoanaliz ta'limoti asosida o'z nazariyalarini yaratdilar, unga muvofiq odam tashqi ta'sirga javoban o'z strategiyasini ishlab chiqadi, ya'ni odamlarga intilish yoki odamlardan qochish, unga qarshi chiqish yoki yonbosish ishtiyoqida bo'ladi. Har doim nevrotik, konflikt holatidan chiqish yo'llarini qidiradi.

Ustanovka nazariyasi-ta'sirga tayyorlik, oldindan ko'ra bilish nazariyasi. Bu nazariyani Rossiyada L.Lange (1858-1921) Germaniyada G.Myuller, T.SHumen, N.Ax (1871-16-946), Gruziyada D.N.Uznadze (1886-1950) asoslab berdilar.

Madaniy tarixiy jarayonlarning kelib chiqishi xaqida N.S.Vigotskiy (1896-1934) nazariyasini yaratdi.

Tafakkur nazariyasini S.L.Rubinshteyn (1889-1960) yaratib muammoga faoliyatli yondashuvni taklif qildi.

Hozirgi kunda psixologiyaning bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiya, kasb psixologiyasi singari tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda.

MS. Muxandis pedagog uchun psixologiya tarmoklaridan kaysi biri juda zarur va nima uchun?

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar va topshiriqlar.

1. Psixologiya nimadan bahs etadi?
2. Psixik hodisalar qaysilardan iborat?
3. Psixik hodisalar nima?
4. Psixik jarayon nima?
5. Psixik holatlar-chi?
6. Psixik xususiyatlar-chi?
7. Psixologiya prinsiplari va uning mazmuni.
8. Hozirgi zamon psixologiyasi tarmoqlarini sanab bering.

Tayanch so‘z va iboralar.

Psixika. Ruh. Jon. Psixik hodisalar. Psixik jarayonlar. Psixik holatlar. Psixik xususiyatlar. Determinizm. Ong va faoliyat birligi. Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsipi. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi - psixologiya tarmoqlari.

2- MAVZU. Psixologiyaning ilmiy - tadqiqot metodlari.

Reja:

1. Psixologiyada muammo, gipoteza, konsepsiya, nazariyalar.
2. Psixologiyada tadqiqot metodlari tizimi.
3. Tadqiqot metodlari klassifikatsiyasi:
4. Tadqiqot bosqichlari.

Psixologiya fanida tadqiqot metodlari amal qilinadigan asosiy nazariy prinsiplarga va psixologiya hal qiladigan konkret vazifalarga bog‘liqdir.

O‘rganilayotgan predmet va hodisalar o‘zaro aloqador, bir-birini taqozo etadi, doimo o‘zgarishda, rivojlanishda, qarama-qarshi ziddiyatli jarayonlar mavjud deb qarashni tushunish zarurligidan kelib chiqadi.

Hozirgi zamon psixologiyasida fanning qanchalik qadimiyligiga qaramay qator hal qilinishi zarur muammolar, turli oqimlar va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan taxmin va farazlar-gipotezalar mavjuddir. Ba‘zan bir-birini to‘ldiradigan, yoki birini ikkinchisi inkor etadigan konsepsiyalar va nazariyalar ham bor. Bu singari turli muammo va qarashlarni to‘g‘ri anglab etish hozirgi zamon psixologiyasining asosiy prinsiplarini- determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsiplariga suyangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga bog‘liq hal qilinadi.

Hozirgi vaqtda psixologiyada XIX asrda vujudga kelgan, lekin dastlabki ildizlari qadimgi yunon madaniyati tarixiga borib qadaladigan qator nazariyalar bor. Ularning eng ko‘p tarqalganlari quyidagilardir: biogenetik nazariya (V. SHtern), sotsiogenetik nazariya (K. Levin), bixevioristik nazariya (E. Torndayk), psixoanaliz nazariyasi (Z. Freyd) va boshqalardir.

Psixologiya muammolari turli sohalar bilan bog‘liq bo‘lishi bilan birga hozirgi kun uchun o‘ta dolzarb vazifalarni hal qilish bilan ham bog‘liq. Bular jumlasiga ekologiya muammolari, zoopsixologiya va odamshunoslik muammolari, demografik va millatlararo munosabatlar muammosi, insonparvarlik muammolari bilan bog‘liq psixologik muammolarni ko‘rsatish mumkin. Bular tashqari moddiy ishlab chiqarishni ko‘paytirish, mehnat samaradorligini oshirish, inson-inson, inson-texnika, er-inson, inson-iqlim munosabatlari, oila munosabatlari, o‘z joniga qasd qilish, turli jinoyatchilik singarilar ham o‘ta muhim bo‘lganligidan psixologik tadqiqotlar orqali aniqlanadi va tuzatishlar kiritiladi.

Psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Harqanday psixologik tadqiqot o‘z-o‘zini tekshirish, boshqalardagi o‘zgarish va rivojlanishni tekshirishdan iborat bo‘ladi, shuning uchun ham ularni sub‘ektiv va ob‘ektiv tadqiqot metodlari deb aytish mumkin. Ammo, aylanib kelib, hammasi ham psixik jarayon, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishini tadqiq qilishga xizmat qiladi, buni genetik metod desak bo‘ladi.

Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o'rganishning ob'ektiv metodlaridan foydalanish asosiga qurilishi kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga nisbatan muhim talabi psixik faktlarini genetik (tarixiy) jihatdan o'rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. Genetik prinsipning mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan psixik hodisaga jarayon deb qaraladi va tadqiqotchi uning dialektik rivojlanishining barcha holatlarini tiklashga, ular birbirlarini qay yo'sinda olmoshtira olishlarini ko'rish va tushunib etishga harakat qiladi, o'rganilayotgan psixik faktning uning konkret tarixi jihatidan tasavvur etishga urinadi.

Psixologiyada genetik prinsipdan foydalanish zarurligini P. P. Blonskiy (1884-1941), L. S. Vigotskiy (1896-1934), S.L.Rubinshteyn (1889-1960), A.N. Leontev (1903-1979) lar o'z asarlarida ta'kidlaganlar.

Tadqiqotlarni amalga oshirishning genetik prinsipi keyingi yillarda, ayniqsa bolalar psixologiyasida bola shaxsini bo'ylama kesimi (prodolno'y razrez) bo'yicha o'rganish metodi deb atalgan usuli keng qo'llanilmoqda. Bu longityud metodi deb ham aytiladi. Longityud (inglizcha Longitude-dolgota) bir holatni uzoq vaqt va muntazam o'rganish metodidir.

Psixologiyaning asosiy metodlari. B. G. Anan'ev psixikani o'rganish metodlarini to'rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki statistik, natijalarni sharxlash yoki interpretatsiya metodlari guruhlariga ajratadi.

Birinchi. Tashkiliy guruh o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'p qirrali) deb atalgan turlarini oladi. Qiyoslash turi umumiy psixologiyada, sotsial psixologiyada, meditsina, sport, yuridik psixologiyada keng ko'llaniladi. Longityud metodi bilan bir holatni uzoq vaqt kuzatish, birdaniga bir necha sinaluvchini tekshirish, qiyoslash maqsadida qo'llaniladi. Nemis olimi V. SHtern, fransuz olimi R. Zazzo, rus olimlari N. A. Menchinskaya, A. N. Gvozdev, N. S. Leytis, V. S. Muxina va boshqalar bu usuldan keng foydalandilar. Bu usulda kuzatish "Ona kundaligi" singari nomda ham atalishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlar ilmiyligini oshirishda bir necha fanlar hamkorligiga suyanib kompleks metod qo'llaniladi. (Psixologiya, fiziologiya, genetika, falsafa, sotsiologiya, kibernetika, logika va boshqa fanlar hamkorligi). Hozir muxandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, kosmik psixologiya, tibbiyot psixologiyasidagi ko'pgina kashfiyotlar shu usul bilan ochilmokda.

Ikkinchi guruh - empirik metodlarga kuzatish (o'z-o'zini kuzatish), eksperiment (tabiiy va laboratoriya eksperimenti), test, anketa, so'rovlar, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va uning mahsulini tadqiq qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnomalarni, qujjat, turmush faoliyati voqealarini taqlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnostika va prognozlash vazifalarini bajaradi.

Uchinchi guruq metodlar - natijalarni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ular statistik (miqdoriy) va psixologik (sifat) tahlili turlariga bo'linadi. To'plangan ma'lumotlarni qayta ishlab chiqishda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$1) M = \frac{\sum}{n}; \text{ o'rta arifmetik qiymatni topish uchun qo'llaniladi;}$$

M - yig'indi, V-variatsion miqdor, h- sinaluvchilar soni.

$$2) O^1 q \sqrt{\frac{C}{h-1}} \text{ son qatoridagi o'rta kvadrat og'ishini hisoblashda yoki standart og'ishni hisoblashda ishlatiladi. } O^1 - \text{ kvadratlik og'ish, } S - \text{ dispersiya, } h - \text{ miqdor.}$$

$$3) S q \sum (V-M)^2 \text{-sonlar qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash formulasi. } V \text{ ba'zan «S» dispersiya» deb ham ataladi.}$$

Tadqiqot metodlarining to'rtinchi guruhi - genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligining ildizini aniqlanadi. Uzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun yig'ilgan materiallar maxsus bosqichlarga ajratib sharxlanadi.

Tadqiqotning birinchi tayyorlov bosqichida kashf qilinadigan psixologik qonun to'g'risidagi taxmin va farazlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida tajriba o'tkazish prinsipi, sharoiti, ob'ektiv va sub'ektiv omillar bo'yicha mulohaza yuritiladi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida esa olingan natijalarni qayta ishlanadi va bu ham o'z navbatida to'rt bosqichga bo'linadi:

- a) materialni birlamchi tahlil qilish (sharxlash);
- b) tahlil qilingan material bilan tadqiqot gipotezasi alohida sharxlanadi;
- v) ikkilamchi tahlil (barqaror, ustuvor dalillar ajratiladi);
- g) ikkilamchi sintez - (psixik qonuniyat, topilgan dalil, omil va tadqiqot gipotezasini birlashtirib maxsus xulosalar chiqarish).

Tadqiqot natijalarini sharxlashning to'rtinchi bosqichi - sharxlashda har bir fakt, alomat, ko'rsatkich, xossa psixik jihatdan so'z-mantiq orqali tahlil qilinadi. Ana shu bosqichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi.

Psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tadqiqot metodlari empirik metodlar guruhidir. Empirik (amaliy) metodlar guruhiga kuzatish, suhbat, test, eksperiment (tajriba), biografiya, sotsiometriya usullari kiradi. Kuzatish metodi tashqi ob'ektiv va sub'ektiv (o'z-o'zini) o'rganishga imkon beradi. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak: 1) Kuzatish maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) Kuzatish ob'ekti tanlanadi; 3) Sinaluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi; 4) Tadqiqot vaqti rejalashtiriladi; 5) Kuzatish qancha davom etishi qat'iyashtiriladi; 6) Qaysi faoliyat kuzatilishi belgilab olinadi; 7) Kuzatish shakli (yakka, guruh, jamoaviy) belgilanadi; 8) Kuzatishni qayd etib borish vositalari (kundalik, kino-video, foto, magnit yozuvi va boshqalar).

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv tizimidagi tashqi ifodasi, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirlik, xulq-atvori, nutk faoliyati va boshqalar ham o'rganiladi.

Ishchining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning o'z diqqatini taqsimlashi, tashqi qo'zg'atuvchidan ta'sirlanish darajasi haqida ma'lumot yig'ish mumkin. Sport faoliyatini kuzatish orqali odam irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usini, o'zini idora qila olishini o'rganish mumkin. Muloqot jarayonini kuzatish orqali xarakter, nutq, his-tuyg'u xususiyatlarini, introvert yoki ekstravert ekanligini, qiziquvchanligini va boshqa xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatini, fikrning ob'ektga yo'naltirilganligini, ta'sirga berilishi yoki berilmasligini, chehrasidagi tashvish va iztirobni, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni o'rganish mumkin. Bundan tashqari qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi singarilar ham o'rganiladi.

Psixologiyada o'zini-o'zi kuzatish (introspeksiya) usuli ham keng qo'llaniladi.

Suxbat. Inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzusi, vaqti, joyi aniqlanadi, yakka, guruh va jamoa bilan bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir.

Test. Test-inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish demakdir. SHaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini. Irodaviy sifatleri va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala-topshiriq, misol, masala, jumboqlar, boshqotirmalar ham test deb atalishi mumkin. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallashi mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodli yoki iste'dodli emasligini - aqli zaifligini aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llaniladi. Hozirgi davrdagi mashhur psixologlardan biri E.I.Rogov o'zining «Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa» kitobida (Moskva VLADOS nashriyoti, 1999 yil. 1-tomi) «SHaxs tipologik xususiyatlarini aniqlash», «O'qituvchi - o'quvchi munosabatlari darajasini aniqlash», «Pedagogik tajovuzkorlikni (so'zini o'tkaza olishni) baholash» singari test namunalari bergan.

1905 yilda, ya'ni fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi A.Simon insonning aqliy o'sishi va iste'dodi darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini ilgari surgandan keyin psixologiyada test metodining bir necha xillari qo'llana boshlangan edi. Lekin test metodini qo'llanish bizning mamlakatimizda yaqin vaqtlargacha e'tibordan chetda qolib ketdi, hatto ta'qiqlab qo'yilgan edi.

CHet el testologlari tadqiqot ob'ektlarini o'zgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko'nikma va malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar. Sinash jarayonida

sinaluvchilarning emotsional holati va salomatligiga bog'liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar.

Psixologlar K.M.Gurevich, V.A.Krutetskiy, E.I.Rogov va boshqalar qo'llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsipda tuzilgan. Ular testlar tafakkur ko'rsatkichi (indikator) bo'lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga ham erishdilar. Hozirgi vaqtda bolalarni maktabga olishda, kasb-hunarga yaroqliligini aniqlashda, ishga qabul qilishda va boshqalarda test sinovlari keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlar Rorshax, Rozensveyg, Kettel. Vartegg, Veksler, Meyli, Ayzenk, Agastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin.

Eng ko'p tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish harakatlari, intellekt testlari, shaxs testlari (psixodiagnostika), shaxs "loyihasi" (proektiv) testlari kiradi.

Misol: «Ortiqcha so'zni chiqarib tashlang!»:

A) Enisey, Dnepr, Sirdaryo, Amur (javob - Dnepr)

B) Petrozavodsk, Ijevsk, Siktivkar, Abakan (javob - Abakan)

V) Futbol, voleybol, basketbol, xokkey, suv polosi (javob - basketbol)

Testlardan etishmagan so'z yoki raqamlarni topib, o'rniga qo'ying singari shakllardan qobiliyatni, kuzatuvchanlikni, xotirani tekshirish maqsadida ham foydalanish mumkin.

Eng asosiysi testlardan o'quvchi bilimni tekshirish va baholashda qo'llanadiganlari bo'lib, o'quv materialining asosiy qismini aniq va to'liq bilishlarini aniqlashga qaratilganligidir. Unda savol va 3-4 javob ham beriladi, shulardan javobning eng tugrisini topish talab qilinadi. Javoblarga ballar berilishi yoki berilmasligi ham mumkin.

Testlar yordamida ayrim qobiliyatlarning, ko'nikmalarning, malakalarning bor yoki yo'qligini aniqlashga yoki bu kasb sohasida ishlash uchun layoqatlilik darajasini va hokazolarni bilishga harakat qilinadi. Testning diagnostik qiymati ilmiy eksperiment darajasiga, test uchun asos qilib olingan psixologik faktning xaqiqiyiligiga, ya'ni mazkur test qay tarzda tuzilganiga-uning oldindan o'tkazilgan juda katta eksperimental ishning natijasi hisoblanadimi yoki taxminiy, tasodifiy va yuzaki kuzatuvlar natijasi ekanligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Eksperiment metodi. YAngi psixologik faktlarga ega bo'lishning ob'ektiv usullaridan biri - eksperiment metodidir. Kuzatishdan farqi, eksperiment o'tkazuvchi sinalayotgan faoiyatga faol aralashuvi, sun'iy vaziyat paydo qilinishi mumkin. Bu metod inson psixikasini chuqur, aniq tadqiq qilishda eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi.

Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti. Tabiiy eksperiment pedagogik-psixologik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. (Sinfda sun'iy, odatdagidan boshqacha vaziyat va muhit yaratib kuzatish). Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda Aleksey Fedorovich Lazurskiy (1874-1917) ishlab chiqqan. Bu metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasa xodimlarining, o'qituvchilarning, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlarini, o'zaro munosabatlar, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliliklari muammolarini hal qilishda ko'proq foydalanish mumkin. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan holatlarda qo'llanilishi mumkin.

Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (goxo guruxiy) shaklda sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asbob-uskunalar, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan detektorlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, anomaloskop, taxistaskop, audometr, esteziometr, elektrotiogramma, elektroense-falogramma kabilardan ham foydalaniladi. Laboratoriya eksperimentining xarakterli belgisi faqat uning laboratoriya sharoitida maxsus psixologik asboblardan yordamida o'tkazishlarida va sinaluvchining hatti-harakatlari yo'l-yo'riqqa binoan sodir bo'lishi bilangina emas, balki sinalayotganligini biladigan sinaluvchi (garchi odatda, sinalayotgan kishi eksperimentning mohiyati nimadan iboratligini, konkret nimani va nima maqsadda tadqiq qilishayotganligini bilmasa ham) kishining

munosabati bilan ham belgilanadi. Laboratoriya eksperimenti yordamida diqqatning xossalarini, idrok, xotira va boshqalarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin.

Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishining (uchuvchi, haydovchi, operator singarilarning) kutilmagan, tasodifiy (ekstremal) vaziyatdagi modellari yaratiladi.

Tajriba aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshirish qismlariga bo'linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat, o'yin, mehnat, o'kish kabi faoliyat turlarida tadqiq qilinadi. Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda biror fazilatni shakllantirish shuningdek ularga maqsadga muvofiq muayyan malakani yo'l-yo'riq va usulni o'rgatish rejalashtiriladi. Tekshirish qismida tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan usul, vosita, yo'l-yo'riq, malaka va shaxs fazilatlarini darajasini, barqarorligini aniqlash, ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Tekshirish tajribasi orqali tarkib toptiruvchi eksperimentning samarasi o'lchanadi.

Yig'ilgan ma'lumotlar miqdoriy-statistik usulda qayta ishlanib, turmushga tatbiq qilinadi. Inson psixikasi xususiyatlarini tadqiq qilish orqali muxandis psixologlar eng zamonaviy elektron qurilmalar, robotlar yaratish ustida ish olib bormoqdalar.

Biografiya (tarjimai hol) metodi Inson psixikasidagi ayrim o'zgarishlarni to'liqroq o'rganish maqsadida qo'llaniladi. Esdaliklar, kundaliklar, badiiy asardagi tavsiflar, baholar, magnitofon yozuvlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalash, nazorat qilish, idora etish, o'zining uslubini yaratish, kamolot cho'qqisiga erishish jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

Anketa metodi. Anketa odatda uch xil tuziladi. Birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xili anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. (Anketa namunalarini E. /ozievning Psixologiya, (Toshkent, 1994 yil) kitobining 28-29 betlarida ko'rish mumkin).

Sotsiometriya metodi. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatlarda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

Odatda sinaluvchilardan quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi: «Sen sayohatga kim bilan birga borishni xohlaysan?», «Imtihonga kim bilan birga tayyorlanishni istaysan?», «Kim bilan qo'shni bo'lib yashashni yoqtirasan?», «Partada kim bilan yonma-yon o'tirishni istar eding?» va hokazo. Har bir savol sotsiometrik mezon (o'lchov) vazifasini bajaradi va turmush voqeligidan olingan. Sinaluvchi har bir savolning uchta javobidan bittasini «eng maqbul» deb tanlashi lozim.

Guruhiy tabaqalanishni ko'rsatish uchun sotsiogramma to'rtta «Maydon» ga ajratiladi, qizlar doiracha bilan, o'g'il bolalar esa uchburchaklar bilan belgilanadi.

Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to'g'ri keladi. Guruh a'zolarining o'zaro munosabatlari doira va uchburchaklar strelkalar bilan birlashtirilganda o'z ifodasini topadi. Eng ko'p munosabatlarga ega bo'lgan sinaluvchi doiraning markazidan o'rin oladi. U guruhning eng yoqimtoyi («Yulduzi») hisoblanadi.

Sotsiometrik usul bilan shaxslararo munosabatning darajasi va ko'lami aniqlanadi ikkinchidan qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi ko'rsatkichlar, yosh ko'rsatkichlari xususiyatlari bilan taqqoslanadi. Ko'rsatkichlarga qarab guruhdagi munosabatlar ularning o'ziga xosligi psixologik mexanizmlari haqida xulosa chiqariladi. SHu bilan birga nazariy ahamiyatga molik g'oyalar olg'a suriladi, amaliy ko'rsatmalar beriladi, tavsiyalar bildiriladi.

Kasb psixologiyasida tadqiqotning sotsiometrik metodi sharoitga muvofiqlashtirilgan kichik guruhdagi shaxslararo munosabatni o'lchash usuli hisoblanadi. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali guruh a'zolarining o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Aynan shu usul bilan mehnat jamoalari, kollej va oliy maktab talabalari, turli muassasalarning xodimlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sabablari o'rganiladi.

Xozirgi fan va texnika taraqqiyoti psixologik tadqiqotlarning ilmiyligini yanada oshirish uchun (sub'ektiv omillarni ta'sirini kamaytirish maqsadida) kompleks dastur asosida boshqa fanlar tibbiyot, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, falsafa, mantiq va hokazolar) bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Amaliy yo'sindagi ilmiy tadqiqot ana shu ko'p qirrali (kompleks) yondoshishni talab qiladi. Psixologiya sohalarida (psixofiziologiya, kosmos psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, muxandislik psixologiyasi shuningdek aviatsiya psixologiyasida) tadqiqot ob'ektiga muntazam yondoshish amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida o'rganilayotgan ob'ekt turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har-xil yondoshiladi. Masalan: bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa kompleks yondoshish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xussiyatlari yoritiladi, aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.¹

Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ilmiy ahamiyatga molik bo'lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi.

Umuman aytganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadqiq etishda unumli foydalanish mumkin.

Hozir sotsiometriya usuli ijtimoiy hayotda, sodir bo'layotgan kundalik hayotdagi voqealarga odamlarning munosabatlarini, jamoatchilik fikrini o'rganishda keng qo'llanilmoqda. Odamlarning sodir bo'layotgan voqealarga munosabati, turli ehtiyojlari, motivlari, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar, muayyan tartib va qoidalarga binoan tizimlashtiriladi, ularning ijtimoiy psixologik hamda sof psixologik ildizlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi. SHu bilan birga guruhlardagi shaxslarning yaqqol, aniq nuqtai nazari, guruhbozlik, og'machilik, qarama-qarshilik, his tuyg'ularining zo'riqishi, guruhiy jipslik, moslik, munosabat motivlari, qarashlar birligi jinslar o'rtasidagi muloqotlarning zamini hamda sehri mana shu usul bilan ochilishi mumkin.

Psixologik ilmiy tadqiqot metodlari har doim turlicha nomda, turli maqsadlarda qo'llanilishi mumkin. Jumladan, konkret vaziyatni psixologik muhitni tadqiq qilish, shaxs hatti-harakati, faoliyat motivlarni, masalan, o'z hayotini xavf ostida qoldirib bo'lsa ham qahramonlik, tashabbuskorlik ko'rsatishi yoki biror jinoyat sodir etishi motivlarini tadqiq qilish singari maqsadlarda ham foydalanilishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlarda yuqorida sanab o'tgan usullarimizdan kuzatish, anketa, eksperiment, faoliyat mahsulini tahlil qilish, test, sotsiometriya eng ko'p qo'llaniladigan metodlar hisoblanadi. Bu metodlar o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qarab turlicha, turli vaziyatda, turli vositalarni qo'llab, jumladan turli savollarni o'z oldiga qo'yib o'tkazilishi mumkin.

«Psixologiya tadqiqot metodi» tushunchasi konkret ilmiy psixologik muammoni hal etishning maxsus metodikasi ma'nosida ham ishlatilishi mumkin. Ana shu konkret metodikalarda o'z-o'zidan ravshanki metodologik prinsiplar amalga oshiriladi va faqat mazkur muammo uchun emas, balki bilishning boshqa ko'plab muammolari uchun ham umumiy bo'lgan usullari yuzaga chiqadi.

Lekin konkret metodikalarning o'ziga xosligi eng avvalo ular vositasida hal etilayotgan ilmiy vazifaning qanday xarakterda bo'lishi bilan belgilanadi. Hozirgi zamon psixologiyasida qo'llanilib kelayotgan konkret psixologik metodikalar haddan tashqari ko'pdir. Ularning shakllari ham juda turli - tuman bo'lib, psixologiyaning va muammoning muayyan tadqiqot usulini, ya'ni konkret metodikasini talab qilgan sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

SHu bilan birga konkret psixologik metodikalarning ko'pchiligi uchun xos bo'lgan baa'zi umumiy belgilarni ham alohida ajratib ko'rsatish mumkin buni normal rivojlangan va aqliy jihatdan zaif bolalarda, rivojlanishdan orqada qolganlarda yoshga taalluqli tafovutlarni o'rganish vazifasi qo'yilgan vaqtlarda ko'rish mumkin.

Qaysi metod qo'llanilishidan qat'iy nazar barcha tadqiqot to'rt bosqichda olib boriladi:

Birinchi bosqich-tayyorgarlik bosqichi. Unda har xil vositalar yordamida material o'rganiladi, dastlabki ma'lumotlar to'planadi, (o'quv mashg'ulotlari va mehnat faoliyati chog'ida, turmushga, ataylab uyushtirilgan suhbatlar jarayonida kuzatish, maxsus savollar

¹ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010

yozilgan anketalarga olingan javoblar, shaxs haqidagi tavsifnomalar va guvohlarning bergan ko'rsatmalari, shaxs faoliyatining mahsulot namunalari, masalan yozma ishlari, daftarlari, tayyorlagan buyumlari-o'yinchoqlar maket yoki modellar tikkan kiyimlari) qarab chiqiladi. Biografik ma'lumotlar aniqlanadi anamnez to'planadi, ya'ni tadqiq qilinayotgan faktning sodir bo'lishiga qadar mavjud shart- sharoitlar tariflanadi va hokazo. Birinchi bosqich yakunida tadqiqotchi o'z taxminining to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida tasavvurga, nima qilish, nimadan boshlash haqidagi gipotezaga ega bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - eksperimental (tajriba) bosqichi bo'lib, bunda tadqiqotning konkret metodikasi amal qiladi va o'z navbatida bu bosqich birin-ketin qo'llaniladigan qator bo'g'inlarga - eksperiment seriyalariga bo'linadi. Masalan, diqqatni o'rganishda qo'llanadigan «Burdon jadvali» bilan qilinadigan tajribani ko'rishimiz mumkin. Xarflar qalashtirib joylashtirilgan varaqdan aytilgan harflarni har minutda nechtadan o'chirish, turli guruhdagilarni o'chirishi va hokazalarni ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi - tadqiqot ma'lumotlarini sifat jihatidan qayta ishlashdir. U psixologiyaning matematik apparini - dastlab ilgari surilgan gipotezaning tasdig'i tarzida olingan xulosalarning haqqoniyiligi xaqida hukm chiqarish imkonini beradigan turli xildagi statistik usullarni va ehtimollik nazariyasining asosiy qoidalarini qo'llashning taqozo qiladi.

Tadqiqotning to'rtinchi bosqichi - olingan ma'lumotlarni izohlab berish, ularni psixologik nazariya asosida talqin qilish, gipotezaning to'g'ri yoki noto'g'riligini uzil - kesil aniqlashdan, ularni sinab ko'rib, (interpretatsiya bosqichini, aprobatsiya singari nomlar bilan ham ataladi), aniq xulosaga kelish bosqichi.

Kuzatuv faoliyat mahsulini tahlil etish, suhbatlar o'tkazish, anamnestic ma'lumotlarni aniqlash eksperiment o'tkazish va uning natijalarini matematik yo'l bilan qayta ishlash, xulosalar chiqarish va ularni izohlab berish-bularning xammasi tadqiqot ishining tarkibiga singib ketadi va unda o'z ifodasini topadi.

Turli ehtiyoj, motiv, qiziqish, intilish, harakat va hokazolar muayyan tartib va qoidalarga binoan tizimlashtiriladi, ularning ijtimoiy, psixologik hamda sof psixologik ildizlari to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

O'z - o'zini tekshirish uchun savollar va topshiriqlar:

1. Ilmiy-tadqiqot metodlari va uning ahamiyati.
2. Tadqiqot bosqichlari nimalardan iborat?
3. O'z guruhingizda test, anketa va sotsiometrik usulda tadqiqot o'tkazib, natijasini yozib chiqing.

Tayanch so'z va iboralar:

Tadqiqot ietodi haqida tushuncha. Tashkiliy metodlar guruhi. Kuzatish. Eksperiment. Sotsiometriya. So'rovlar. Empirik metodlar. Suhbat. Anketa. Test metodi. Ma'lumotlarni qayta ishlash, izohlash

3-MAVZU. Faollik, faoliyat va uning turlari.

Reja:

1. Ehtiyojlar faollik manbai
2. Ehtiyoj turlari
3. Faoliyat va uning maqsadi
4. Faoliyat strukturasi
5. Faoliyatning o'zlashtirilishi
6. Ko'nikma, malaka, mashq.

Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar uning faolligi manbai hisoblanadi. Ehtiyoj - jonli mavjudotning hayot kechirishining konkret shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatidir. Odam va hayvon ehtiyojlari turlicha bo'lgani ham u tufayli yuzaga keladigan hatti-harakatlar ham bir-

biridan farq qiladi. Kishining faolligi ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Hayvon tabiat ne'matlaridan tayyor holidagina foydalanadi, odam esa shu ne'matlarni o'zi tayyorlaydi. SHuning uchun ham kishining o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallash, faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida ajralib turadi. Ehtiyojlar qondirilishi jarayonida rivojlanib va o'zgarib boradi. Kishining ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida, ya'ni kishilik madaniyati olami bilan yaqinlashtirish jarayonida shakllanadi.

Kishining o'z ehtiyojlarini qondirish jarayonlari ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi. Kishining ehtiyojlari ham ijtimoiy, ham shaxsiy xarakterga egadir. Bu, birinchidan, hatto shunchaki, tor ma'nodagi shaxsiy xarakterga ega bo'lib tuyulganda ham ijtimoiydir. (masalan, non - non bo'lib dasturxonga kelguncha o'nlab odamlar mehnati sarflangan, ijtimoiy mahsuldir). Ikkinchidan kishi o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mazkur ijtimoiy muhitda tarixan tarkib topgan vositalar va usullardan foydalanadi. (Go'shtni iste'mol qilish uchun qozon, pichoq, vilka va boshqalardan foydalaniladi). Uchinchidan kishining ko'pgina ehtiyojlari uning tor ma'nodagi shaxsiy talab-ehtiyojlaridan ko'ra ko'proq kishi o'zi mansub bo'lgan va birgalikda mehnat qiladigan jamiyatning, jamoaning, guruhning ehtiyojlarini ifodalaydi, jamoa ehtiyojlari kishining shaxsiy ehtiyojlari tusini oladi. (Yig'ilishda MAVZU bilan chihish uchun tayyorlanish ehtiyoji kelib chiqadi).

Ehtiyojlar kelib chiqishiga va predmetiga ko'ra farqlanadi. Kelib chiqishiga ko'ra ehtiyojlar tabiiy va madaniy bo'ladi. Tabiiy ehtiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning hayoti va uning avlodi hayotini saqlash va qo'llab quvvatlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarga bo'ysunganlik ifodalanadi. (Ovqatlanish, uxlash, qarama-qarshi jinsning mavjud bo'lishiga ehtiyoj va b.)²

Madaniy ehtiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining mahsuliga bog'liq ekanligi ifodalanadi, uning ildizlari kishilik tarixining sarhadlariga borib taqaladi, (Kitob, gazeta o'qish, muzika tinglash ehtiyoji va boshqalar). Ma'naviy jihatdan o'rinli bo'lgan ehtiyoj-odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baholar, muhimi, dunyoqarashga mos keladigan ehtiyojlardir. Madaniy ehtiyojlar o'zining darajasiga ko'ra, kishiga qo'yilayotgan talablar bilan bog'liqligiga ko'ra jiddiy farqlanadi. (kitob topish ehtiyoji va chiroyli galstuk topish ehtiyoji bir emas!)

Ehtiyojlarning o'zi ham, ular tufayli yuz beradigan faoliyat ham o'z darajasiga ko'ra turlicha baholanadi. Ma'naviy jihatdan o'rinli bo'lgan ehtiyoj-odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baholar va muhimi dunyoqarashga mos keladigan ehtiyojlardir.

Ehtiyojlar o'z predmetining xarakteriga ko'ra moddiy va ma'naviy bo'ladi. Moddiy ehtiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishga, kiyinishga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga ehtiyoj sezishi), ma'naviy ehtiyojlarda esa ijtimoiy ong mahsuliga tobeligi ifodalanadi (o'qish, muzika tinglash, kino, spektakl ko'rish va boshqa ehtiyojlar.)

Ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi va uning yo'nalishini belgilovchi sabablar motivlar deb ataladi. Motivlar yoki motivlashtirish psixologiyada sub'ektning xulq-atvori va faoliyati yo'nalishini belgilab beradigan sabablar sifatida qaraladi.

Agar hayvonlarning hatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan belgilansa odam faolligi uning ilk yoshligidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirilib boriladi. Hatti-harakatning bu turi shu qadar o'ziga xoslikka egaki, psixologiyada uni atash uchun maxsus termin - faoliyat termini qo'llaniladi. Faoliyatning mazmuni uni keltirib chiqargan ehtiyoj bilangina belgilanmaydi balki kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish usullari bilan ham belgilanadi va nihoyat faoliyat kishining xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro'yobga chiqarish, xususan yuzaga kelgan ehtiyojlarni o'zicha zudlik bilan qondira olmaydigan ya'ni bevosita madadga tayanmaydigan faollikni rag'batlantirish va qo'llab quvvatlashni imkon darajada boshqarishga qodir bo'lishi kerak. Bundan ko'rinib turiptiki,

² Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010

faoliyat bilish va iroda bilan chanbarchas bog'liq bo'ladi, ularga tayanadi, bilish irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas. Demak, faoliyat kishining anglanilgan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir.

SHunday qilib, faoliyat haqida gapirganda kishi faolligida anglanilgan maqsadning mavjudligini aniqlash lozim.

Faoliyat strukturasi. Faoliyat-voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaklidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish hosil qilinadi. Odam faoliyat orqali tabiatga, narsalarga, boshqa odamlarga ta'sir ko'rsatadi. Faoliyatda u o'z ichki imkoniyatlarini ishga solib va namoyon qilib, narsalarga nisbatan sub'ekt sifatida, odamlarga nisbatan esa shaxs sifatida gavdalanadi.

Faoliyatning yolgiz bitta oddiy joriy vazifani bajarishga yo'naltirilgan, nisbatan tugallangan har bir qismi harakat deb ataladi.

Narsalar bilan bajariladigan har qanday ish (harakat) makon va zamonda bog'langan muayyan sa'i-harakatlardan tarkib topadi.

Kishi faoliyatida narsalar bilan qilinadigan sa'i-harakatlardan tashqari tananing o'zini tutishini va qiyofaning saqlanishini (tik turish, o'tirish va hokazo), bir joydan ikkinchi joyga ko'chishini (yurish, yugurish va x.), aloqa bog'lashini ta'minlaydigan sa'i-harakatlar ham ishtirok etadi. Aloqa qilish vositalariga ifodali sa'i-harakatlar (imo-ishora va fantomimika), ma'noli ishoralar va nihoyat nutqiy sa'i-harakatlar kiradi. Sa'i-harakatlarning zikr etilgan turlarida qo'l va oyoqlardan tashqari tanadagi va yuzdagi mushaklar, xiqildoq, tovush paxchalari va boshqalar ham ishtirok etadi.

Sa'i-harakatlarni boshqarish teskari aloqa prinsipiga binoan amalga oshiriladi. Sezgi a'zolari ana shunday aloqa vositasi, narsalar va sa'i-harakatlarning muayyan idrok etiladigan va harakat mo'ljallari (orientirlari) rolini o'ynaydigan belgilari axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Teskari aloqaning bunday shaklini P. K. Anoxin teskari afferentatsiya deb atadi.

Maxsuldor harakatning bajarilishi ma'lum bir sa'yi-harakatlarni amalga oshirish bilangina cheklanmaydi. U muqarrar ravishda sa'i-harakatlarning joriy natijalari va harakatlar ob'ektining xususiyatlariga muvofiq tarzda sa'i-harakatlarni korrektirovka qilishni o'z ichiga oladi. Miyaga tashqi muhitning holati, unda sa'i-harakatlar qanday ro'y berayotgani va uning natijalari haqidagi axborotni etkazib turadigan hissiy orientirlarini o'zlashtirish ana shu jarayonning negizi hisoblanadi. (Temirchi temir qiziganligi darajasini rangiga qarab aniqlaydi va shunga muvofiq bolg'ani qanday kuch bilan urishni tanlaydi; duradgor randani qanday kuch bilan bosib surishni aniqlaydi; haydovchi tormoz pedalini bosishni, kranchi yuk og'irligini, joyni, yo'nalish traektoriyasini hisobga olib sa'i-harakatlarni bajaradi).

Harakat tarkibiga kiruvchi sa'i-harakatlar tizimi pirovard natijada ushbu harakatning maqsadi bilan boshqariladi va yo'naltiriladi. Qilinayotgan sa'i-harakatlarning natijalari aynan shu maqsad nuqtai-nazaridan baholanadi va to'g'rilab turiladi.

Ob'ektlar bilan hodisalar o'rtasidagi barqaror (invariant) munosabatlar ob'ektlarning muhim xususiyatlari va hodisalarning qonuniyatlari deb ataladi.

Tashqi, real harakatdan ichki, timsoliy harakatga o'tish jarayoni interiorizatsiya (tom ma'nosi bilan aytganda, ichki tarzga aylanish) deb aytiladi. Interiorizatsiya tufayli kishi xayolan biror muammoni hal qiladi, avtomatik bajaradi va x.). Bu sa'i-harakatning teskarisi, ya'ni biror ishni qilib ko'rib keyin fikrlash eksteriorizatsiya deyiladi.

Faoliyatning o'zlashtirilishi. Har qanday harakatning tahlil etilgan jihatlarini tegishli tarzda uning motor (harakat), sensor (hissiy) va markaziy qismlari deb atash mumkin. SHunga muvofiq ushbu qismlarning harakatni amalga oshirish jarayonida bajaradigan vazifalari ijro etish, nazorat qilish va boshqarib turishdan iborat bo'lishi mumkin. Kishi faoliyat jarayonida harakatlarni ijro etishda, nazorat qilish va boshqarib turishda foydalanadigan yo'l-yo'riqlar ushbu faoliyatning usullari deb ataladi. Kishida maqsadga muvofiq tarzda sa'i-harakatlarni ijro etish va boshqarishning aynan shu tarzda qisman avtomatlashuvi malaka deb ataladi.

Biz aynan sa'i-harakatlarning anglanilmagan holdagi boshqarilishi to'g'risida so'z yuritayotirmiz, negaki harakatlarni boshqarish bilan sa'i-harakatlarni boshqarish bir xildagi narsa emas. Sa'i-harakatlarning tobora ko'proq avtomatlashuvi ayni chog'da ushbu sa'i-harakatlarni ham o'z tarkibiga olgan harakatlarning ongli ravishda boshqarish bilan qo'shilgan holda yuz

beradi. (velosipedchi o'z muvozanatini saqlash bilan qator sa'i-harakatlarni ham bajaradi). O'rganuvchi pianinochi barmoqlarini harakatlantirish tartibini izga soladi va hokazo.

Odamda faoliyat ong bilan boshqariladi, harakatning u yoki bu qismlari avtomatlashuvi esa ongli ravishda yo'naltiriladigan ob'ektni faqat almashtiradi, harakatning umumiy maqsadlarini, uning ijro etilishi shart-sharoitlarini, uning natijalarini nazorat qilish va baholashni ong uning tasarrufi doirasiga olib kiradi.

Harakatning shu tarzda qisman avtomatlashuvi tufayli uning tuzilishida ro'y beradigan o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Sa'i-harakatlarning ijro etilishi usullari o'zgaradi. Ortiqcha va keraksiz harakatlar bartaraf qilinadi. Harakatlar mujassamlashuvi yuz beradi.
2. Harakatni sensor nazorat qilish usullari o'zgaradi. Sa'i-harakatlarning bajarilishini ko'rish orqali nazorat qilish ko'proq mushaklar yordamida (kinestetik) nazorat bilan almashadi. Masalan, mashinistkaning harflarga qaramasdan yozishi, malakali chilangarning iskana ustiga bolg'a bilan urayotganda ko'rish nazoratini ishga solmasligi, qarasa ham iskana tigiga, ya'ni qaerni qanday kesishiga e'tibor beradi xolos.
3. Harakatni markazdan turib boshqarish usullari o'zgarib boradi. Diqqat harakat usullarini idrok etishdan xoli bo'lib, u harakatning asosan vaziyati va natijasiga qaratilgan bo'ladi. (Dvigatel tovushiga qarab qaysi tezlikka almashtirish zarurligini fahmlaydi, vaziyatga qarab qanday asbob zarurligini, qaysi sa'i - harakat zarurligini fahmlay olish). Qo'llanishi lozim bo'lgan usullarning butun boshli zanjirini yoki turlarini ana shu tarzda ong yordamida oldindan ko'ra bilish antitsipatsiya deb ataladi.

Muayyan harakatlar yoki faoliyat turlarini o'zlashtirish maqsadida ularni anglagan tarzda hamda ongli ravishda nazorat qilishga va tuzatishga asoslangan holda ko'p martalab takroran bajarish faoliyati mashq deb ataladi.

Mashq qilish borgan sari kishi harakatlari xarakteri ham o'zgaradi, bu kishi psixik faoliyatiga ham ta'sir qiladi.

Ongli tarzda nazorat qilinib va tuzilib turiladigan har bir yangi urinish harakat usullari va vazifalarini faqat eslab qolishdagina aks etmaydi. Odatda u vazifani tekshirish usullarining, uni hal qilish va tuzatish yo'llarining ham o'zgarishiga olib keladi. Aynan shu yo'sinda, birinchidan, eng asosiy qiyinchilik engib o'tiladi, harakatni qay tarzda bajarish xaqidagi timsoliy-mantiqiy tasavvurlar bilan uning amaliy bajarilishi o'rtasida bog'lanish hosil bo'ladi. Ikkinchidan, so'zdan ishga, timsoldan harakatga o'tish bilan bog'liq qiyinchiliklarning ko'pchiligiga duch kelinmaydi. Uchinchidan, ortiqcha sa'i-harakatlarni istesno etish, noto'g'ri sa'i-harakatlarni to'g'rilash, bir-biriga bog'liq bo'lganlarini birga qo'shib bajarishga ko'chish, ishni bajarish yo'llarini tobora ko'proq darajada standartlashtirish bilan bog'liq xolda ro'y beradi. Va nihoyat, harakatlarning tezligini ixtiyoriy boshqarish, ularni o'zgarib turuvchi vaziyatlarga moslashtirish, yangi vaziyatlarga va detallarga (bosqichlarga) ko'chirish imkoniyati tug'iladi.

Malakalarning o'zaro ta'siri. Har qanday malaka ham kishi allaqachon egallab olgan malakalar sistemasida amal qiladi va tarkib topadi. Ularning biri yangi malakaning tarkib topishiga va amal qilishiga yordam bersa, boshqalari xalakit beradi, uchinchi bir xili esa uni o'zgartiradi va hokazo. Bunday hodisa psixologiyada malakalarning o'zaro ta'siri deb yuritiladi.

Harakat uning maqsadi, ob'ekti va shart-sharoitlari (vaziyat) bilan belgilanadi. Uning o'zi harakatlantiruvchi ijroning, sensor nazorat qilish va markaziy boshqaruvning muayyan usullari tizimi sifatida amalga oshiriladi. Harakat muvaffaqiyatliliigi, ya'ni malakaning samaradorligi ana shu usullarning harakat maqsadlariga, ob'ektiga va shart-sharoitlariga qanchali muvofiq kelishiga bog'liqdir.

Malaka hosil qilinishining umumiy qonuni shundan iboratki, kishi yangi vazifaga duch kelganda oldiniga faoliyatning o'zida shu chog'da mavjud bo'lgan usullarini foydalanishga urinadi. Bunda u, o'z-o'zidan ravshanki, shu xildagi masalalarni echishda qo'llagan usullarni yangi sharoitda ham qo'llashga harakat qiladi. Bu faoliyat usullarini ko'chirish deyiladi. Ko'chirish to'g'ri va teskari, ya'ni interferensiyali bo'lishi mumkin (rasm darsida chiziqni yuqoridan pastga, chizmachilik darsida pastdan yuqoriga chizish o'rgatilgandagi, stanok richagini chapdan o'ngga, yangi stanokda o'ngdan chapga, ko'cha harakatidagi chap va o'ng tomonidan yurish almashuvi qiyinchiliklari shunga misol bo'la oladi).

O'zlashtirilgan harakatlarning yangi vazifalarga to'g'ri va muvafaqiyatli ko'chishini amalga oshirish-bu faoliyatning yangi turlarini tez va eng kam xato qilgan holda o'zlashtirish demakdir. Kishida o'zlashtirilgan harakatlar qanchalik kengroq va aniq ko'chiriladigan bo'lsa, u shunchalik ko'p narsa o'rgangan, uning ta'limi shunchalik samarali natijaga ega bo'lgan, bular uning faoliyatida shunchalik samarali yordam bergan bo'ladi.

Ko'nikmalar. Har qanday xulq-atvor yangi sharoitlarda yoki yangi ob'ektlarga nisbatan jarayonlarning ko'chishi asosida tarkib topadi. Ko'chish esa shart-sharoitlar yoki narsalarning faoliyat maqsadlari uchun muhim bo'lgan belgilari bo'yicha o'xshashligiga tayanadi. Qo'yilgan maqsadga muvofiq tarzda harakat usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanish ko'nikma deb ataladi.

SHunday qilib, "ko'nikma" atamasi faoliyat sub'ektining o'zida mavjud bilimlar va malakalar bilan maqsadga muvofiq boshkarilishi uchun zarur psixik va amaliy harakatlarning murakkab sistemasini egallab olinishini ifodalaydi.

Ko'nikmalarning tarkib topishi bilimlarda mujassamlashgan axborotni va narsadan olinadigan axborotni qayta ishlash jarayonlarining, ana shu axborotni aniqlash, uni harakat bilan taqqoslash va o'zaro bog'lash jarayonlarining butun bir sistemasi egallanishini bildiradi.

Ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu yo'llarni bir-biridan farq qiluvchi ikkita holatga ajratish mumkin. Birinchi holatda o'rgatilayotgan kishi zarur bilimga ega bo'ladi. Uning oldiga bu bilimlardan maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi qo'yiladi va kishining o'zi sinab ko'rish va xatolarga yo'l qo'yish orqali tegishli mo'ljal olgan, axborotni qayta ishlash vositalari va faoliyat usullarini topgan holda uning echimini izlaydi. Garchi bu yo'lning samaradorligi past bo'lsa ham bugungi kunda u ta'lim jarayonida ko'p qo'llaniladi. Ikkinchi yo'li shundan iboratki, ta'lim berayotgan kishi o'quvchining bilimlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan psixik faoliyatni boshqarib boradi. Bilimni qo'llashga o'quvchining o'zi yo'l izlaydi (muammoli ta'lim).

Bu holda pedagog o'quvchini belgilar va jarayonlarni tanlash mo'ljalari bilan tanishtiradi, qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun olingan axborotlarni qayta ishlash va undan foydalanish yuzasidan o'quvchining faoliyatini uyushtiradi. Bu yo'l hozir pedagogika - psixologiyada jadal tadqiq qilinmoqda.

Faoliyatning asosiy turlari va uning rivojlantirilishi. Faoliyatning turlarini kishi hayot tarzining jabhalari bo'yicha bir necha o'nlab xilini sanash mumkin. Lekin sa'i-harakatlar maqsadi, amalga oshirish usullari va natijalariga qarab guruhlashtirsak, uch katta guruhni ko'rishimiz mumkin: uyin faoliyati, o'quv - o'rganish faoliyati, mehnat faoliyati. Faoliyatning bu turlarida umumiy bo'lgan motiv, maqsad, natija, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, bilim, malaka, ko'nikma singari jarayonlarning barchasini o'ziga xos shaklda uchratiladi.

Hayotning birinchi yillardayoq bolada faoliyatning oddiy shakllarishi o'zlashtirishi uchun dastlabki shart-sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin faoliyatning o'ziga xos tub xususiyati bo'lib, uning maqsadi o'zining yordamida muvaffiq bo'linadigan amaliy natijalarga erishishdan emas, balki amalga oshiriladigan faoliyatning o'zidan iboratdir.³

Bola o'z tajribasida qurol-buyumlar bilan bir vaqtning o'zida boshqa turdagi buyumlar-o'yinchoqlarga duch keladi. O'yinchoqlarini ishlatishning insoniy usuli - o'yin, ya'ni ular yordamida allaqanday boshqa, haqiqiy buyumlar va harakatlarni ifoda etishdir. Uchinchi yoshning o'rtalaridan boshlab buyumlarga bo'lgan munosabat odamlarning buyumlarga nisbatan funksiyalari sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Rolli o'yinlar paydo bo'ladi. Rolli o'yinlarda bola katta yoshdagi kishilarning o'zi kuzatgan ijtimoiy funksiyalarini, ularning shaxs sifatidagi xulq-atvorini aynan takrorlaydi. (qo'g'irchog'ini «ovqatlantiradi,uxlatadi»).Bolaning sotsial tajribasi ortgan sari maishiy mavzuga oid mavzular («Ona», «tarbiyachi», «kino», «bolalar bog'chasi», «magazin» va h. o'yinlarni o'ynay boshlaydi) ishlab chiqarishga oid mavzular (uchuvchi, kosmonavt, zavod) va so'ngra ijtimoiy, siyosiy («urish», «namoyish») bilan, syujetlar bilan boyita boradi.

Bola vrach bo'lib o'ynarkan, o'zini xuddi «vrach kabi» tutadi. U qalamni xuddi stendoskop singari ushlaydi, qo'g'irchoqni yotqizayotib, boshini chayqab qo'yadi va «Senga ukol qilish

³ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010

kerak ekan» deydi va h. Uning harakatlari mazkur paytda bola ishlayotgan buyumlar xossasi bilan emas, balki vrachning vazifalari to'g'risidagi tasavvurlar bilan boshqariladi.

Ta'lim. Bolaning ijtimoiy amaliy faoliyatining ko'pgina ko'rinishlari uning keyingi bosqichlarida paydo bo'ladi. bularning deyarli hammasi o'rganish, tahlil qilish, maslahat olish singarilar bilan bog'liq. Bola «odamga aylanish» jarayonida qanday tajriba orttirgan bo'lsa, o'rganish faktlari, ya'ni tajribani o'zlashtirilishi hisoblanadi.

Sub'ektning o'rganishni o'ziga maqsad qilib olgan bunday o'ziga xos faoliyati **ta'lim** deb ataladi. U quyidagilardan tarkib topadi: a) ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o'zlashtirilishi (bu jarayonning mahsuli - bilimlardir); b) faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topadigan usullar va jarayonlarning o'zlashtirilishi (bu jarayon mahsuli-malakalardir); v) qo'yilgan vazifa va ilgari surilgan maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to'g'ri tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan axborotdan foydalanish yo'llarining egallanishi (bu jarayon mahsuli - ko'nikmalar hosil qilinishidir).

Mehnat - bu ma'lum bir ijtimoiy foydali (yoki hech bo'lmaganda jamiyat tomonidan iste'mol qilinadigan) moddiy yoki ma'naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat demakdir. Mehnat faoliyati - kishining etakchi, asosiy faoliyatidir. Mehnat faoliyati kishining hayot kechirishini, boshqa turlar ustidan g'alaba qozonishini hamda tabiat kuchlari va boyliklaridan foydalanishini ta'min etadigan o'ziga xos turga oid xulq-atvori deb hisoblanishi mumkin. Mehnat faoliyati odamlar iste'mol qiladigan buyumlarni ishlab chiqarishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. SHunday qilib, kishilarning mehnat faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hisoblanadi.

Odamning faoliyati odamlar jamoasida shakllanadi. SHunday qilib, individning shaxs bo'lib kamol topishida uning faoliyat turlarini o'zlashtirishida, boshqacha qilib aytganda odam bo'lib etishuvida odamlar jamoasi, odamning odamlar ichida yashashi shart ekanligi shundan ham ko'rinib turipti.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Faollik va faoliyat tushunchalarini izohlab bering.
2. Ehtiyoj va uning turlari.
3. Faoliyat strukturasi deganda nimani tushunasiz?
4. Faoliyat turlari va ularning rivojlanish xususiyat-larini tushuntiring.

Tayanch so'z va iboralar:

Harakat, sa'i-harakat, faoliyat, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, etakchi faoliyat turi, o'yin, mehnat, ta'lim, malaka, ko'nikma.

4-MAVZU. SHaxs. Muloqot. Guruh. Jamoa.

Reja:

1. Individ va shaxs tushunchalari.
2. SHaxs faolligi va yo'naltirilganligi
3. SHaxs xususiyatlari, barkamollikka intilish darajalari.
4. SHaxsning o'z-o'zini anglashi, «Men» siy mosi.
5. Jamoa va guruhlar haqida tushuncha.

1. Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Sub'ektning odam zotiga mansubligi individ tushunchasida ifoda qilinadi. Hayvon bolasi esa dunyoga kelgan kunidanoq hayotining oxirigacha jonzot deb yuritiladi. «Individ» tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgan. YAngi tug'ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutaffakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyi odamni ham, madaniyatli mamlakat kishisini ham individ deb hisoblash mumkin.

Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo'lib etishadi. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabatlar jarayonida hosil

qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan tarzda sotsial fazilatlar majmuasi shaxs tushunchasida ifodalanadi.

SHaxsning o'zi nima? Eng avvalo, biz shaxs individning fazilati ekanligini tan oladigan bo'lsak, bu bilan biz individ va shaxsning birligini tasdiqlagan va ayni paytda bu tushunchalarning bir biriga o'xshashligini inkor etgan bo'lamiz. «SHaxs» va «Individ» tushunchalarining bir biriga o'xshashligini etakchi psixologlar - B. G. Anan'ev, A. N. Leontev va boshqalar inkor etishadi.

Sotsial munosabatlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan sub'ekt bo'lish degan ma'noni anglatadi.

«Individ» va «SHaxs» tushunchalarining o'xshashligi emas balki birligi haqidagi fikr quyidagicha o'rta qo'yilishi mumkin bo'lgan savolga javob berilishini taqozo qiladi: SHaxs deb hisoblanmaydigan individning mavjud bo'lishi yoki aksincha individning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va usiz mavjud bo'lish fakti ko'rsatilishi mumkinmi? Taxminiy tarzda fikr yuritilgan taqdirda unisi ham, bunisi ham bo'lishi mumkin.

Kishilik jamiyatidan tashkarida voyaga etgan odam birinchi bor odamlarga duch kelib, biologik xos individual xususiyatlardan bo'lak hech qanday, kelib chiqishi jihatidan hamisha ijtimoiy - tarixiy xarakter kasb etadigan shaxsiy fazilatlariga ega ekanligini namoyon qila olmaydi, balki tevarak atrofdagi odamlar mabodo uni birgalikdagi faoliyat va munosabat jarayoniga «torta olishgan» taqdirda ularni paydo bo'lishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitlargagina ega bo'ladi. Hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar tajribasini o'rganish bu vazifani amalga oshirishning g'oyat darajada murakkabligidan dalolat beradi.

«Individ» va «SHaxs» tushunchalarining bir biriga mos kelmasligi va aynan o'xshash emasligi faktidan shu narsa ayonki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisi uchun ushbu faoliyatning mazmuni, qadriyatlar va mohiyati orqali namoyon bo'ladigan shaxslararo barqaror bog'lanishlar tizimidagina anglanilishi mumkin. Tashqaridan shunchaki qaraganda bu sub'ek-sub'ekt munosabatidek ko'rinadi, chuqurroq yondoshadigan bo'lsak bevosita sub'ekt-sub'ekt aloqasi shunchaki o'zicha mavjud bo'lishidan ko'ra ko'proq allaqanday ob'ektlar (moddiy yoki xayoliy) ob'ektlar vositasida namoyon bo'lishi aniqlanadi. Bu individning boshqa individga munosabati faoliyat ob'ekti (sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt) orqali namoyon bo'ladi, demakdir.⁴

Aytganlarning hammasi shaxsni faoliyatda va munosabatda tarkib topadigan individlararo (sub'ekt-ob'ekt-sub'ektlararo va sub'ekt-sub'ekt-ob'ektlararo) munosabatlarning nisbatan barqaror tizimi sub'ekti sifatida anglab etish imkonini beradi.

Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarining faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. «Individ» va «SHaxs» tushunchalari bir biriga o'xshash bo'lmagani singari, o'z navbatida shaxs va individuallik ham birlikni tashkil qiladi, lekin ular bir-biriga o'xshash emasdir. Muayyan sotsial birlik uchun etakchi faoliyatga ko'proq darajada «jalb qilingan» individual fazilatlariga shaxsning xususan o'ziga xos fazilatlarini sifatida yuzaga chiqadi. Misol uchun epcillik va qat'iylik o'spirinning individualligi belgilari bo'lgani holda, jumladan u sportda tuman birinchiligiga davogar komandaga qo'shilmaguncha yoki uzoq joylarga turistik sayohat paytida u tezoqar va muzdek daryodan kechib o'tilishini ta'minlash vazifasini o'z zimmasiga olmagunga qadar uning shaxsini ta'riflaydigan belgi sifatida yuzaga chiqmay keldi. Aynan shu sababli ham pedagog uchun ahamiyatli bo'lgan o'quvchiga individual yondoshishni amalga oshirish vazifasini ajratib ko'rsatish kerak. Bu esa o'quvchining differensial-psixologik xususiyatlari (xotirasi, diqqati, temperamenti, u yoki bu qobiliyatlarining rivojlanganligi va hokazo) ni hisobga olishni, ya'ni o'quvchining o'z tengdoshlaridan nimasi bilan farq qilishi va shu munosabat bilan tarbiyaviy ishni qanday tashkil etish kerakligini aniqlashni taqozo qiladi.

O'quvchining tafakkuri, irodasi, xotirasi, his-tuyg'ularining individual xislatlarini hisobga olish bilangina cheklanmasdan, balki individning jamoadagi va jamoaning esa uning shaxsidagi mavqeini aniqlashga yo'naltirilgan yondoshuvigina insonning sotsial bog'lanishlar

⁴ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010

tizimining shaxsda namoyon bo'lishi sifatidagi mohiyatini ilmiy anglab olishga mos keladigan shaxsiy yondoshuv tarzida talqin qilinishi mumkin.

O'quvchining haqiqiy munosabatlar tizimiga kiradigan shaxsi hamisha pedagogning diqqat markazida turishi kerak. O'quvchining ma'naviy dunyosini boyitish esa pedagogning doimiy vazifasi bo'lib qolishi kerak.

Psixologiyada individuallikning ko'pgina xislatlari - moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, moyillik darajasi, tashvishlanish va shu kabilar aniqlangan. Bular jamlanib, individning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Bu psixologik hodisalar o'z mohiyatiga ko'ra o'zaro munosabatda bo'lib, oshkora yoki oshkora bo'lmagan holda allaqanday muhitning mavjudligini taqozo etadi. SHaxs aynan ana shunday muhitga nisbatan moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, tashvishlanish va hokazolarni namoyon qiladi.

SHunday qilib, inson shaxsining tuzilishi individuallikning tuzilishiga qaraganda keng ekanligi shubhasizdir. SHu boisdan bunga birinchi navbatda, uning individualligini ko'rsatadigan va faqat extirosda, ichki qiyofada, qobiliyatlarda va hokazolarda ancha keng ifodalanadigan fazilatlar va umumiy tuzilishigina emas, balki shaxsning rivojlanish darajasi har xil bo'lgan guruhlarda, ana shu guruh uchun etakchi hisoblangan faoliyat orqali ifodalanadigan individlararo munosabatlarda o'zini namoyon etishini ham qo'shish shart. Individual- tipik xususiyat shaxs yashayotgan va shakllanayotgan birlikning rivojlanishiga va individlararo munosabatlarning bilvosita ifodasi hisoblangan faoliyatning xarakteri, qadriyatlar va maqsadlariga bog'liq tarzda jiddiy ravishda turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Individ rivojlanishining tabiiy shart-sharoitlari, uning jismoniy tuzilishi, nerv va ichki sekretsiya bezlari tizimi, jismoniy tuzilishdagi afzalliklari va nuqsonlari uning individual psixologik fazilatlarini shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin biologik xususiyat kishi shaxsini tarkibiga singib, ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda (psixologik jihatdan) mavjud bo'ladi. Jumladan, miya patologiyasi individda, uning tuzilishida, uning biologik jihatlari bilan bog'liq, lekin shaxsiy belgilari hisoblanmish individual psixologik xislatlarni keltirib chiqaradi. Ular ijtimoiy sababiyatlarga (determinatsiyaga) ko'ra shaxsning konkret fazilatlariga aylanib qolishi ham, aylanmasligi ham mumkin.

Tabiiy, tarkibiy jihatlar va belgilar kishi shaxsining individualligi tuzilishida uning ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan qismlari sifatida mavjud bo'ladi. Tabiiy (anatomik, fiziologik va boshqalar) fazilatlar va ijtimoiy xislatlar birlikni tashkil toptiradi va shaxsning mustaqil kichik tuzilishi sifatida bir-biriga o'zidan-o'zi qarama-qarshi qo'yilishi mumkin emas. SHaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi mavjud: 1) SHaxs tuzilishiga birinchi navbatda uning individualligining tizimli tuzilishi kiradi. SHu tariqa shaxs tuzilishining birinchi tarkibiy qismi- uning individ ichkarisidagi (intraindivid) kichik tizimining alohida namoyon bo'lishidir.

2) SHaxs tuzilishining ikkinchi tarkibiy qismi-shaxsning shaxslararo bo'shlikdagi individlararo munosabatlarda, aloqalarda mavjud bo'lishidir, ya'ni individning organik tarzda gavdasidan tashqaridagi «bo'shlikda», «fazoda» namoyon bo'lishidir.

3) SHaxs tuzilishini tarkib toptiradigan uchinchi bir qismi- metaindivid (individning ustki ko'rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko'rsatish imkoniyatidir. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan «shu erda va endilikda» mavjud bo'lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi.

SHunday qilib, inson shaxsining tuzilishi uchta tarkibiy qismdan, uchta kichik tizimdan iboratdir: shaxsning individualligi, uning shaxslararo munosabatlar tizimida gavdalanishi hamda shaxsning o'zi kelib chiqishiga ko'ra individlararo, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar sube'kti sifatida mavjud bo'lishidir.

Har uchchala kichik tuzilish birligi shaxs obro'-e'tiborida namoyon bo'ladi.

Individning shaxs darajasiga ko'tarilishi ehtiyoji konkret tarixiy shaklda mavjud bo'lib, sinfiy mazmunga egadir. Jamiyatda yashayotgan kishida ta'lim-tarbiya berish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirda ijtimoiy foydali faoliyatda shaxs darajasiga ko'tarilish ehtiyojining shakllanishi va qondirilishi uchun zarur barcha shart-sharoitlar tarkib topadi.

SHaxs faolligi va yo'naltirilganligi. Kishining tevarak atrofga munosabatda, birgalikdagi va ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi deb tushuniladi. Bu uning g'oyaviy prinsipiialligida, o'z nuqtai nazarini himoya qila olishida, so'zi bilan ishi birligida ifodalanadigan hayotiy pozitsiyasida ko'rinadi.

Hozirgi paytda g'arb psixologiyasida shaxsni tadqiq qilish va tushunish borasida «Insonparvarlik psixologiyasi» deb atalmish-psixoanalitik (psixoanaliz) nazariyalari va qarashlari (shaxsning ekzistensializm nazariyasi «yashab qolish», «kun ko'rish» g'oyasi bilan bog'liq, uning tarafdorlari L. Binsvager, M. Boss, E. Minkovski, R. Mey, V. Frankl, Dj. Bugental va boshqalar) eng nufuzli yo'nalishlar bo'lib hisoblanadi.

Asrimiz boshlaridayoq venalik psixiatr va psixolog Zigmund Freyd (1856-1939) shaxs faolligi manbai va xarakterining o'zicha talqinini tavsiya qilgan edi. Z.Freyd fikricha kishining faolligi xuddi hayvonlardagi kabi instinktlarga, birinchi navbatda jinsiy, shahvoniy instinktlarga bog'liq emish.

/arb psixologiyasining, asosan amerikaparast psixologiyaning yana bir nazariy yo'nalishi «Insonparvarlik psixologiyasi» bir qarashda psixoanaliz nazariyasiga zid bo'lib ko'rinsa-da aslida bir biriga yaqin. Karl Rodjers (1902-1987), A. Maslou, Abraham Xarold (1908-1970), Olport Gordon (1897-1967) va boshqalar shaxs faolligining asosiy sababi kelajakka, o'zligini namoyon qilishga intilishdir deb hisoblaydilar.

Dunyoni odamlarning o'zlari o'zgartiradilar, lekin buni ongli ravishda amalga oshirish uchun dastavval uni o'zgartirishda, uni qurishda ishtirok etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerakki, bu ish jarayonida shaxsning o'zi ham o'zgaradi. Hozirgi zamon ilmiy psixologiyasi kishi o'z faolligini faoliyat jarayonida va eng avvalo, birgalikdagi faoliyat jarayonida namoyon qilishi to'g'risidagi qoidani qabul qiladi. SHaxs faolligini va faoliyatini yunaltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmui kishi shaxsining yo'naltirilganligi deb ataladi. Motivlar oz yoki ko'p darajada anglangan bo'lishi yoki umuman anglanilmagan bo'lishi ham mumkin. SHaxsning yo'naltirilganligida anglangan motivlar asosiy rol o'ynaydi.

Kishi faoliyat natijasini xayolan oldindan belgilab beradigan maqsadning o'zigina emas, balki ushbu maqsad ahamiyatiga molik ob'ektda ro'yobga chiqishining realligi ham anglanilgan bo'lsa, bu hol shaxsning istiqboli deb qaraladi. (Perspektiva).

Istiqbolni anglash kishiga tabii xiralik, o'z kechinmalariga qarama-qarshi ruhsizlik, tushkunlik holatini keltirib chiqarishi frustratsiya deb ataladi. Bu kishining maqsadiga erishishi yo'lida real tarzda bartaraf etib bo'lmaydigan deb hisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan to'sqinlikka, g'ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi. Frustratsiya shaxsning xulq atvorida va uning o'zini anglashida turli xil o'zgarishlarga olib keladi.

SHaxs yo'naltirilganligi uning qiziqishlarida, e'tiqodi va dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Qiziqish - biron sohada to'g'ri mo'ljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqelikni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir.

Qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqishlar mazmuniga, maqsadlariga, miqyosi va barqarorligiga qarab belgilanadi (ijobiy yoki salbiy). Qiziqishlar-shaxs faoliyatini asoslashning birdan bir emas, lekin muhim shartidir. Xulq atvorning muhim motivlaridan biri e'tiqoddur. E'tiqod-shaxsni o'z qarashlariga, prinsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da'vat etadigan motivlar tizimidir. Bu bilimlar nuqtai nazarlarning tartibga solingan va ichki uyushgan tizimini (falsafiy, estetik, axloqiy, tabiiy-ilmiy) tashkil etgan taqdirda kishining dunyoqarashi sifatida talqin qilinishi mumkin. Dunyoqarash sinfiy xarakterga ega.

Psixologiyada shaxsning yo'l-yo'riklari uning u yoki bu ehtiyoji qondirilishiga yordam berishi mumkin bo'lgan faolitga tayyorligining, moyilligining o'zi tomonidan anglanilmaydigan holatini belgilaydi. Buni N. D. Uznadze ustanovka deb atagan.

Psixologik tadqiqotlar yo'l-yo'riqning tuzilishi uchta tarkibiy qismdan iboratligini ko'rsatdi. Bular kishining bilib olishga va idrok etishga tayyorligidan iborat bo'lgan kognitiv (lotincha bilish) kichik tuzilish, yo'l-yo'riq ob'ektiga nisbatan xayrixohlik va xush ko'rmaslik xislatlari kompleksidan iborat bo'lgan - hissiy baholash kichik tuzilishi, yo'l-yo'riq ob'ektiga nisbatan irodaviy kuch- g'ayratni safarbar etishga shaylikdan iborat bo'lgan xulq atvor kichik tuzilishdir.

SHaxsning o'zini anglashi, «MEN» siymosi. Kishi o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlar tizimiga kirgan, odamlar bilan o'zaro birgalikda harakat qilgan va munosabatda bo'lgan holda o'zini atrof muhitdan alohida ajratib ko'rsatadi, o'zining jismoniy va psixologik holati, harakatlari va jarayonlarining sub'ekti sifatida aks etadi. O'zi uchun

«boshqalarga» qarshi turgan va ayni chogʻda ular bilan bogʻliq boʻlgan «MEN» sifatida namoyon boʻladi. 2-3 yoshli bolalardayoq «MEN» siymosi shakllana boshlaydi. («Seniki emas - meniki», «menga besh» va hokazo (I. S.Kon).⁵

Katta yoshdagilarda oʻz xususiy «MEN»siymosi qatʻiy shakllanadi. («MEN-siymo», «MEN-konsepsiya»). «MEN» siymosi - individning oʻzi xaqidagi nisbatan barqaror, koʻproq yoki ozroq darajada anglanilmagan, betakror deb his qilinadigan tasavvurlar tizimidirki, individ boshqalar bilan oʻzaro birgalikda harakat qilishda ana shunga asoslanadi.

Har qanday yoʻl-yoʻriq kabi «MEN» siymosi uchta komponentni oʻz ichiga oladi: birinchisi - kognitiv tarkibiy qism; ikkinchisi - hissiy-baholash tarkibiy qism; uchinchisi - xulq-atvor-irodaviy tarkibiy qism.

«MEN» siymosi - ijtimoiy munosabatlarning ham shart-sharoiti va ham oqibatidir. «MEN» siymosi hosil boʻlishining yana bir koʻrinishi-xayoliy «MEN» dan iboratdir. Agar iloji boʻlsa, orzu qilingan darajaga etish, umuman oʻzining tasavvur qilganidek boʻlib qolish istagida ekanligini aytib qoʻyish kerak. «MEN»ning bu xildagi siymosi ayniqsa oʻspirinlik davrida juda katta ahamiyatga ega.

Oʻziga oʻzi baho berish - shaxsning oʻzi tomonidan oʻziga, oʻz imkoniyatlariga, boshqalar orasidagi fazilatlariga va oʻz oʻrniga baho berilishidir. Bu shaxsning oʻzini anglab etishini psixologiyada ancha muhim va eng koʻp oʻrganilgan jihati hisoblanadi. Oʻziga oʻzi baho berish orqali shaxsning xulq - atvori toʻgʻrilanib, tartibga solib turiladi.

Psixologiyada kishining oʻziga oʻzi beradigan bahoni, uning miqdoriy va sifat tarifi aniqlashning bir qator eksperimental metodlari mavjud. (Oʻz-oʻzini tekshirish testlari, oʻz-oʻzini kuzatish, kundalik yuritish).

Uchta koʻrsatgich - oʻziga oʻzi baho berish, kutilgan baho, guruhning shaxsiga bergan bahosi - shaxsning tuzilishiga kiradi va kishi buni xohlaydimi - yoʻqmi, u oʻzining guruhdagi kayfiyatini, oʻzi erishgan natijalarini muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ekanligini oʻziga va tevarak atrofdagilarning unga nisbatan nuqtai nazarlarini belgilaydigan subektiv vositalarni hisobga olishga majburdir.

Anglashilmaganlik - bu nazorat qilinmaslik degani emas. Ahamiyatga molik baho shaxs kamolotiga taʼsir koʻrsatadi. Oʻziga oʻzi baho berish shaxs intilishlari darajasi bilan chambarchas bogʻliqdir.

SHaxs kishining konkret-tarixiy hayot kechirishi sharoitlarida, faoliyat jarayonida shakllanadi. SHaxs shakllanishi jarayoni guruhlarda va jamoada amalga oshiriladigan taʼlim va tarbiyaga ham bogʻliqdir.

SHaxs shakllanishi ikki maʼnoda qoʻllaniladi-rivojlanishi va rivojlanish natijasi sifatida qoʻllaniladi. Lekin, buning har ikkovi (biogenetik va sotsiogenetik) maʼlum taʼsir koʻrsatsa ham, oʻz-oʻzini anglash va oʻz-oʻzini tarbiyalash hal qiluvchi boʻlib qoladi. (Oʻz-oʻzini tarbiyalash xaqida L. I. Ruvinskiy nazariyasi).

SHaxs shakllanishi oʻzi yashaydigan odamlar guruhida va jamoasida, turli odamlar bilan boʻladigan muloqotda, fikr almashuvda, birgalikdagi faoliyatda yo tezlashadi yoki susayadi.

Muomala. Insonning uzini urab turgan olam bilan uzaro birgalikdagi xarakati odamlar urtasida ularning ijtimoiy xayoti va eng avvalo, ishlab chikarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan obʼektiv munosabatlar tizimida yuz beradi.

Muloqot-odamlar oʻrtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bogʻlanishlar rivojlanishining koʻp qirrali jarayonidir.

Munosabat va muloqot birgalikdagi faoliyat koʻrsatuvchilar oʻrtasida axborot ayirboshlanishini oʻz ichiga oladi. Odamlar muloqotga kirisharkan, muloqotning eng muhim vositalaridan biri sifatidagi tilga murojaat qiladilar. Munosabatning ikkinchi jihati munosabatga kirishuvchilarning oʻzaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat soʻzlar bilan emas, balki harakatlar, hatti-harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iboratdir. (Masalan, roʻparadan kelayotgan mashina haydovchisiga bormoqchi boʻlgan yoʻnalishni ishora qilish har ikkala tomon uchun ham qulay va tejimli ekanligi tushunarli boʻlsa kerak).

Nihoyat, muloqotning uchinchi jihati munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilishidir. Suhbatdoshining holatiga, rangi-roʻyiga, ovozigga qarab muomala

⁵ Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. - Blackwell Publishing Ltd, 2003

qilish. SHunday qilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda uchta jihatni kommunikativ (axborot uzatish, interaktiv, o'zaro birgalikdagi harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish, har ikkovlonning bir xil ko'rishi, etishishi jihatlarini alohida ko'rsatish mumkin).

Axborot uzatish, ayirboshlash tarzidagi munosabat.

Odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi, ana shu umumiy narsa avvalo munosabat vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til-munosabatga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi.

Axborot uzatuvchi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retsipient) «bitta tilda» so'zlashganlarida maqsadga erishadilar. (SHartli ishora, kod, belgi va b.).

Og'zaki kommunikatsiya. Nutq. Nutq-bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida muomala qilish jarayoni demakdir. So'zlar ovoz chiqarmasdan yoki eshittirib aytilishi, yozib qo'yilishi, yoki imo-ishora bilan olmoshtirilishi mumkin. (Masalan, daktilologiya-barmoq yordamida ishora-ma'no anglatish).

Quyidagi nutq turlari farq qilinadi: yozma va og'zaki nutq. O'z navbatida og'zaki nutq-dialogik va monologik nutqlarga ajratiladi.

Nutq mexanizmi. Nutq ikkinchi signallar tizimi negizida amal qiladi. Nutq- I.P. Pavlov aytganiday, «signallar signali»dir.

Nutqsiz kommunikatsiya. Turli soha mutaxassislari uchun ayniqsa nutqsiz kommunikatsiya xossalarini yaxshi bilish juda muhimdir. Odamlar o'rtasidagi muomalani telegraf orqali axborot berishga o'xshatish mumkin emas. Nutqsiz kommunikatsiya vositalariga qo'l, barmoq, va yuz harakatlari, imo-ishora, ohang, pauza, turq-tarovat, kulgi, ko'z yoshi qilish va shu kabilar kiradiki, bular og'zaki kommunikatsiya vositalari-so'zlarni to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba'zan esa o'rnini bosuvchi belgilar tizimini hosil qiladi.

Muomala shaxslararo birgalikdagi harakat ekanligi.

Munosabat shaxslararo birgalikdagi harakat, ya'ni odamlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida tarkib topadigan aloqalari va o'zaro bir-birlariga ta'sirining yig'indisi sifatida yuzaga chiqadi.

Ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qoidalar.

Birgalikdagi faoliyat va munosabat ijtimoiy qoidalar-odamlarning birgalikdagi harakati va o'zaro munosabatlarining qat'iyon belgilab qo'yadigan hamda jamiyatda udum bo'lgan xulq-atvor namunalari asosida amalga oshiriladigan sotsial sharoitda yuz beradi.

Ijtimoiy qoidalar doirasi behad darajada kengdirki,ular mehnat intizomi, harbiy burch va vatanparvarlik talablariga javob beradigan xulq-atvor namunalaridan tortib to odoblilik qoidalariga qadar hammasini o'z ichiga oladi. (Odamlar bajaradigan rollar va ularni ijtimoiy jihatdan baholanishi haqida).

O'zaro birgalikda harakat qilayotgan odamlar xulq-atvorining bir-birlaridan kutgan taxminlariga mosligini munosabat jarayonida muvaffaqiyatga erishishning zarur sharti hisoblanadi. Kishining boshqalardan eshitishga yoki ularda ko'rishga tayyor bo'lgan narsani ulardan kutish mumkinligini bexato va aniq taxmin qilish qobiliyati va malakasi odob deyiladi. Noto'g'ri taxmin qilish odobsizlik bo'lib, ko'p hollarda muloqot uzilishiga, ba'zan mojaro -ixtiloflarga olib kelishi mumkin.

SHaxslararo ixtilof-konflikt. Munosabat jarayonini har doim va barcha vaziyatlarda ham silliqqina va ichki qarama-qarshiliklarsiz yuz beradi deb tasavvur qilish yaramaydi. Ayrim vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi qadriyatlar, vazifalar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar antogonizmi yuzaga chiqadiki, bazan bu o'zaro adovatni, keltirib chiqaradi - shaxslararo ixtilof sodir bo'ladi⁶.

Ixtilofning ijtimoiy mohiyati turlicha va shaxslararo munosabatlar negizini tashkil etadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi.

Birgalikdagi faoliyat jarayonida mojarolarning sabablari o'rnida ikki xil toifadagi determinant, ya'ni ash'yoviy - amaliy kelishmovchiliklar va shaxsiy pragmatik (amaliy) manfaatlar o'rtasidagi tafovut maydonga chiqadi. Mojarolarning kelib chiqishiga, birgalikda harakat qilishga

⁶ Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. - Blackwell Publishing Ltd, 2003

g'ov bo'lgan va bartaraf qilinmagan ma'naviy anglashilmovchiliklar ham sabab bo'ladi. Munosabatdagi ma'naviy anglashilmovchilik - bu aytilgan talabning, iltimosning, buyruqning ma'nosi munosabat bog'lashgan sheriklar uchun muvofiq emasligidir.

Do'stona munosabat. Munosabatga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan munosabatdagi qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzal ko'rishning taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual tanlash tizimi sifatidagi do'stlik odamlar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi.

O'zaro birgalikda harakat qila boshlaydigan odamlar o'zaro hamjihatlik darajasini baholab oladigan va muomalaga kirishgan sherigining kimligi haqida o'ziga hisob bera oladigan bo'lsagina muomala yuz berishi mumkin.

Muomalining perseptiv jihati - bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholashi demakdir.

O'zaro bir-birini bilish borasida shaxslararo idrok etishning uchta muhim mexanizmining ta'siri -identifikatsiyalash (aynan o'xshatish), refleksiya (fikrni tahlil etishga, o'z-o'zini anglashga moyillik) va stereotiplashtirish (bir xil qolipga solish)ni alohida ko'rsatish mumkin.

Identifikatsiyalash- bir kishining ikkinchi kishini, uning ta'rifini sub'ektning uz tarificha anglab yoki anglamay o'xshatishi orqali tushunish usulidir. (O'zini «uning» o'rniga qo'yib ko'rish etishmaydi).

O'zini qay tarzda idrok etishi va tushunishi ham muhim ahamiyatga egadir. Sub'ektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab etishi refleksiya deb ataladi. Refleksiya boshqa kishini idrok etish tarkibiga kiradi.

Agar har bir kishi o'zi munosabatga kirishgan odamlar to'g'risida doimo to'liq, ilmiy asoslangan axborotga ega bo'lganida ular bilan bo'ladigan o'zaro harakat taktikasini bexato va aniq ishlab chiqishi mumkin bo'lardi. Lekin sub'ekt kundalik hayotda bunaqa aniq axborotga ega bo'lavermaydi, bu esa uni ularning qilgan ishlari va hatti-harakatlarining sabablarini boshqalarga to'nkashga majbur qiladi.

Boshqa kishining hatti-harakatlari sababini, his-tuyg'ularini, niyatlarini, o'y-fikrlarini va xulq-atvor motivlarini unga to'nkash yo'li bilan tushuntirish kauzal atributsiya (lotincha *causa* sabab, va atributo-qo'shib qo'yaman) ya'ni sababiy izohlash deb aytiladi.

Stereotiplashtirish - xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan, ya'ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo'li bilan ularning sabablarini (ba'zan hech qanaqa asosiz) izohlashdan iboratdir.

Muomala teskari aloqa. Muomala muvaffaqiyatli yuz berishi uchun muqarrar ravishda teskari aloqaning mavjud bulishini -sub'ekt tomonidan o'zaro birgalikdagi harakat natijalarini haqida axborot olib turilishini taqozo qiladi. SHaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa xabar beruvchi funksiyani va o'zini o'zi boshqarish funksiyasini bajaradi.

Muomalani mashq qilish. Odamlarda samarali muomala o'rnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi.

Ijtimoiy psixologik trening yoki muomala treningi, ya'ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifani hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Sotsial psixologik trening mazmunan ikki xil vazifani: birinchidan muomalaning va shu jumlaadan, pedagogik muomalaning umumiy qonuniyatlarini o'rganishni, ikkinchidan, pedagogik komunikatsiyaning «texnologiyasi» ni egallash, ya'ni professional pedagogik muomala ko'nikma va malakalari shakllantirilishini o'z ichiga oladi. Psixologik trening mashq qildirish orqali amalga oshiriladi.

Psixologik-pedagogik trening shakllaridan yana biri tipik pedagogik vaziyatlarni, misol uchun imtihonlarni modellashtiruvchi amaliy o'yinlardir.

Guruh, jamoa va uning turlari.

Guruh - bu muayyan belgiga, masalan, sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko'rsatishning mumkinligiga va uning xarakteriga, tashkil topish xususitlari va shu kabilar asosida ajralib turadigan insoniy umumiylikdir. Guruhlar o'z belgilariga qarab katta va kichik guruhlar deb farqlanadi. Guruhlar real (bog'langan), shartli formal (rasmiy) va neformal (norasmiy) guruhlariga bo'linadi. Rivojlanish darajasiga ko'ra rivojlangan (buni jamoa deb ataladi), etarli

rivojlanmagan yoki kam rivojlangan guruhlarga (uyushmalarga, birlashmalarga, aralash guruhlarga) bo'linadi.

Katta guruh umumiy makon va zamonda hayot kechirayotgan anchagina odamlarni o'z tarkibiga olgan sotsial umumiylikni tashkil qiladigan real guruhlar shaklida bo'ladi. Bu asosan jamoa deb yuritiladi..

Katta shartli guruhlar ba'zi belgilariga ko'ra(masalan, sinfiy, jinsiy, milliy, yoki boshqa belgilariga ko'ra, masalan,namoyishga chiqqan odamlar guruhi) shartli guruhlar shaklida ham bo'lishi mumkin.

Katta shartli guruhga kirgan kishilar hech qachon bir-birlari bilan uchrashmagan, tanimagan bo'lishlariga qaramay bu xildagi guruhga mansub odamlar umumiy sotsial va psixologik sifatlarga ega bo'lishlari mumkin.

Katta shartli guruhlarini ularning umumiy xususiyatlari farqlanishi natijasida guruhlarda ish olib borishning ilmiy asoslangan strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Kichik guruhlar - hamisha bog'langan umumiylik bo'lib, unga kiruvchi shaxslarning o'zaro munosabatlar bilan bog'langanligidir. Bu guruhlar rasmiy va norasmiy bo'lishi mumkin. SHuningdek, yuridik jihatidan qayd etilgan statusga ega bo'lmagan, ammo tarkib topgan shaxslararo munosabatlar (do'stlik, xayrixohlik, hamjihatlik ishonch va shu kabilar) tizimiga binoan ifodalanadigan norasmiy guruhlar bo'lishi ham mumkin.

Rasmiy va norasmiy guruhlarining ayrim belgilari bir-biriga o'xshab, hatto kirishib ketishi ham mumkin,ya'ni rasmiy va norasmiy guruhlar o'rtasidagi chegaralar shartli va nisbiydir.

Har qanday guruhlardagi muomala va faoliyat shu guruhlarga kiradigan odamlarning hayot tarzini belgilab beradigan hamda ularning qadriyatlarini, ideallarini, e'tiqodlarini, dunyoqarashini shakllantiradigan ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Guruhiy rivojlanish darajasi shaxslararo munosabatlar shakllanganligining belgisi, guruhlar shakllanishi natijasidir.

Rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlar, ijtimoiy yo'nalishdagi uyushmalar, aralash guruhlar, ijtimoiy yo'nalishga zid uyushmalar va birlashmalar deb farqlanadi. Jamoa guruhiy rivojlanishning eng yuksak shakli bo'lib, kishi shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Jamoa-shaxslararo munosabatning, birgalikdagi faoliyatning ijtimoiy qiymati va shaxsiy jihatdan ahamiyatli bo'lishi bilan o'z ifodasini topadigan guruhdir. Jamoaning qanchalik jipsligi, mustahkamligi, kuchliligi uning o'z-o'zini belgilashi a'zolariga qanday ta'sir qila olishi, e'tiqodi va tamoyillari, an'analari, birgalikda faoliyati mazmuni va shakli bilan belgilanadi.

Guruhning har bir a'zosi o'zining ishchanlik va shaxsiy fazilatlariga, o'z statusiga, ya'ni uning guruhda tutgan mavqei haqida dalolat beradigan, mustahkamlanib qo'yilgan huquqlari va burchlariga, uning xizmatlari va fazilatlarini guruh tomonidan tan olinishi yoki tan olinmasligini aks ettiradigan o'z nufuziga binoan guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida muayyan mavqeiga ega bo'ladi.

Jamoa a'zolari har doim kimnidir afzal ko'rib, kimgadir ergashib tabaqalanib turadi. Buni sotsiometriya usuli bilan xush ko'rishni aniqlash xaqida gapirgan edik. Jamoa a'zolari har doim o'zlariga alohida shaxsni yoki kichik guruhni tadqiq qilish uchun mezon-etalon qilib oladi, shunday mezon-etalon referent yoki referent guruh deb ataladi.

Har qanday guruh tuzilishiga ko'ra o'zining nufuzi va statusining o'ziga xos darajasini aks ettiradi. Uning yuqori qismidan afzal ko'rilgan shaxslar qat'iy ierarxiya zinapoyasi tarzida tartibi bilan o'rin oladi. Pog'onaning eng yuqori bosqichida guruhning peshqadami (lideri) joy oladi.

Peshqadam-bu shunday shaxski, guruhning qolgan barcha a'zolari o'zlarining manfaatlariga daxldor bo'lgan hamda butun guruh faoliyatining yo'nalishini va harakterini belgilab beradigan eng mas'uliyatli echimlarni qabul qilishga xaqli deb hisoblanadilar. Peshqadam guruhning eng muhim muammolariga eng ko'proq darajadagi referentlik statusiga ega bo'lgan shaxsdir. Peshqadam sotsiometrik «YUlduz» bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Peshqadam rasman guruhning rahbari bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Jamoa mustahkamligi uning integratsiyalashuvi jarayoniga bog'liq. Jamoaning integratsiyalashuvi jarayoniga bog'liq. Jamoaning integratsiyalashuvi (alohida guruhlarining birga qo'shilishi), ya'ni unda yuz beradigan ichki birlik jamoadagi munosabatlar uchun xos bo'lgan jamoani identifikatsiyalash (bir xillikka keltirish), chamalangan qadriyatli birlik sifatida jipslashtirish,birgalikdagi faoliyat jarayonida muvaffaqiyat qozonish va muvafaqiyatsizlik uchun

javobgarlikning yuklanishi va qabul qilinishi hodisalarida yuz beradi. Xuddi shu jarayonda shaxsning jamoadagi sig'ishuvchanligi namoyon bo'ladi. Guruhdagi sig'ishuvchanlik, jipslik koefitsienti, uning shakllanishini tadqiq qilish ijtimoiy psixologiyaning muhim muammolaridan hisoblanadi.⁷

SHaxsning jamoada va guruhda tutgan o'rni, ta'sirlanish va uning darajalari singarilarni sotsial psixologiya o'rganadi. Sotsial psixologiya u yoki bu sotsial aloqada namoyon bo'ladigan shaxs ongi va faoliyatini, shuningdek, mazkur aloqalarning o'zini: ya'ni ularning paydo bo'lish sabablarini, tuzilishi va rivojlanishi (mustahkamlanishi) bosqichlari va darajalari, inqirozi sabablarini o'rganadi. Odamlar uyushmasidagi asosiy birlik bu odamlar bevosita boshqa kishilar bilan aloqaga kirishadigan va o'zining sotsial mohiyatini ifoda etadigan guruhdir. Buni kichik guruh deb ataladi. Ularni real (aloqaga kirishadigan) va shartli kichik guruhlariga ajratish rasm bo'lgan. Real odamlardan tashkil topgan birinchi guruh (maktabdagi sinf o'quvchilari, talabalar guruhi, ishlab chiqarish brigadasi va hokazolar) xuddi tirik organizm singari harakatda bo'ladi. SHartli guruh faqat nominal tarzda, ro'yxatlardagina mavjud bo'ladi. Ularning a'zolari vaqt va fazo orqali bir birlari bilan birlashmagan va bir birlari bilan aloqaga kirishmagan bo'ladi. (Masalan, bir xil nomdagi oliy o'quv yurtining qaysidir fakulteti talabalari, masalan matematika fakultetining, texnologiya fakultetining talabalari va hokazo.)

Real guruhlar rasmiy (formal) va norasmiy guruhlariga bo'linadi.

Odamlarni uyushtirishning yuksak shakli - jamoadir. Jamoa - bu umumiy maqsadlar hamda birgalikda amalga oshirilayotgan faoliyatning bir-biriga yaqin bo'lgan motivlari orqali birlashtirilgan, jamiyatning bir qismini tashkil etgan, mazkur jamiyat maqsadlariga bo'ysundirilgan odamlar uyushmasidir.

Guruh va jamoalarda odamlarning bir biriga ta'siri turli vositalarda amalga oshadi. Eng muhimi - muloqotdir. Nutq va imo-ishora orqali bir birini ma'qullash yoki qarshilik ko'rsatish, kuchlarni birlashtirish yoki e'tiroz bildirish singarilar bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.

1. Individ, shaxs nima?
2. SHaxs individualligi qaysi fazilatlarda ko'rinadi?
3. SHaxs yo'naltirilganligi qaysi xususiyatlarida namoyon bo'ladi?
4. SHaxsning o'z-o'zini anglashi va «Men» siymosi aloqadorligi.
5. Jamoa, guruh va shaxs tushunchalarini izohlang.

Tayanch so'z va iboralar

Individ. SHaxs. Qiziqish. SHaxs yo'naltirilganligi. «Men» siymosi. Ustanovka. Guruh. Rasmiy va norasmiy guruh. Jamoa. Muomala. Refleksiya. Peshqadam. Referentlik.

5-6-MAVZU. Psixik jaryonlar. Diqqat. Sezgi. Idrok, xotira, tafakkur, xayol.

Reja:

1. Psixik hodisalar, holatlar, jarayonlar haqida tushuncha.
2. Bilish jarayonlari haqida tushuncha.
3. Diqqat va uning turlari
4. Sezgi, idrok, tafakkur, xayol jarayonlari, ularning o'xshashligi va farqlari.
5. Xotira va uning funksiyasi, turlari.

Psixik hodisalar psixik holatlarni, psixik jarayonlarni va psixik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi tirik organizmning tashqi olamni u yoki bu darajada aks ettirishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bir so'z bilan ruhiy, psixik hodisalar deb ataladi. Psixik

⁷ Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. - Blackwell Publishing Ltd, 2003

hodisalarning birinchisi hisoblangan psixik holatlar deganda tashqi olamni aks ettirish va javob qaytarish xususiyati, mexanizmlari tushuniladi. Masalan, bolalar va kattalarning dunyoni aks ettirishlari, sog'lom yoki betob odamning aks ettirishi, bardam, tetik yoki horg'in, charchagan odamning aks ettirishi sifat xususiyatlari va holatlari bir-biridan farq qiladi. Psixik xususiyatlar deganda odam - sub'ektning betakror, bir-biridan farq qiladigan xususiyatlaritushuniladi. Bunda asosan odamning temperamenti, qobiliyati va xarakteri nazarda tutiladi. Psixik hodisalar ichida psixik jarayonlar etakchi va asosiy mazmuni kasb etadi.

Psixik jarayonlar tashqi olamni ongda aks ettirish, unga javob reaksiyalarini berish bilan bog'liq jarayonlarning barchasini o'z ichiga oladi. Psixik jarayonlar ongning o'zida paydo bo'lib, ongning o'zida tugallanadi degan fikrni Sechenov mutlaqo noto'g'ri fikr deb hisoblagan edi. Psixik hodisa hali yuzaga kelmagan natijadan ham darak beradi.

Psixik jarayonlar signal yoki boshqaruv funksiyasini bajarib, sharoitga moslashtirishga yoki javob reaksiyasini berishga xizmat qiladi.

Psixik jarayon, ma'lumki o'zicha sodir bo'lmaydi, balki, miyaning mohiyati, uning tegishli bo'lmalari funksiyasi sifatida olam haqidagi axborotlarning qayoqqa ketishi, qaerda saqlanishi va qayta ishlanishini ko'rsatuvchi javob reaksiyasining boshqaruvchisidir.

Psixik jarayonlar o'z navbatida bilish jarayonlari, emotsional jarayonlar, shaxsning irodaviy holatlari va shaxsning individual xususiyatlari deb nomlangan qismlarga bo'lib o'rganiladi.

Psixik hodisalar - bu faoliyatning hozir ta'sir etayotgan (sezgi, idrok) yoki qachonlardir, ya'ni turmush tajribasida (xotira) yuz bergan qo'zg'oluvchiga javob tarzida ro'y beradigan, ana shu ta'sirni umumlashtiradigan, ular pirovard natijada olib keladigan natijalarni (tafakkur, xayol) oldindan ko'ra olishga yordam beradigan, bir xil ta'sirlar natijasida faoliyatni (his-tuyg'u, iroda) kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman faollashtirib yuboradigan va boshqa xildagi ta'sirlar oqibatida uni tormozlaydigan, odamlar xulq-atvoridagi (temperament, xarakter va b.) tafovutlarni aniqlaydigan doimiy boshqaruvchilaridir.

Tashqi olamni aks ettirishda rol o'ynaydigan jarayonlar deganda sezgi, idrok, tafakkur, xayolni tushunamiz. Biroq boshqa psixik jarayonlar ham ta'sir ko'rsatadi.

Psixik jarayonlarda birinchi signallar tizimi bilan bir qatorda odam uchun xos bo'lgan ikkinchi signallar tizimi ham ahamiyatlidir.

Xohlagan psixik jarayonning sodir bo'lishi va davom etishi shunday bir ruhiy hodisaga bog'liqki u barcha jarayonlarda ishtirok etadi, uning samaradorligiga ta'sir o'tkazadi. Bu diqqatdir. Diqqat ongning bir nuqtaga qaratilishi bo'lib, shaxsning faolligini hamda uning ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalarga tanlovchi munosabatini ifodalaydi. Diqqat bo'lmasa, aniq maqsadga qaratilgan faoliyat ham bo'lmaydi. Diqqatning uch turi bor: ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyoriydan so'nggi diqqat turi. Diqqatning quyidagi xususiyatlari bor: diqqat ko'lami, davomiyligi, taqsimlanishi, chalg'ishi, ko'chishi, mazmuni va b. Diqqat barcha kasb egalari uchun ham birday zarurdir. Ilm olish, kasb egallash, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lish uchun ongni bir nuqtaga to'plab faoliyat ko'rsatish zarur.

Sezgilar. Tevarak atrofdagi olamning boyligi haqida, tovushlar va ranglar, hidlar va harorat, miqdor va boshqa ko'plab narsalar to'g'risida biz sezgi a'zolari vositachiligida axborotlarga ega bo'lamiz. Sezgi deb sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalarning ongimizda aks ettirilishiga aytamiz. Biz turli ranglarni, ta'mlarni, og'ir-engilni, issiq-sovuqni, tovushlarni sezamiz. Sezgi a'zolari axborotni qabul qilib oladi, saralaydi, jamlaydi va miyaga etkazib beradi.

Sezgi a'zolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yo'lidir. Sezgi a'zolari kishiga tevarak atrofdagi olamda mo'ljal olish imkonini beradi.

Sezgilar hosil bo'lishi uchun quyidagi shartlar bo'lishi kerak:

Birinchidan, sezgi a'zolarimizdan birontasiga ta'sir etadigan narsa yoki hodisa bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, sezuvchi apparat soz bo'lishi kerak. Bu apparat quyidagi qismlardan iborat: 1. Sezuvchi organ (retseptor). 2. O'tkazuvchi yo'l (afferent nerv). 3. Bosh miya po'stlog'idagi markaz 4. Miyadan javob impulslarini uzatuvchi yo'l (efferent nerv).

Bitta sezgi apparatini tashkil qiladigan qismlarni I. P. Pavlov umumlashtirgan nomda analizator deb atagan.

Sezgi mohiyatiga ko'ra ob'ektiv olamning sub'ektiv siyomosidir. Lekin sezgilarning hosil bo'lishi uchun organizm moddiy qo'zg'atuvchining tegishli ta'sirga berilishi kifoya qilmaydi, balki organizmning o'zi ham qandaydir ish bajarishi darkor. Sezgilarning muayyan davr mobaynida retseptorga ta'sir o'tkazayotgan qo'zg'atuvchining o'ziga xos quvvatini nerv jarayonlari quvvatiga aylinishi natijasida hosil bo'ladi. Sezgilarning hosil bo'lishiga kuchli ta'sir qiladigan jarayonlarning ishtirokini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab va ko'pqirrali tadqiqotlar olib borilgan.

Sezgi a'zolari faqat moslashuvchanlik, ijro qilish funksiyalarini bajaribgina qolmasdan, balki axborot olish jarayonlarini bevosita ishtirok etadigan harakat organlari bilan mustahkam bog'langandir.

Analizator. Sezgi nerv sistemasining u yoki bu qo'zg'atuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo'ladi va har qanday psixik hodisalar kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. qo'zg'atuvchining aynan o'ziga o'xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan nerv jarayoni sezgining fiziologik negizi hisoblanadi.

Analizator uch qismdan tarkib topadi: 1) tashqi quvvatni nerv jarayoniga aylantiradigan maxsus transformator hisoblangan periferik bo'lim (retseptor). 2) analizatorning periferik bo'limini markaziy analizator bilan boglaydigan yullarini ochadigan afferent nerv (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar. 3) Analizatorning periferik bo'limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan qobiq osti va qobiq (miyaning o'zi bilan tugaydigan) bo'limlar.

Analizator periferik bo'limlarining muayyan hujayralari miya qobig'idagi hujayralarning ayrim qismlariga mos bo'ladi. Jumladan, ko'z to'rdasining turli nuqtalarida hosil bo'ladigan tasvir miya qobig'ida ham har xil nuqtalarda shuni aks ettiradi; eshitishda ham xuddi shu jarayonni kuzatishimiz mumkin: nog'ora parda va miyadagi aks sado.⁸

Sezgining hosil bo'lishi uchun hamma analizatorlar yaxlit bir narsa sifatida ishlashi darkor. qo'zg'atuvchining retseptorga ta'siri qo'zg'alishning yuz berishiga olib keladi.

Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo'li manbai va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi retseptordan, ta'sirni miyaga olib boruvchi afferent nerv yo'llari va efferent nervlardan tarkib topgandir. Reflektor yoyi elementlarining o'zaro munosabati murakkab organizmning tevarak atrofdagi olamda to'g'ri mo'ljal olishining, organizmning yashash sharoitlariga muvofiq tarzdagi faoliyatning negizini ta'minlaydi.

Sezgilarning tasniflanishi. Aks etish xususiyatiga va retseptorlarning joylashgan o'rniga qarab sezgilarning odatda uch guruhga ajratiladi: 1. Tashqi muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda retseptorlari tananing yuzasida joylashgan ekstrotseptiv sezgilarning; 2. Retseptorlari tananing ichki a'zolarida va to'qimalarida joylashgan hamda ichki a'zolarining holatini aks ettiradigan interotseptiv sezgilarning; 3. Retseptorlari mushaklarda va paylarda o'rinlashgan propriotseptiv sezgilarning; ular gavdamizning harakati va holati haqida axborot berib turadi. Harakatni sezadigan propriotseptiv sezgi turi, shuningdek, kinesteziya deb ham atalib, uning retseptorlari kinestetik yoki kinestetik retseptorlar deb ham ataladi.

Ekstrotseptorlarni ikki guruhga: kontakt va distant retseptorlarga ajratish mumkin. Teri orqali paypaslab ko'rishga asoslangan sezgilarni taktil sezgilarning deyiladi, bular ham o'z funksiyasiga ko'ra bir necha xil bo'lishi mumkin, masalan, haroratni sezish, silliq yoki g'adirbudirni, qattiq yoki yumshoqni, issiq-sovuqni sezish va hokazo.

Sezgilarning umumiy qonuniyatlari. Sezgilarning aynan bir xil qo'zg'atuvchilarni aks ettirish shakllaridan iboratdir. Jumladan, elektro magnit nurlanishi ko'rish sezgisining qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. Bu nurlanish to'lqini uzunligi 380 dan 770 millimikron doirasida bo'ladi va ko'rish analizatorida nerv jarayoniga aylanadi. Eshitish sezgilari-retseptorlarga tebranish tezligi (chastotasi) 16 dan 20 ming gersgacha bo'lgan tovush to'lqinlari ta'sirini aks etish natijasidir. Ta'sir kuchi shundan past bo'lsa ham, baland bo'lsa ham sezgi paydo bo'lmaydi. Taktil sezgilarning mexanik qo'zg'atuvchining teri yuzasiga ta'siri natijasida hosil bo'ladi.

Sezgilarning sifat, jadalligi, davomiyligi, joylarda yuz berishi kabi xususiyatlari bor.

⁸ Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. - Blackwell Publishing Ltd, 2003

Sifat-mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi doirasida o'zgartirib turadi. Jumladan eshitish sezgisi past-balandligi, mayinligi, zo'rliigi bilan, ko'rish sezgisi boyligi, ranglarning tusi bilan farq qiladi va hokazo.

Sezgining jadalligi - uning miqdorini ifoda etadigan xususiyati bo'lib, ta'sir qilayotgan qo'zg'otuvchining kuchi retseptorning funksional holati bilan belgilanadi.

Sezgining davomiyligi uning vaqtinchalik xususiyati hisoblanadi. qo'zg'otuvchi sezgi a'zosiga ta'sir qilishi bilanoq hosil bo'lmaydi, balki, bir oz vaqt o'tgach hosil bo'ladi. Bu sezgining latent (yashirin) davri deb ataladi. Latent davri har xil sezgi turi uchun har xil: masalan, taktil sezgilar uchun 130 millisekund bo'lsa, og'riq sezgisi uchun 370 millisekunddir. Ta'm bilish sezgisi esa tilning ustiga kimyoviy qo'zg'otuvchi surtilgandan keyin 50 millisekund o'tgach hosil bo'ladi.

Sezgi qo'zg'otuvchi ta'sir qila boshlashi bilan bir paytda hosil bo'lmaganidek, ta'sir to'xtashi bilan birdan yo'qolmaydi. Sezgining bu xildagi sustligi oqibat deb atalgan hodisada namoyon bo'ladi.

Ko'rish sezgisi bir muncha sust bo'lib, uni qo'zg'agan qo'zg'otuvchi ta'sir qilishni to'xtatishi bilanoq darhol yo'qolib ketmaydi. (Kinematograf shunga asoslangan).

Nihoyat, sezgilar qo'zg'otuvchining muayyan joylarda yuz berishi xususiyatiga egadir. Distant retseptorlar tomonidan amalga oshiriladigan fazoviy tahlil qo'zg'otuvchining muayyan joyda yuz berishi haqida axborot beradi. Taktil sezgilar tananing qo'zg'otuvchi ta'sir qiladigan qismi bilan munosabatga kirishadi.

Sezuvchanlik va uning o'lchovi. Sezgi a'zolarining sezuvchanligi muayyan sharoitlarda sezgini hosil qilishga layoqatli bo'lgan eng kuchsiz qo'zg'otuvchi yordamida aniqlanadi. Bilinar bilinmas sezgi hosil qiladigan qo'zg'otuvchining eng kam kuchi sezuvchanlikning quyi absolyut chegarasi deb ataladi.

Eng kam kuchga ega bo'lgan va quyi chegaradagi qo'zg'otuvchilar sezgi hosil qilmaydi va ular haqidagi signallarni bosh miya qobig'iga o'tkazmaydi.

Sezgilarning quyi chegarasi mutlaq sezuvchanligi darajasini belgilaydi. Mutlaq (absolyut) sezuvchanlik bilan quyi chegara o'lchami o'rtasida teskari bog'lanish mavjud: quyi chegara o'lchami qanchalik kichik bo'lsa, muayyan analizatorning sezuvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi. EQ1/P, E - sezuvchanlik, R - qo'zg'otuvchining ta'sir chegarasi me'yori. Bizning analizatorlarimiz har xil sezuvchanlikka egadir. Kishining birgina hid bilish hujayrasining chegarasi tegishli hid tarqatuvchi moddalar uchun 8 molekuladan oshmaydi. Ta'm sezgisini hosil qilish uchun hid bilish sezgisini hosil qilishga sarflanadiganiga qaraganda kamida 25 ming marta ko'p molekula talab qilinadi.

Ko'rish va eshitish analizatorlarining sezuvchanligi juda yuksakdir. S. I. Vavilov (1891-1951) ning tajribalari ko'rsatganidek, kishining ko'zlari to'rpardaga bor-yo'g'i 2-8 kvant atrofida nur tushgan taqdirda ham yorug'likni seza oladi. Buning ma'nosi shuki, biz tim qorong'uda 27 km masofada yonib turgan shamni ko'rish qobiliyatiga egamiz. Ayni paytda biz badanimizga biror narsa tekkanini sezishimiz uchun ko'rish va eshitish sezgilari hosil bo'lishiga sarflanadiganiga nisbatan 100-hatto 10 mln baravar ziyod quvvat talab qiladi.

Sezgining mutlaq yuqori sezuvchanligi deb, qo'zg'otuvchining eng ko'p kuch bilan ta'sir qilishiga aytiladi. Bunda ta'sir ko'rsatayotgan qo'zg'otuvchiga aynan o'xshaydigan sezgi hosil bo'ladi. (Masalan, qattiq tovush, kuchli yorug'lik og'riq paydo qiladi).

Sezgilar o'rtasida bilinar bilinmas farqni hosil qiluvchi 2 ta qo'zg'otuvchi o'rtasida mavjud bo'lgan minimal farq - farq ajratish chegarasi deb ataladi. Ajratish chegara sezuvchanligi yoxud farq ajratish sezuvchanligi ham farqlanish chegarasining o'lchamiga nisbatan teskari bog'lanishda bo'ladi: farqlanish chegarasi qanchalik katta bo'lsa, ayirma sezuvchanlik shunchalik kam bo'ladi. (YUK 100 gr bo'lganda farq 3,4 gr, 1000 gr bo'lganda 33,3 gr bo'ladi).

Adaptatsiya. Sezgi chegarasining absolyut me'yori bilan belgilanadigan analizatorlarning sezgirligi barqaror bo'lmasdan qator fiziologik va psixologik shart-sharoitlar ta'siri ostida o'zgarib turadi. Ushbu shart-sharoitlar orasida adaptatsiya (moslashish) hodisasi alohida rol o'ynaydi.

Adaptatsiya yoxud moslashuv-sezgi organlari sezgirligining qo'zg'otuvchi ta'siri ostida o'zgarishi demakdir. Adaptatsiya hodisasining 3 turini alohida ko'rsatish mumkin:

1. Qo'zg'otuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo'qolib qolishiga o'xshaydigan turi. Masalan, terining ustiga qo'yilgan engilgina yuk tezda sezilmay qoladi. Hid bilish sezgilari atrof muhitga yoqimsiz hid yoyilganidan ko'p o'tmay batamom yo'qolib qolishi ham oddiy bir hodisadir. (Qorong'udan yorug'likka va aksincha).

2. Adaptatsiya deb shuningdek, yuqorida bayon etilgan hodisalarga yaqinroq bo'lgan kuchli qo'zg'otuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishida ifodalanadigan yana bitta hodisaga ham aytiladi. Masalan, sovuq qo'zg'otuvchi hosil qiladigan sezgining jadalligi qo'lni sovuq suvga solganda susayadi. Biz yarim qorongu xonadan yorqin yoritilgan joyga chiqqanimizda oldiniga ko'zlarimiz qamashadi va tevarak atrofdagi biror narsaning farqiga eta olmaydigan bo'lib qolamiz. Adaptatsiya-bu analizatorning sezuvchanligi susayib ketishi hamdir.

3. Nihoyat, kuchsiz qo'zg'otuvchining ta'siri ostida sezgirlikning ortishi ham adaptatsiya deb aytiladi. Ayrim sezgi turlariga xos bo'lgan adaptatsiyaning bu turini pozitiv adaptatsiya deb ta'riflash mumkin. Masalan, qorong'ulikda uzoq vaqt bo'lganlik ta'siri ostida ko'zning sezuvchanlik ta'siri ortadi. Eshitish ko'nikmasining shunga o'xshaydigan shakli sokinlik adaptatsiyasi hisoblanadi. Masalan, shovqin sexda ishlaydiganlar bir birlari bilan bemalol gaplashaveradilar.

Turli analizatorlarda adaptatsiya turlicha sodir bo'ladi.

Sezgilarning o'zaro munosabati. Sezgilarning jadalligi faqat qo'zg'otuvchining kuchi va retseptorning adaptatsiyalanish darajasiga emas, balki muayyan paytda boshqa sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatadigan qo'zg'alishlarga ham bog'liq bo'ladi. Analizator sezuvchanligining boshqa sezgi a'zolarining qo'zgalishi ta'siri ostida o'zgarishi sezgilarning o'zaro munosabati deb ataladi. Buning ta'sirida uning sezuvchanligi o'zgaradi. Jumladan ko'rish analizatorining sezuvchanligi eshitish qo'zg'otuvchisining ta'sirida o'zgaradi. S. V. Kravkov (1893-1951) bu o'zgarishni eshitish qo'zg'otuvchilarining balandligiga bog'liq ekanligini ko'rsatib bergan edi. YOki ko'rish sezuvchanligi hid qo'zg'otuvchilari ta'sirida ham oshadi.

Sensibilizatsiya. Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezuvchanlikning ortishi sensibilizatsiya deb ataladi. Qo'zg'alish jarayonining tarqalishi (irradiatsiyalashuvi) natijasida boshqa analizatorning sezuvchanligi oshadi. Kuchli qo'zg'otuvchi ta'sir qilganda ko'zg'alishning aksincha to'planish xususiyatiga ega bo'lgan jarayoni yuzaga keladi. O'zaro induksiya qonuniga binoan bu markaziy bo'lmalarda boshqa analizatorning tormozlanishiga va ular sezuvchanligining susayib qolishiga olib keladi.

Analizatorlarning sezuvchanligi boshqa sezgilarga mansub qo'zg'otuvchilar ta'siri ostida ham o'zgarishi mumkin. Jumladan sinaluvchilarga eshittirib «limon kabi nordon» degan so'zlarga javoban ko'zlarning elektr sezuvchanligini o'zgartirib yuborgani kuzatiladi.

Sezgi a'zolari sezuvchanligining o'zgarishi qonuniyatlarini bilgan holda maxsus tanlangan qo'shimcha qo'zg'otuvchilarni qo'llanish yo'li bilan u yoki bu retseptorni sensibillashtirish, ya'ni uning sezuvchanligini oshirish mumkin.

Sensibillashtirishga mashq qilish natijasida ham erishish mumkin. Masalan, musiqa bilan shug'ullanadigan bolalarga past-baland ohanglarni eshitish qobiliyati qanday rivojlana borishini bilamiz.

Sinesteziya. Sezgilarning o'zaro munosabati sinesteziya deb ataladigan yana bir hodisada namoyon bo'ladi. Sinesteziya - bir analizatorning qo'zgalishi ta'siri ostida boshqa analizatorga xos sezgini hosil bo'lishidir. Sinesteziya sezgilarning har xil turlarida kuzatiladi. Tovush qo'zg'otuvchilari ta'sir qilganda sub'ektda ko'rish obrazlari paydo bo'lganida ko'pincha ko'rish-eshitish sinesteziyasi uchraydi. N. A. Rimskiy-Korsakov, A.N. Skryabin va boshqalar. «Rangni eshitish qobiliyatiga ega edilar».

Keyingi paytlarda tovush obrazini rang obraziga aylantiradigan rang-musiqaviy (svetomuzika) sozlarining yaratilayotganligi va rang-musiqaning jadal tadqiq qilinayotganligi sinesteziya hodisasiga asoslangandir. Sinesteziya hodisalari kishi organizmidagi analizator sistemalari o'zaro doimiy bog'langanligidan, ob'ektiv olamni hissiy aks ettirishning yaxlitligidan yana bir dalolatdir.⁹

Sezuvchanlik va mashqlar. Sezgi a'zolari birgina qo'shimcha qo'zg'otuvchilarni qo'llanish yo'li bilangina emas, balki mashqlar qilish yo'li bilan ham sensibillashtirish mumkin.

⁹ Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. - Blackwell Publishing Ltd, 2003

Sezgi a'zolari sezuvchanligining oshishiga olib boradigan 2 sohani ajratib ko'rsatish mumkin: 1) sensor nuqsonlar (ko'rlik, karlik)ning o'rmini to'ldirish zaruratidan stixiyali tarzda kelib chiqadigan sensibilizatsiya; 2) sub'ekt faoliyati tufayli kasbiga xos talablardan kelib chiqadigan sensibilizatsiya. (Tokar sezgirligi, sinovchi-degustator sezgirligi va hokazo).

Ko'rish va eshitish sezgisining yo'qotilishi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish hisobiga to'ldiriladi. (Ko'rlarda tuyish sezgisi rivojlanishi, barmoqlari bilan o'qishi, pulni ajrata olishi, haykaltaroshlikka moyilligi; karlar havo tebranishidan ma'no anglay olishlari; Olga Skoroxodova (ko'r va kar olim ayol) qo'lini hamsuhbati tomog'iga yaqin keltirib, gapni eshitishi va hokazo).

Idrok. Idrokning ta'rifi va uning xususiyatlari. Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha aks ettirilishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir. Idrokning muhim xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyliigi (konstantligi) va anglashilganligidir.

Idrokning predmetliligi ob'ektivlashtirish hodisasi deb atalgan hodisada, ya'ni tashqi olamdan olinadigan axborotlarning o'sha narsaga mansubligida ifoda qilinadi.

Predmetlilik idrokning belgisi sifatida hatti-harakatni boshqarishda alohida rol uynaydi. Biz narsalarga ularning ko'rinishiga qarab emas balki ularni amaliyotda qay tarzda ishlatishimizga muvofiq holda, yoki ularning asosiy xususiyatlariga qarab ham baholaymiz. Predmetlilik persektiv jarayonlarning o'zini, ya'ni idrok jarayonlarning bundan keyingi shakllanishida ham rol o'ynaydi.

Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitligidir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. Yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning yaxlitligi uning strukturaliligi bilan bog'langandir. Idrok ma'lum darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga javob bermaydi va ularning shunchaki oddiy yig'indisi ham emas. Biz ana shu sezgilardan amalda mavhumlashgan va bir muncha vaqt davomida shakllanadigan umumlashgan strukturani idrok etamiz. Agar kishi biror kuyni tinglayotgan bo'lsa, oldinroq eshitgan ohangi yangisi eshittirila boshlagandan keyin ham uning qulogiga chalinayotganday tuyulaveradi.

Idrokning yaxlitligi va strukturaliligi manbalari, bir tomondan, aks ettiriladigan ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlaridir, va ikkinchi tomondan insonning konkret faoliyatida gavdalanadi, ya'ni analizatorlarning reflektor faoliyati natijasidir.

Idroknig doimiyliigi, konstantligi narsani idrok qilish sharoitlari o'zgarishiga qaramay, narsaga xos bo'lgan kattalik, shakl, rang va boshqa xususiyatlarning idrokimizga nisbatan bir xilda aks etishidir. Masalan, yoritish darajasi o'zgarishiga qaramay, biz qorni oq, ko'mirni qora narsa sifatida idrok qilaveramiz. Qizil chiroq ostida kitob sahifasi qizil bo'lib ko'rinsa ham uni oq deb, samolyotdan qaraganda erdagi odamlar va narsalar kichkina bo'lib ko'rinsa ham ularni odatdagiday kattalikda deb idrok qilaveramiz. Kitob qanday ko'rinsa ham uni to'rtburchak deb, stakandagi qoshiq siniq ko'rinsa ham uni butun deb idrok qilamiz.

Narsalarning shakli, katta kichikligi, rangini doimo bir xilda idrok qilish amaliy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Idrokning konstantligi tevarak atrofdagi narsalarni aslida qanday bo'lsa shundayligicha ob'ektiv ravishda bilishga imkon beradi.

Perseptiv sistemaning faol ta'sir ko'rsatishi idrok konstantligining haqiqiy manbaidir. Bir narsaning bir necha ko'rinishda bo'lishi uning invariantligi deb, ya'ni obraz invariantligi, xilma xilligi deb aytiladi.

Idrok yaxlitligi va konstantligi kishining o'tmish tajribasiga bog'liq bo'lib, bu xususiyat apperepsiya deyiladi.

Demak, idrok faqat narsaga emas, idrok etayotgan sub'ektning o'ziga ham bog'liqdir. Idrokda hamisha idrok etuvchi kishi shaxsining xislatlari, uning idrok etilayotgan narsalarga munosabati, kishining ehtiyojlari, qizikishlari, intilishlari, istaklari va his-tuyg'ulari u yoki bu tarzda aks etadi. (Qandaydir shakllarni «uchburchak», «aylana», «krujka» deb idrok qilish).

SHunday qilib, idrokning yaxlitligi va konstantligi uning teskari aloqa mexanizmi mavjud bo'lgan va idrok etilayotgan ob'ektning xususiyatlariga hamda uning hayot sharoitlariga moslashadigan, o'zini-o'zi tartibga soluvchi o'ziga xos hodisa ekanligi bilan ham izohlanadi.

Idrokning anglangan bo'lishi. Garchand idrok qo'zg'atuvchisining retseptorlarga bevosita ta'siri natijasida hosil bo'lsa ham, perseptiv obrazlar hamisha muayyan ma'noli ahamiyatga ega bo'ladi. Kishining idroki uning tafakkuri bilan, narsaning mohiyatini tushunib etishi bilan, uning ko'plab xossalarini bilishi bilan ham bog'liqdir. Narsani anglab idrok etish - unga fikran nom berish, ya'ni idrok etilgan narsani narsalarning muayyan guruhiga, sinfiga kiritish, uni so'z vositasida umumlashtirish demakdir. SHu nuqtai nazaridan olganda goh shakl, goh fon navbatma navbat idrok etish, «Ikki mazmunli» deb ataladigan rasmlar bilan tajribalar o'tkazish diqqatga sazovordir. (Kubiklar nechta?, vaza yoki bir biriga qarab turgan odamlarmi? va hokazo rasmlar.)

SHunday qilib, idrok sub'ektning bundan oldingi tajribasiga bog'liq bo'ladi. Kishining tajribasi qanchalik boy bo'lsa, uning bilimlari qanchalik boy bo'lsa, uning idroki shunchalik to'liq bo'ladi, buyumda u shunchalik ko'p narsalarni ko'ra oladi.

Idrokning mazmuni kishi oldiga qo'yilgan vazifa bilan ham uning faoliyati sabablari bilan ham belgilanadi.

Sub'ektning ustanovkasi (yo'l-yo'rig'i) ham, his-hayajonlari ham idrok mazmuniga ta'sir etadi.

Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayondir. SHartli reflekslar, miya pustlog'idagi muvaqqat bog'lanishlar idrokning fiziologik asosini tashkil etadi. Bosh miya po'stida eng kuchli, dominant ko'zg'alish uchastkalarining yuzaga kelishi shaxsning xususiyatlari yoki holati bilan bog'liq bo'lgan idrok yo'nalishining fiziologik asosini tashkil etadi.

Idrokning fiziologik asosi nerv boglanishlarining ikkita turidan - bitta analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlardan va analizatorlar aro bog'lanishlardan tarkib topadi. (Bitta retseptor va bir necha retseptor bilan idrok qilish).

Idrokni klassifikatsiya qilinishida ham sezgilardagi kabi idrok etishda ishtirok etuvchi analizatorlardagi mavjud farqlarga asoslanadi. Idrok etishda qaysi analizator ustunroq kelganiga muvofiq ko'rish-eshitish, paypaslab ko'rish, kinestezik, hidlash va ta'm bilish yo'li bilan idrok qilinishi farqlanadi.

Idrok qilish jarayoni odatda o'zaro birgalikda bir qancha analizatorlar vositasida sodir bo'ladi. Harakat sezgilari u yoki bu darajada idrokning barcha turlarida ishtirok etadi.

Materiyaning mavjud bo'lish shakllari - fazo, vaqt va harakat idrokni tasniflashga (klassifikatsiyalashga) binoan fazoni idrok etish, vaqtni idrok qilish va harakatni idrok etish kabi alohida turlari ajratib ko'rsatiladi.

Idrok - preseptiv harakatlar sistemasi bo'lib uni egallash maxsus o'rgatishni va tajribani talab qiladi. Ixtiyoriy idrok etishning muhim shakli kuzatish bo'lib, u narsalarni yoki tevarak atrofdagi hodisalarni ko'ra bilish, bila olish va rejali idrok etishdir. Kuzatishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan vazifaning aniqligiga, kuzatuvchining tajribasiga va bilimiga bog'liqdir.

Fazoni idrok qilish. Fazoni idrok qilinishi kishining o'zini qurshab turgan muhitni chamalashining muqarrar shartlaridan bo'lib, uning ushbu muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatida katta rol o'ynaydi. Fazoni idrok qilish ob'ektlarning shakli, hajmi va o'zaro birgalikda joylashuvi, ularning sathi, olisligi va yo'nalishlarining idrok etilishini o'z ichiga oladi.

Fazoni chamalashda harakat analizatori alohida rol o'ynaydi. Fazoni chamalashning maxsus qurollari qatoriga analizatorlar faoliyatida har ikkala yarim sharlar o'rtasidagi nerv bog'lanishlarini: binokulyar ko'rishni, binoural eshitishni, terining bimanual tuyishini, dirinik hid bilishni va shu kabilarni kiritish lozim.

Ko'zlarning turli olislikdagi narsalarni aniq ravshan ko'rishga moslashuvi 2 ta mexanizm - akkomodatsiya va konvergensiya yordamida yuz beradi.

Akkomodatsiya - ko'z gavharining egriligini o'zgartirish yo'li bilan uning aksini sindirib qaytarish qobiliyatini o'zgartirish demakdir. Akkomodatsiya, odatda konvergensiya bilan ya'ni ko'rish o'qlarini qayd qilinayotgan narsaga yo'naltirilishi bilan bog'liqdir. Konvergensiya burchagi bevosita masofa indikatorini ya'ni o'ziga xos masofa o'lchagich (dalnomer) sifatida foydalaniladi.

Ikkita qo'zg'otuvchi - narsaning ko'z to'rpardasidagi tasviri akkomodatsiya hamda konvergensiya natijasida ko'zdagi mushaklarning zo'riqishi o'lchamlari bir biriga moslangan

holda birga qo‘shilishi idrok etilayotgan narsaning hajmi haqidagi shartli refleks tarzidagi signal hisoblanadi. (Uzoqlikni va chuqurlikni idrok qilish, emaklaydigan bolaning oyna ko‘prik ustidagi harakati, zinalar nechta, kubiklar nechta? Va boshqa misollar).

Ko‘rish illyuziyalari: 1) kamon o‘qi ilyuziyasi; 2) temir yo‘l izlari ko‘rinishi; 3) tik chiziqlarning boshqacha ko‘rinishi ilyuziyasi. (Silindr qalpoq); 4) elpig‘ich ilyuziyasi; 5) kesishish ilyuziyasi; 6) umumiy markazli doiralar ilyuziyasi va b.

Ola-bula yuzaga chizilgan ketma-ket doiralar go‘yo burama (spiral) chiziqlar singari idrok qilinadi. (Umumiy psixologiya kitobining 311 betidagi 24 rasm).

Ilyuziya hayvonlarda ham kuzatiladi, ba‘zi hayvonlar o‘z tusini o‘zgartirib, o‘zini muhofaza qiladi. O‘zini yashirishning samarali usuli mimikriyadir. Hayvonlarda rangini, qiyofasini o‘zgartirishdir. (Hayvonlarning yil fasllariga, yashash joyiga qarab rangini o‘zgartirishi).

Odamlar illyuziyadan maxsus maqsadga muvofiq foydalanishlarining eng ko‘p tarqalgan turi maskirovka qilishdir. Og‘irlikni idrok qilishda ham illyuziya hodisasi bo‘lishi mumkin. Bunda hissiyot va xayol ta‘sir etgan bo‘lishi mumkin.

Vaqt va harakatni idrok qilish. Vaqtni idrok qilinishi voqelik hodisalarning ob‘ektiv ravishda doimiyligini, tezligi va izchilligini aks ettirish demakdir. Vaqtni idrok qilish kishiga muhitdan mo‘ljal olish imkonini beradi.

Odamda vaqt chamalash miya qobig‘i bo‘lmalarida ro‘y beradi. Miya qobig‘ining ma‘lum bir joyida vaqt chamalash ro‘y beradi, vaqtni sarhisob qilishning maxsus markazi mavjud degan taxmin asossizdir. Vaqtni idrok etilishi negizini qo‘zgalish va tormozlanishning ritmik tarzda almashinuvi, markaziy nerv sistemasida, bosh miya yarimsharlarida qo‘zgalish va tormozlanish jarayonlarinig susayishi oqibatidir.

Vaqtni idrok qilishda turli analizatorlar ayniqsa eshitish va kinestezik sezgilar ishtirok etadi. Makon va vaqt oraliqlari vaqtni idrok etishda juda muhimdir. (Quyosh holati va vaqt, turli tovushlar: xo‘rozning qichqirishi, azon tovushi, bir xil vaqtda chalinadigan gudok, ma‘lum jadval bo‘yicha qatnaydigan poezdning o‘tishi yoki kechqurun ayrim qushlarning to‘planib o‘tishi, sayrashi va boshqalar eshitish sezgilari ta‘sir qilayotgan qo‘zg‘otuvchining vaqtga oid xususiyatlarini: uning davomiyligini, ritmik xususiyatlarini va shu kabilarni aks ettiradi.)

Vaqt doimiyligini idrok etish ko‘p jihatdan ichki kechinmalarga, hissiyotga ham bog‘liq. Qiziqarli va chuqur asoslangan faoliyat bilan band bo‘lishdagi vaqt juda qisqa, zerikarli va mazmunsiz faoliyatda vaqt o‘tishi qiyin, uzoq deb idrok qilinishi mumkin.

Harakatni idrok qilinishi - ob‘ektlarning fazoda egallagan holati o‘zgarishini aks ettirishdir. Harakatni idrok etilishi hayotiy muhim ahamiyatga ega.

Hayvonlar uchun harakat qiluvchi ob‘ektlar xavf-xatar yoki oziqlanish imkoniyati paydo bo‘lishi haqida signal vazifasini o‘taydi va shunga javob berishga undaydi. (Masalan, baqa faqat harakatlanadigan hashorotlarnigina eydi, bazi baliqlar ma‘lum harakatlardan- to‘lqindan qochadi, hurkiydi va hokazo). Harakatni idrok etishda ko‘rish va eshitish, kinestezik analizatorlar asosiy rol o‘ynaydi. Tezlik, tezlanish, harakat yo‘nalishi harakatdagi ob‘ektning perimetri hisoblanadi.

Kishi ob‘ektning fazoda u yoqdan bu yoqqa ko‘chishiga oid ma‘lumotlarni 2 ta har xil yo‘l bilan, ya‘ni ko‘chish hodisasining o‘zini bevosita idrok etish va bir muncha vaqt mobaynida boshqa joyda turgan ob‘ektning harakati haqida xulosa chiqarish asosida olish mumkin.

Harakatlanayotgan ob‘ektning harakatsizligi, agar u muayyan vaqt vaziyat birligini ko‘z bilan idrok qilish mumkin bo‘lmasa, harakatni o‘tgan vaqt birligida idrok qilamiz lekin bu harakat natijasini idrok etish bo‘ladi. (Soat millari siljishini bevosita kuzatib idrok qila olmasak ham bir necha vaqtdan keyin uning siljiganligini vaqt birligida idrok qilamiz)

Ko‘rish orqali ob‘ektlar harakati haqidagi axborotni 2 yo‘l bilan: qayd etilgan nigoh va ko‘zlarning kuzatuvchi harakati bilan olishimiz mumkin. Ko‘zni uzmay kuzatish, ko‘zni, gavnani burib kuzatish. Masalan, biz o‘tirgan vagon harakatlanmasada, yonimizda turgan vagona qarab bizning vagon yura boshladi deb idrok qilamiz yoki aksincha, biz o‘rnimizda turibmizu, temir yo‘l chetidagi stolbalar, daraxtlar yurmoqda deb idrok qilishimiz mumkin.

Xissiy tuyish - stroboskopik tuyish harakatni idrok qilishga ham taaluqlidir. Stroboskopik harakat tuyulma harakatga misol bo‘ladi. Kinematograf ana shunday tuyushga asoslanadi. Ko‘rish sezgisi kuzgatgich tasir qila boshlashi bilan darhol hosil bo‘lmaydi va kuzgatgich ta‘siri to‘xtagandan keyin birmuncha vaqt o‘tgach yo‘qoladi. Kinoda sekundiga 24 kadr olmoshgani

holda biz lip-lip o'tib turgan manzaralar turkumini emas, balki ma'lum darajada barqaror bo'lgan ta'sirni - tasvirni ko'ramiz. Ketma-ket yonadigan lampochkalar harakatdagi nurni tasavvur qilishga olib keladi. Bu hodisa "F-fenomen" ya'ni g'ayritabiiy, faqat harakatni idrok qilishda ko'rinadigan hodisa deb nomlangan.

Harakat eshitish analizatorlari yordamida ham idrok etilishi mumkin. Poezdning yaqinlashib kelayotganligini yoki uzoqlashayotganligini, odam tovushining pastlashib yoki balandlashib borayotganiga qarab, uning harakat yo'nalishini idrok qilish mumkin.

Harakatni idrok qilishda harakat tasavvurlarini vujudga keltiruvchi yordamchi belgilar, masalan, gavdaning tegishli holatlari - oyoq ko'tarilishi, quloq yoyilishi, gavdaning biror yoqqa bir muncha egilgan holatda bo'lishi va hokazolar katta rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar idrok «texnikasini» egallaydilar: narsani sinchiklab ko'zdan kechirishga, tinglashga, narsaning asosiy va muhim xususiyatlarini ajrata olishga o'rganadilar, idrok maqsadga yo'nalgan, boshqariladigan, ongli jarayonga aylana boradi.

O'quvchining yoshi ulg'aygan sari, uning idroki yanada mazmunli bo'lib boradi. O'quvchi idrokining ko'lami kengayadi, o'quvchi narsalarni rejali, izchil, ixtiyoriy ravishda va har tomonlama idrok qilishga o'rganib boradi.

O'smirlar o'zlariga yoqadigan narsalarni qunt va sabot bilan idrok qiladilar. O'smirlar bir narsaning o'zini ko'p marta idrok qilishni uncha yoqtirmaydilar - bu hol ham o'smirlar idrokiga xos bo'lgan xususiyatlardan hisoblanadi. Ammo maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar yoqtirgan narsalarini qayta-qayta eshitib yoki ko'rib rohatlanaveradilar.

O'smirlar narsa va hodisalarning yangi tomonlarini mustaqil ochish juda yoqib tushadi. O'smirlar hamisha narsa va hodislarining aql va xayolni maftun etuvchi qandaydir yangi, g'alati tomonlarini izlaydilar. Bu yoshdagi bolalarni qahramonlar jasorati, buyuk voqealar, ulkan kashfiyotlar haqidagi va shu kabi hikoyalarni zo'r e'tibor bilan tinglashlariga qahramonona ishlar, sarguzashtlar haqidagi hamda ilmiy - fantastik adabiyotlarni sevib o'qishlariga sabab ham shundadir.

O'smirlar amalda ishlatib ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni zo'r qiziqish bilan idrok qiladilar. Shu sababli ular tajribalar ko'rsatilishini juda yoqtiradilar.

Yuqori sinf o'quvchilarining idroki maqsadga ko'proq yo'nalgan bo'ladi va ular idroklarini o'zlari idora qila biladilar.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatiga maqsad ko'zlagan holda rahbarlik qilish jarayonida o'quvchilarning idroki rivojlanadi. SHuning uchun darsda, ekskursiyada idrok va kuzatishning to'g'ri uyushtirilishi katta ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida kuzatishlarni aktivlashtirish uchun o'quvchining kuzatilgan va idrok qilingan narsalarni keyin gapirib berishi lozimligi to'g'risida ogohlantirishning ahamiyati kattadir. Agar o'quvchi nimani kuzatganligi va idrok qilganligi haqida keyinchalik hisob berishi lozimligini oldindan bilsa, u kuzatish va idrok qilish jarayonida ancha faol bo'ladi.

Darsda o'quvchilar bilimlarini avvalo o'qituvchining og'zaki tushuntirishlarini idrok qilish orqali o'zlashtiradilar. So'zlar yordamida tushuntirilgan materialning idrok qilinishi ko'p jihatdan o'qituvchi nutqining xususiyatlariga bog'liq.

Materialni muvaffaqiyatli idrok qilishning yana bir muhim sharti ko'rgazmali qurollardan foydalanishdir. Material so'zlar yordamida har qancha yaxshi tasvir etib berilmasin, u bevosita kuzatishlar o'rnini bosa olmaydi.

Tafakkur. Sezgi, idrok orqali narsa va hodisalarning sezgi organlari orqaligina bilish mumkin bo'lgan xususiyatlari aks etsa, bu bilan bilish doirasi cheklandi degani emas. Narsa va hodisalar bevosita bilib bo'lmaydigan xususiyatlarga, o'zaro aloqaga, rivojlanish qonuniyatiga ega. Masalan, er bilan quyoshgacha, yulduz va oygacha bo'lgan masofani bevosita aniqlash mumkin emas; elektr tokining simdan o'tishini, atom tuzilishini, yorug'lik tezligini, uzoq tarixiy jarayonlar rivojlanishini va shunga o'xshashlarni bevosita ko'rish mumkin emas. SHunga qaramay, inson o'lchaydi, aniqlaydi, bilib oladi. SHunday qilib, vositali aks ettirish tafakkur jarayonining xususiyalaridan biridir. Tafakkurning yana bir xususiyati - bu voqelikni umumlashtirilgan holda aks ettirilishidir.

Tafakkur voqelikni umumlashtirilgan holda, qonuniy bog'lanishlarni so'z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va hodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Odam tafakkuri til bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur, barcha psixik jarayonlardek, miya faoliyatining natijasidir. Odam fikr yuritayotganda miyada murakkab jarayonlar sodir bo'ladi, miya po'stlog'ida markazlar o'rtasida bog'lanishlar yuzaga keladi. Xilma-xil muvaqqat nerv bog'lanishlari (assotsiatsiyalar)ni hosil qilish miya po'stlog'ining murakkab sintetik faoliyatidir. Fikrlar muvaqqat nerv bog'lanishlari differensirovka qilinishi, ya'ni ayrim nerv bog'lanishlarini mustahkamlashi, boshqalarining tarmoqlanishi natijasida mukammallashadi va aniqlanib boradi. Miya po'stinig bunday faoliyati analitik faoliyat deyiladi.

Tafakkur turlari va aqlning muhim sifatleri. Tafakkurning konkret-amaliy, konkret obrazli, abstrakt turlari bor.

Konkret-amaliy tafakkur narsalar bilan ish bajarish jarayonida ularni bevosita idrok etishga suyanuvchi tafakkur. Masalan, bola o'yinchoq ichini ko'rib, usta priyomnikning uyoq-buyog'ini burab ko'rib so'ng fikrlaydi.

Konkret obrazli tafakkur tasavvurga tayanadi. Tafakkurning bu turi kichik maktab yoshidagi bolalar uchun xosdir. Lekin katta yoshdagilarda ham uchrab turadi. Masalan, o'qituvchi darsga tayyorlanishda o'z o'quvchilarini ko'z oldiga keltirib, materialni qanday qabul qilishlarini, dars jarayonida qanday shaklni, qachon chizib ko'rsatishni, qaysi ko'rgazmali quroldan qachon, qanday foydalanishni o'ylaydi.

Abstrakt (mavhum) tafakkur - narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so'zda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Tafakkurning bu turi dastavval har xil nazariy masalalarni echish bilan bog'liqdir. Lekin u kundalik hayotda ham keng qo'llaniladi. O'smirlik va katta maktab yoshida abstrakt tafakkur tez shakllanadi. (Krugozor - bilim saviyasi).

Hozirgi zamon mutaxassisining ijodiy mehnat qilishi uchun tafakkurning bu turlaridan unumli, mustaqil, tanqidiy foydalanish talab qilinadi.

SHuningdek, ijodiy ishlash uchun fikrning ildamligi, ya'ni vazifalarni konkret sharoitga qarab echa olish, vazifani hal qilishning yangicha yo'lini topa bilish talab qilinadi.

Tafakkurning bu turlari va xussiyatlari turli odamlarda turlicha bo'lib, aql sifatleri deb ataladi.

Fikrlash operatsiyalari. Tafakkur faoliyati analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash va konkretlashtirish kabi fikrlash operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Analiz-masalani fikran qismlarga ajratish, masala shartini tasavvur qilishdir.

Sintez-buning aksi, qismlarni birlashtirish.

Taqqoslash-o'xshash va farqlarini aniqlash. Masalan, biror texnikani dvigatel kuchiga, yonilg'i turiga, bajaradigan ishiga qarab taqqoslash, afzalligini aniqlash mumkin.

Umumlashtirish-umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirish.

Abstraksiyalash-mazkur vaziyatdagi eng muhim bo'lmagan xususiyatlarini e'tiborga olmay, eng asosiy vazifani nazarda tutib fikr yuritish.

Konkretlashtirish-faqat aynan shu narsa va hodisaga taalluqli sifatleri topa olish, yuqoridagi operatsiya turlarini yakuniy qismi, ko'rinishi va boshqalarni oydinlashtirish.

Bulardan tashqari odam fikr yuritishi tushunish, izohlay olish, muhimini ajrata olish singari mantiqiy operatsiyalarga ham suyanadi.

Tafakkur jarayoni tushuncha, hukm, xulosa chiqarish shaklida ham davom etadi.

Tushuncha-umumiy, yakka, tur, juz'iy bo'ladi.

Hukm-umumiy, juz'iy, yakka bo'ladi.

Muhokama yuritish natijasida bir necha hukmdan yangi hukmni keltirib chiqarish xulosa chiqarish deyiladi. Bu ikki usulda induktiv va deduktiv xulosa chiqarish shakllari mavjud.

Insonning bilish jarayonlarida xayol yoki fantaziya katta ahamiyatga ega. Xayol sezgi, idrok, tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, borliqni yangi bo'yoqlarda, o'z xohishi, istagi, tasavvuri shaklida aks ettirishidir. Ko'rgan, eshitgan, qisqasi o'z tajribasidan o'tkazgan narsa hodisalarni ko'z oldiga keltirish - qayta tiklovchi, o'z istagi xohishi asosida yangi obrazlar yaratib tasavvur qilish - ijodiy xayol shaklida bo'ladi. Ijodiy xayol - fantaziya deb ham aytiladi. (SHoir, yozuvchi, ixtirochi - konstruktor uchun zarur sifatlar).

Ijodiy xayol ijodkor-ixtirochi uchun, yozuvchi yoki rassom uchun juda zarurdir. Ijodkor o'z boshidan kechirgani, bilgani doirasidan vaqt va fazo jihatidan ilgarilab ketadi.

Xayoliy yoki yangi obraz yaratishning bir necha usullari bor: 1) agglyu-tinatsiya - elimlash, bir necha obrazdan yangi obraz yaratish - masalan - suv parisi, kentavr, uchar ot -

pegas va hokazo fantastik obrazlarni yaratish. 2) giperbolizatsiya - boʻrttirish yoki kichraytirish (Gulliver sarguzashtlarini eslang), 3) qayd etish-narsa va hodisalarning eng muhim belgilariga diqqatni jalb qilish. (Oʻrtoqlik hazili, sharj). Bulardan tashqari tipiklashtirish, orzu xayol (uchar gilam - samolyot), qayd etish, tipiklashtirish shaklida ham boʻladi.

Bolalar oʻyini ham, konstruktor tasavvuri ham ijodiy xayol, lekin mazmuni va operatsiyalari bir-biridan farq qiladi.

Inson bilish jarayonlari xotira jarayonida mustahkamlanadi.

Xotira esga olish, saqlash va qayta tiklash jarayonidir.

Individning oʻz tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotirasi past odam hayotining barcha sohalarida juda qiynaladi. Koʻrgan-bilganlarini, oʻrganib olgan ishlarini davom ettira olmay har safar yangidan boshlashga majbur boʻladi. Esga olish, esda saqlash va esga tushirish va unitish xotira jarayonlari deyiladi. Xotira jarayonlarini, mexanizmlarini tadqiq qilinishi hozirgi «aqli mashinalar»-komp'yuterlarni ixtiro qilish, ularni takomillashtirish uchun ham juda muhimdir.

Xotira turlari quyidagicha boʻlishi kuzatilgan.

1. Psixik faollikka qarab harakat xotirasi, emotsional xotira, obraz xotirasi va soʻz-mantiq xotirasi deb farqlanadi.

2. Faoliyat maqsadiga qarab ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga ega.

3. Eslab qolish va unutish muddatiga koʻra qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira turlariga boʻlinadi.

Xotiraning turli xillari: ayrim kasb egalari uchun hayotiy professional kasbiy ahamiyatga ega. Masalan, harakatni eslab qolish gimnast-akrobat, raqqosa uchun, tasvirni, obrazni eslab qolish rassom, haykaltarosh, tergovchi, konstruktor uchun, mazmunni eslab qolish yozuvchi, shoir, hofiz uchun oʻta zarurdir.

Esda saqlash va unutish tezligiga qarab odamlarni toʻrt guruhga ajratish mumkin:

1. Tez esga oladi, sekin unutadi.

2. Sekin esga oladi, sekin unutadi.

3. Tez esga oladi, tez unutadi.

4. Sekin esga oladi, tez unutadi.

Xotira kishining bilim, kasb hunar egallashida katta ahamiyatga ega. SHuningdek, odamlarni xotira sifati va turiga qarab ham farqlash mumkin. Masalan, obraz xotirasi, soʻz-mantiq xotirasi, his-hayajonga taalluqli emotsional xotira singari xillarini farqlash mumkin.

Oʻz-oʻzini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.

1. Psixik hodisalar nima?
2. Diqqat va uni turlarini ayting.
3. Sezgi, idrok, tafakkur va uning olamni bilishdagi ahamiyati.
4. Xayol va uning turlari
5. Xotira va uning ahamiyati
6. Tafakkur va tafakkur operatsiyalari.

Tayanch soʻz va iboralar:

Olamni aks ettirish. Psixik jarayonlar. Sezgi. Idrok. Tafakkur. Tafakkur turlari. Xotira. Xayol. Ijodiy xayol (fantaziya) va uning ahamiyati.

7-MAVZU. SHaxsning individual xususiyatlari.

Reja:

1. SHaxsning betakror, oʻziga xos xususiyatlari, bu haqdagi qarashlar. (Gippokrat, Ibn Sino qarashlari).
2. Temperament va uning tiplari.
3. Qobiliyat va uning xillari.

4. Xarakter va uning shakllanishi.
5. Individual xususiyatlarni kasb egallash va mehnat jarayonidagi ahamiyati.

Tashqi olamni aks ettirish barcha jonli mavjudotlarga xos xislat bo'lsa-da, har bir individning unga munosabati doimo turlicha bo'ladi. SHuning uchun ham psixik hodisalarni turlarga klassifikatsiya qilganda asosan uch guruh alohida diqqat markazida turadi.

- psixik holatlar;
- psixik jarayonlar;
- psixik xususiyatlar. Psixik xususiyatlar asosan alohida olingan sub'ekt xususiyatlar deb qarash psixologiyada qabul qilingan bo'lib, bunda individning tashqi olamga va o'z ichki dunyosiga bo'lgan munosabatlari, ta'sirlanish kuchi, darajasi, davomiyligi va boshkalar asos qilib olinadi.

Psixik jarayonlar namoyon bo'lishi, odamlarning tashqi qiyofalari bir xilligi, o'xshashligi hollari psixologiya tarixida juda ko'p kuzatilgan bo'lsada, shaxsning individual xususiyatlari aynan bir xilligi hodisasi tarixda hech uchratilgan emas. Masalan, tashqi qiyofalari jihatidan hatto ota-onasi ham ajratib olishga qiynaladigan bir-biriga o'xshash egizaklar ham ichki dunyosi, ta'sirlanishi, javob reaksiyalarining har xilligi bilan er bilan osmoncha farq qiladi.

SHaxsning individual xususiyatlari deganda shaxsning quyidagi bir biridan farq qilishiga imkon beradigan quyidagi xususiyatlari tushuniladi: temperament, xarakter, qobiliyat.

Psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy jihatdan shartlashilgan dinamik ko'rinishlari majmui kishining temperamenti deb ataladi.

Temperament lotincha temperamentum - narsalarning tegishli nisbati degan so'zdan olingan. Temperament haqida dastlab eramizdan oldingi beshinchi asrda yashagan vrach Gippokrat, eramizdan oldingi ikkinchi asrda yashagan Galen, o'ninchi asrda yashagan ibn Sino va boshqalar o'z qarashlarini bildirganlar. Galen birinchi bo'lib temperamentning kengaytirilgan tasnifini berib, uning 13 turini sanab o'tgan. Keyinroq vatandoshimiz Ibn Sino temperamentni mizoj deb atab, uning issiq va sovuq turini, bu odamning rangi, qonining miqdori, quyuq yoki suyuqligiga bog'liqligini aytgan. Hozirgi kunda temperament oliy nerv tizimi va uning xillari bilan bog'liqligi asos qilib olinib, 4 tipi borligi qabul qilingan. Bu holda temperamentning antik davr klassifikatsiyasiga nomi bilan o'xshash bo'lishi qabul qilingan. Sangvinik - qon so'zi bilan bog'liq bo'lib, serharakat, kuchli ta'sirlanish, muvozanatsiz bo'lish nazarda tutiladi.

Xolerik - sariq o't organizmda ustun miqdorda bo'lishi asos qilib olinib, ta'surotni tez qabul qilib olish, kuchli qo'zg'olish, terisiga sig'maydigan shoshkaloq odam xususiyati hisoblanadi.

Flegmatik - organizmda shilimshiq modda flegma miqdori ko'pligi bilan ifodalanadi. Bu tipdagi odam ta'surotni bir muncha sekin qabul qiladi, ishga shoshilmay kirishadi, lekin ishni puxta, oxiriga etkazib bajarishga layoqatli tip.

Melanxolik - qora o't miqdori bilan bog'liq deb hisoblanadi. Bu tipdagi odam «og'ir karvon», «tepsa tebranmas», atrofida sodir bo'layotgan hodisalarga va odamlarga loqayd, «dunyoni suv bossa, tupig'iga chiqmaydigan» tip. Antik davr psixologiyasidagi bu turlar keyin yana ko'p marta tadbiiq qilinib, yana shu to'rt tip nomi saqlanib qolgan.¹⁰

Rus olimi P. F. Lesgaft temperament xossalari organizmdagi qon va limfa miqdorini nazarda tutib belgilagan. Bu fikrga asosan organizmning qo'zg'oluvchanligi individual xarakteristikasi va turli xil omillarga javob reaksiyalarining davomiyligi qon aylanish tezligiga va kuchiga bog'liq deb qaraladi. Amerikalik olim U. SHeldon asrimizning 40-yillarida individual psixologik xususiyatlar gormonal sistema bilan boshqariladigan tana xususiyatlarini (organizmning har xil to'qimalari nisbati) to'g'ridan-to'g'ri bog'liq deb hisoblaydi.

Hozirgi zamon fani temperamentga doir individual farqlarning sabablarini aynan miyaning, uning qobigi va qobig osti funksional xususiyatlarida, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida deb biladi.

Temperamentning 4 tipi bor:

Xolerik - «jangovar, jo'shqin, oson va tez ta'sirlanadigan tip». (I. P. Pavlov). CHaqqon, tez harakat qiladi, qattiq va tez gapiradi, o'zini tutib turishi qiyin, bazan xato javob qaytaradi.

¹⁰ Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005

Sangvinik - harakatchan, muvozanatli tip. YAngi shart sharoitga tez moslashadi, tez ishga kirishib tez soviydi, o'z o'rmini, rolini tez almashtiradi, beg'araz, kek saqlamaydigan tip. («Bir qop yong'oq»).

Flegmatik - hissiyotlari sekin paydo bo'ladi, ammo barqaror va davomli bo'ladi. U vazmin va yuvosh, uning jahlini chiqarish qiyin, lekin jahli chiqsa to'xtatish ham qiyin, qasoskor, ginachi.

Melanxolik - reaksiyalari ko'pincha qo'zg'ovchining kuchiga to'g'ri kelmaydi, loqayd, lanj, o'zini tez yo'qotib qo'yadi, biror ishda tashabbuskorlik ko'rsatmaydi. Hissiyotlari juda sekin paydo bo'ladi.

Qobiliyat va uning xillari. Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. SHu xususiyatlar mazkur bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli bo'ladi. Malakalar, ko'nikma va bilimlarga nisbatan qobiliyatlari qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda, shunda ham amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatdagina namoyon bo'ladi. (Rasm solish qobiliyati bor yo'qligini shu faoliyatda aniqlanadi). Masalan, Albert Eynshteyn (1879-1955, nemis fizigi) o'rta maktabda uncha yaxshi o'kimagan o'quvchi edi, uning kelajakdagi genialligidan, aftidan hech narsa dalolat bermas edi.

Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ldi.

Qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatdir. SHunday qilib, qobiliyat odamlarni sifat jihatidan bir biridan farqlaydigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobiliyatlarni sifat xususiyati deb qarab chiqadigan bo'lsak, u odamning murakkab psixologik xossalari sifatida namoyon bo'ladi, va maqsadga etish uchun juda zarur bir necha yo'llarni egallaganligini bildiradi. Kishida u yoki bu faoliyatga qobiliyat bo'lib, boshqa biriga bo'lmasligi mumkin, lekin uning o'rmini to'ldirish, (kompensatsiya) imkoniyati borligidan foydalanib uni paydo qilish mumkin. (Masalan, kar-soqov, ko'r-olima O. I. Skoroxodova faoliyati).

Qobiliyatlarning sifat jihatidan xarakteristikasi insonga mehnat faoliyatining qaysi sohasida (konstruktorlik, pedagogik, iqtisodchilik, sport va boshqalar) osonlik bilan o'zini topa oladi, katta yutuqlarga va muvaffaqiyatlarga erishadi deyishga imkon beradi. Qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi ularga miqdoriy xarakteristikasiga uzviy bog'liq.

Psixologiyada qobiliyatlarni miqdor jihatdan o'lchash muammosi katta tarixga ega. XIX asr oxiri XX asr boshlarida qator burjua olimlari (Kettel, Termen, Spirmen va boshqalar) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni taklif qildilar. Lekin bunday qarashlar hukmron doiralarda manfaatiga, ularning «qobiliyatli ekanliklarini» ta'kidlashga xizmat qildi. Qobiliyatlarni o'lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlaridan foydalanildi. Ular yordamida qator mamlakatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya va hokazo) qobiliyatlarni aniqlash va maktablarda o'quvchilarni saralash, armiyada ofitserlik, sanoatda rahbarlik lavozimini egallash va boshqalarda amalga oshiriladi.

Aqliy iste'dod testlari mazmun jihatidan qator savollar va masalalardan tashkil topgandir. Ularni echish muvaffaqiyati (sarflangan vaqtni hisobga olib) ball yoki ochkolar yig'indisi bilan hisoblanadi. Masalan, 11 yoshli bolaning aqliy qobiliyatlarini aniqlash uchun ingliz maktablarida qo'llanilgan test: «Petr Jeymsga qaraganda balandroq, Eduard Petrdan pastroq, hammadan ko'ra kim baland?»

- | | |
|----------|-----------------|
| A) Petr | V) Eduard |
| B) Jeyms | G) Aytolmayman. |

Testlar bundan boshqacharoq, ya'ni ortiqcha so'zni o'chiring, o'xshash bo'lgani qolsin va hokazo ko'rinishda ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari labirint, boshqotirma, krossvord

shaklida ham bo'lishi mumkin. Test natijasiga qarab «aql yoshi» aniqlanadi keyin iste'dod ko'effitsenti *iq* aniqlanadi.

Misol uchun, 11 yarim yashar bola 120 ochko to'pladi, bu uning aql yoshi. Uning aqliy iste'dod ko'effitsenti

$iqq \text{ aql yoshi } X 100 / \text{bolaning xaqiqiy yoshi } q (11,5 X 100) / 10,5q \neq 109,5$ aql yoshi 11,5, asli 14 yoshli bolaning *iq*; $iqq(11,5 X 100) / 14q \neq 82,1$

Ilmiy psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, aqliy iste'dodning bu ko'effitsent funksiya hisoblanadi. Haqiqatda esa, yuqorida tasvirlangan usullar yig'indisi kishining intellektual qobiliyatlarini aniqlaydigina emas, balki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, unda u yoki bu ma'lumotlarning, ko'nikma va malakalarning mavjudligi bilan qobiliyatlarni aralastirib yubormaslik kerak. Qobiliyatlarning mohiyatini tashkil etadigan bilimlar malakalarni egallash dinamikasi bunda aniqlanmay qolaveradi.

Qobiliyatlar kishining konkret faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi, balki ularning tarkib topishi ta'lim va tarbiya jarayonida sodir bo'ladi. Demak, qobiliyatlarni aniqlashning eng ishonchli yo'li - bu ta'lim jarayonida bolalarning yutuqlari dinamikasini aniqlashdan iboratdir. Bolaning qanday qilib kattalar yordami bilan bilim va ko'nikmalarni egallashlariga, bunday yordamni qanday qilib har xil qabul qilishlariga qarab qobiliyatlarning kattaligi, kuchi va zaifligi haqida asoslangan xulosalar chiqarishi mumkin. Bundan tashqari qobiliyatlarni aniqlashda shaxsni o'rganishning boshqa metodlaridan ham foydalanish mumkin.

Qobiliyat strukturasi konkret faoliyat turi bilan belgilanadi. Bir faoliyatga bir necha qobiliyat kirishi mumkin. Masalan, pedagogik faoliyatga pedagog odobi, kuzatuvchanlik, bolani sevish, talabchanlik va hokazolar kiradi. SHulardan biri etakchi, qolganlari yordamchi fazilatlar bo'lishi mumkin. Kishi qobiliyati uning yordamchi, qo'shimcha fazilatlariga bog'liq yoki shunday deb qaralishi mumkin. Masalan, bir odam o'z ishini puxta, mazmunli uddalaydi, lekin artistlik, notiqlik, san'atini yaxshi egallamagani (ya'ni, yordamchi fazilatga ega emasligi) uchun o'zini ko'rsata olmaydi, ikkinchi bir odam ishni shunchaki uddalasa ham uni ko'z-ko'z qila oladi, o'zini iste'dod egasi qilib ko'rsata oladi. Qobiliyatlar strukturasi shu singari tomonlarini umumiy va maxsus sifatlarini farqlay olish kerak.

Odamlarni qobiliyatiga qarab tiplarga ajratish muammosi juda murakkab. Birida maxsus, birida umumiy sifat ustunlik qilishi mumkin. I. P. Pavlov qobiliyatga qarab odamlarni 3 tipga bo'ladi: «Fikrlovchi tip», «Badiiy tip», «O'rtacha tip». Bunda odamdagi ikki signal tizimi nisbatini hisobga oladi.

Kishi psixik faoliyatida birinchi signallar tizimi signallarining nisbatan ustunligi uning badiiy tipga, signallar signalining nisbatan ustunligi fikrlovchi tipga, signallar vakolatining tengligi odamlarning o'rta tipga mansubligini belgilaydi.

Badiiy tip uchun bevosita ta'surot, jonli tasavvur, emotsiya ta'sirida paydo bo'ladigan obrazlar yorqinligi xosdir.

Fikrlovchi tip uchun mavhumlik, mantiqiy tuzilmalar, nazariy mulohazalar ustunligi xosdir.

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Iste'dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir. Iste'dodlarning uyg'onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti «hammani tijoratchi qilib yubormoqda».

Alohida olingan, yakka qobiliyatni garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Xotira, aqlning epchilligi, qo'llash ko'lamining kengligi iste'dodga yo'l ochadi. Bu singari sifatlarini mashhur odamlar faoliyati misolida ko'ramiz.

Iste'dod strukturasi oqibat natijada mazkur faoliyat shaxs oldiga qo'ygan talablar xarakteri bilan belgilanadi. Bu umumiy va maxsus qobiliyatlar bilan bog'liq. Bir qator iste'dodli bolalarni o'rganish natijasida ba'zi bir juda muhim qobiliyatlarni aniqlashga erishildi. Bunday qobiliyatlar yig'indisi aqliy iste'dod tuzilmasini tashkil etadi. SHunday yo'l bilan ajratganda

shaxsni birinchi xususiyati ziyraklik, yig'noqlik, doimo jiddiy tayyorlikdir. Ikkinchi xususiyat birinchi xususiyat bilan bog'liq - mehnatga tayyorligi, mehnatga moyilligi, mehnatga ehtiyojdir. Uchinchi xususiyati - intellektual faoliyatga bevosita bog'liqdir: bu tafakkur xususiyatlari, fikrlash jarayonlarining tezligi, aqlining sistemaliligi, taxlil va umumlashtirish imkoniyatlarining ko'pligi, aqliy faoliyatning yuksak mahsuldorligidir. SHaxsning o'z so'zini o'tkaza olishi, boshqa odamga kuchli ta'sir eta olish kishi faoliyatida katta ahamiyatga egadir. SHuning uchun psixologiyada bu muammo bilan bog'lik qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan amerikalik psixolog A.Assingerning bu sifatni o'rganish testi «Pedagog tajovuzkorligini baholash» deb nomlanadi. E.I.Rogov esa shaxs tipologik xususiyatlarini aniqlash, o'quvchi-o'qituvchi munosabatlarini aniqlash singari test so'rovnomalari yordamida shaxs sifatlarini aniqlash hozirgi kunda keng qo'llanilmoqda. SHuningdek, shaxs sifatlarini aniqlash muammolariga duch keladigan rahbar xodimlar, maktab va o'quv muassasasalari psixologlari Ayzenk, E.I.Rogov so'rovnomalaridan foydalanishlari mumkin.

Iste'dod qator darajalariga ega bo'lib, maxsus iste'dod faoliyat turlari bilan, mahorat - ruyobga chiqish tezligi, chaqqonligi bilan belgilanadi. Ilhomlanish - faoliyat davomida qo'l keladigan izchillik tizimiga ega bo'lish bilan harakatlanadi va hokazo.

Xarakter va uning xillari. Xarakter - zarb qilish, belgi, tamg'a ma'nolarini anglatadi. SHaxsning individualligi psixik jarayonning o'tish xususiyatlarida (yaxshi xotira, xayol, zehni o'tkirlik va h.k.) va temperament xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Xarakter - shaxsning va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlar bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Kishining xarakterini tashkil etuvchi individual xususiyatlar birinchi navbatda irodaga - (dadillik, qo'rqqoqlik) va hissiyotga (xushchaqchaqlik, qovog'i soliqlik, tushkunlik va h.k.) taalluqli bo'ladi.

Xarakterning shakllanishi shaxsning rivojlanish darajasiga ko'ra turli xildagi sharoitlar bilan qo'shilgan holda (oilada, do'stlar davrasida, mehnat va o'quv jamoasida, asotsial uyushmada va h.k.) yuz beradi. Uning uchun referent bo'lgan guruhda shaxsning individuallashuvi shakllanadi. Kishining xarakterini bila turib, uning u yoki bu holatlarda o'zini qanday tutishini, kishi xulq atvorini qanday izga solishini oldindan bilish mumkin. Jumladan, o'quvchilarga jamoat topshiriqlarini taqsimlayotib, ularning nafaqat bilimlarini va malakalarinigina emas, balki xarakterini ham hisobga olish lozim.

Xarakter strukturaligi. Inson shaxsining xakteri hamisha ko'p qirralidir. Unda alohida xususiyatlar yoki tomonlari ajralib ko'rsatilishi mumkin, lekin ular bir birlaridan ajratilgan, alohida holda mavjud bo'lmaydi, balki, ma'lum darajada xakterning barqaror tuzilishini tashkil etgan holda o'zaro bog'liq bo'ladi.

Xakterning strukturaliligi uning ayrim xususiyatlari o'rtasidagi qonuniy boglanishda namoyon bo'ladi. Agar kishi qo'rqqoq bo'lsa, u tashabbuskorlik, kat'iylik, mustaqillik, fidoiylik va oliy himmatlik singari fazilatlariga ega bo'lmaydi, deb aytish uchun asoslar bor. YOki bularning aksi bo'lgan fazilat sohiblari va ularning xakterini ham shunday taxmin qilish mumkin. Xakter xususiyatlar orasida ayrimlari asosiy, etakchi bo'lib, uning namoyon bo'lishi butun kompleksni tashkil etadi. Bundan tashqari ikkinchi darajali xususiyatlar ham bor, bular ham xakterga ma'lum ta'sir etadi. Xakter xususiyatlari - e'tiqod, hayotga qarash va shaxs yo'nalishi bilan bir emas. Xakter tarkib topishida tevarak atrof - muhitga, o'ziga, boshqalarga munosabatda bo'lishi katta ahamiyatga ega¹¹.

Kishining xakteri, birinchidan, u boshqa odamlarga qanday munosabat bildirayotganida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, kishining o'ziga munosabatida - obro'talablik va o'z qadrini xis qilish yoki kamtarlik.

Uchinchidan - xakter kishining ishga munosabatida namoyon bo'ladi (vijdonlilik, ma'suliyat, ishchanlik, jiddiylik).

To'rtinchidan - xakter kishining narsalarga munosabatida namoyon bo'ladi. (Narsalariga, kiyimiga va hokazo).

¹¹ Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005

Xarakter xislatlari ichida eng ustun koʻzga tashlanadigan xususiyatlar majmui xarakter aksentuatsiyasi deyiladi. (Surbetlik, molparastlik, vijdotsizlik rostgoʻylik, yolgʻonchilik, saxiylik, ochkoʻzlik, dilkashlik va hokazolar).

Xarakter aksentuatsiyasiga qarab odamlarni quyidagicha farqlash mumkin: introvert tip - odamovi, ichimdagini top, boshqalar bilan til topishga qiynaladigan tip, ekstrovert tip - his xayajonga berilganlik, koʻp gapiradigan, maqtanchoq, koʻp narsaga beqaror qiziqadigan tip. Boshqarib boʻlmaydigan tip – oraliq tip, gayritabiiy, sunʼiy qiliklar, eʼtirozlarga murosasizlik, baʼzan oʻrinsiz shubhalanish bilan qarash. oʻz salbiy qiliklarini bila turib davom ettirish - xudbinlikning oliy shakli. Kishining qaysi xarakter tipiga kirishini aniqlashda E.I.Rogov taklif qilgan soʻrovnomma va unga olingan javoblar natijasidan foydalanish mumkin. Rogov xarakter tiplarini quyidagicha tasvirlaydi: Ekstravertlar («oʻngi ustidalar») bor-yoʻgʻi koʻzga tashlanib turadigan odam. Muloqotga kirishuvi oson, chaqqon, mahmadona, tajovuzkor, peshqadamlikka intilish, odamlar diqqatini tortishga intilish darajasi yuqori. Boshqalar bilan osongina aloqaga kirisha oladi, tez taʼsirlanuvchan, tashqi taʼsirga beriluvchan, sezgir, ochiq koʻngil odam. Odamlarga «tashqi koʻrinishi»ga qarab baho beradi, ichki olami ularni qiziqitirmaydi. Ekstravertlar koʻproq xolerik va sangvinik temperament tipida boʻlishi kuzatilgan.

Introvertlar («oʻngi ichidalar») tashqi olamga oʻz kechinmalari bilan yoʻnaltirilgan odam, kamdan-kam aloqaga kirishadi, kamgap, kamsuqum, yangi tanishlar topishi qiyin, tavakkal qilishni yoqtirmaydi, avvalgi aloqalari uzilishidan iztirob chekadi, yutuq va yutqazish variantlari yoʻq odam tipi. Hayajonlanish va vahimachilik darajasi yuqori, odatlangan harakat dasturini oʻzgartirishi qiyin. Introvertlar koʻproq flegmatik, melanxolik temperament tipida boʻlganlarda uchraydi.

Oraliq tip yoki ambovertlar taʼsirlanish, qoʻzgʻolish darajasi beqaror, oʻzgaruvchan, «Kimligini bilib boʻlmaydigan» tip. Bu tipga mansub odam vaziyatga qarab ogʻib ketishi mumkin.

Xarakter shakllanishining psixofiziologik mexanizmi temperament, qobiliyatnikiga oʻxshash boʻlsada, oʻz-oʻzini anglash, oʻz-oʻzini tarbiyalashga intilish asosiy yoʻl hisoblanadi.

SHunday qilib, xarakter - shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga, hamkorlikdagi faoliyatiga va boshqa odamlar bilan muomalasiga jalb etiladigan hamda shu bilan oʻz individualligiga ega boʻlayotgan, tiriklik paytida erishgan narsasidir. Psixologiya tarixidan xarakterni bosh suyagining shakliga, yuz tuzilishiga, qaddi-qomatiga va hokazolarga bogʻliq deb qarash koʻp boʻlgan.

Aflotun va Arastu kishi xarakterini uning basharasiga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Kishi tashqi qiyofasida biror hayovonnikiga oʻxshash belgilarni topish zarur, keyin xarakter aniqlanadi, deydi. Arastu fikricha, buqaniki singari yoʻgʻon boʻyin ishyoqmaslikni bildiradi, choʻchqanikiga oʻxshash teshiklari katta-katta keng burun axmoqlikni, arslonnik kabi burun magʻrurlikni, echkilar, qoʻylar va quyonniki singari junining mayinligi qoʻrqoqlikni, sherlar va yovvoyi choʻchqalarniki singari junining dagʻalligi botirlikni bildiradi.

Xarakterni aniqlashning bunga oʻxshash fiziognomik tizimini oʻrta asrda yashagan suriyalik yozuvchi Abul Faraj Bar Ebreyda koʻramiz. U shunday yozadi: «Yoʻgʻon va kalta boʻyinlik kishi buyvol (yovvoyi mol) singari qahr gʻazabga keladigan maylga ega. Uzun va ingichka boʻyin qoʻrqoqlik alomatidir, bunday kishi bugʻu singari hurkadigan boʻladiki - qaysi birining boʻyni juda kichik boʻlsa, boʻri singari makkor boʻladi». (Abul Faraj).

XVIII asrda yashagan Iogann Kaspar Lafaterning fiziognomistik qarashlari mashhur boʻlib ketdi. Uning fikricha «Inson boshi - qalbini koʻrsatadigan oynadir». Bosh suyagi konfiguratsiyasini, imo-ishorani oʻrganish xarakterni oʻrganishning asosiy yoʻli deb hisoblaydi, qarashlari asossizligini uning oʻz qotilini bila olmagan, suhbatlashib oʻtirgan munofiq uni otib oʻldirishidir. Xarakterni oʻrganadigan soha frenologiya deb nom olgan. (Nemis vrachi Frens Gall nomi bilan bogʻliq.) Bosh suyagi konfiguratsiyasi asosida frenologik karta tuzgan. Lekin bu ham oʻzini oqlamagan.

Charlz Darvin (1809-1882) oʻzining «Odamda va hayvonlarda his-tuygʻularning ifodalanishi tugrisida» (1872) kitobida, fiziognomistik «har bir individning oʻz shaxsiy qiziqishlariga ergashib, faqat yuzlaridagi, asosan maʼlum bir muskullarning qisqarishi, bu muskullar kuchliroq rivojlangan boʻlishi mumkinligi va shuning uchun bu chiziqlar va ularning odatdagi qisqarishidan paydo boʻladigan yuz oʻzgarishi ancha chuqur va koʻzga koʻrinarli boʻlishi

mumkinligini jiddiy ravishda bilish kerak»: Darvinning bu g'oyalari ko'pgina psixologlarning izlanishlari uchun asos bo'ldi.

Xarakter kishining tashqi ko'rinishiga ta'sir qilar ekan, uning hatti harakatlarida, xulq atvorida, faoliyatida yorqin ifodasini topadi. Xarakter to'g'risida odamlarning hatti harakatlari asosida hukm chiqarish kerak. Odatdagi ish, faoliyat va hatti - harakatlar tizimi - kishi xarakterining poydevoridir. Xarakterni kishining odatlari ham yaxshi namoyon qiladi.

Xarakter sotsial tabiatga ham ega, ya'ni, kishining dunyoqarashiga, uning faoliyat mazmuni va shakliga, u yashayotgan va ishlayotgan jamoada, boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq. Eng muhimi kishi ekstremal vaziyatda o'zini yaqqol ko'rsata oladi.

Kishining istalgan, shu jumladan, ichki psixologik holatlarga qarshilik qila olish qobiliyati uning o'zini o'zgartiradigan qudratli kuchi borligini, uning shaxs sifatida rivojlantirish negizini namoyon qiladi.

SHaxs nimaga va qay darajada qodirligiga qarab unda birinchi o'rinda konkret xarakterologik emas balki ijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlari chiqadi va bunga u qay darajada qodir bo'lmasa, shaxs odatdagi vaziyatlarda boshqalardan ajralib turadigan individual sifatleri bilan benishon ko'milib ketishi mumkin.

Buning ustiga odamlar aynan bir xil holatlarni har doim ham bir xil aks ettirmaydilar: «Kimki bajarishni istasa vosita izlaydi, kimki istamasa bahona izlaydi». Artist o'zi o'ynagan qaxramoni xarakteriga tushib qolganini bilmay qolishi mumkin. (Italiyalik sobiq firibgar ijobiy kahramon rolini o'ynab avvalgi xarakterini tamomila o'zgartirib yuboradi.) YOki sobiq yosh qoidabuzar unga ishonch bildirilgach shu ishonchni oqlashga urinib o'zi eng odobli, intizomli kolonistga aylanishini A. S. Makarenko isbotlagan.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.

1. SHaxsning individual xususiyatlari deganda qanday xususiyatlarni tushunamiz? Bu hakda Gippokrat va Ibn Sino qarashlari.
2. Temperament va uning tiplari.
3. Qobiliyat va uni aniqlash.
4. Xarakter va uning xususiyatlari.
5. O'z individual xususiyatlaringizni tekshirib ko'ring. Siz qaysi temperament tipiga kirasiz?

Tayanch so'z va iboralar:

SHaxsning individual xususiyatlar. Temperament va uning tiplari. Xarakter. Introvert. Ekstrovert. Qobiliyat. Badiiy tip, fikrlovchi tip, oralik tip.

8-MA'RUZA. Kishi xayot tarzining yosh davrlari. Xar bir yosh davrining kiskacha tavsifi.

Reja:

Yosh davrlari psixologiyasi predmeti.
Yosh davrlarining rivojlanish boskichlari.
Yosh davrlarini tabakalash nazariyalari.
Psixik rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar.
Etakchi faoliyat turi tushunchasi.
O'smirlik yoshining psixologik xususiyatlari.

Odama chakalokligidan keksalik davrigacha uning ichki imkoniyati, mayli, iktidori, kobiliyati, aql - zakovati, kizikishi, irodasi, xis tuygusi, dikkati va bilish jarayonlarining xususitlariga kura individual munosabatda bulish yosh psixologiyasini insonparvarlik goyalaridan biridir. Uning muxim xususiyati xar bir davrdagi rivojlanishning uziga xos kulay (senzitiv) xolatidan unumli foydalanishdir.

Xar bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini xisobga olgan xolda tarbiyaviy ta'sir utkazish insonda uz vaktida uzini anglashni vujudga keltiradi. Bolada uzini anglash tuygusi kancha erta uygonsa, shaxsiy nuqtai nazar, uz xukukini xis etish, uzining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baxolash shunchalik tez paydo buladi.

Ta'limning barcha boskichlarida uning samaradorligini oshirish yosh psixologiyasining konuniyatlariga suyanmogi zarur. SHuning uchun xam ta'lim tarbiya ishi bilan shugullanadigan barcha mutaxassislar, jumladan muxandis-pedagoglar yosh davrlari psixologiyasini chukur bilishlari talab kilinadi.

YOsh davrlari psixologiyasi fanining MA'RUZA baxsi turli yoshdagi odamlarning (bolalar, ukuvchilar, kattalar, erkaqlar, ayollarning) ontogenezda (tugilgandan umrining oxirigacha) psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shaqlanishi xamda uzaro munosabati konuniyatlarini urganishdan iboratdir. YOsh davrlari psixologiyasi insonda turli psixik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol va xakozolar) rivojlanishining uziga xos xususiyatlarini, uning xar xil faoliyatini (uyin, ukish, mexnat kabilar), er va ayolning jinsiy tafovutlarini, shuningdek, inson shaxsining tarkib topishini ilmiy jixatdan tadjik kiladi.

Inson ruxiyatining rivojlanish davrlarini aniklash, shu soxadagi ma'lumotlarni tuplash xam mazkur psixologiyaning mavzu baxsidir.

MV: Bola rivojini yosh davrlariga ajratish omillarini sanang.

YOsh davrlari psixologiyasi - inson psixikasining rivojlanish konuniyatlari va xususiyatlari xamda shu rivojla-nishning boskichlari tugrisidagi fandir. YOsh davrlari psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi konuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, xolat va shart-sharoitlarning uzaro ta'siri xususiyatlarini aniklashdan iboratdir.

YOsh davrlari psixologiyasi ana shu vazifani xal kilish bilan amaliy maksadlarni ruyobga chikaradi: ta'lim - tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi, moddiy ne'matlarning ishlab chikarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosa-batlarini yaxshilashga, shaxslararo mulokotni tugri yunaltirishga, jamoada ijobiy psixologik muxit yaratishga, uzok umr kurish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mustaxkamlashga, ajra-lishlarning oldini olishga xizmat kiladi.

YOsh davrlari psixologiyasi predmeti va konuniyatlari tugrisida jaxon psixologiyasi olamida turli karashlar nazariyalar mavjud. Ularni juda keng tarkalganlari biogenetik (V. SHtern 1871-1938), sotsiogenetik (K. Levin 1890-1947), bixevioristik (E. Torndayk-1874-1949), psixoanalitik (Z. Freyd 1856-1939) nazariyalaridir.

Inson ongining rivojlanishi uning tashki olamni faol aks ettirishida namoyon buladi.

Insonning borlikni (vok'elikni) aks ettirishi - faol jarayondir. Ma'lumki, inson zotining rivojlanishi ob'ektiv borlikka (vokelikka) va uziga faol ta'sir kursatishida sodir buladi. Bolaning katta yoshdagi kishilar bilan tashkil kiladigan amaliy faoliyati, masalan, uyini, kuzatishi, mexnati, o'qishi, adabiy asarni mutolaa kilishi xamda qiziqishining barkarorlashuvi, iktidorining takomillashishi va boshkalar uning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

Rivojlanish inson shaxsining tarkib topish jarayonidir. Rivojlanish uzaro uzviy boglik kator boskichlarda amalga oshadi. Bola aql zakovatining kursatkichi, sifati, xarakteri uning atrof-dagi odamlar bilan kundalik munosabatlari va amaliy faoliyatida vujudga keladi. Uzaro ta'sir (savol-javob) natijasida unda aqlning ijodiy maxsuldorligi, teranligi, tezligi orta boradi. Hozirgi davrda insonning rivojini yanada jadallashtiruvchi vositalar mavjud va uning aqliy usish darajasini test sinovlari bilan aniklash mumkin.

Utgan ajdodlarimiz yosh psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yunalishda, ma'lum konsepsiya asosida urganmagan bulsalar xam, allomalarning asarlarida mazkur xolatlarning aks ettirilishi, namoyon bulishi, rivojlanishi va uzgarishlari tugrisida kimmatli fikrlar bildirilgan. Bular turt turdagi manbalarda uchraydi. Ularning biri xalk ijodiyoti: rivoyatlar, makollar, matallar va masallar; ikkinchisi - maxsus ijodkor kishilar tomonidan muayyan shaxsga bagishlab yozilgan ugit-nasixat va xikoyatlar; uchinchisi - komusiy, Urta Osiyo mutafak-kirlarining ilmiy-nazariy karashlari; turtinchisi - turli davrlarda ijod kilgan shoir va yozuvchilar ijodining maxsullari, ya'ni badiiy asarlardir.

Abu Nasr Forobiyning inson va uning psixikasi xakidagi axlokiy-falsafiy mushoxadalari «Ideal shaxar axolisining fikrlari», «Masalalar moxiyati», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Jism va aksidensiyalarning shaqllariga karab bulinishi», «SHarxlar», «Hikmat ma'nolari», «Aql ma'nolari tugrisida» kabi qator asarlarida bayon etilgan.

Abu Rayxon Beruniy o'zining «O'tmish yodgorliklari» kitobida inson xayotiga doir xilma-xil ma'lumotlarni keltiradi. Beruniy odam uzok yashashining sababini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi. Bu jixatdan uning «Hindiston», «Mineralogiya» asarlari, Ibn Sino bilan yozishmalari alohida ahamiyatga ega.

Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi nervlar va nerv yullari, fiziologik jarayonlar bilan bog'lik psixik jarayonlar hakida ancha muxim ma'lumotlar bor. Uning «Odob hakida» risolasi xam inson shaxsini shakllantirish to'g'risidagi jiddiy asardir.

YUsof Xos Xojibning «Qutadgu bilig'» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir.

Abduraxmon Jomiyning «Baxoriston», «Xiradnomai Iskandariy», «Tuxfatul axror» «Silsilatuz zaxob» va boshka asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-xunar o'rganish, yaxshi hislatlar va odoblik hakidagi fikrlar ifodalangan.

A. Navoiyning «Hazoyinul maoniy», «Mahbul qulub» va boshka asarlarida etuk, barkamol insonning ahloki, ma'naviyati, odamlarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli muloxazalar yuritilgan. Ana shu psixologik kategoriyalar ijtimoiy adolat qaror topishi uchun muxim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. SHuningdek, A.Navoiy asarlarida shaxsning kamol topishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, insonlarning kamtarligi masalalari alohida o'rin egallaydi.

YUqoridagilardan tashqari Bobur, Farg'oniy, Majlisiy, Mashrab, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Bedil, Zavqiy, Xamza, Avloniy va boshqalarning yoshlar tarbiyasiga, ahloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot masalalariga shaxslararo munosabatlarga doir qarashlari xam turli janrdagi asarlarda ravon va ixcham bayon kilingan.

«Qur'oni Karim» va «Xadis»larda xam insoniy fazilatlar haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. Bular ichida bolaning ruxiy xolati, uni tarbiyalash, ota-onaning burchi va xokazolar haqida so'z yuritilgan.

YOsh davrlarini tabaqalash nazariyalari. Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash buyicha qator mustaqil nazariyalar mavjud. Ular inson shaxsini tadqiq qilishga har-hil no'qtai-nazardan yondoshadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik nazariyalarni kiritish mumkin.

Biogenetik nazariyada insonni biologik etilishi bosh omil sifatida kabul kilingan. Bu nazariyaga binoan, rivojlantirishni bosh maksadi biologik determinatlarga (aniqlovchilarga) qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kelib chikadi. Biogenetik qonunni F. Myuller va E. Gekkel kashf qilgan. Eng xarakterli joyi bola rivojida tug'ilganidan voyaga etguncha filogenezni, ya'ni insoniyat tarixiy taraqqiyotini takrorlaydi deb qaraladi. V. SHtern, S. Xoll xam xuddi shunday fikrni bildirib, masalan, SHtern fikricha «chaqaloq hali odam emas, fakat sut emizuvchi hayvondir».¹²

Biogenetik konsepsiyaning boshka bir turi nemis «konstitutsion psixologiyasi» nazariyasidir. Buning asoschisi E.Krechmer (nemis olimi) bo'lib, shaxs psixologiyasi deb nom olgan nazariyani ishlab chiqdi. Bunga muvofik insonning jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'lanish mavjud deb taxmin kiladi. U odamlarni ikkita katta toifaga: sikloid (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta beqaror) va shizoid (odamovi, munosabatga qiyin kirishadigan) larga ajratadi. SHu xususiyatlar bolalardayok ko'rinadi. Dastlab ko'proq sikloid, o'spirinlardan boshlab shizoid, -deb hisoblash har doim ham to'g'ri emas.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan shaxsning barcha xatti-xarakatlari (hulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqadi, birinchi navbatda jinsiy-shaxvoni (seksual) maylga bog'liqdir.

¹² Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005

Biogenetik nazariyaning teskari ko‘rinishi - sotsiogenetik nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni jamiyatning strukturasi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko‘ra inson biologik tur sifatida tug‘ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta‘siri ostida shahsga aylanadi.

Psixologiyada psixogenetik yondoshuv xam mavjud bo‘lib, u biogenetik va sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmagan holda psixik jarayonlar rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Bu nazariyaning namoyondasi E. Eriksondir (amerika). U insonning umrini o‘ziga xos betakror xususiyatlarga molik 8 ta davrga ajratadi. 1-davrgo‘daklik - ongsiz davri, 2-davr - ilk bolalik yoki yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat, uyat va shubxa shakllanish davri, 3-davr - o‘yin yoshi - 5-7 yoshli, adolat tuyg‘usi shakllanish davri, 4-davr - maktab yoshi - ko‘zlagan maqsadga intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik, buning salbiy tomonlari ham bor, 5-davr - o‘spirinlik betakror hislati, muayyan rolni uddalamaslik, qat‘iyatsizlik, o‘zini sinab ko‘rish istagi, psixoseksual qiziqish va patogen (kasallik ko‘zg‘atuvchi) jarayonlarga moyillik. 6-davr - yoshlik, boshka jinsga psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati va extiyoji. 7-davr - etuklik davri; 8-davr - qarilik davri, bosib utgan xayot yulidan konikish, shukronalar aytish va xokazo.

E. SHpranger, K. Byuller, A. Maslou va boshkalar perso-nologik (shaxsshunoslik) nazariyasining yirik namoyondalaridir. Bunda asosiy e‘tibor psixik rivojlanishdagi «Men»ni kashf kilinishiga karatiladi. «Men» siymosi shaxs kamolotining chukkisi deb karaladi.

Kognivistik yunalish asoschilari J. Piaje, D.Kelli va boshkalar aql-idrokning asosiy funksiyalari uyushkoklik va moslashish, kunikishdan iborat bulib, aql-idrokning funksional invariantligi deb yuritiladi. Intellectni rivojlanish davrlariga ajratadilar.

Rus psixologiyasida yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L. S. Vigotskiy, P. P. Blonskiy, B. G. Ananev singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug‘ullanuvchilar safi kengayib bordi, shu boisdan tabaqalanish kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondoshilishi nuqtai nazaridan o‘zaro keskin farqlanadi.

L. S. Vigotskiy yosh psixologiyasiga turli davrlar uchun xarakterli bo‘lgan davr inqirozi (krizisi) tushunchasini kiritdi. (Gudaqlik davri inqirozi, bir yoshli davri inqirozi, uch yoshli davr inqirozi, etti yoshli davr inqirozi, o‘n uch yoshli davr inqirozi, o‘n etti yoshdagi inqiroz).

Vigotskiyning shogirdi L. I. Bojovich insonning kamol topishini yosh davrlariga bo‘lishda motivlarni asos qilib oldi, shuning uchun xam buni motivatsion yondoshish deb atash mumkin. (I- bosqich – chaqaloqlik, II-boskich - motivatsion tasavvur; III-bosqich – «Men»ni anglash davri va x.).

D.B.Elkonin tasnifi A.N.Leontevning etakchi faoliyat to‘g‘risidagi nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror turi ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Etakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil kiladi. SHunga asoslanib, D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

1. Go‘daklik davri bir yoshgacha, asosiy faoliyati - bevosita emotsional muloqot.
2. Ilk bolalik «1-3 yosh, asosiy faoliyati- predmet bilan nozik xarakteratlar kilish (manipulyasiya).
3. Maktabgacha davr 3-7 yosh asosiy faoliyati rolli o‘yinlar.
4. Kichik maktab yoshi 7-10 yosh, asosiy faoliyati - o‘kish.
5. Kichik o‘smirlik 10-15 yosh, asosiy faoliyati - shaxsning intim muloqoti.
6. Katta o‘smirlik yoki ilk o‘spirinlik davri 16-18 yosh, asosiy faoliyat – o‘qish, kasb tanlash.

Hozirgi psixologiyaning yirik vakili A. V. Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsni tarkib topishiga sotsial-psixologik nuqtai-nazardan yondoshib, yosh davrlarining o‘ziga xos tasnifini yaratdi. A.V.Petrovskiygacha psixologlar shaxsning bir tekis kamol topishini o‘rgangan bo‘lsalar, u shaxs shaqllanishining prosotsial (ijtimoiy qoidalarga muvofik) va asotsial (aksilijtimoiy) bosqichlari xam bo‘lishi mumkinligini isbotlab berishga xarakterat kiladi: SHaxsning kamol topishi uchta makrofazadan iboratligini qayd etib, 1 - bolalik davriga to‘g‘ri kelishini, unda ijtimoiy muxitga moslashish, ko‘nikish (adaptatsiya) ruy berishini; 2- o‘smirlarga xos individuallashtirish; 3-o‘spirinlikda, ya‘ni etuklikka intilish davrida o‘ziga xos holatlarni muvofiqlashtirish (birlashtirish) xususiyatlari paydo bo‘lishini bayon qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganlarga yana shuni ham qo'shimcha qilish mumkinki, turli yosh davrlaridagi rivojlanishga shaxs yashab turgan sotsial muhit, ekologik vaziyat xam ta'sir etadiki, buni rivojlanishdagi tezlashuv - akseleratsiya xolatida ko'rish mumkin. Demak rivojlanishga fakat biologik faktorgina emas, sotsial, geografik, ekologik muxit xam ta'sir kiladi.

D. I. Feldshteyn shaxsga ijtimoiy yondoshuvga asoslangan tasnif yaratdi. Bu tasnif Petrovskiy tasnifidan keskin farq qiladi. Uning fikricha, inson shaxs sifatida shakllanishda ikkita katta bosqichdan o'tadi, ulardan biri - «Men» jamiyat bilan nuktai-nazaridan iborat bo'lib, quyidagi yosh pallalarini qamrab oladi:

1. Ilk bolalik - 1yoshdan 3 yoshgacha;
2. Kichik maktab yoshi davri - 6-9 yosh;
3. Katta maktab yoshi - 15-18 yosh;

Feldshteyn «Men va jamiyat» no'qtai-nazaridan 1 yoshgacha bo'lgan davrni go'daklik, 3-6 yoshni maktabgacha davr, 10-15 yoshni o'smirlik deb atadi.

MV: Turli yosh davri uchun xos bulgan etakchi faoliyat turini aytib bering.

D. I. Feldshteyn boshka tadqiqotchilardan farqli ravishda o'smirlik davrini uch boskichga ajratadi: Birinchi – bosqich - (10-11yosh) o'ziga munosabatni kashf qilishdan iborat bo'lib, o'zini shaxs sifatida his qilish va kat'iy karorga kelish bilan yakunlanadi. Ikkinchi-bosqich (12-13 yosh) bir tomondan o'zini shaxs sifatida tan olish, ikkinchi tomondan o'ziga salbiy munosabatda bo'lishdir. Uchinchi-bosqich(14-15 yosh) tezkorlik, o'zini - o'zi baholashga moyillik bilan farqlanadi.

O'smirlik davri 10–11, 14–15 yoshni tashkil etadi. Ko'pchilik o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish asosan 5–sinfdan boshlanadi. «Endi u bola emas–u, hali katta ham emas»-bu formula o'smirlik davri xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik, hamda psixologik o'zgarishlardir. Fiziologik o'zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha aozolarning mukammal rivojlanishi va o'sishi, xujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o'sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga xarakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini maolum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilarga ko'rsatishga intiladilar. Bu xolatni oddiy kuzatish yo'li bilan xam osongina ko'rish mumkin. O'smirlik yoshiga hos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolatga erishish yo'llarini va unga taosir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita taosirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnini topa olmagan xolatda bo'ladi. O'smirlik davri «O'tish davri», »Krizis davr», »qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. CHunki bu yoshdagi o'smirlar xatti-xarakatida noadekvatlik, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S.Viyutskiy bunday xolatni psixik rivojlanishdagi krizis deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning hulq-atvoriga hos bo'lgan alohida hususiyalarni asosan jinsiy etilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy etilish o'smir hulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida taosir ko'rsatib, bu taosir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar hos.

Kattalarga nisbatan agresiv munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari nohush hulq-atvor alomatlari o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy etilish tufayli poydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita taosir ko'rsatadigan o'smir yashaydigan ijtimoiy

shart–sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi oʻrni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni oʻzgartirish yoʻli bilan oʻsmirlarning hulq–atvoriga toʻgʻridan–toʻgʻri taosir koʻrsatish mumkin. Oʻsmirlar nixoyatda taqlidchan boʻlib, ularda hali aniq bir fikr, dunyo qarash shakillanmagan boʻladi. Ular tashqi taosirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan boʻladilar. SHuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham hosdir. Tashqi taosirlarga beriluvchanlik oʻsmirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab boʻladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan boʻladi. SHuning uchun ham ular ota–onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning tugʻri yoʻlni koʻrsatishlariga qaramay oʻz fikrlarini oʻtkazishga xarakat qiladilar. Juda koʻp oʻsmirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Katta odam, shuningdek chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda oʻzini normal, qulay his qiladi. Bunday xolatlarga tushgan oʻsmir juda tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Bu krizis oʻsmirning maonaviy oʻsishi, shuningdek psixikasidagi oʻzgarishlar bilan ham bogʻliqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei oʻzgaradi, oʻzining yaqinlari, doʻstlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta oʻzgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Koʻpgina oʻsmirlarda oʻzidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. SHuningdek, oʻzi xaqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarga toʻgʻri kelmayotganligi oʻsmirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa oʻsmirda oʻzi xaqida salbiy fikr va qoʻrquvni yuzaga keltirishi mumkin. Baozi oʻsmirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek ota–onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab boʻladi va oʻsmirlik davri krizisi deyiladi.

Oʻsmirlik davrida etakchi faoliyat–bu oʻqish muloqat hamda mehnat faoliyatidir. Oʻsmirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu doʻstlik, oʻrtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. Oʻsmirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u toʻla oʻrtoqlik kodeksiga boʻysinadi.

Oʻsmirlarning ota–onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti asosan ularning katta boʻlganlik hissi asosida tuzilgan boʻladi. Ular kattalar tomonidan qilinadigan xaq–xuquqlarini cheklashlariga, qarshilik va ehtirozlariga qattiq qaygʻuradilar. Lekin shunga qaramasdan u muloqotda kattalarning qoʻllab–quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat oʻsmirga kattalarni yaxshiroq tushinishlari uchun yordam beradi. Oʻsmir oʻzida boʻlayotgan oʻzgarishlar, uni tashvishga solayotgan muamolar xaqida kattalar bilan boʻlishishga katta extiyoj sezadi, lekin buni xech qachon birinchi boʻlib oʻzi boshlamaydi. Oʻsmir oʻziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomila –munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. Oʻsmirlar muloqoti nihoyasida oʻzgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. Oʻsmirlik davriga kimningdir hatti –xarakatini imitatsiya qilish hosdir. Koʻpincha ular oʻzlariga tanish va yoqadigan kattalarning hatti–xarakatlarini imitatsiya taqlidchanlik qiladilar.

qayd etib oʻtilgan yoʻnalganlik albatta kattalarning ham muloqot va munosabatda mavjud, lekin ular kattalarnikidan oʻz emotsionalligi bilan farqlanadi. Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruxida oʻsmir oʻzining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon boʻladi. Oʻsmir oʻz guruxiga bogʻliq va qaram boʻlgani holda shu guruxning umumiy fikriga qoʻshilishga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor boʻladi. Gurux koʻpincha oʻsmirda «Biz» hissining shakillanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustaxkamlaydi. Oʻsmir yoshdagi bola uchun doʻst tanlash juda katta axamiyatga ega. Oʻsmirlik davrida doʻst juda qadimli hisoblanadi. Doʻstlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin boʻlishga extiyoj sezadilar. Bu extiyoj oʻsmir doʻstlarning soʻrashishi va koʻrishishlarida (qoʻl berib, quchagʻlab koʻrishish) birga oʻtirish va birga yurishga xarakat qilishlarida koʻrinadi. Koʻpgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, oʻsmirlarning shaxs boʻlib shakllanishdagi, birgalikdagi xarakatlarini izi inson qalbida va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Oʻsmirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta extiyoj sezadilar. Kattalarning oʻsmir yoshdagilar uchun taosir koʻrsatish, tarbiya berish uchun eng qulay sharoit–bu umumiy mehnat bilan shugʻullanishidir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi boʻlish rollaridan qoniqsalar, oʻsmirlar, ayniqsa katta oʻsmirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat koʻrsatayotganlaridan, lozim boʻlganda ularning oʻrnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Agar kattalar oʻsmirlarning teng, doʻstona, uni toʻla tushunadigan va aql bilan rahbarlik qilsalar,

bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kkatanning hoxish–istagi ustunligi asosida bo'lsa, unday xolda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarni, baosan esa depressiyani ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko'pincha ota –onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi oilalarda uchraydi. Ko'pgina bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotda mustaqil holda xarakat qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin maosuliyatning o'z bo'ynilariga olishlari birmuncha qiyinroq. Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan engadilar. O'smirlik davrida bolalarning atrofndagi odamlar bilan shaxsiy va ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlaridagi mavqei o'zgaradi. Endi o'smirlar o'yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shugullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. O'qish o'smirlar xayotida katta o'rinni egallaydi. O'smirlar o'qishidagi asosiy motiv bu ularning kattaliklarini xis ettiradigan, anglatadigan o'qish turlariga tayyorlanishlaridir. Ular uchun mashg'ulotlarning asosan mustaqillik beriladigan shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvafaqqiyatli o'zlashtirishlari qiziqishlarining orttirishlari o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish maxoratiga bog'liq, Bilim o'rganish xetiyohlari asosida asta-sekinlik bilan umuman o'quv fanlari nisbatan qatoiy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning chngi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar asosan o'smirning xayotiy rejalarini kelajak kasbi, va ideali yuilan bog'liq bo'ladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab bolalar xayotiy ilmiy, badiiy bilimlarni kenagytirishga aloxida xetiyoj sezadilar va bunga xarakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida xursatga sozovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga aloxida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi. O'smirlarning o'quv materiallarini faqat mexanik xotiraga asoslanishlari xalaqit berishlari mumkin. Bu davrda o'quvchilarga beriladigan o'quv materialining xajmi katta bo'lgani uchun xam uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtirish qiyin. Buning uchun albatta o'quvchi o'quv materialini mazmunini taxlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muxim. Bu davrda bolalarning idrok, diqqat va tasavvurlari o'zgaradi, lekin bu o'zgarish bolaning o'ziga va atrofndagilarga sezilmagan holda kechadi. SHu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, nutqi, tafakkur jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Bu o'zgarishlar atrofndagilarga sezilarli darajada bo'ladi. O'smirlik davrda bolani anglash va o'z–o'zini anglash darajasi ko'tariladi va unda o'zi, boshqa odamlar, olam xaqidagi bilimlari chuqurlashadi. O'yin faoliyati asta–sekin kamayib, yangi faoliyatlar yuzaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik davrida o'z faoliyatini nazorat etish rivojlana boshlaydi va o'zini–o'zi boshqarishga intilishi kuchayadi. Bir so'z bilan aytganda o'smirlik davri psixik rivojlanishda keskin burilish davri hisoblanadi.

Usmirlik krizisi Bu davrga kelib bola organizmi jadillik bilan va nomuttanosib usadi. Bu usish bahzan bolaning uziga emonrok xis kilishga va ayrim fiziologik kasalliklarni kelib chikarishga sabab bulishi mumkin. Bu xolatlarining barchasi bolani tashvishga soladi va uning asabiylashiga olib keladi. Uzini katta bulib uzgartiraetganini xis kilgan usmirda endi kattalar xaeti bilan yashash xetieji yuzaga kela boshlaydi. Usmir uzini kattalardek tutishga katta bulib kolganini kursatishga xarakat kila boshlaydi. Juda kupgina usmirlar bu davrda chekish xamda spirtli ichmliklarga kizikib koladilar. Katta odam chekuvchi ichuvchi singari yangi rolda uzini normal yaxshi xis kilmagan usmir juda kattik tashvishga tushadi va undan krizis xolati yuzaga keladi. SHuningdek bu krizis usmirning mahnaviy usishi shuning psixikasidagi uzgarishlar bilan xam boglikdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavkei uzgaradi uzining yakinlari dustlari tengdoshlari bilan yangi munosobatlar yuzaga keladi . Lekin eng katta uzgarish uning ichki dunesida yuzaga keladi Usmirda aks xollarda uziga konikmaslik xolati kuzatiladi. Uzi xakidagi mavjud fiklarning bugun undan sodir bulaetgan uzgar shlarga tugri kelmaetganligi usmirni ikkinchi tomondan tashvishlantirib asabiylashiga sabab buladi. Bu esa bolada uzi xakida salbiy fikr va kurkuvni yuzaga keltirishi mumkin. Bahzi usmirlarni nima uchun atrofndagilar kattalar kupincha ota onasiga kmrishi chikaetganin anglay olmaetganligini tashvishga soladi. Bu xolat xam uzlarini ichidan asabiylashishlariga sabab buladi. Kattalarning bu davrdagi eng asosiy vazifalari usmirning muammosini tugri anglashi va erkin tugri yashashiga erdam berishidadir.

O'smirlarning intellektual rivojlanishi.

Nutqning rivojlanishi. O‘smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so‘z boyligining oshishi hisobiga bo‘lsa, ikkinchi tomondan tabiiy va jamiyatdagi narsa, voqea va xodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo‘ladi. Bu davrda o‘smir til yordamida atrof –borliqni aks etirilishi bilan bir qatorda inson dunyo qarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan o‘smirlik davridan boshlab inson aynan nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O‘smirni ko‘pincha muomilada so‘zlarni ishlatish qoidalari – «qanday qilib to‘g‘ri yozish kerak?», «qanday qilib yaxshiroq aytish mumkin?» kabi savollar juda qiziqtiradi. O‘smirlar maktabdagi o‘qituvchilar, kattalar, ota–onalar nutqidagi kamchiliklariga juda tez eotibor beradilar, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorlari xatoliklariga tez eotibor beradilar. Bu holat o‘smirning bir tomondan o‘z nutqini nazorat etishga o‘rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va o‘zida mavjud xotoliklarni bir muncha barham toptirishlariga olib keladi.

O‘smir so‘zlarining kelib chiqish tarixiga, ularni aniq mazmuni va moxiyatiga juda qiziqadi. U endi o‘z nutqida yosh bola singari emas, balki zamonaviy katta odamlar singari so‘zlarni tanlashga xarakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o‘smir uchun o‘qituvchi albatta namuna bo‘lishi shartdir. Aynan maktab taolimi o‘smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo‘nalishini sifat jihatidan o‘zgarishda asosiy kuchli omil bo‘lib xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq xam og‘zaki, ham yozma mavjud bo‘lishi bilan ham kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi o‘quv jarayonlarining to‘g‘ri tashkil etilish va amalga oshirilish bilan o‘smir nutqining to‘g‘ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni o‘zlashtirishga xarakat bu o‘smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishiga extiyoj va intilish hisoblanadi.

O‘smirlik davrda o‘qishva yozma monologik nutq ham jadal rivojlanadi. 5–sifndan boshlab to 9–sinf gacha o‘qish to‘g‘ri, tez va ifodali bo‘lish darajasidan, yoddan ifodali, taosirli aytib bera olish darajasigacha ko‘tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so‘zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og‘zaki muloxaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o‘zgaradi. YOzma nutq ham yaxshilangan holda o‘smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo‘yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O‘smirlarning nutqi to‘la tafakkur bilan bog‘liq holatida amalga oshiriladi. 5–6 –sinflardagi o‘quvchilar og‘zaki va yozma matn uchun rejasini tuza oladilar va rejaga amal qila oladalar.

Tafakkurning O‘smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori rivojlanishi. ahamiyatga ega bo‘la boshlaydi. CHunki bu davrdagi o‘quvchilar atrof olamdagi bog‘lanishlar mazmunini maksimal darajada bilishga xarakat qiladilar. Bu davrda o‘smirning bilshga bo‘lgan qiziqishda progress sodir bo‘ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning hisobiga isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo‘ladi. Maktabda o‘qitiladigan fanlar o‘smir uchun o‘z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo‘lib xizmat qiladi. J.Piajening taokidlashicha «Ijtimoiy hayot uch narsaning taosiri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o‘zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z –o‘zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11–12 yoshdan boshlab o‘smir endi mantiqiy fikrlab xarakat qila boshlaydi. O‘smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o‘rgana boshlaydi. O‘smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko‘tarila olishi o‘quv materiallarni shunchalik tez, chuqur egallash va uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. o‘smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik asosan nihoyatda qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o‘z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek ulardan yuqori baho olish extiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O‘smirning kattalarga beradigan savollari ko‘pgina mazmunli, chuqur o‘ylangan va aynan o‘sha masala yuzasidan bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar turli gepotezalar tuza oladilar, tahminiy fikr yurita oladilar, tadqiq o‘tkaza oladilar hamda maolum bir masala bo‘yicha alpternativlarni taqqosla oladilar. O‘smir tafakkuri ko‘pincha umumlashtirishga moyil bo‘ladi. Respublikamizning bozor iqtisod sharoitiga o‘tishda kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi:

-tadbirkorlik, tejamkorlik, hisoblilik, yuzaga kelgan muammolarni tez echa olishlik.

Ko'rsatilgan barcha sifatlar bo'lgan taqdirdagina amaliy tufakkurini rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1–sinfdanoq boshlab rivojlantira borish nihoyatda muhim. O'smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilar o'z-o'zini boshqarishni yo'lga qo'yish shuningdek, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok ettirish orqali rivojlantirish mumkin. Bu borada o'quvchi ijrochi rolida emas balki boshqaruvchi, mustaqil yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlariga o'zi kirituvchi bo'lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'proq mustaqillikni berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy taosir ko'rsatadi. O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlnig boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob–kitob qilib borishga yo'llash orqali amalga oshirish mumkin. O'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda echish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni ham tezyo'lab, tez xarakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni muammo yuzaga kelishi bilan orqaga tashamay tez echishning umumiy qoidalarga o'rgatib borish mumkin.

O'smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lish qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Diqqat, xotiraning rivojlanishi. O'smirlik davrida diqqat, xotira tasavvur to'la mustaqillik kasb etib, endi o'smir ularni o'z ifodasiga ko'ra boshqara oladigan bo'ladi. Bu davrda qaysi etakchi fuksiya (diqqatmi, xotirami yoki tasavvur) ustunlik qilayotgani yaqqol namoyon bo'lib, har bir o'smir o'zi uchun axamiyatliroq bo'lgan fuksiyani eotiborga olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu fuksiyalarning rivojlanish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

- Diqqat. Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilsa, o'smirlik davrida bola o'z diqqatini o'zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o'quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O'smir o'z diqqatini to'la ravishda o'zi uchun axamiyatli bo'lgan va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo'lgan faoliyatlarga qarata oladi. O'smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o'qituvchi tomonidan doimo qo'llab –qo'vatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko'tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. SHuningdek, o'smirning dars jarayonida o'z tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatish uchun sharoitni yaratilishi ham o'smirdagi diqqatni ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo'lib xizmat qilish mumkin. Lekin o'smirlik davrida juda kattiq charchash holatlari ham bo'ladi. Aynan 13 –14 hamda 16 yoshlarda charchash chizig'i keskin ko'tariladi. Bunday holatlarda o'smir atrofdagi narsa va voqealarga to'liq diqqatini qarata olmaydi, Diqqatning ko'rinishlariga o'smirlik erishish va yo'qotish bo'yicha to'la qarama-qarshi bo'lgan davr xisoblanadi.

O'smirlik davrida shaxsning shakllanishi.

Jinsiy etilishi o'smirning bu eshdagi xulk atvoriga asosiy biologik vosita sifatida tahsir utkazadi. Lekin bu bevosita tahsirdir. Sotsial omillar esa kuyidagilardir: kichik maktab eshdan urta maktabga utish yahni yakka ukituvchi raxbarligidan kupchilik ukituvchilar tasarufiga utish va mulokotdagi uzgarishlar ijtimoiy foydali ishlarni kengaytirib borish mustakil va amaliy ishlarni kuprok bajarish shu bilan birga bolani oiladagi urni xam uzgaradi. Ushbu uzgarishlar tahsirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini usib borishi munosobati bilan uzlariga kuprok ishona boshlaydilar, u endi oilaviy muammolar muxokamasida xam kashkasha boshlaydi. Katta usmirlarga nisbatan kichik usmirlarda paydo buladigan kelisha olmaslikni ulardagi jinsiy etilishiga emas balki atrofdagi shart sharoitlar oiladagi ota-ona, aka-ukalarning unga munosobati maxola kuy yahni sotsial sharoitlar tahsiri bilan boglash zarur.

Shu sotsial sharoit ijtimoiy va ulardagi psixologik iklimni uzgartirish bilan kichik usmirdagi emon xulk atvor uzarlik kamchiliklarini tan olmaslik kabi tabiy xislatlarni oldini olish

mumkin.

Bahzi ukituvchilar kichik usmirdagi bu uzgarishlar urushkoklik va salbiy alomatlar ujarliklarining ildizlari kaerdan kelib chikadigan va nimani boglanganligi nimani tahsiri ekanligi bilmay turib notugr tashxis va xulosalar keltirib chikaradilar va bu aksariyat xolda fojiaga olib kelishi mumkin.

Aslida esa bu usmir eki maktab eshdagi bolalarning psixik xolatlarini va psixik rivojlanaetganliklarini xisobga olish va psixik muammolarini echish erkin va tugri echimlar uchun erdam berish ularni akliy kobilyatlarini rivojlantiruvchi metodlar erdamida ularga psixologik endashish zarur va muximdair. Kichik usmir eshdagilar bilan ishlaetganda ukuvchini xar bir tashki va ichki reaksiyasi ortida uning uz psixologik sabablari borligini bilish muximdir. Bu "madaniyatsiz" "zararli" "tushunib bulmaydigan" deb nom olgan xatti xarakterlar bir karashda shunday baxolanadi lekin bu xatti xarakterlar shaxs karor topishi maxsus boskichi uchun xos xususiyatdir. Kchik usmir psixologik "mexanizimi" sxematik ravishdv kuyidagicha baxolanadi. Endokrin garmonlarini paydo bulishi va ularning markaziy nerf sistemasiga tahsir kilishi bilan bogshlik bulgan jinsiy etilishning boshlanishi bolalarning aktivligini jismoniy va psixologik imkoniyatlarini oshiradi xamda bolada uzini kattalardek xis etish mustakil bulish tuygularini tuyush uchun kulay shart sharoitlarni olib keltirad. Birok psixik rivojlanishni bu boskichda xam bola xali mustakil xarakter kilishga tula taer bulmaydi. Asosiy ziddiyatni keltirib chikaruvchi omillardan biri uz mustakilligini imkoniyatidan ortik darajada baxolashdir. Uz imkoniyatlarini ortikcha baxolash bilan kichik usmirni psixik imkoniyatlari urtasida tasovud paydo buladi. Bu ziddiyatni xal etilishi kanday sodir buladi va u bolani tashki kurinishi xulk atvorida kanday namoen buladi?

Mahlumki xar bir bolaning munosobatlari anik ishlarda kurinadi mustaxkamlanadi va kayd etiladi. Bola uzidagi mustakkilikni shakllantirish uchun uzi mustakil ishlarni bajarishga tugri keladi. Lekin ikkinchi tomondan bir marta mustakil ish bajarish uchun istemoliy shart sharoitlardan xoli bulishga xarakter kiladi. Lekin mustakil xarakter kilish uchun bola boshka mexanizmlarga ega emas. Bular usmirni uz kuchiga ichki bir ishonchni mavjud emasligi uz oldida turgan va uning uning natijasini anik tassavur eta olmaslik kabi alomatlardir. Bu belgilar mana shu eshda kishini mustakil xarakter kilishga kodir bulishga ayni xollarda tevarak atrofdagi kishilarga karshi borib uzini xak ekanligini kattik turib ximoya kilishga boshka xollarda esa vaziyatni vazminlik bilan kabul kilishga davat etadi. Kichik usmirda uz-uzini xurmat kilish va uzini anglashni shakllantirishni bir kancha yullari mavjud. Masalan:bu davrda kattadarga taklid kilish eki oilada uz xurmatini talab kilish uz suzini utkazish uzini xurmatli obruyli katta eshli kishini obraziga uxshatib rivojlatirish kuchli buladi. Ularag biror suz eki tanex bilan murojat kilsangiz u uzini mustakil fikrlay olishi va biror ishni albatta udasidan chika oladigandek kursatadi. Vaxolanki xali usmirni psixologik imkoniyatlari etarli emas eki rivojlanmagan kattalar ukituvchilar usmirdagi bu jaraenni psixologik nuktaï nazaridan baxolay olishimiz unga soxta pedogogik yuzaki endashmay aksincha unga uz imkoniyatlarini ustirishga uz ichki va tashki kobilyatlarini rivojlantirishda yunalitirishimiz muxim. Usmir eshdagi bolani birinchi galda intiladigan narsani u uzini endi kichkina bola emas katta bulib kolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iborat. Bu eshda kttalar usmirlarni bilib bilmay kuyaetgan kamchilik va xatolarini kupchilik ichida uyaltirib kamsitib koralab emas yualki psixologik yul bilan endashgan xolda erdam berish uni "katta bulib kolganlik" tuygusini sundurib emas balki katta odam kanday bulishi va kanlay talablarga javob berishi kerakligini anglatish zarur. Demak bu usmirni tulakonli psixik rivojlanishi uchun zarur bulgan xaetiy bir xislat ekanligini bilgan xolda shu bilan boglik salbiy ishlarni psixologik tabiatini tugri tushunmogi va bolalarni uzlarini katta utishlariga tuskinlik kilmaslik aksincha ularning bunday xatti xarakterlarini ijobiy yuzaga solish uchun intilishi kerak. Usmirlarni uz tengdoshlari bilan mulokotda bulishi goyat katta axamiyatga egadir.

Uz tengdoshlari bilan tenglik asosida kilingan muammolar munosabat asosida usmir aloxida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini utaydi. Uzaro kizikishlar atrof duneni bir birlarini birgalikda anglashlari va tushuntirishlari ular uchun juda kimmatlidir. Usmirlar uchun uy vazifalari uy ishlari buyicha majburichtlarni bajarishga karaganda tengdoshlari bilan mulokot kilish muximrokdir. Uz ishlari sirlarini bola endi ota onasiga emas balki tengdoshiga kuprok ishonadi. U endi salbiy va ijobiy tomonlariga aloxida bir urgu bermagan xolda uzi xoxlagan kishisi bilan dust bulish xukukini talab etadi. Uz tengdoshlari bilan mulokot va munosabat

jaraenida uz shaxsini erkinlik bilan tula nomoen eta oladi. Ana shu shaxsiy erkinlikni u katta bulishi xuukki deb anglaydi. Ota onalarning usmiringa shu erkinlikning bermasligi eki usmirning shunday deb bilishi natijasida ular ota-onaga karshi pozitsiyada buladilar. SHuni aloxida takidlash lozimki ana shu mulokot va munosobat asosida usmirlarda gurur xissi shakllana boshlaydi. Albatta gurur norma va koidalari kattalardan urganiladi lekin uz gururini kanday ximoya kilishi usmirlarining aloxida nazoratida buladi. Ular orasida sodiklik va tugrilik kabi xislatlar yukori baxolanib sotkinlik uz suzida bevafolik turmaslik egoizm kizgonchiklik kattik koralanadi va kattik jazolanadi. Bu jazo u bilan urinish kaltaklash unga karshi bakot ehlon kilish va uni elgizlatib kuyish shaklida bulishi mumkin. Usmirlar uzini xurmat kilishini uz fikrini va kizikishini ximoya kilishni bilmagan tengjoshlariga juda past baxo beradilar.

O'smirlik psixik rivojlanishdagi yangilanishlar

O'smirlik davrida asosan bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yillarda o'smirlarga xayot davomida kerak bo'ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko'rina boshlaydi. Xotira mexanik xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga ko'tariladi. Nutq asosan yuqori darajada rivojlangan, xilma-xil va boy tafakkur esa o'zining barcha ko'rinishlari: xarakterli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. O'smirliarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o'rgatish mumkin. SHuningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi.

O'smirlik davriga juda ko'p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasturi va boshqa ishlar bilan bog'liq turli masalalarni echishda ko'zga tashlanadigan o'smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo'yicha fikrlashga undaydi, o'smirlarning o'zlari xam bunga xarakter qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, kelajak kasb, xulq atvor etikasi, o'z majburiyatlarga majburiyatlariga maosullik kabi muammolar muxokamasida infantillikni (yosh bolarlarga xos jisomniy va psixologik xolat) kuzatish mumkin.

5-6 sinf o'quvilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqeiga katta eotibor berish xususiyati xos. Ayniqsa 6 sinfdan boshlab o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o'zaro munosabatlariga eotibor bera boshlaydilar.

7-sinf o'quvchilarida esa o'z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8 sinf o'quvchilari esa mustaqillik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bog'liq bo'ladigan shaxsiy xislatlar yuqori baxolanadi. O'smirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslanag xolda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirish mumkin.

O'smirlik davrida turli fanlarni turli xil o'qituvchilar o'qitish munosabati yuzaga keladi. Kattalar shaxsi va faoliyatni baxolashning yangti mezonlari xam ularda shakllana boshlaydi. O'smirlik asosan bilimli, talabchan, xaqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan etkaza oladigan o'quvchilarni ajratmaydigan, o'qituvchilarni ko'proq xurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar. Ular o'qituvchi bilan munosabatlariga xam katta eotibor beradilar.

10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida xam quyidagicha o'zgarishlar amalga oshadilar. Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik o'smirlar asosan o'zlariga salbiy shaxsiy xarakteristka beradilar. Katta bo'lgan sari o'smirning o'z-o'ziga bergan baxosi differensial xarakterda (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishga va ayrim xatti xarakterlariga bo'la boshlaydi)

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar.

1. YOsh va pedagogik psixologiya predmeti.
2. Psixik rivojlanish va yosh davrlarining tasnifi.
3. YOsh davrlarini tabaqalashtirish nazariyalari.

4. Etakchi faoliyat turi nima?

Tayanch soʻz va iboralar:

Rivojlanish. Yosh davrlari. Genetik nazariya. Biogenetik nazariya. Sotsiogenetik nazariya.

9-ma'ruza. Pedagogikaning predmeti, maqsadi va vazifalari.

1. Pedagogik faoliyatning paydo boʻlishi, pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.

2. Pedagogikaning tarkibiy tuzilishi va asosiy tarmoqlari.

Aniqlashtirilgan oʻquv maqsadlari. Talaba bu mavzuni toʻla oʻzlashtirgandan soʻng:

-Pedagogikaning paydo boʻlish tarixini biladi;

-Pedagogika fanini maqsadini aytib beradi;

-Pedagogikaning tarmoqlarini sanaydi;

-Xar bir tarmoq uchun taʼrif beradi;

-Pedagogika atamasi uchun klaster tuzadi.

Tayanch soʻz va iboralar

Pedagog, pedagogika, pedagogik faoliyat, pedagogikaning tarkibiy tuzilishi, pedagogikaning tarmoqlari, metodika.

9.1. Pedagogik faoliyatning paydo boʻlishi, pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.

Bizga tarix fanlaridan maʼlumki, Oʻrta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlari ibtidoiy jamoa tuzumi vujudga kelgach rivojlana boshlagan. Jamoada insonlar oʻzlari uchun zarur boʻlgan oddiy ishlab chiqarish qurollarini yasashga kirishishlari natijasida jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yangi shakli yuzaga keladi. Bu davrda bola tarbiyasi bilan ayollar shugʻullangan, shu asosda jamoada ayollarning mavqei ortgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov taʼkidlaganidek Har qanday davlat, har qanday jamiyat ham oʻz boyligi bilan qudratli hisoblanadi. Har bir xalq mamlakatning tabiiy zamini, er osti va er usti zaxiralari, togʻlari va oʻrmonlari, daryo-yu dengizlari, ulkan shaxarlari, goʻzal inshootlari bilan oʻz kuch qudratini namoyon etishga harakat qiladi.

Lekin, koʻp asrlik tarixiy tajriba shundan dalolat beradi-ki, jamiyatning xaqiqiy boyligi, bu - inson, inson avlodidir. Kishilik jamiyati el yurtiga, vataniga sadoqatli, iymon-eʼtiqodi butun, mard va jasur, malakasi etuk, maʼnaviyati yuksak insonlar bilan xaqli ravishda faxrlanadi. Bu ulugʻvor, betimsol boylik xar qaysi davlatning qudratli salohiyat manbaidir.

Ana shunday noyob fazilatlariga ega avlodni tarbiyalab voyaga etkazayotgan xalq kelajakka ochiq koʻz, katta ishonch bilan qarashi mumkin [1.3].

Qadimgi davrda kishilar maʼnaviyati, jumladan, axloqi, qadimiy urf-odatlarini, anʼanalari, maʼrifati, taʼlim-tarbiyasi xaqidagi fikrlar xalq ogzaki ijodida, masalan, Goʻrugʻli, Alpomish xaqidagi yaratilgan dostonlarda oʻz ifodasini topdi. Bu anʼanalar qadimgi Sugʻd, Manixey, Xorazm, Turk yozuvlari naʼmunalarida ham ifodalanadi.

«Alpomish» dostonida xalqimizning qaxramona utmishi - urugʻchilikning emirilishi, chorvadorlar hayotida davlatchilikning paydo boʻlish davridagi munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy hayoti, udumlari, axloq-odobi, qardoshlik tuygʻulari koʻrashi, oʻy - fikrlari, orzu - havaslari yorqin ifodalanadi.

Oʻzbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlash koʻp asrlar davomida qoʻllagan usul va vositalari, tadbir shakllari, oʻziga xos urf odati va anʼanalari, tarbiya xaqidagi gʻoya va hayotiy tajribasi xalq pedagogikasida mujassamlashdi. Xali maktab boʻlmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davridayoq, qabila aʼzolarining bolalarda mehnatsevarlik, jangovorlik, axloq odob, nafosat, doʻstlik, mehr shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasidagi aql-idroki va usullari oʻsha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida bizning davrgacha etib keldi va xalq pedagogikasi tarzida shakllandi.

O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa va quldorlik davrida ham bola tarbiyasida nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish, maqtash, na'muna ko'rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanilgan. Bu usullarni qo'llash esa axloq qoidalariga suyangan xolda, ya'ni bola qilgan ishi, xatti-harakatining to'g'ri yoki noto'g'riligi xaqida ishonch xosil kilingan, shuningdek, axloqlilik hamda axloqsizlik, odillik, adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning ma'nosini tushuntirish orqali amalga oshirilgan. Bu tartib tarbiyada asosiy qoida hisoblangan va tushuntirilganda bolalarning yoshi hisobga olingan. Xalq pedagogikasining yuzaga kelishi, tarkib topishi va mukammal bir xolga kelishida xalq orasida xukm surib kelgan, diniy e'tiqodlar, rasm-rusmlar muayyan darajada mavqega ega bo'lgan.

Feodalizm davrida tarbiya din ta'sirida bo'lganligi uchun ta'lim nazariyasining asosiy g'oyalari diniy ilm orqali ifodalangan.

Islom dini ta'limotlari Allox tomonidan payg'ambarimiz Muhammad Mustafo salalloxu alayhi vassallamga oyatlar tarzida nozil etilgan- Qur'oni Karimda bayon etilgan.

Qur'oni Karim musulmon axlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, xuquqining asosi bo'lib, unda iloxiyot, diniy e'tiqod masalalari bilan birga, insonparvarlik, insonlarni kovushtirish, ularning o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyat-nizolarning oldini olish, ular orasida adolat urnatish kabi axloqiy muammolar ifodalangan.

Payg'ambarimiz Muhammad alayxissalom: «Kishi o'z bolasiga odobdan ko'ra afzalroq narsa ato etolmaydi»(735-xadis) deydilar.

Qur'oni Karimda ilmga katta e'tibor berilgan va ilm so'zi 765 o'rinda tilga olib o'tiladi, «Ilm o'rganish xar bir mo'min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, xatto dengizdagi baliqlar ham gunoxini so'rab iztig'for aytadi» (370- xadis). Rasululox tolibi ilmlarga murojaat etib: «Olim bo'l (ilm beruvchi bo'l) yoki o'rganuvchi bo'l, yoki tinglovchi bo'l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, xalok bo'lasan»(141-xadis), deb nasihat qiladilar.

Islom ta'limoti, Qur'oni Karim, payg'ambarimizning sunnatu soniyalari va Xadisi SHariflari insonlarni lutf bilan to'g'ri yo'lga boshladi, yuksak axloqli bo'lishga chorlaydi.

Qadimiy va O'rta SHarq adabiyoti namoyondalari orasida nazariy-pedagogik tusga ega qator ilmiy qarashlar mavjud bo'lgan. Ular orasida Al -Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalarning asarlarini misol keltirish mumkin.

Forobiyning ta'lim-tarbiya xaqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari aloxida o'rin tutadi. Uning uqtirishicha, insonni baxt saodatga eltuvchi jamoa etuk jamoa bo'la olishi mumkin, uning ta'kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mo'min. Tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni - bilimli bo'lishga, to'g'rilik va xaqiqatni sevishga, jasur, do'stlarga sadoqatli bo'lish singari fazilatlarini egallashga intilmog'i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lish uchun baxt saodatga eltuvchi jamoa bo'lishi kerak.

Forobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va etuk yakuni deb biladi. SHunga ko'ra, o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rin egallashini qayd qiladi.

Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aqli-ongiga va axloqiga e'tibor beradi. SHuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonning aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham etuk mukammal kishi qilib etishtirishga qaratilmog'i lozim.

Forobiy ta'lim tarbiya ishiga kirishish, uni boshlashdan avval odamlarning shaxsiy xislatlarini bilish lozimligini aytadi.

Ibn Sino yaxshilikka olib boruvchi axloq qoidalarini egallash, insonning axloqiy munosabatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi tadbirlar orqali ta'lim-tarbiyani izchil amalga oshirish mumkinligini alo-xida qayd qiladi.

Ibn Sinoning fikricha ta'lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o'rgatishni, jismoniy tarbiyani, axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma'lum xunarga o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi.

Alisher Navoiy yosh avlodlarning ilm-hunarni va eng yaxshi insoniy fazilatlarini egallagan kishilar bo'lishini orzu qiladi.

Alisher Navoiy ilmiy va adabiy faoliyatida ham, ta'lim- tarbiya xaqida bildirilgan fikrlarida ham o'zidan oldin yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugbek va boshqa mutafakkirlar an'anasini davom ettirdi va boyitdi.

Alisher Navoiyning ta'biricha, tarbiyaning maqsadi - yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlariga ega kishi qilib voyaga etkazishdir. U injiq, yalqov, yomon xulqli bolalarni ham tarbiya va o'qitish yo'li bilan yaxshi fazilat egasi qilib tarbiyalash mumkinligiga ishonadi va jamiyatdagi ayrim axloqiy jihatdan nuqsonli kishilarni qayta tarbiyalashda tarbiya muhim ahamiyat kasb etishini uqtiradi.

Tarbiya va uning maqsadi to'g'risida fikrlar, tarbiya nazariyasining g'oyalari ancha oldindan ilgari surilgan bo'lsada pedagogik ilmiy bilim-fan sifatida bir oz keyin shakllangan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi buyuk chex pedagogi YAn Amos Komenskiy nomi bilan bevosita bog'liqdir. Komenskiy tomonidan taklif etilgan prinsiplar shakl va uslublari «Pedagogikaning oltin fondi»ga kirgan. Uning mashxur «Buyuk didaktika» asari pedagogik nazariyasi va amaliyoti soxasida birinchi muhim ilmiy asar hisoblanadi.

O'quv jarayonida ta'lim tarbiya ma'lumot o'zaro bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Xar qanday fan o'rgatilishi mobaynida o'qituvchi bolalarga bilim asoslarini bayon etadi. SHu materiallar mazmuni asosida tarbiyaning biror tomonini xal etadi, bolalar dunyo qarashini shakllantiradi, madaniy xulq atvorini tarbiyalaydi.

Pedagogika fanining predmeti bo'lgan ilmiy bilish asosida jamiyatning aloxida funksiyasi-tarbiya mazmuni yotadi. «Pedagogika» atamasi qadimiy YUnonistonda kelib chiqqan. Bu erda quldorlar bolalarni maktabga kuzatib qo'yadigan, olib boradigan odamlarni «pedagog» deb atashgan. «Pedagog» atamasi lotincha «payne» - bola, «agogeyn» - etaklamoq ma'nosini bildiradi. Maktablarda ishlaydigan ya'ni ta'lim berish bilan shug'ullanadigan o'qituvchilarni esa «Didaskallar» deb atashgan, bu lotincha «Didayko» so'zidan olingan bo'lib, men o'qitaman, degan ma'noni anglatadi.

Keyinchalik bu atamalarning ma'nosi bir muncha o'zgardi. Maxsus tayyorgarlik ko'rgan va tarbiya bilan shug'ullanadigan shaxslar «pedagog» deb atala boshlagan. Ko'p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat usib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasini o'rganadi, deb qaralgan. Ammo hayot amaliyoti tarbiyaning umumiy prinsiplari faqat bolalar tarbiyasiga emas, balki kattalar tarbiyasiga ham taaluqli ekanligini ko'rsatadi. SHuning uchun ham keyingi paytlarda pedagogikani yosh avlodni va katta yoshdagi odamlarni tarbiyalash va o'qitish, ularga ma'lumot berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan, deb belgilash odatga aylandi.

Pedagogika fanining baxsi bo'lgan ilmiy bilish asosini ta'lim tarbiyaning mazmuni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Respublika Oliy Majlisining birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida xur O'zbekistonda demokratik tuzumni barpo eta borish bilan birga, amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilari bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish lozimligini ta'kidlagan edi.

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarning tafakkuri, axloqi yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy nematlar ishlab chiqarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash xissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogika o'quv yurtlarining, maktab, litsey, gimnaziya, kollej, institut va universitetlarning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Xozirgi kunda oliy o'quv yurtlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri tashkil etilayotgan akademik litsey va kasb-xunar kollejariga yuqori malakali pedagog va muxandis-pedagoglar tarbiyalab berishdir. Tarbiya jamiyat vazifasi bo'lib, u faqat ishlab chiqarish munosabatlari ta'sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g'oyalari ta'sirida anik shaklga ega bo'ladi, shuning uchun ham ko'p jihatdan ma'rifatchi va pedagoglar faoliyatining natijasini ifodalaydi.

Jaxon pedagogikasining etakchi kismlaridan biri bo'lgan pedagogika fani o'zini o'zok tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib utib, xozirgi vaktida takomillashgan ilmiy bilimlarni, boy nazariy va amaliy materiallarni o'zlashtirish bilan o'zining tabakalanish ya'ni uning aloxida tarmoqlarga ajralishiga sabab bo'ldi. Pedagogika fanining barcha tarmoqlarini shakllanishi

pedagogika fani tarixi bilan mustaxkam bog'liqdir. Pedagogika tarixi esa, pedagogika fanining maxsus tarmog'i hisoblanadi.

Pedagogika tarixi pedagogik ta'limotning tarixi va tarbiyaning rivojlanishi masalalarini ijtimoiy xodisa sifatida tadbiiq etuvchi pedagogik bilimlar tarmog'idir. U ilg'or pedagogik g'oyalarning salbiy pedagogik g'oyalarga qarshi ko'rash tarixini xukmron tabaqalarning demokratiyaga qarshi siyosatini ochib tashlaydi, ilg'or pedagogik g'oyalar, xur fikrlar ta'lim qonuniyatlarining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoillarini taxlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o'rtaga tashlaydi.

M.S. Pedagogika kursini o'qitishdan maqsad nima?

1.2. Pedagogikaning tarkibiy tuzilishi va asosiy tarmoqlari.

Pedagogika fanining tarixan shakllanishi, pedagogika fanlari tizimini yuzaga keltirdi. SHu sababli o'zluksiz ta'lim, peda-gogika fanlari tarkibiga kirgan pedagogikalar o'rtasidagi hamkorlikni takozo etadi.

Pedagogikada tarbiyalanuvchilarning yoshiga ko'ra maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi va katta yoshdagilar deb guruxlarga ajratish qabul kilingan. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar pedagogikasi mazkur gurux bolalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy-tashkiliy ishlarning qonuniyligini tadqiq etadi hamda eng avvalo ularni bolalarning maktabgacha muassasalari shart-sharoitlarida amalga oshirish dasturini ishlab chikadi.

Maktab pedagogikasi ommaviy o'rta maktabda o'quvchilarga ta'lim berish va tarbiyalashning qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi - umumiy maktablarning yukori sinf o'quvchilari yoshida bo'lgan bolalar, akademik litsey va kasb-xunar kolleji shart-sharoitlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonning o'ziga xosligini tadqiq etadi.

Ishlab chiqarish pedagogikasi - ishlab chiqarishda ishlaydigan shaxslarga ta'lim va tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi.

Xarbiy pedagogika - milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan xarbiy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim berish hamda tarbiyalash muammolari bilan shug'ilanadi.

Oliy maktab pedagogikasi - oliy o'quv yurti shart-sharoitlarida yoshlarga ta'lim tarbiya berishning nazariy masalalar va metodikasini ishlab chiqadi.

Metodika - maxsus fanlarning o'qitish hamda ularni tashkil etish qoida va usullarini tadqiq etadi.

Umumta'lim maktablarida emas, balki yordamchi maktablarda shug'ullanishlari mumkin bo'lgan bolalar, ya'ni ko'rish, eshitish, so'zlash a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalarni mexnat faoliyatiga tayyorlash, tarbiyalash va ta'lim berishning o'ziga xos tomonlarini tadqiq etuvchi fanlar pedagogika fanining maxsus guruxini tashkil etadi. Pedagogikaning bu maxsus tarmoqlari defektologiya yoki maxsus pedagogika degan umumiy nom bilan ataladigan maxsus guruxga birlashtirilgan.


Defektologiya fanlari o'z navbatida aloxida mustaqil fanlarga bo'linadi: kar va gung bolalar tarbiyasi va ta'limi masalalari bilan surdopedagogika, ko'zi ojizlar bilan tiflopedagogika, aqli ojizlar tarbiyasi va ta'limi bilan oligofreno-pedagogika shug'ullanadi.

Pedagogika fanining hamma tarmoqlari o'zining turli rivojlanish, taraqqiyot bosqichlariga egadir: ularning ayrimlari aniq shakllanib bo'lgan va etarli darajada keng ishlab chiqilgan (masalan, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi); boshqalari o'zining shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda (masalan, oliy maktab pedagogikasi, ishlab-chiqarish pedagogikasi); ba'zi bir tarmoqlar pedagogikasining ajralib chiqishi endigina boshlanmoqda.

M.V. Pedagogika va kasbiy ta'lim pedagogikasi fanlarini sharxlang.

Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar

1. Ma'ruza matnini o'qib, belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang. Klaster metodi yordamida pedagogika tarmoqlarini aniqlang. Ularni aylana atrofiga markazdan uzoqlashtirish tartibida yozing.



10 - Mavzu. Pedagogikada asosiy tushunchalar.

1. Tarbiya, ta'lim, ma'lumot tushunchalari.
2. Rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Tarbiya va uning mohiyatini biladi;
- Ta'lim va uning ahamiyatini tushuntiradi;
- Ma'lumot va uning turlarini sanaydi;
- Rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar tushunchasiga ta'rif beradi;
- Sinkveyn (ma'lumotlarni yig'ish) strategiyasini qo'llaydi.

Tayanch so'z va iboralar

Tarbiya, ta'lim, ma'lumot, rivojlanish, tarbiyaviy munosabatlar, ta'limning maqsadiga ko'ra turlari

1. Tarbiya, ta'lim, ma'lumot tushunchalari.

Pedagogika fan sifatida shakllanar ekan boshqa fanlardan farqli ravishda o'zining asosiy tushunchalariga ega. «Pedagogika»ning asosiy tushunchalari birinchi rasmda kursatilganidek rivojlanishni belgilaydi, bu tushunchalar fiziologiya va psixologiya fanlaridan tanish bo'lsada biz bo'larni o'zaro bog'liqligiga tuxtalamiz.

1-rasm. Asosiy pedagogik tushunchalar tizimi

Tarbiya - insonlar rivojlanishida asosiy ro'l uynaydigan jarayon bo'lib, bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirishlarini va ularning ijtimoiy hayotga kushilishlarini ta'minlab beruvchi zaruriy faoliyatdir. Tarbiya- inson tarbiyalanganligining

me'zoni sifatida shaxsiy xislatlarning shakllantirish bilan bog'liq xolda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida insonning rivojlanishiga tashqi muxitni ta'sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimnidir tajribasiga tayanadi hamda unga asosan o'zining ko'nikma va malakalarini shakllantirib boradi. U faqat utmish me'rosxo'ri sifatida ijtimoiy hayotga qo'shilib boradi va kelajak uchun tayyorlanadi.

Rivojlanib borayotgan avlodni katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni tarbiyaviy jarayon bo'lib, u insonlar rivojlanishini boshqarish hamda ularni shaxsiy xislatlarini shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi. Ayrim xollarda tarbiya bilan rivojlanish o'rtasida o'zaro bog'liqlik yo'qdeq tuyuladi, aslida ular o'rtasida bog'liqlik juda murakkab va ahamiyatlidir. Inson shaxsi tarbiya jarayonida rivojlanib boradi, rivojlanish darajasi uning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ya'ni o'zgartiradi, shakllantiradi. Yaxshi tashkil etilgan tarbiya shaxsning rivojlanish darajasini tezlashtiradi va yana qayta tarbiyaga ta'sir kursatadi. SHu tarzda insonning butun hayoti davomida bu ta'sir va aks ta'sirlar o'zaro bir-birini tuldrib, ta'minlab boradi.

«Tarbiya» atamasidan ko'pgina pedagogik atamalar kelib chiqqan; tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, tarbiyalangan, tarbiyalanganlik, tarbiyaviy va xokazo. Bo'larning barchasini manbasi va ma'nosi bitta. Tarbiyachi-inson, avlodlar tajribasini egallashlari uchun majburiy yoki zaruriy ta'minotchi. Tarbiyalanuvchi-tajribalarni egallaydigan va urganadigan shaxs. Tarbiyalangan (tarbiya kurgan) - tajribalarni yaxshi egallagan va unumli foydalanuvchi. Tarbiyalanganlik - shaxsning sifat kursatgichi, tajribalarni yaxshi o'zlashtirganligi, tarbiyaviy-rivojlantirish maqsadida yunaltirilganlik. Masalan, tarbiyaviy aloqalar, tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy tizim, tarbiyaviy ishlar va tadbirlar.

Hayotda «tarbiya» juda keng qo'llaniladi. Tajriba o'rgatish, tarbiyalash ommaviy axborot vositalar yordamida, san'at orqali, boshqaruv organlari tizimi va tashkilotlarda siyosiy, manaviyat va ma'rifat ishlarini tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bularni amalga oshirishda ma'lumot muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumot - ma'lum maqsadga yunaltirilgan, inson shaxsining rivojlanishini ta'minlovchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, o'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanadi.

Maxsus tashkil etilgan ma'lumot beruvchi tizim - bu ta'lim-tarbiya muassasasi, qayta tayyorlash va malaka oshirish tashkiloti, o'quv-material baza, moliya (finans), kadrlar, ilmiy-metodik ta'minot. Ularda ma'lum mak-sadlarga ko'ra tajribalar o'rgatish va o'rganish maxsus dasturlarga asosan tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'lumot aniq bir yoshdagi shaxslarda bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligini, bilish qobiliyati o'sganligini va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligini, ularning ijobiy kuchlari va kobilyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi. Qachonki inson ma'lumoti to'g'risida gapirilganda uning ma'lumotlilik tushiniladi. Ma'lu-motlilik - shaxsiy sifat ko'rsatkichi, ya'ni, shaxsning rivojlanish darajasi, uning tajribasi, ko'nikma va malakalarni qay darajada o'zlashtirganligi va ulardan foydalanish hamda ular yordamida yangi bilim-kunikmalarni egallab, to'ldirib borish qobiliyatlari tushuniladi.


«Ma'lumot» to'g'risida gapirar ekanmiz ma'lumotli bo'lish uchun «Tarbiya» o'zi etarli emas, bunda ma'lum bir jarayonlar mavjud bo'lib, bu jarayonlarni tashkil etish negizida «Ta'lim» tushunchasi mavjud.

Ta'lim - tajribalar almashinish jarayoni bo'lib, rejali ravishda amalga oshiriladigan «o'qituvchi-o'quvchi» muloqoti, uning natijasida ma'lumot, tarbiya va rivojlanish amalga oshadi.

Ma'lumot olish tizimida ta'lim asosiy rol o'ynaydi. Maqsadiga ko'ra u ikkita asosiy qismdan iborat: Tajribalarni o'rgatish (o'qitish) va uni o'rganish (o'qish). O'qitish-milliy qadriyatlarimizni, hayotiy tajribalarni, fan va texnika soxalaridagi yutuqlarimizni yosh avlodlarga o'rgatishni ta'minlaydi. O'qish-milliy qadriyatlarni, fan-texnika soxasidagi yutuqlarni, tajribalarni o'rganishga, tushunishga, tafakkurni rivojlanishiga, mustaqil fikrlashga va ulardan hayotda foydalanish uchun ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. O'qitish-pedagogik foliyat (o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustasi, tarbiyachi faoliyati), o'qish-o'quvchi (o'rganuvchi, tarbiyalanuvchi, ta'lim oluvchi) faoliyati.

«Ta'lim», «Tarbiya» va «Ma'lumot» tushunchalari bir-birini to'ldirishi hamda birinikkinchisi, ikkinchisini-uchinchisi ta'minlovchisi, bular natijasida inson shaxsining rivojlanishi ta'minlanar ekan, buni biz hayotda mevali daraxtga qiyoslaymiz (2-rasm). Mevali daraxt urug'dan tuproqda unib

chiqadi, unga o'z vaqtida suv berib, ishlov berib parvarish qilinsa rivojlanib daraxt bo'ladi va meva beradi.



2-rasm. Rivojlanish (pedagogik tushunchalar tizimi).

Mevali daraxtni rivojlanishida urug', tuproq, daraxt alohida vazifalarni bajarsada birontasi bo'lmasa qolganlarini tasavvur qilib bo'lmaydi ya'ni, rivojlanish bo'lmaydi. Urug'ni erga ekish, unga suv berish, tagini yumshatish, mevalarini terib olish, undan yana urug' olish qisqa so'z bilan aytganda uni shakllantirish ishlarini bog'bon (dexqon) bajaradi. Bog'bonning bu faoliyatlarini inson shaxsini shakllantirishdagi (rivojlantirishdagi) pedagogni faoliyatiga qiyoslash mumkin, ya'ni pedagog yosh avlodga ta'lim berish bilan birga tarbiyalaydi, ma'lumot beradi, rivojlantiradi hamda uni kelajakdagi fan va texnika soxasidagi yutuklarini o'rganadi va buni yana yosh avlodlarga o'rgatadi.

Pedagogikada boshqa tushunchalar ham mavjud, bo'lar yordamida inson shaxsini rivojlanish jarayoniga ta'rif beriladi. Masalan, «SHakllanish», bu inson rivojlanishida ta'lim va tarbiyani o'zida mujassamlashtirishini, ma'lumotini ortirib borishini, tafakkurini, mustaqil fikrlash darajasini belgilaydi.

Hayotda biron bir texnikadan kompyuter yoki stanoklardan foydalanib tabiiy xoldagi mevani tayyorlab (yaratib) bo'lmaganidek, rivojlangan barkamol insonni ham texnika yordamida bir zumda tayyorlab bo'lmaydi. mevani pishib etilishida bog'bonni mehnatidan tashqari daraxt mustaqil faoliyat ko'rsatadi, ya'ni mevani shakllantiradi. Demak, inson shaxsini rivojlanishida ham pedagog faoliyatidan tashqari o'zini-o'zi shakllantirishda shaxsning ichki tuygulari katta rol o'ynaydi. Ichki tuyg'u insonni rivojlanishida harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi va bu inson shaxsida o'z-o'zini tarbiyalashni, mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olishni tashkil etadi. Bu tushunchalarni pedagogik tushunchalarga munosabatini 1-rasmida keltirilgan.

O'zini-o'zi tarbiyalash - bu ichki tuyg'ular yordamida milliy qadriyatlarni, fan va texnika yutuqlarini, tajribalarni o'rganish, mustaqil rivojlanish jarayonidir.

Tarbiya, majburiy bo'lmasa, o'zini-o'zi tarbiyalashsiz uni amalga oshirib bo'lmaydi. o'z-o'zini tarbiyalash faqat yosh o'smirlarga tegishli bo'lmay, balki barcha yoshdagi shaxslar uchun ham ta'luqli bo'lib, buni qanchalik yaxshi shakllantirilsa tarbiya jarayonida pedagog faoliyati shunchalik osonlashadi. Pedagogni maqsadi, ma'lumot tarkibini qanchalik aniqliligi insonni mustaqil ma'lumot olishiga ta'sir qiladi.

Mustaqil ma'lumot - bu insonning avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish maqsadida, o'z ichki tuyg'ulari asosida mustaqil tashkil etgan, shaxsiy rivojlanish jarayonidir.

Mustaqil ma'lumot inson shaxsini rivojlanishida, tajribalarni egallashida qulayliklar yaratsa, mustaqil ta'lim esa (o'qishning) ta'lim olishni asosi hisoblanadi.

Ma'lumot ta'lim-bu insonni o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fantexnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonni ichki dunyosi, xis tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi. Bu xaqda shunday deyiladi

*«Kimki ololmasa hayotdan ta'lim,
Unga o'rgata olmas xech bir muallim».*

Pedagogika «Oʻzini-oʻzi tarbiyalash», «Mustaqil maʼlumot», «Mustaqil taʼlim» tushunchalari orqali insonning tugʻma talanti, qobiliyati, xis-tuygʻulari, ichki dunyosini shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyatini yoritib beradi. Insonlarning ichki dunyosidagi shunday harakatlantiruvchi kuchlar mavjudki, bular shaxsni rivojlanishida asosiy rolni oʻynaydi. Xozirgi kunda bu tushunchani hech qaysi faylasuf, pedagog yoki ruxshunos inkor etmaydi.

Biz nima uchun insonlar toʻgʻrisida gapiryapmiz faqat oʻquvchi yoki tarbiyalanuvchi xaqida emas, chunki, inson butun umri davomida taʼlim oladi, tarbiyalanadi, usishda va rivojlanishda davom etadi.

Tarbiya - oʻz-oʻzini tarbiya, maʼlumot mustaqil maʼlumot, taʼlim - mustaqil taʼlim oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni «Tarbiyaviy munosabatlar» tushunchasi orqali tushunib olishimiz mumkin.

M.S. Maʼlumot turlarini sanang.

10.2. Rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar

Rivojlanish - bu obʼektiv jarayon boʻlib, tash-ki va ichki bosh-kariluvchi omillar tomonidan miqdor va sifat jihatdan fizik va maʼnaviy shakllanish jarayonidir.

Rivojlanish shaxsning fazilatlarini, sifatlar va xulqlarning shakllanishi, tushunchalarning chuqurlashishi, kengayishi, osondan kiyinga, oddiydan murakkabga, mavxumdan bilishga, oddiy hayot kechirish shakllaridan oliy faoliyatga oʻtish jarayonidir.

SHaxsning rivojlanishi avvalo unda shaxsiy xislatlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Rivojlanish oʻzida shaxsning jismoniy, akliy, axloqiy va boshqa xis-latlarining takomilini namoyon etadigan jarayon hisoblanadi.

Rivojlanish - bu insonning ruxiyati va organizmidagi sifatli oʻzgarishlaridir. Bu oʻzgarishlar ijtimoiy muxit, uy-joy sharoitlari, uning qurshab turgan kishilarning taʼsiri natijasida yuz beradi. Insonga tugʻma ravishda xatti-harakatlarning hech qanaqa, na ijtimoiy, na noijtimoiy dasturlari berilgan emas. Xar bir inson uchun, shaxs sifatida fazilatlarining shakllanish jarayoni amalda noldan boshlanadi. SHuning uchun ham maʼlum maqsadlarga yunaltirilgan taʼlim-tarbiya sharoitlari inson shaxsining shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini inkor etmaydi.

Insonni rivojlanishida yaʼni uni tarbiyalashda jamiyat tomonidan tashkil etilgan tarbiyalash muassasa-larining va tarbiya jarayoniga qatnashayotgan barcha kishilarning faoliyatlari yaʼni tarbiya muhim rol oʻynaydi. Taʼlim, tarbiya, maʼlumotni amalga oshirishda, jamiyatda insonlar oʻzaro maʼlum bir belgilangan munosabatda boʻladilar. Bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy, estetik va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb atash qabul qilingan.

Tarbiyaviy munosabatlar turli shakllarga ega boʻlgan insonlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar boʻlib, ular inson shaxsini rivojlanishida taʼlim, tarbiya va maʼlumot orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, tarbiyaviy munosabatlar-insonlar oʻrtasidagi doimimiy munosabat (aloqalar) boʻlib, ular inson shaxsini rivojlantirishga yaʼni mustakil maʼlumot, mustakil taʼlim olishni va oʻz-oʻzini tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy munosabatlar - bu insonlarni oʻzaro tajriba almashinishi, tajribalarni oʻzlashtirishi, qoʻllashi boʻlib, bunga texnika, sanʼat va tabiat bilan boʻlgan munosabatlar ham kiradi. Boʻlarga asosan tarbiyaiy munosabatlarni asosiy shakllarini ajratib koʻrsatish mumkin: «inson-inson», «inson-kitob-inson», «inson-texnika-inson», «inson-sanʼat-inson», «inson-tabiat-inson» va x.k. (3-rasm).

M.S. Rivojlanishni nima belgilaydi?





Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar

1. O'quv maqsadlariga qaysi darajada erishganligingizni sinab ko'ring.
2. Ta'lim, tarbiya, rivojlanish tushunchalariga sinkveyn to'zing

11 - mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

1. Turkiston o'lkasida diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar va pedagogik fikr taraqqiyoti.

2. Turkistonda rus tuzem maktablarining tashkil topishi.
3. Turkistonda jadidchilik ma'rifati va ta'lim - tarbiya.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Turkistonda diniy - islomiy tarbiyaviy muassasalarni biladi;
- Musulmon maktablariida ta'lim tizimini tushintradi;
- Musulmon maktablarini va rus tizim maktablari taqqoslaydi;
- Rus-tuzem maktablari moxiyatini aytadi;
- Jadidchilik harakati va namoyondalarini sanaydi;
- Insert usulini qo'llaydi;

Tayanch so'z va iboralar.

Musulmon maktablari, rus-tuzem maktablari, jadidchilik harakati, Ismoilbek Gaspirali, usuli jadid, dasturi Marjoniy.

12.1. Turkiston o'lkasida diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar va pedagogik fikr taraqqiyoti.

XIX asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy va ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi, xolos. Bu maktabda machitlarning imomlari, savodxon mullalar dars berardilar. Bunday maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'onni o'qishni o'rgatish, xar bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanadi.

SHaxar maktablarida diniy ta'limdan tashqari, umumiy ta'lim elementlari - yozish va hisoblash yo'llari o'rgatilar, xalq orasida mashxur shoirlarning she'r va g'azallari o'qitilar edi. Odatda, bunday maktablarning o'quvchilari badavlat oilalarning bolalari edi. Ular o'qishni tamomlab, olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, xunarmandchilik ustaxonalarida qo'llar edilar, ba'zilar qo'shimcha ta'lim olib, xattotlik kasbi bilan shug'ullanar, ba'zilar madrasaga kirib o'qishni davom ettirar edilar.

Oliy diniy maktab bo'lgan madrasada o'rta asrlarga oid diniy falsafa va musulmon xuquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o'tilardi. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug'ullanish va qozixonalarda ishlash xuquqiga ega bo'lar edilar. Maktab va madrasalarda asosan o'g'il bolalar o'qitilar edi. SHaxarlardagi diniy maktablarda

ba'zi domlarning xotinlari - otinoyilar qizlarni ham o'qitish bilan shug'ullanar edilar. Maktab va madrasalarda dars o'zbek, arab va fors-tojik tillarida olib borilar edi.

Musulmon maktablarida ta'lim tizimi 5 toifaga bo'lingan edi.

1. Quyi maktab - bu maktablarda o'g'il bolalarga savod o'rgatilgan (4yil).

2. Xalilxona maktabi - (namoz) yod oldirib o'rgatilgan.

3. Korixona - Qur'on yod olingan.

4. Maktab internat - o'rta madrasa bo'lib, bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o'qitilib o'rta ma'lumot berilgan.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng maktab va madrasalarda ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonada chop qilingan darsliklar paydo bo'ldi. Kozonda bosmaxonada nashr qilingan Qur'on va haftiyaklar, Xindiston va Erondan shoirlarning litografiyada chop qilingan to'plamlari keltirilgan, Toshkentning o'zida ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yo'lga quyildi.

Mustamlaka ma'muriyati mashg'ulotlar o'rta asr tartibida olib borilayotgan musulmon maktablarining ishiga aralashmas edilar. Ammo maktablarda rus tilini rag'batlantiruvchi choralar qurishga ham harakat qilinardi. Natijada maxalliy yoshlar rus tilini o'rganishga ko'prok e'tibor bera boshladilar. XX asr boshlarida esa madrasalarda rus tilini o'qitish joriy qilinsin, degan ko'rsatmaga binoan 1913-1917 yillarda ba'zi madrasalarda rus tilini o'qitish joriy qilindi.

M.S. Avvalgi madrasa bilan hozirgi vaqtdagi madrasaning farqini tushuntiring.

2. Turkistonda rus tuzem maktablarining tashkil topishi.

Eski maktablarda ham ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rus tuzem maktablari hamda yangi xil maktablarning ta'siri ostida ba'zi eski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy qilindi - litografiyada birmuncha yangiliklar joriy qilindi, qizlarga o'qitishni o'rgatish bilan birga yozishni ham o'rgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga ko'ra o'zbek maktablari hayotida katta o'zgarishlar ruy berdi.

Asrimiz boshlariga kelib, Turkiston o'lkasidagi yirik markaziy shaxarlarda oliy ta'lim maskani hisoblangan quyidagi madrasalar - Buxoroda-80, Qo'qonda-40, Samarqandda-22, Marg'ilonda-28, Toshkentda-17, Xiva xonligida-130 mavjud bo'lib, ularda 400 dan 5000 tagacha talaba taxsil olar edi.

1906 yilga kelib, birgina Samarqand viloyatining o'zida 1510 ta musulmon maktabi bor edi, ularda 1482 o'qituvchi 12740 talabaga saboq berilgan.

Umuman olganda Turkiston o'lkasida 1905-1906 yillarda 5290 ta maktab bo'lib, ularda 70955 talaba ta'lim olgan.

Bu davrga kelib maxalliy fuqaro bolalaridan ilmiy kishilar tayyorlash maqsadida Xeva xoni Sayid Muhammad Raximxon Boxodirxon soniy - Feruz (1844-1910y.) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1844 yili o'z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo, Raxmonquli qori kabi maxoratli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishlari bilan shug'ullandilar.

Feruz farmoniga muvofiq 1904 yilning 10 noyabrda Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Xusayn Kushaev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi.

Xusayn Kushaev 1906-1907 o'quv yilida xonlikda ilg'or ma'rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabi tashkil qildi. Feruz unga xomiylik qilib, xazina hisobidan maktab uchun aloxida mablag' ajratib berdi.

Feruz xomiyligidagi bu maktabda Xusayn Kushaevning turmush o'rtog'i Komila Kushaeva qizlarga bilim bera boshladi.

1909 yilga kelib, Feruz qo'l ostidagi madrasalar soni 130 taga etib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xeva ziyolilari orasida nufuzli o'rinni egallagan Komil Xorazmiyni Toshkent shaxrida gimnaziya va maktablardagi o'qitish usulini o'rganib kelishi maqsadida safarga jo'natadi. Safardan qaytgach Komil Xorazmiy bu soxadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o'quv dasturi hamda rejasiga - riyoziyot, tarix, jug'rofiya, tabiat, rus tili, maxalliy savod (ona tili) va islomshunoslik fanlari o'qitish belgilanadi. Mashg'ulot jarayonida SHarq mutafakkirlari - Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa'diy-SHeroziy, Mashrab, So'fi Olloyor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlarini o'rganildi. SHuningdek, u, voxada san'at, maorif va madaniyat rivojiga raxnamolik qilib, saroyda «Podshoxi zamon tipolitografiyasi»ni tashkil qildi.

«Litografiya» - yunoncha so'z bo'lib «Litos»-tosh va «Grafos»-yozaman degan ma'noni bildiradi. Bu atama o'zbek tilida toshbosma tarzida qo'llanib kelingan.

Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Farobiyning «Nisobus-sibiyon» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning «Hamsa» asaridan parcha, «Xayrat ul-abror» dostoni, SHermuhammad Munisning «Munis ul-ushshoq» devoni, YOqubxo'ja ibn Ibroximxo'janing «Devoni xolis» to'plami, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o'nlab asarlar nashr etilgan.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo zaminida Temuriylar xukmronligi inqirozga yuz tutgandan keyin, bu o'lkani qo'lga kiritish uchun jahonning ko'pgina mamlakatlari harakat qildilar. Ana shulardan biri chor Rossiyasi edi.

Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning 2-yarmiga kelib, Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklariga qaratildi.

Bu uch mustaqil davlat o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlardan foydalangan rus davlati Markaziy Osiyoni bosib olish uchun qulay sharoit etildi, deb hisoblab xujum boshladilar va dastlab Qozog'istonni o'zlariga tobe qildilar. So'ngra Qozog'iston orqali 1864 yilda Turkmaniston, CHimkent, Avliyo otani, 1865 yilda Toshkentni zabt etdilar. 1867 yilda Ettisuv viloyati, 1868 yilda Samarqand, 1876 yilda Farg'ona viloyati Rossiya qo'lga o'tdi.

1876 yil 19 fevralda podsho Aleksandr II Qo'qon xonligi tugatilganligi to'g'risida buyruqqa imzo chekdi. 1885 yilga kelib Markaziy Osiyoning hamma erlari Rossiya tasarrufiga o'tadi va o'lkada Turkiston general gubernatorligi tashkil etiladi. SHu bilan Markaziy Osiyo mustamlaka davlatiga aylantiriladi.

Turkiston o'lkasi Rossiya tomonidan bosib olingach, chor ma'murlari ming-minglab rus oilalari Markaziy Osiyoga ko'chib keladi. Farg'ona viloyati, Sirdaryo, Samarqand va boshqa viloyatdagi (shaxarlar) maxalliy dexqonlarning serunum erlari tortib olinib, ularga beriladi.

Rus muxojirlari Turkiston general-gubernatorining farmoniga binoan o'lkada rus maktablari, rus tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga maxalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif isloxotini o'tkaza boshladilar.

Bu bilan go'yoki, ular Markaziy Osiyo axolisini savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo'ldilar va xar bir qilingan ishni bo'rttirib ko'rsatishga urindilar.

1917 yilgi to'ntarishgacha 21% savodxon bo'lgan o'lka axolisini, yoppasiga savodsiz edi, deya kamsitishga urindilar, quruq bo'xton yog'dirdilar.

O'lka axolisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus tuzem, gimnaziya kabi o'quv maskanlari kerak, madrasa va «usuli qadimiya» eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo'lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897 yildagi Rossiya tomonidan o'tkazilgan axoli ro'yxati ma'lumotlarini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'sha axoli ro'yxatida qayd etilishicha, Markaziy (O'rta) Osiyo axolisining savodxonlik darajasi quyidagicha belgilangan:

Tojiklar - 99,5% savodsiz

Qirg'izlar - 99,4% savodsiz

Turkmanlar - 99,3% savodsiz

O'zbeklar - 98,4% savodsiz

Qozoqlar esa -97,9% savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi uydirma edi. Aslida Turkiston o'lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi axolisining savodxonlik darajasidan past emas edi. CHunki, Turkiston o'lkasi xalqlari 1917 yilgi to'ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, va yuksak ilm egasi bo'lganlar. O'lka xalqlari eramizning VI-VII asrlaridan uygur-turk yozuvidan, o'z yozuvlari sifatida foydalanib, o'z zamonasiga mos ta'lim bergan bo'lsalar, son-sanoqsiz mutafakkirlar ana shu turk-yg'ur yozuvi va VIII asrdan boshlab arab grafikasi asosida savod chiqarib, butun jahonga dovrug' taratganlar «deyarli butunlay

savodsiz», deb talqin etilgan ona yurtimizda unib-o‘sgan jahon ilmiy va amaliy tafakkurida aloxida o‘rin egallagan yuzlab qomusiy allomalarimizdan tortib, qori-yu, otinoyilarimiz savod o‘rgatgan maktab-u, madrasalarimizdan yuz o‘gira olmaymiz.

Maktab ishiga taaluqli asosiy siyosiy va ideologiya soxasidagi ko‘rsatmalar 1870 yilda chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D. A. Tolstoy tomonidan ifodalab berilgan edi. «Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus bo‘lmagan) xalqlarning ma‘lumotli bo‘lishining oxirgi maqsadi, deb ma‘lum qilgan edi, u, shubxasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo‘lishi kerak. Ruslashtirish ko‘rsatmasi 1870 yilda e‘lon qilingan bo‘lib unga binoan rus millatiga mansub bo‘lmagan barcha xalqlar uchta toifaga bo‘lingan edi.

1. «Juda kam ruslashgan xalqlar», bo‘larga SHarqiy Sibir va Povolj’e xalqlari kirar edi. Bu xalqlar uchun ochilgan maktablarda o‘qishni ona tilida boshlash va keyinchalik rus tilida o‘qitishga o‘tish tavsiya qilinardi.

2. «Ruslar ham yashaydigan rayonlarda yashovchi xalqlar». Bu joylardagi maktablarda o‘qitishning dastlab rus tilida olib borish ayrim xollarda ona tilining yordamiga tayanish va mumkin qadar tezroq faqat rus tilida o‘qitishga o‘tish taklif qilinardi (masalan, gruzin bolalari o‘qitiladigan maktablarda o‘qitish shunday olib boriladi).

3. «Etarli darajada ruslashgan xalqlar». Ukrainlar, belorus va boshqalar, bularning maktablarida o‘qitishni faqat rus tilida olib borish tayinlangan edi. Mazkur «qoida»larni mana shu toifaga kiritilgan xalqlarga qo‘llanish 60-yillarda ijtimoiy harakat jarayonida vujudga kelgan ona tilida o‘qitish tajribasini batamom siqib chiqarishga olib keldi.

Mana shu umumiy direktiv xujjat asosida ulkan Rossiya imperiyasining ayrim xududlaridagi maktablarning ta‘lim prinsiplarini belgilab beradigan yo‘l-yo‘riqlar yaratiladi va e‘lon qilinadi.

Masalan, pravoslav diniga e‘tiqod qilgan Kavkaz xalqlarining maktablari 1873 yilda chiqarilgan «Kavkazda ta‘lim ishining qurilishi xaqida ustav» asosida ishlashi kerak edi. CHor amaldorlari mana shu va boshqa buyruqlar (bo‘lar ruslashtirish va ulug‘ davlatchilik ko‘rsatmalariga qat‘iy amal qilar edi) asosida ish ko‘rib arman cherkovining oliy organlari tomonidan ochiladigan ona tilidagi maktablarni doimo yopib qo‘yar edilar.

1776-yilda Markaziy Osiyo tumanining general-gubernatori xo‘zurida Turkiston o‘quv yurtlarining maxsus Boshqarmasi tashkil etilgan bo‘lib, avvalo, ruslashtirish siyosatini amalga oshirish vazifasi uning zimmasiga yuklatilgan edi.

Tegishli davlat xujjatlari bilan maktablarning ish tartibini belgilab va maktab idorasi organlari o‘z maqsadlarida mustaxkamlanib olgach, chorizm o‘qituvchilarning faoliyatini injiqlik bilan sinchiklab nazorat qilish tizimini to‘xtovsiz oshirib bordi.

1814 yilda Qo‘qon xonligi qishloqlarini kezib chiqqan poruchik F.Nazarov bunday deb ezgan edi: "Qo‘qon va butun Qo‘qon davlati paxta ekini va ipak daraxtiga to‘lib yotibdi, hamma yoqda paxta ekilgan dalalar ko‘zga tashlanadi, undan qo‘qonliklar mato tayerlab, uni buxoroliklarga rus tovari: temir, qunduz, dengiz orti mushugi, po‘lat va xokazolarga ayirboshlaydilar.

SHuningdek, o‘zbek xonliklarida oltin, kumush, rudalar va shu kabi foydali qazilmalar olinardi.

Rossiya mana shunday boy ulkani bosib olishni asrlar davomida niyat qilib kelardi. Ular o‘z niyatlariga XIX asrning ikkinchi choragida erishdilar. Ruslar Markaziy Osiyoni osonlikcha qo‘lga kiritmadilar. Ular o‘z maqsadlariga erishgunlaricha ko‘z qurib, qo‘lok eshitmagan yaxshiyliklar kildilar, qanchadan-qancha qon to‘kishlar evaziga Markaziy Osiyoni qo‘lga kiritdilar. Ular endi Turkistonni xar tomonlama taladilar.

Tarixda o‘zbek xalqi ko‘p bosqinchilarni ko‘rgan. Masalan mug‘il-tatar bosqinchiligini oladigan bo‘lsak, ular odamlarni qirgin, mollarini talon-taroj qilgan, ammo madaniyatiga, tiliga va diniga tegmagan. Eng daxshatlisi, ruslar Turkistonda barcha bosqinchilik ishlarini olib borish bilan birga xalqning urf-odatini, tili va dinidan ham ayirmoqchi bo‘ldilar.

General Rozenbax esa shunday degan edi: «O‘lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat etishi lozim». Xaqiqatdan ham mustamlaka davrida rus to‘zem maktablari vujudga keldi. Afsuski bu o‘rinda boshqa tishga tegadigan nozik bir xolat ham bor. «To‘zemets» degan ruscha o‘zbekcha lug‘atda «maxalliy xalq», «tub axoli» deb tarjima kilingan. Rus olimi Vladimir Dalning «Velikorus jonli tilining izoxli lug‘ati» kitobida mana shunday

jumlalar yoziladi: «To‘zemets. Mestno‘y otnosyashiysya do izvestnoy strano‘» To‘zemno‘e jiteli chasti Okeanii stoyat na nizshey stupeni chelovechestva.

XX asr boshlarida Turkistonda hammasi bo‘lib 20925 ishchi bo‘lgan, xolos. Temir yo‘llar o‘lkamizning barcha boyliklarini Rossiyaga tashib olib ketish maqsadida qurilgan. YAngi ochilgan turli maktablar mustamlakachi amaldorlar uchun tilmochlar tayyorlab berish uchun xizmat qilgan.

1860 yillarda Markaziy Osiyoning ko‘pgina qismi Rossiya tomonidan bosib olindi. 1865 yilda Rossiya tarkibiga kirgan Toshkent Turkiston general-gubernatorligiga qarashli erlarning markazi bo‘lib hisoblanadi.

Turkistonda dastlab ochilgan ba‘zi bir rus maktablarida o‘quvchilarning 1/4 qismi va undan ko‘prog‘ini maxalliy axoli bolalari tashkil etgan bo‘lsada, lekin butun Turkiston o‘lkasi buyicha hisoblaganda bunday maktablarda o‘quvchi maxalliy axoli bolalari 200 tadan oshmas edi. Bularning ham ko‘pi qozoq bolalari bo‘lib, o‘zbek va tojik bolalari juda oz edi, chunki musulmon ruxoniylar «kofirlar» maktablariga qarshi targ‘ibot yurgizar edilar. Rus maktablarida, ayniqsa o‘rta maktablarida o‘quvchilar o‘rtasida o‘z ijtimoiy axvoliga ko‘ra boylar va oqsuyaklarning bolalari ko‘pchilikni tashkil etar edi.

CHorizmning maktab soxasidagi siyosati ruslashtirishdan iborat bo‘lsa ham, lekin rus bolalari bilan maxalliy axoli bolalarining birgalikda o‘qishlari, ular o‘rtasida o‘zaro do‘stlikni tarbiyalar edi.

Toshkentdagi gimnaziya dastlabki yillarda, maxalliy axolining bolalarini rus tili bilan ko‘proq shug‘ullantirish uchun lotin tilini o‘rgatishdan ozod qilinar edi.

1880 yillarning boshlariga kelib rus maktablarida o‘qiydigan o‘zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o‘qitish kerak, toki ota-onalari bu maktablardan qo‘rqmasinlar, degan fikr tarqalgan edi. Turkiston ma‘murlari bu fikrning qanchalik to‘g‘ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar. 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda, «eski shaxar» qismida sinab ko‘rish uchun birinchi rus-to‘zem maktabi ochilgan edi. 10 yillardan keyin Toshkentda bunday maktablar soni 4taga ko‘paydi. Bu tipdagi maktablar o‘lkadagi yirik shaxarlar hamda qishloqlarda ham tashkil etila boshladi. O‘lkada rus, rus-to‘zem maktablari ilk bor XIX-asrning 70-yillarida yuzaga kelgan bo‘lsa, 1904 yilga kelib ularning soni 57 taga etdi.

12.3. Turkistonda jadidchilik ma‘rifati va ta‘lim - tarbiya.

Savol tugilishi mumkin, Turkistonda jadidchilik harakati qachon kelib chiqqan va u nimaga asoslangan edi. Masalan, XIX-asrning boshlarida Buxorodagi ma‘rifatparvar musulmon ruxoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid‘atlarni islox qilish fikri paydo bo‘la boshladi. SHunday isloxot tarafdorlarini jadidlar, ya‘ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar. O‘sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya‘ni feodal-o‘rta asrchilik, diniy fanatizm ruxida bo‘lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX-asr boshlarida bir qancha ma‘rifatparvar mudarrislar Buxoro shaxridagi 200ga yaqin madrasani islox qilish g‘oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. qadimistlar esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Xaydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib, o‘lim jazosiga xukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o‘z faoliyatini davom ettirib, 1813 yilda vafot etadi. XIX-asrning 50-60-yillarida diniy isloxotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida Buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), Gijduvonlik domla Fozil, Mo‘minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni islox qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarini yozadilar. Isloxotchilar raxnamosi Marjoniy o‘zining dasturida quyidagi 6 asosiy masalalarini qo‘yadi:

1. Qur‘ondagi xar qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan xolda o‘zlari erkin fikr yuritsinlar.

2. Birovning birovga ko‘r-ko‘rona ergashishi qat‘iy man qilinsin.

3. Madrasalarda o‘qitiladigan xoshiya va shrq kabi quruq mazmunga ega bo‘lgan va madrasa o‘quvchilari uchun foydasiz bo‘lgan hamda ularning 8-10 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin.

4. Madrasalarda Qur'oni Karim, Xadisi SHarif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin.

5. Arifmetika, tarix, jug'rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin.

6. Xar bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayxissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Marjoniy va uning tarafdorlari bo'lgan o'sha davrning jadidlari musulmon taraqqiyparvarlaridan edilar, ular madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda qadimiy islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o'qitishni shart qilib qo'ydilar. Biroq, qadimistlar va amirning reaksion siyosati natijasida ta'qibga uchragan Marjoniy Buxorodan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Uning maslakdoshlaridan ko'pchiligi zindonga tashlanib, orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilib, qaytib bunday ishlarni qilmaslikka va'da berdilar.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi.

Agar lo'nda qilib aytsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni xal qilishga qaratilgan:

1. Diniy tasavvuf va fanatizmga qarshi kurash.

2. Diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr maktablari o'rniga Ovrupo kabilidagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini islox qilish.

3. Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga etkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chikish, matbuot xurligi uchun ko'rash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrn yaratish.

4. Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga katnashlarini ta'minlash yo'li bilan ular takdirini o'zgartirish va oilada isloxot utkazish.

5. Maxalliy boylar va savdogar axlining siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir xuquqda bo'lishi, maxalliy amaldorlarning chor xukmdorlari tomonidan sikuvga olishiga karshi ko'rash. SHu yo'l bilan mustamlakachilik siyosatini islox qilish.

Birinchi marta jadidchilik Krimda paydo bo'ldi. Uning asoschisi asrimiz boshlarida turkiy kavmlarining chinakam jafokashi va iftixori Ismoilbek Gaspirali hisoblanadi.

Ismoilbek Gaspirali 1851 yilning 21-martida—kutlug Navro'z kunida tavallud topdi. YOsh Ismoilning tarbiyasida onasi Fotima va enagasi Xabibaning xizmatlari katta bo'ldi. Ismoilni 8 yoshda bokcharoylik Xoji Ismoilning eski maktabiga berdilar. 10 ga kirganda esa otasi Mustafobek onasi Fotimaning e'tirozlariga karamasdan, Okmachitdagi guberniya gimnaziyasiga olib boradi. Unda ikki yil ukigach, Voronejdagi ofitserlar xarbiy o'quv yurtiga utadi. 13 yoshida ukishni Moskvadagi Milyutin gimnaziyasiga kuchiradi. 1868 yili uni bitirib, Bokcharoyga qaytadi. «Zanjirli» madrasasida rus tilidan dars bera boshlaydi. Oradan ko'p utmay ukish-urganish ishtiyoki uni Turkiya-Istambo'lga boshlab keladi. Undan Fransiyaga utadi. Vena, Myunxen, SHtutgardda bo'ladi. Mashxur Sarbona universitetiga ukishga katnaydi. Nixoyat, 1876 yilda Bokcharoyga qaytib keladi va «Zanjirli» da rus tili muallimi sifatida ishini davom ettiradi.

1883 yilning 10 aprelida I.Gaspirali boshchiligida «Tarjimon» nomli gazetaning birinchi soni bosmadan chikadi.

1884 yilda Gaspirali yana bir muhim ishga qo'l uradi. U un ikki bolani yangicha usul-«usuli jadida» bilan o'qitishga kirishadi. Va 40 kun ichida burro savodini chikaradi. Imtixon tashkil qilib bolalarning ota-onalarini taklif etadi. CHetdan kishilar kelib ko'radilar. Hamma bir ogizdan «usuli jadida»ning bekiyos imkoniyatini e'tirof etadi. Xullas Ismoilbek ikki yilda eski maktabda besh yilda oladigan taxsilni o'rgatishga muvaffak bo'ladi. So'ng ular uchun «Xujai sibyon» («Bolalar muallimi») nomli birinchi darslikni tuzadi.

YAngi usul maktabda quyidagilarga:

Cinfda (maktabda) bolalar soni uttiztadan oshmaslikka;

Bolalar faqat ikki daf'a - yoz va kish boshlaridagina maktabga kabo'l kilinishi;

Xar kabo'l nechta bo'lishidan kat'iy nazar, bir sinfdan oshmasligi;

Xar bir muallimda ko'pi bilan 3-4 sinf bo'lishi;

Agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket ma'lum uygunlikda quyilmogi;

7-9 yoshlardagi bola 7-8 soat o'zluksiz ukiy olmaydi. Uning uchun 5 soat kifoya. Xar darsdan so'ng 10 dakika tanaffus;

Juma va bayram kunlari dam olinishi;

10 oy ukishdan so'ng yozning issik kunlarida ta'til bo'lishi;

Dars zeriktirmasligi»

SHogirdlarini urish va sukish befoyda ekanligi va boshkalarga e'tibor karatilgan edi.

Gaspirali «usuli jadid» bilan o'qitishning qoidalarini shunday tushuntiradi:

1. Butun alifboni birdan o'rgatish ogirdir. Ibtido (boshda) uch, besh xarf o'rgatib borish (engil)dur.

2. birinchi darsdan shogirdlari yozishni boshlamasliklari darkor.

3. Darslar muayyan soatlarga, kislarga ajratilib o'rgatilishi lozim.

4. O'quvchi bir darsni o'zlashtirmaguncha ikkinchisiga utilmasligi kerak.

5. Xarflar bilan tanishtirganda, ular xaqida kengrok ma'lumot berilgani ma'qo'l.

Bolalarni xar olti oyda imtixon qilish, yil oxirida sinfdan sinfga utkazish, o'zlashtirmaganlarni sinfdan koldirish ko'zda tutiladi. Darslar xar xil va xar biri yarim soatdan bir soatgacha bo'lishi mumkin. Darslar orasida tanaffuslar bo'lmog'i kerak.

Bu maktablar uchun «Xujai sibyon» asosiy darslik bo'lib xizmat kilar edi. 1910 yilgacha 27 marotaba nashr kilingan. Lekin gap shundaki, u Russiyadagi musulmonlar ma'naviy olamining barcha jihatlarini-madrasani ham, matbuotni ham, ilm-fanni ham o'z ichiga olar va eng muhimi, ularning hammasi turmushga nechog'lik daxldorligi, zamonga xizmat kila olishi asosiy me'zon qilib ko'zda tutilar edi.

Ismoilbek Gaspiralinig nomi Markaziy Osiyoda ham ma'lum va mashxur edi. Xususan, XX-asr boshlaridagi Turkiston, Buxoro va Xivaning sakqiz millionli xalqi milliy ongida yuz bergan o'zgarishlarda uning buyuk xizmati bor deyishga tula xaklimiz. Gaspiralinig g'oyalari Markaziy Osiyoga keng tarkaldi:

Buxoro, Samarkand, Fargona, Namangan, Kukon, Toshkent kabi unlab shaxarlardagi ziyolilar guruxi jadidchilik harakatiga bosh-kosh bo'ldilar. Jumladan:

Fayzulla Xujaev (1896-1938yy)

Isxokxon Ibrat (1862-1937yy)

Siddikiy Aziziy (1864-1924yy)

Saidrasul Aziziy (1864-1933yy)

Muhammad SHarif Sufizoda (1869-1937yy)

Maxmudxuja Bexbudiy (1874-1919yy)

Abdulkodir SHakuriy (1875-1943yy)

Abdulla Avloniy (1878-1934yy)

Sadriddin Ayniy (1878-1954yy)

Munavvar Kori Abdurashidov (1878-1931yy)

Ismatulla Raxmatullaev (1883-1962yy)

Abdurauf Fitrat (1884-1939yy)

X.X.Niyoziy (1889-1929yy)

Va boshka unlab zielilarni faxr bilan tilga olishimiz mumkin.

Jadidchilar 1910 yillar davomida mustamlakachilik siyosatiga karshi ko'rash olib borganlari uchun chor Rossiyasi amaldorlaridan jabrlandilar. YAngi usuldagi maktab va maorif ta'lim-tarbiya muammolarini kutarib chiqqanliklari uchun xurofotchilar igvosi bilan Buxoro amirligi tazyikiga, 1917 yil tuntarilishidan so'ng esa «Burjua demokratik erkinliklarini targ'ib etuvchilar va millatchilar» tamgasi ostida shuro xukumati ta'kibiga uchraydilar.

M.S. Jadidchilik xarakatining maqsadi nima?

Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar.

1. Mavzuni o'qib chiqqandan so'ng, belgilangan maqsadlarga erishganlik darajasini belgilang;

2. Insert usulini qo'llang;

12 - Mavzu. Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya, pedagogik fikrlar.

1. Mustakil O'zbekistonda amalga oshirilgan o'zluksiz ta'lim tizimi.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston tarakkiyotining poydevori.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalda.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng;

- Mustaqil o'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim- tarbiya ishlarini biladi;
- Ta'lim to'g'risidagi qonunni tushuntiradi;
- Barkamol avlod «O'zbekiston taraqqiyotini poydevori ekanligini asoslaydi;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini sanaydi;
- Ta'lim- tarbiya ishlarini baxolaydi;
- Taxlilij fikrlashni qo'llaydi ;

Tayanch so'z va iboralar .

Ta'lim to'g'risidagi qonun, barkamol avlod, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, akademik litsey, kasb-xunar kalleji, o'rta maxsus ta'lim.

1. Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilgan uzluksiz ta'lim tizimi.

O'zbekiston mustakil bo'lgandan buyon respublikada ta'lim tizimi 1992 yilda kabo'l kilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun asosida va quyidagi strategiyaga muvofik ishlab chikildi:

- ta'limning o'zluksiz bo'lishi;
- ta'limni kompleks ravishda uyushtirish;
- ta'limni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirish;
- ta'lim tizimini fan soxalari bilan integratsiyalashtirish;
- umumiy o'rta ta'lim negizida yoshlarni maxsus bilim yurtlarida ukishga, mutaxassislikka tayyorlash.

Respublikada amalga oshirilgan o'zluksiz ta'lim tizimi barcha ta'lim boskichlari-maktabgacha tarbiya va boshlangich, tayanch boskichlari, o'rta va xunar maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, maktabgacha tarbiya muassasalari, malaka oshirish institutlari o'rtasida o'zviylik bo'lishida, ta'limni ilm-fan yutuklari bilan bog'liq xolda tashkil etishda muhim omil bo'ldi. Bolalarni oilada bogchaga, bogchadan maktabga ukishga tayyorlash, umumiy o'rta ta'lim negizida o'quvchilarni maxsus bilim yurtlarida mutaxassislikka tayyorlashda jiddiy yutuklarga erishildi. O'zluksiz ta'lim tizimi barcha ta'lim boskichlarining istikbolli bo'lishiga, ta'limni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga, ta'limni mexnat tarbiyasi bilan bog'liq xolda olib borishga, o'quv fanlarni integratsiyalashtirishga yordam berdi.

Tarbiyaga kompleks yondoshish bilan akliy, mexnat, axloqiy, nafosat va jismoniy tarbiyalar o'rtasidagi o'zviylik mustaxkamlanadi, o'quvchilar hayotini kengrok tasavvur eta boshladilar. Kompleks prinsipi tarbiyaning, o'quvchilar faoliyatining mazmuni bo'lishini, ta'lim vazifalarining ham kompleks ravishda amalga oshirishni ta'minladi. Bu prinsip maktab, oila, jamoatchilik o'rtasidagi alokani mustaxkamlash, bu alokaning pedagogik jihatini kasb etishida, yoshlarni anglash, mustakil fikrlash faoliyati va axloq-odobli bo'lib usishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Tarbiyada kompleks prinsipni qo'llash o'quv yurtlari, ta'lim muassasalaridagi barcha tarbiyaviy ishlar hamda, tarbiya jarayonida vazifa, maqsad, mazmun, usul, shakl, vosita, natijalarning o'zaro alokada bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va usullari bu soxada erishilgan ilgor tajribalar asosida ishlab chikildi, bunda ta'limning jaxon standarti darajasida bo'lishi nazarda tutildi.

YAratilgan ta'lim davlat standartlarida ularning ijtimoiy maqsadni ifoda etuvchi bo'lishiga e'tibor berildi, ularda mustakillik davri talab etayotgan ta'lim mazmuni, darajasi, usul va shakllari belgilandi.

Davlat standarti va konsepsiyalar asosida yaratilgan dastur va darsliklarda, ayniksa, ijtimoiy fanlarga doir barcha dastur va darsliklarda milliy va umu‘minsoniy kadryatlar o‘z aksini topdi.

Ma‘lumki, istiklol mafko‘rasining asoslarini yaratish, avvalo, ta‘lim–tarbiya zamini bo‘lgan oila va maktabgacha bo‘lgan tarbiya muassasalaridan boshlanadi. Ularda tarbiyalanayotgan va maktabda ukiyotgan bolalar Vatan, jamiyat, xalq xaqida muayyan tasavvurga ega bo‘lishlari, ularning kalbida Vatan tuygusi, ulug‘ allomalarimiz va ular koldirgan ma‘naviy meroslar bilan faxrlanish xissi shakllanishi, rivoj topishi kerak.

Maktab-davlat o‘zluksiz ta‘lim tizimining markaziy buginidir. Xuddi ana shu boskichda o‘quvchilar bilimlar asosini egallaydilar, ularda ijodiy kobilyat, mustakil fikrlash, Vatan, jamiyat, shaxs, axloq-odob xaqidagi tushunchalar shakllanadi, takomillashadi.

Boshlangich boskich (1-4 sinf)da asosiy e‘tibor o‘quvchilar savodini chiqarishga, ularda mustakil fikrlash, o‘z fikrini ifodali bayon etish malakasini shakllantirish va rivojlantirishga yunaltilirdi.

Bu boskich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur kila olish va o‘zaro fikr almashuv savodxonligini oshirish, o‘z-o‘zini anglash saloxiyatlarini, moddiy borlik, go‘zallikni xis qilish, undan zavklanish va uni yanada go‘zallashtirish ishtiyokini ustirishga, milliy urf-odatlarini sevish o‘z hayotlarida ulardan foydalanish malakalarini tarkib toptirishga e‘tibor berildi.

V-IX sinflarda ma‘naviy kadryatlarni shakllantirishga samarali ta‘sir kursatuvchi san‘at turi bo‘lgan adabiyotni o‘qitishda soglom etikodli, milliy va umum bashariy kadryatlarini anglyadigan, axloqan barkamol shaxsni shakllantirish asosiy maqsad qilib quyildi. O‘quvchilarda badiiy adabiyotga xavas, mexr uygotish, badiiy asarlarni ukib tushunadigan va taxlil kila oladigan, o‘z fikrini ogzaki va yozma ravishda to‘g‘ri, erikin ifodalay oladigan qilib tarbiyalash orqali amalga oshirilmokda.

M.S. Avvalgi ta‘lim tizimi bilan kiritilayotgan uzluksiz ta‘lim tizimini farqi nimada?

2. Barkamol avlod - O‘zbekiston tarakkiyotining poydevori.

Keyingi yillarda respublikamizda ochilgan litsey, gimnaziyalarda va ayrim umumiy maktablarda tashkil etilgan pedagogikadan ixtisoslashtirilgan kurslar (X-XI sinflar)da Vatan tarixi va madaniyatini, qadimiy urf-odatlarimizni xar tomonlama urganish va tadjik etish asosiy vazifa qilib quyildi. SHunga ko‘ra, xozirgi kunda pedagogikadan milliy va umu‘minsoniy kadryatlar asosida darslik, qo‘llanmalar yaratishga kirishildi. Bu ishda o‘quvchi va talabalar hamda bo‘lgusi o‘qituvchilarning umumiy madaniyati va ma‘naviyatini, pedagogik bilm va pedagogik madaniyatini, pedagogik tafakko‘rini ustirish asosiy maqsad qilib quyildi. Bu maqsad pedagogik fikrlashga doir bilim va diniy-axloqiy, tarbiyaviy g‘oyalar umumbashariy va milliy - madaniy kadryatlarni puxta urganish bilan amalga oshirilmokda.

O‘zbekiston respublika vazirlar maxkamasi xo‘zurida Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi - mustakillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestatsiya komissiyasi o‘z zimmasiga yuklangan ulkan vazifalarni, ya‘ni yukori malakali ilmiy va ilmiy - pedagogik xodimlar tayyorlash yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy tarakkiyotining ustvor muammolarini xal qilishga yunaltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat yo‘li bilan ekspertiza qilishni ta‘minlash bilan etuk ilmiy-pedagogik kadrlar etishtirishga samarali ta‘sir kursatmokda.

Oliy pedagogika o‘quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi iktisoslashtirilgan kengash tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi, fanlarni o‘qitish usullari buyicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini o‘zbek tilida, turli millat vakillarining o‘z ona tillarida ximoya qilishga keng imkoniyat yaratildi, bu kengashlar milliy pedpgog olimlar safining usishida muhim omil bo‘lmokda.

Mustakillik sharofati bilan 1996-1997o‘quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida ukish yangi alifboda olib borilmokda. YAngi imlo, alifboda o‘qitish uchun zarur dastur, qo‘llanma va darsliklar yaratildi.

SHu davr mobaynida 300 ga yaqin yangi turdagi ta'lim muassasalari ochildi. Oliy o'quv yurtlari koshida 46 ta litsey tashkil etildi, 800 ga yaqin o'quvchi chet ellarda ta'lim oldi, ko'pgina o'qituvchilar xorijiy davlatlarning ilgor tajribalarini urganish maqsadida chet mamlakatlariga borib qaytdi.

Joylarda maktablarga va o'qituvchi -murabbiylarga, ularni moddiy va ma'naviy ragbatlantirish, yordam berish masalalariga e'tibor ancha kuchaytirildi.

O'rta maxsus ta'lim soxasida viloyatlarda, joylarda biznes maktabi, kichik va o'rta maktab uchun kasb-xunar kurslarining ochilishi, bozor iktisodiyoti talablaridan kelib chiqqan xolda, yangi mutaxassislik (fermer, solik va bojxona xodimi, audit va xokazo)lar kiritildi.

Toshkent, Samarkand, Urganch, Turtqo'l va Andijonda bank kollejlari hamda Toshkent ayollar kolleji tashkil qilindi.

Oliy maktab soxasida test usuli joriy etildi; viloyatlar markazlarida pedagogika institutlarining universitetlarga aylantirilishi va joylardagi o'quv yurtlariga yukori ta'sis nizomi berildi; tashkil etilgan milliy tashkilot va xalqaro jamoalar hisobidan chet ellarga tajriba almashish va talabalarni ukishga yuborish yo'lga quyildi; iktisod va biznes soxasidagi mutaxassis va o'qituvchilarni qayta tayyorlash buyicha anik maqsadga yunaltirilgan ishlar olib borilmokda; utish davrida 2000 dan ortik talaba va mutaxassislar chet ellarda ukib kelishdi; 200 dan ortik chet el mutaxassisining respublikamiz o'quv muassasalariga jalb qilindi.

Davlat va jamiyat kurulishi akademiyasi, Bank va Moliya akademiyalarini tashkil kilingani o'z samarasini bermokda.

YAngi tipdagi maktablar umumta'lim o'quv yurtlari tarmogi rivojlanib bormokda. Xozirgi kunda 238 litsey va 136 gimnaziya ishlab turibdi. «Soglom avlod uchun», «Ma'naviyat» va «Ma'rifat», «Iqtisodiy ta'lim», «Kishlok maktabi», «Rivojlanishda nuksoni bo'lgan bolalarni tiklash» va boshka tarmoq dasturlari ruyobga chikarilmokda. Respublika umumta'lim maktablarida 435 mingdan ortik o'qituvchi ishlamokda, ularning 73 foizi oliy ma'lumotlidir.

Mexnat bozorini, eng avvalo kishlok joylarda mexnat bozorini shakllantirishning xududiy xususiyatlarini hisobga olgan xolda xunar-texnika ta'limini qayta tashkil etishga kirishildi. Xozirgi kunda bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan kamrab olgan 442 o'quv yurti, shu jumladan 209 kasb-xunar maktabi, 180 kasb-xunar litseyi, 53 biznes maktab ishlab turibdi. Bugungi kunda boshlangich kasb-xunar ta'limi o'quv yurtlariga kariyb 20 ming o'qituvchi va malakali mutaxassislar ishlamokda.

Respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 o'rta kasb-xunar ta'limi o'quv yurti ishlab turibdi. Ularda kariyb 16 ming o'qituvchi va muxandis-pedagog xodimlar mexnat kilmokda.

O'zbekiston oliy maktabi tizimi 58 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 16 universitet va 42 institutni o'z ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta'lim olmokda; 16 universitetning O'zbekiston mustakillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topmokda. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18,5 ming o'qituvchining 52 foizi fan doktori va fan nomzodlaridir. Oliy ta'limda kadrlar tayyorlashni markazlashtirishdan xuquqiy yunalishga utkazish ishi olib borilmokda, o'quv yurtlarining tarmogi kengaymoda, universitet ta'limi rivojlanmokda. Bilimlarning yangi tarmoqlari buyicha kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy maktabni ko'p boskichli tizimga utkazish amalga oshirilmokda. Abiturientlar va talabalarining bilim darajasini test va reyting asosida baxolashning ilgor usullari joriy etilmokda.

SHunga karamay, sodir etilgan o'zgartirishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofik bo'lishini ta'minlay olmayotganligini O'zbekison Respublikasi prezidenti Islom Abduganievich Karimovning 1997 yil 29 avgust kungi O'zbekison Respublikasi Oliy Majlisi XIX sessiyasida so'zlagan nutkidan anglab olish mumkin.

Oliy Majlisning XIX sessiyasida O'zbekison Respublikasi prezidenti Islom Karimov «Barkamol avlod» O'zbekiston tarakkiyotining poydevori" mavzusidagi nutkida ta'lim tizimida erishilgan muvofakkiyat va kamchiliklarni ob'ektiv taxlil qilib berdi.

Avvalo, nutkda ta'lim mazmuni «Eski shurolar zamonidan kolgan ta'lim - tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarkitlardan butunlay xalos bo'lmagan»ligi, ayniksa, ijtimoiy - gumonitar yunalishdagi fanlar, estetik yunalishdagi predmetlarni o'qitish, tarbiyaviy - ma'rifiy faoliyat mazmuni va uni tashkil etish dolzarb muammo ekanligini ta'kidlagan edi.

Umumiy oʻrta taʼlim tizimi mazmunining izchilligi, oʻzluksizligi, oʻzviyligi didaktik tamoyillari, oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish xolatlarini boʻzildi.

Bundan tashkari, umumiy oʻrta taʼlimning davomiylik muddati 10 yildan 11 yiga oshirilganligi sunʼiy boʻlib, majburiy oʻquv fanlarining soni nixoyatda oshib ketgan, ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Bunda mazkur fanlar mazmuni davlatimizda kechayotgan demokratik va iqtisodiy oʻzgarishlar talablariga javob bermadi. Eng asosiy kamchilik u usib kelayotgan avlodni mustakil fikrlashga oʻrgatmaslik, mexnat faolyatiga tayyorlamaslik muammosining paydo boʻlganligi edi. 9 - sinfni bitirayotgan oʻquvchilar takdiri eʼtiborsiz koldirildi. Respublikamizda xar yili oʻrtacha 450 mingdan ortik oʻquvchi 9 - sinfni bitiradi. Ularning 250 minggi (55 %) yukori sinflarda ukishni davom ettirardi, 100 mingga yakini esa xunar - texnika, oʻrta maxsus bilim yurtlariga kirib ukishni davom ettirish imkoniyatiga ega edilar. Natijada 100 mingdan ortik oʻquvchi taʼlim olish yoki mexnat faolyatiga jalb kilinmasdan kolib ketardi. Na bir anik mutaxassislikni, na bir kasbni, biror bir mexnat faolyati kunikmalarini egallamagan maktab bitiruvchilari (jumladan 11-sinfni bitirganlar ham) oʻz kobiliyati, xavasi va intilishlariga mos hayotda oʻziga munosib oʻrin topolmadi. 9 va 11-sinflar darajasidagi taʼlim dasturlarida oʻzilish bor edi. Eski taʼlim tizimidagi yukorida taʼkidlangan qator kamchiliklar va muammolarni tugatish istagi yangi «Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun»ni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning yaratilishiga sabab boʻldi.

3.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalda.

1997 yil 29 avgustda qabul kilingan taʼlim toʻgʻrisidagi qonunning maqsadi fukarolarga taʼlim, tarbiya berish, kasb-xunar oʻrgatishning xuquqiy asoslarini belgilaydi hamda xar kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy xuquqini taʼminlashga karatilgan boʻlib, ushbu qonun beshta boʻlim va 34 ta moddadan iboratdir.

Milliy dasturning maqsadi - taʼlim soxasini tubdan islox qilish, uni utmidan kolgan mafkoʻraviy qarashlar va sarkitlardan tula xalos etish, yuksak maʼnaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yukori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari boskichma - boskich ruyobga chikariladi.

Birinchi boskich (1997-2001 yillar) - mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy saloxiyatini saklab kolish asosida ushbu tizimni islox qilish va rivojlantirish uchun xuquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy - uslubiy, moliyaviy -moddiy shart - sharoitlar yaratish.

Ikkinchi boskich (2001 - 2005 yillar) - Milliy dasturni toʻliq ruyobga chiqarish va mexnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarni hisobga ogan xola unga anikliklar kiritish.

Uchinchi boskich (2005 va undan keyingi yillar) - toʻplangan tajribani taxlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish istikbollariga muvofik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni ruyobga chiqarish, shuningdek litseylar va kasb-xunar kollejarini tashkil etish, ularning faolyatini yoʻlga quyish va malakali kadrlar tayyorlashini taʼminlash maqsadida Vazirlar Maxkamasi 24 fevral 1998 yilda № 77 sonli karorini kaboʻl kildi. Mazkur karorga asosan kasb-xunar kollejlari uchun malakali pedagog va muxandis-pedagog kadrlar tayyordash buyicha bazaviy oliy taʼlim muassasalari sifatida Buxoro ozik-ovkit va engil sanoat texnologiyasi instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika instituti va bizning Namangan industrial-texnologiya institutlarimiz belgilandi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika instituti Toshkent Davlat Pedagogika universitetiga, bizning institutimiz Namangan muxandislik pedagogika institutiga aylantirildi.

Oʻzbekison Respublikasida oʻrta maxsus kasb-xunar taʼlimini tashkil etish chora tadbirlari toʻgʻrisida 1998 yil 13 mayda Vazirlar Maxkamasining 204-sonli karori kabul qilindi. Mazkur karor hamda 1998 yil 23 noyabrda kaboʻl kilingan akademik litsey va kasb - xunar kollejarini pedagog va muxandis – pedagog kadrlar bilan taʼminlash dasturlari Kadrlar tayyorlash milliy dastoʻrini amalga oshirish, bilimlar asoslarini puxta urganish, hamda oʻrta, maxsus, kasb - xunar taʼlimi buyicha kadrlar tayyorlash uchun akademik litseylar va kasb - xunar kollejarini tashkil etish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

M.S. Namangan sanoat - texnologiya institutini Muhandislik

Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar

1. Mavzuni o'qib chiqib belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang.
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturini taxliliy fikrlash fazalari bo'yicha ko'rib chiqing.

13 – mavzu: Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari.

1. **Ta'limning ilmiy, tizimli va izchil bo'lish qoidasi. Ta'lim va tarbiyaning birligi va nazariyaning amaliyot bilan boglab o'qitish qoidasi.**
2. **Ta'limda kursatmalilik va ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish qoidalari.**

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Qonuniyat va ta'lim qoidalari tushunchalariga ta'rif beradi;
- Ta'limning ilmiy, tizimli, izchil bo'lish qoidasini izohlaydi;
- Ta'lim – tarbiyaning birlik qoidasini baholaydi;
- Ko'rsatmalilik qoidasini tahlil qiladi;
- Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish qoidasini tushuntiradi;
- Klaster uslubini qo'llaydi.

Tayanch so'z va iboralar.

Ta'lim qoidalari, ilmiylik qoidasi, izchillik qoidasi, tizimlilik qoidasi, ta'lim - tarbiyaning birlik qoidasi, nazariya va amaliyotning bog'langanlik qoidasi, ko'rsatmalilik qoidasi, ta'limni o'quvchilarga mos bo'lish qoidasi.

1. Ta'limning ilmiy, tizimli va izchil bo'lish qoidasi. Ta'lim va tarbiyaning birligi va nazariyaning amaliyot bilan boglab o'qitish qoidasi.

Ma'lumki, qonuniyat – bu barkaror, zaruriy, u yoki bu xodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloka. Agar o'qitish jamiyat talablarini e'tiborga olmasa, u xolda uni, albatta, qayta kurish, takomillashtirish kerak.

Demak, ta'lim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

Har bir o'qituvchi shuni anglab etishi muhimki, o'quv jarayonini samarali kurish–bu, ishda o'zini oklagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar didaktik qoidalarni xozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni xal qilishda ijodiy foydalangan xolda, ulardan butunlay va o'zaro alokada foydalanish demakdir.

Ta'lim qoidalari deb umo'minsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga karatilgan ukish va o'qitish jarayonlarining yunalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malakalar xosil qilishining asosiy qonun va qoidalarining yigindisiga aytiladi. So'nggi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda.

Didaktik qoidalar turlicha guruxlashtirilmokda. Ana shularga asoslangan xolda quyidagicha ta'lim qoidalarini kursatib utish mumkin.

1. Ta'limning ilmiy bo'lish qoidasi.
4. Ta'limning tizimi va izchillik bo'lishi qoidasi.
3. Ta'limning tarbiyalovchilik Harakteri.
4. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishi qoidasi.
5. Ta'limda onglilik, faollik va mustakillik qoidasi.
6. Ta'limda kursatmalilik qoidasi.
7. Ta'lim jarayonida Har qaysi o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish qoidasi.
8. Ta'limda ilmiy bilim va kunikma, malakalarni puxta, mustaxkam o'zlashtirish qoidasi.

9. Ta'limning o'quvchiga mos bo'lishi qoidasi.

10. Ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi.

Ta'limning ilmiyligi qoidasi o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.

Didaktikaning ilmiylik qoidasi maktab ta'limining mazmunigagina alokadordir bo'lib kolmay, o'qitish usullariga ham alokadordir. U ta'lim jarayonida fan–texnika yutuklaridan foydalana oladigan o'qitish usullarini takomillashtirishni ham talab qiladi.

Xozirgi zamon didaktikasi o'qitishda xususiydan umumiyga karab borishni talab kiluvchi klassik qoidaga o'zgartirishlar kiritdi.

Ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish lozim, toki bugun urganilgan bilimlar kecha urganilganlarni mustaxkamlasin, ertaga urganiladiganlarga zamin xozirlasin.

Ta'limning tizimli bo'lishi uning izchil bo'lishi bilan bog'liqdir. Izchillikka asoslangan ta'limning Harakterli belgisi shundaki, u o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilim va malakalari zaminida yangi bilim, kunikma va malakalar xosil qiladi.

Tizimlilik va izchillik o'quvchilarda Har qaysi o'quv fanlarining bir–biri bilan o'zviy bog'liq bo'lishini kursatishda ham muhim ahamiyatga ega.

Tizimlilik va izchillik qoidalari o'zaro bog'liq bo'lgan aloxida o'quv fanlarini hamda kundalik o'quv materiallarini mantiqiy jihatdan bir–biriga mustaxkam bog'liq xolda va muayyan bir tartibda o'qitish hamda ta'lim jarayonida o'quvchilarni tizimli ilmiy bilim, kunikma va malakalarni o'zlashtirib olishlarini ta'minlaydi.

Ta'lim-tarbiyaning birligi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish va o'qitishning xilma–xil usul va uslublaridan foydalana olishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ayniksa, ta'lim bilan tarbiyaning birligini ta'minlamok uchun:

A) bayon kilinayotgan o'quv materiallarining mazmuni ham ilmiy, ham g'oyaviy jihatdan to'g'ri tashkil kilinishi;

B) o'qitilayotgan mavzuning ilmiy va tarbiyaviy moxiyati ochib berilishi, ta'lim jarayonida xadislardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;

V) bayon kilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustaxkam o'zlashtirilishi va turmushda unga amal kilinishi;

G) ta'limda muammoli jarayonni vujudga keltirish, o'quvchilarning qizikishlari, aktivlik va tashabbuskorliklarini ta'minlashga e'tiborning kuchaytirilishi.

D) ta'lim jarayonida o'quvchilarning uyushkoklik, intizomlilik va javobgarlikni sezish, o'zaro yordam xislarini tarbiyalashni ta'minlamok zarur.

Ta'lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasining izchillik bilan amalga oshirilishi okibatidagina o'quvchilar o'quv materialining tub moxiyatini, tabiat va jamiyat tarakkiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri, chukur tushunib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan maxorat, kunikma va malakalar xosil qiladilar.

O'qitish jarayonida onglilik va faollik qoidasi o'quvchilarda tafakkur va nutkni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Onglilik va faollik qoidasi o'quvchilarni mexnat va ukishda ijodiy faoliyat usullariga o'rgatishni talab etadi. qayta kurish davrining maktab va xalq ta'limi oldiga quyilgan talablari ham shu maqsadlarga karatilgan.

M.S. Qonuniyat va qoidaning farqi nimada?

2. Ta'limda kursatmalilik va ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish qoidalari.

Kursatmalilik qoidasi ta'limning etakchi qonun-qoidalarini va talablarini amalga oshirishda vositachilik qiladi. CHunonchi:

1. Bayon kilinayotgan mavzuning mazmuniga mos keladigan materiallardan unumli va to'g'ri foydalanish o'quvchilarning utilayotgan materialni o'zlashtirishga bo'lgan qizikishini ta'minlaydi. Dars qizikarli utadi.

2. Ta'limda qo'llanilayotgan kursatmali kurollar o'quvchilarning qay darajada yakkol va anik, obrazli idrok qilishini ta'minlasa va ko'zatayotgan ob'ektga mumkin qadar ko'prok sezgi organlari safarbar kilinsa, o'quv materiallari shunchalik tez, qo'lay va oson o'zlashtiriladi, o'zok

vakt esda saklab kolish hamda qayta esga tushurish mumkin bo'radi, okibatda o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

3. Kursatmali materiallar orqali o'quvchilar ob'ektiv borlikdagi narsa, voqealar bilan, ularning xususiyati, belgilari bilan tanishadilar. Mavxum xodisalarning anik obrazalar orqali idrok kilinishi natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikr qilish qobiliyatlari rivojlanadi. O'quvchilarning ayniksa sxema, jadval, diagramma kabi materiallar ustida ish olib borishlari va material xususiyatlarni takkoshlash, taxlil qilish, umulashtirish, xulosa chiqarishlari aloxida ahamiyatga ega.

4. O'quv materiallarining kursatmali bo'lishi o'zlashtirilgan ilmiy bo'limlarni tajribada, ishlab chiqarish amaliyotida qo'llana olishlari uchun zarur bo'lgan kunikma va malakalar bilan ham kurollantiradi.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi qoidasi deganda o'quv materiallarining mazmuni, uning xajmi, Harakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarligi saviyasi va imkoniyatlariga loyik bo'lishi tushuniladi.

Moslik qoidasida ta'limning ikki tomoni e'tiborda tutiladi:

1) Ma'lum sinf uchun belgilangan o'quv materiallarining Harakteri, mazmuni va xajmi shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi;

2) Har bir sinf uchun belgilangan bilim xajmi shu sinf o'quvchilarining saviyasiga mos bo'lishi lozim.

Ilgor klassik pedagogika namoyondalari ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi yuzasidan bir qator qoidalar ishlab chiqqanlar. Ulardan biri "Osondan kiyinga karab borish" qoidasidir. Ikkinchi "Ma'lumdan noma'lumga karab borish" dir. Bu qoidaga amal qilishda o'quvchilarda avvaldan mavjud bo'lgan ilmiy bilim va tajribalar zamirida yangi, xali o'quvchilarga ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar bilan kurollantirishni tushunmok lozim. Uchinchisi "Soddadan murakkabga karab borish" dir. Ko'pincha biz tushunib etgan, o'zlashtirilgan hamma narsalar sodda, tushunib etmagan, o'zlashtirilmagan narsalar esa murakkabdek ko'rinadi.

Ta'limda bilim, kunikma va malakalarni puxta va mustaxkam o'zlashtirish qoidasi avvalo hamma o'qitish qoidalari: tushunarlilik, tizimlilik va izchillik, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, kursatmalilik, o'quvchilarning ongliligi va faolliigi qoidalarini amalga oshirish bilan erishiladi. Puxta o'zlashtirishning muvaffakiyati ko'p jihatdan takrorlash va mashk kildirishga ham bog'liqdir.

Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash jarayonida faqat oldindan o'zlashtirilgan o'quv materiallarigina esga tushurilmay, balki shu o'quv materiallariga bog'liq bo'lgan yangi-yangi ma'lumotlar ham beriladi, o'zlashtirilgan bilimlarning noanik, tuman bo'lib kolgan tomonlari oydinlashtiriladi va tuldiriladi.

Takrorlash, xotirada qayta tiklashni bir necha yo'l bilan olib borish mumkin. Har bir darsda avvalgi dars material bilan yangi material o'rtasida bog'liqlik urnatish maqsadida kundalik takrorlash utkaziladi.

Takrorlashning ikkinchi turi maxsus qaytarishdir. Bunday takrorlash katta mavzularni utib bo'lgach, shuningdek, ma'lum bir chorak ichida utilgan material yuzasidan olib boriladi.

Maxsus takrorlashning keng tarkalgan turi o'quv yili oxirida aloxida ajratilgan soatlarda utkaziladi.

Ta'limda o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish qoidasi darsda Har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini tula hisobga olish juda kiyin va Har doim ham buni iloji bo'lavermaydi. Pedagog o'quvchilarni darsdagi va amaliy mashgulotlar jarayonidagi ishini, uy vazifalarini bajarishini ko'zatadi, ularning bilimi, yozma ishlari, yasagan kurgazma materiallarini tekshiradi. Darsdan tashkari vaktlarda urtoklari va boshkalgarga bo'lgan munosabati, xulqi, irodaviy sifatlarini urganadi, ular bilan suxbat qiladi. Kuzatish jarayonida u o'quvchining kuchli va ojiz tomonlarini, uning qizikishlari, tafakkuri, nutki, xotirasi, dikkati, xayoliga mos bo'lgan xususiyatlarni bilib oladi. Masalan: o'quvchining kurish qobiliyati uncha yaxshi bo'lmasa yoki yomon eshitsa, uni birinchi qatorga utqizish kerak. Bu narsa dikkati bekaror bo'lgan o'quvchilarga ham tegishlidir.

Darsda va uy vazifalarida differensiallashgan ta'lim elementlarini qo'llanilishi o'quvchilarni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishning muhim vositasidir.

Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar.

1. Ma'ruza matnini o'qib chiqing, belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni tekshiring.
2. Klaster usulini qo'llang.

14 - mavzu: Tarbiyaning umumiy usullari

1. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan tarbiya usullari. Mashq va o'rgatish, o'z-o'zini tarbiyalash usullari.

2. Rag'batlantirish va jazolash usullari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Tarbiya tushunchasiga ta'rif beradi;
- Mashq usulini tushuntiradi;
- O'z usulini izoxlaydi;
- Rag'batlantirish va jazo usulini taqqoslaydi;
- Mavzuga oid Sinkveyn tuzadi.

Tayanch so'z va iboralar.

Tarbiya, tarbiya usullari, mashq va o'rgatish, o'z - o'zini tarbiyalash, rag'batlantirish usuli, jazolash usuli.

1. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan tarbiya usullari. Mashk va o'rgatish, o'z-o'zini tarbiyalash usullari.

Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xoxlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogig jarayonida tarbiyalashi lozimligi bilishi kerak. SHu bilan birga bola o'zini o'zgartrishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmashligi lozim. O'quvchilar yaqin kishilarining (ota-onasi, o'qituvchilari, tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi bilsa bu unga ishda yordam bersa, shundagina bola pedagogik ta'sir o'tkazishga ochik va moyil bo'ladi. O'qituvchi - do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki olamlarini ochib ko'rsatadilar.

YUkorida aytganimizdek, tarbiya - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoklama jarayon. Tarbiyachilar - bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar - bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat kursatmasalar tajriba va bilim urgana olmaydilar.

Demak, tarbiya usuli - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir kursatish usullaridir. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullarini tarbiya metodlari deb ham ishlatiladi.

«Metod» so'zi grekchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslaxat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar xaqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, maqo'llash, raxmat aytish, duo qilish, ok yo'l tilash va xokazolar).
4. Korlash va jazo. (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbex berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ond-qasam ichirish, urish, kaltaklash va xokazolar.)

Tarbiya usullarini o'rganish, taxlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayondan foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruxga bo'lib olamiz:

Suxbat va xikoya. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suxbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uygotishning suxbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suxbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.

Xikoya. O'quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq xikoyalarni qizikib tinglaydilar. Suxbat ham, xikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suxbat va xikoya mavzusini o'quvchilarning o'zlari tanlasin, bunda suxbatning zavqi shundan ta'minlanadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O'quvchilar o'z atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni kurishlari va namuna olishlari nixoyatda muhimdir.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota - bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: «Kush uyasida kurganini qiladi». Juda oddiy jO'ngina xulosa.

Topshiriq. O'quvchilarning mexnat topshiriqini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda aloxida ahamiyatga egadir. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni His etishga O'rganadilar. Mexnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustaxkamlaydi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab « bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq » atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan anik bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi, u yoki bu harakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; okilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash usullari o'quvchilarning o'zini - o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqesini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'kishda, tarbiyada, dam olishda o'z - o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z - o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustakillikka undaydi.

O'z-o'zini taxlil qilish. O'z shaxsini, fazilatlarini taxlil qilishga, xatti - harakatlari xaqida uylashga o'rgatadi.

O'z - o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish - turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va, aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi xaqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baxolash. O'quvchining kobilyatini o'z kuchi bilan yuzaga chikishiga yordamlashish zarur. O'z - o'zini baxolash kiyin, lekin o'quvchini bunga etarli tayyorlash mumkin.

O'z -o'zini baxolash o'quvchi uchun o'zining imkoniyatlarini hisob - kitob qilish, baxolash, o'ziga chetdan turib xolisona baxo berish, o'zidan konikish xosil qilishda yordam beradi.

M.S. Metod, usul tushunchalariga ta'rif bering.

2. Rag'batlantirish va jazolash usullari.

1.O'quvchining kuchi etadigan, mas'uliyatli topshirik berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o'quvchi o'z qadr - qimmatini bilan faxrlanadi;

2.Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);

3.Esdalik sovgasi berish (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshkalar);

4.Maktov yorligi berish;

5.Stipendiya bilan takdirlash;

6.Xurmat taxtasiga fotosuratini quyish;

7.qo'llab- kuvvatlash;

8.Mas'uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;

9.Safda birinchi o'rinda turish;

10.Musobakalarda bayrok ko'tarish;

11.Gazetada, radioda e'lon va xokazo.

Xar qanday ragbatlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim.

Jazolash - bu tarbiyalanuvchining xatti - harakati va faoliyatiga salbiy baxo berishdir.

Jazo ham o'quvchining va butun sinf manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani ko'rkitish, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi kurkkanidan yolg'on gapirishga urganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib koladi.

Maktablarda qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbex berish - eng engil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma - yuz turib tanbex beradi, buni kundaligiga yozib quyish mumkin.

Ogoxlantirish - noma'qo'l xatti harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Xayfsan berish - agar tanbex va ogoxlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni bo'zaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomini qanday sharoitda bo'zganini e'tiborga olib unga xayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-xayodir. Odatda, odamda izzat -nafs, odamiylik kancha kuchli bo'lsa, avvalo o'zini xurmat kilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu xislarni extiyotkorlik bilan ustirish lozim, lekin xadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan okilona va o'z urnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

M.V. Siz o'qituvchisiz, talabalarigizdan biri berilgan topshiriqni bajarmagan va darsda o'zini yaxshi tutmayapti. Qanday jazo chorasini qo'llaysiz?

IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1.Amalij mashg'ulot: Hozirgi zamon psixologiyasi predmeti, maqsadi va uning vazifasi.

Ishdan maqsad: Hozirgi zamon psixologiyasi predmeti, maqsadi va uning vazifalarini amaliy jihatdan o'rgatish. SHuningdek fan yuzasidan amaliy tasavvurini shakllantirishdan iborat. (Bumerang texnologiyasi asosida)

Masalaning qo'yilishi: Hozirgi vaqtda shaxsning rivojlanishida psixologiya fani ahamiyati.

2.Amalij mashg'ulot: Bumerang texnologiyasi

Texnologiya o'quvchi (talaba)larni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so'zlab berish, fikrlarni erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko'p bilimga ega bo'lish, o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Bunda guruh 3 ta kichik guruhga bo'lindi va ularga "Hozirgi zamon psixologiyasi predmeti, maqsadi va uning vazifalari" mavzusi yuzasidan har bir guruhga alohida matnlar beriladi. Talabalar o'z guruhida matnni o'rganadilar va o'z matlarini o'rgatish uchun boshqa guruhga o'z vakilini yuborishadi. O'zlarining guruhlariga qaytgach uchta matn bo'yicha fikr almashadilar. O'qituvchi tomonidan tuzilgan savollar asosida guruhlar baholanadi.

2.Amalij mashg'ulot: Psixologiyaning ilmiy - tadqiqot metodlari.

Ishdan maqsad: Kasb psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari haqida ma'lumot berish. SHuningdek, ba'zi tadqiqot metodlarini amalda sinab ko'rish va talabalarda amaliy malakalarni shakllantirishdan iborat.

Masalaning qo'yilishi:

- 1) Talabalar amaliy va ilmiy tadqiqotni qo'llay bilishi;
 - 2) Kasbiy psixologiyaning tadqiqot metodlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.
 - 3) Talaba kasbiy maslahat turlarini bilishi;
 - 4) Kasbiy bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va kasbiy malakalarini hisobga olgan holda maslahat ishlarini tashkil etish yo'llari, usul va vositalari haqida ma'lumotga ega bo'lishi
- Assesment - inglizcha so'z bo'lib, "baho", "baholash" ma'nosini bildiradi.

Bugun bu usul ta'lim tizimiga ham joriy etilgan bo'lib, talabalarining bilim darajasi, malaka va ko'nikmasini baholashga xizmat qiladi. SHuning uchun ushbu metoddan foydalanib keysni samarali hal etish mumkin.










TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
<p>Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlarining klassifikatsiyasi nechta turdan iborat?</p>	<p>Matematik statistika metodlari ustida ishlash. Styudentning -t mezonni tahlili. Personning chiziqd koeffitsientini aniqlash metodlaridan foydalanish maxsus matematik bilim talab qiladi. Ushbu metoddan foydalanilmasa natijalar ishonchliligiga shubha paydo bo‘ladi.</p>
BELGILAR:	AMALII HARAKATLAR
<p>Genetik metodlar, praksimetrik metodlar, psixometrik metodlar, eksperimental metodlar, rangli assotsiativ test, kuzatish, suhbat, intervyu so‘rovnoma, varaqalar, testlar, tarjimai hol, eksperiment, mehnat mahsulini tahlil qilish va matematik statistika metodlari</p>	<p>Matematik statistik metodlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish, test natijalarini qayta ishlovchi kompyuter dasturlarini o‘rganish</p>

3- Amaliy mashg‘ulot. Faollik, faoliyat va uning turlari.

Nilufar guli texnologiyasi

Texnologiya didaktik muammolarni echishning samarali vositalaridan bo‘lib, nilufar guli ko‘rinishiga ega. Asos, unga birikkan to‘qqizta “gulbarg” (kvadrat, to‘rtburchak yoki aylanalar)larni o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

O‘quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:





4- Amaliy mashg'ulot. SHaxs. Muloqot. Guruh. Jamoa.










Ishdan maqsad: Shaxs, muloqot, guruh, jamoa xaqida ma'lumot berish.

Masalaning qo'yilishi: SHaxs, muloqot, guruh, jamoa xaqida bilishi;

Nilufar guli texnologiyasi

Texnologiya didaktik muammolarni echishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega. Asos, unga birikkan to'qqizta "gulbarg" (kvadrat, to'rtburchak yoki aylanalar)larni o'z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

O'quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



5.6. Amaliy mashg'ulot: SHaxsning bilish jarayonlari va kasbiy rivojlanishi:

(*Diqqat, Sezgi, Idrok, Xotira, , Xayol, Tafakkur*)

Ishdan maqsad: Psixik jarayonlar haqida tushuncha. Diqqat. Sezgi. Idrok. Xotira. Xayol,

Tafakkurni shaxs faoliyatidagi va kasbiy rivojlanishidagi oʻrni.

Masalaning qoʻyilishi: Diqqat, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur jarayonlari ularning shaxs faoliyatidagi va kasbiy rivojlanishidagi oʻrni haqida tushunchaga ega boʻlish. Tashqi olamni aks ettirishda rol oʻynaydigan jarayonlar ahamiyatini tushuntirish.

TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
Diqqat, sezgi, idrok, tafakkur, xotira, xayolni b biriga bogʻliqligi qanday?	Sezgilarning tasniflanishi. Sezgilarni umumiy qonuniyatlari. Idrokning anglangan boʻlish Harakatni idrok qilinishi. Tafakkur turlari va aqlni muhim sifatlari.
BELGILAR: Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakku xayolning talabalar faoliyatidagi oʻrni.Ular turlari va shaxs hususiyatiga bogʻliqligi.	AMALIYHARAKATLAR Amaliyot mobaynida sezgi, diqqat, xotiralarni, turl tuman testlar, qiziqarli oʻyinlar yordamida talabalarda oʻtkazish.

7. Amaliy mashgʻulot: SHaxsning individual xususiyatlari.

Ishdan maqsad: SHaxsning individual xususiyatlari. toʻgʻrisida tushunchalar berish. Temperament va uning tiplari, xarakter va uning turlari, qobiliyatni rivojlanishini tushuntirish. .

Masalaning qoʻyilishi:

- 1) Talabalar temperamen va xarakter turlarini tekshirish;
- 2) Qobiliyatni rivojlanishini oʻrganish.

Temperament tipini aniqlash.

Kerakli jihozlar: Temperament tipini aniqlash testi va javob varaqalari.

Koʻrsatma: Berilgan toʻrt fikrdan birini tanlab javob jadvaliga oʻsha harfga (+) qolganlariga esa (-) qoʻyiladi. Hamma (10 ta) fikrlardan oʻzingizga taʼalluqlisini belgilaganingizdan soʻng qaysi ustunda (+) koʻp boʻlsa oʻsha sizning temperamentingiz hisoblanadi.

Savollar varaqasi

I. A – kayfiyatim tez-tez oʻzgarib turadi, hursandchilik tez xafachilikka aylanishi mumkin, achchigʻimni chiqarish oson.

B – doimo xushchaqchaqman va shu kayfiyatim odamlarga oʻtib turadi.

V – doimo kayfiyatim bir xil achchigʻimni chiqarish qiyin.

G – doim kayfiyatim yomon, meni kuldirish qiyin.

II. A – chaqqon va harakatchanman.

B – sekin va past ovozda gapirish yoqadi.

V – tez va shoshib fikrimni bildirishimni xohlayman.

G – sekin va baland ovozda kam harakat bilan gapiraman.

III. A – agar ishim yurishmasa ham boshlagan yoʻlimdan qaytmayman va boshqa yoʻlni izlayman.

B – ishim yurishmasa bu ishni toʻhtatib, shu ishni boshqa yoʻlini iz-layman.

V – ishim yurishmasa xafa boʻlaman va tashlab yuboraman.

G – ishim yurishmasa u yodimdan chiqadi va boshqasini davom ettira-man.

IV. A – tez charchayman.

- B – ko‘p va oxirigacha etkazib ishlayman.
 V – yutuq bo‘ladigan ishni yaxshi ko‘raman.
 G – harqanday ishni bajaraman, faollik (aktivlik)qilaman.
 V. A – tanbehni yoqtirmayman, bahslashaman.
 B – tanbehni jim tinglayman, lekin yana xatoqilaman.
 V – tanbehni diqqat bilan tinglab tuzataman.
 G – tanbehni eshitib xafa bo‘laman, lekin bahslashmayman.
 VI. A – ishlashdan oldin reja tuzib, keyin ishni boshlayman.
 B – agar ishda qiyinchilik bo‘lsa tezda moslashaman (shu ishga).
 V – ishga tez kirishaman lekin keyin qiyin bo‘lsa tuzataman.
 G – ishni boshlashdan oldin o‘ylayman, yoqmasa ishlamayman.
 VII. A – birqarorga kelishdan oldin o‘ylayman, hayajonlanaman.
 B – birqarorga kelishdan oldin o‘ylayman.
 V – birqarorga kelishim qiyin.
 G – birqarorga tezda kelaman.
 VIII. A – muloqotda muloyim, taktikali, hozir javobman.
 B – muloqotda boshlovchi, chaqqonlikni yaxshi ko‘raman.
 V – muloqotni ko‘p yaxshi ko‘rmayman, bir o‘zim bo‘lsam yaxshi.
 G – hafachilikni optimistik ravishda qabul qilaman, tez unutaman.
 IX. A – hafachilikdan qattiq ranjiyman, lekin tezda unutaman.
 B – xafachilikdan qattiq ranjiyman, tez unuta olmayman, boshqalarga bildirishni yomon ko‘raman.
 V – xafachilikni tez unuta olaman.
 G – xafachilikni optimistik ravishda qabul qilaman, tez unutaman.
 X. A – hazilni, hazil qilishni yaxshi ko‘raman.
 B – hazilni yaxshi ko‘raman, faqat eng yaqin kishim bilan.
 V – bo‘lar-bo‘lmas hazil qilaman, lekin odamlar buni tushunmaydi.
 G – hazilni unchalik yoqtirmayman, hazil qilishni ham.

№	X	S	F	M
1	A	B	V	G
2	V	A	G	B
3	B	G	A	V
4	V	G	B	A
5	A	V	B	G
6	V	B	A	G
7	B	G	V	A
8	G	B	V	A
9	A	G	B	V
10	A	V	B	G

JAMI (+)

Xolerik Sangvinik Flegmatik Melanxolik

Savollar

1. O‘ylayotganlaringizni yaxshi bayon etib bera olasizmi?
2. Tajriba va sinovlar o‘tkazishni yaxshi ko‘rasizmi?
3. Karta yoki sxema yordamida istalgan manzilgohni qiynalmasdan topa olasizmi?
4. O‘zingizga tanish musiqa kuyi ostida qo‘shiq kuylay olasizmi?
5. Arg‘imchoqda uchishni yoqtirasizmi?
6. Uyda yolg‘iz o‘tirishdan ko‘ra do‘stlaringiz bilan suhbatlashish afzalmi?
7. Xayvonlarga ozor bermay, yaxshi munosabatda bo‘lasizmi?
8. YOlg‘izlikni, xayol surib yurishni yoqtirasizmi?

9. Siz adabiyotga qiziqasizmi?
10. Suratga tushirishni yoqtirasizmi?
11. Qiladigan ishlaringizni oldindan yon daftaringizga yozib qo'yasizmi?
12. O'zingiz yoqtirgan qo'shiklarni tez-tez xirgoyi qilib turasizmi?
13. O'zingizning kuchli va kuchsiz tomonlaringizni yaxshi bilasizmi?
14. Boshqalarning maslahatiga qulok tutmay, mustaqil qaror qabul qila olasizmi?
15. Ko'pgina masalalarda boshqalarga maslahat bera olasizmi?
16. Psixologiya bilan qiziqasizmi?
17. Xazil-mutoyibani yoqtirasizmi?
18. Rang-barang bezatilgan kitoblarni yaxshi ko'rasizmi?
19. Odamlarning hatti-harakatlarini ko'zatib yurasizmi?
20. Har xil imo-ishoralari va harakatlarni yaxshi eslab qolasizmi?
21. Sportga qizikasizmi?
22. Qiynalmasdan bir guruh odamlarni boshqara olasizmi?
23. Dunyoviy muammolarga, masalan, ekologiyaga qizikasizmi?
24. Sayohatga, baliq oviga borishni yoqtirasizmi?
25. Har xil so'z o'yinlarini va topishmoklarni topishni yaxshi ko'rasizmi?
26. Narsalar bilan raqamlar orasidagi bog'lanishni aniqlay olasizmi?
27. YOsh bolalar bilan o'yin uynashni yoqtirasizmi?
28. YUGurishdan ko'ra futbol, voleybol, basketbol o'ynash ma'qulmi?
29. Gullarning nomini yoddan bilasizmi?
30. Toqqa chikishni yoqtirasizmi?
31. Tez-tez musiqa eshitib turasizmi?
32. Narsalarni bo'zib, boshqatdan terishni yaxshi ko'rasizmi?
33. Radio, televizordan eshitgan ma'lumotlarni yaxshi eslab qolasizmi?
34. O'z fikringizni bayon qilganda rasm va sxemalardan foydalanasizmi?
35. Hisob-kitob daftarinu yaxshi olib borasizmi?
36. O'yinga tushishni yaxshi ko'rasizmi?
37. Tez-tez barmoqlaringiz yordamida musiqa "chalib" turasizmi?
38. Eng yaqin do'stlaringiz bormi?
39. Hayotingiz haqida o'ylab turasizmi?
40. O'zingizni fermer sifatida tasavvur qila olasizmi?
41. SHaxsiy tashvishlar sizni ko'prok qiziktiradimi?
42. Biror narsani hal etishda do'stlaringiz bilan maslahatlashasizmi?
43. SHaxmat o'ynashni yoqtirasizmi?
44. Narsalarning kelajakda qanday bo'lishini tasavvur qila olasizmi?
45. Musiqa asbobida ko'p ijro eta olasizmi?
46. Narsa haqida to'la tasavvurga ega bo'lishingiz uchun uni ushlab ko'rishingiz kerakmi?
47. Bahslashganda o'z fikringizni qat'iyat bilan himoya qilasizmi?
48. Yulda biror kuyni xushtak orqali chalib yurasizmi?
49. Ekologiya hozirgi davrning eng asosiy muammosimi?
50. Biror jamoa, guruh yoki qumita tarkibida bo'lishni hohlaysizmi?
51. Boshqalar bilmaydigan qiziqish, ermagingiz bormi?
52. Narsalarning mohiyatini baholash uchun ularni turli guruhlarga ajratasizmi?
53. Siz rasmlar tomosha qilishni yoqtirasizmi?
54. So'zlashayotganda imo-ishoralarni ko'p ishlatasizmi?
55. Ko'zingiz tushgan xamma yozuvlarni, xatto buyumlarning etiketlarini xam o'kiyasizmi?
56. 56 Mantikiy o'yinlarni yaxshi ko'rasizmi?
57. Tushuntirganda misollar kelgirasizmi?
58. Odamning hamma a'zolari qacda joylashganini yaxshi bilasizmi?
59. Kelishmovchilik va janjallarni hal qila olasizmi?
60. Doim biror narsani o'rganishni o'ylab yurasizmi?
61. Bir marta eshitgan ko'yingizni eslab qolasizmi?

62. Bilimlarni tajriba va sinov orqali o'zlashtirasizmi?
63. So'zlashganda kitoblarda o'qigan obrazlardan foydalansizmi?
64. Matematikadan ko'ra fizika ko'prok yoqadimi?
65. Kompyuter bilan ishlashni yoqtirasizmi?
66. Mashhur aktyorlarning gaplarini o'zlariga o'xshatib aytishni, ya'ni taqlid qilishni yaxshi ko'rasizmi?
67. Xayotingizni qo'shiksiz tasavvur kila olasizmi?
68. To'ylarda qatnashishni yoqtirasizmi?
69. Planetalarning nomlarini bilasizmi?
70. Kundalik yuritasizmi?
71. Uy xayvonlariga ovqat berishni yoqtirasizmi?
72. Xayotingizda biror narsaga erishish uchun xamma narsaga tayyormisiz?
73. O'simliklarga suv quyishni yoqtirasizmi?
74. Tez-tez konsertlarga borib turasizmi?
75. Yulda o'z shaxsiy muammolaringiz hakida o'ylab yurasizmi?
76. Matematikani yaxshi ko'rasizmi?
77. Dars paytida daftaringizga ba'zi narsalarning rasmini chizib o'tirasizmi?
78. Juda ko'p so'zlarning ma'nosini bilasizmi?
79. Ovoz chikarib fikrlashni yoqtirasizmi?
80. Odamlar qiynalganda sizdan maslahat so'rab turishadimi?

Endi bu savollarga javoblarni baholash ustida to'xtalamiz. O'quvchi o'zi belgilagan savol nomerlarini jadvalda "doira" ichiga olib chiqadi. Qaysi ustunda 8 tadan 10 tagacha "doiracha"lar bo'lsa, o'quvchida o'sha qobiliyat ustun bo'ladi.

A	B	C	D	E	F	G	H
1	2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23	24
25	26	32	27	31	30	28	29
33	35	34	36	37	39	38	40
47	43	44	46	45	41	42	49
55	52	53	54	48	51	50	58
63	57	56	61	62	60	59	69

78	65	64	66	67	70	68	71
79	76	77	75	74	72	80	73

Qaysi qobiliyatning ustunligiga qarab, o'quvchining nimaga qiziqishi hakida so'z yuritish mumkin.

A - lingvistik qobiliyat. Bunday kobiliyatli o'quvchilarda o'qishga, she'riyatga, bahsmunozalarga, hazil-hajv va hikoyalarga qizikish kuchli bo'ladi.

V-matematik qobiliyat. Bu qobiliyati ustun bo'lgan o'quvchilar abstrakt belgilar, formulalar, misol-masalalar, raqamlar bilan ishlashni yaxshi ko'radi.

S - ko'rish qobiliyati. Bu qobiliyatga ega o'quvchilarda ranglarga, tasviriy san'atga, haykaltaroshlik va chizmachilikka qizikish katta bo'ladi.

D - kinetik qobiliyat. Bu qobiliyat egalari raqs, rol ijro etish, jismoniy mashqlar, sport o'yinlari va dramaga qizikadi.

E - tabiatsevarlik qobiliyati. Bu qobiliyat egalari sayru sayohatga, ekskursiyalarga ko'prok qiziqadi.

F - musixy qobiliyat. Bu qobiliyat egalari qo'shik aytishni, musiqa chalishni, jo'r bo'lishni yaxshi ko'radilar.

G – suhbatdoshlik qobiliyati. Bu qobiliyat egalari xamdard, hamkor, xushmuomala bo'lishni, birgalikda turli yangi loyiha (proekt)lar yaratishni yaxshi ko'radi.

N - fikrlash qobiliyati. Bu qobiliyat egalari doim fikrini bir joyga yig'ib to'play oladi, yaxshi, chuqur fikrlaydi, xayol surib yurishni yaxshi ko'radi.

Xo'sh, keltirilgan javoblardan qachon, qaerda va qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

Birinchidan, ular akademik litsey yoki kasb-xunar kolleji o'quvchilariga o'z shaxsiy yunalishini tug'ri belgilashlariga yordam berishda qo'l keladi.

8. Amaliy mashg'ulot: Kishi xayot tarzining yosh davrlari. Xar bir yosh davrining qisqacha tavsifi.

Ishdan maqsad: maktabgacha yosh davri, maktab yoshi, o'spirlik davri tushunchalari haqida bilimga ega bo'lish.

Masalaning qo'yilishi:

Psixik rivojlanish dinamikasi va o'quvchi shaxsining shakllanishini o'rganish–hozirgi zamon psixologiyasining dolzarb muammolaridandir.

Psixik rivojlanish va yosh davrlari muammosi.

TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
1. Bilish jarayonlarining kishi faoliyatidagi ahamiyati nimalarda ko'rinadi?	Yosh davrlari asosi rivojlanishni qonuniyatlari va bola rivojiga yondashuvning ikki printsipti (tamoyili).
BELGILAR: Tarixiylik printsipti, faoliyatda rivojlanish printsipti, maktabgacha yosh davri, maktab yoshi, o'spirlik davri	AMALII HARAKATLAR Amaliyot mobaynida umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, layoqatni solishtiradi.

9. Amaliy mashg'ulot: Pedagogikaning predmeti, maqsadi va vazifalari.

Ishdan maqsad: Pedagogikaning predmeti, maqsadi va vazifalarini o'rganish.

Masalaning qo'yilishi: Pedagogika fanining rivojlanish tarixi va maqsadi, hozirgi kundagi vazifalarini taxlil qiladi;


1-guruh a'zolarini toifalash jadvalini to'ldiring

Toifali javdal

TOIFALAR

--	--	--	--	--

2- guruh a'zolari klaster tuzing




10. Amaliy mashg'ulot: Pedagogikada asosiy tushunchalar.

Ishdan maqsad: Pedagogikada asosiy tushunchalari xaqida ma'lumot berish.

Masalaning qo'yilishi: Pedagogikada asosiy tushunchalari xaqida ma'lumot berish.

Tushunchalar:



Toifalash jadvali

№	Padagogikaning asosiy tushunchalari	Qisqacha xarakteristikasi
1	Rivojlanish	
2	Tarbiya	
3	Ta'lim	
4	Ma'lumot	
5	O'z-o'zini tarbiyalash	
6	Mustaqqil ta'lim	
7	Mustaqqil ma'lumot	
8	Tarbiyaviy munosabatlar	
9	Ijodiy (kreativ) xislatlar	

11. Amaliy mashg'ulot. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Ishdan maksad: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar haqida ma'lumot berish

Masalaning qo'yilishi: XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlarni taxlil qila olishi

“Konvert” usuli



Konvert usuli yordamida mavzuga oid savol hamda muammolar keng yoritiladi va tahlil qilinadi.

O‘quv topshiriq: Guruh sardorlari bittadan konvertlardan tanlaysizlar, har bir konvert ichida uchtadan mavzuga oid savollar bo‘lib, barchangizni faol ishtirokingiz yordamida istagan grafik organayzer asosida savollarga javob yozasizlar va izohlaysizlar.

12-Amaliy mashg‘ulot. Mustaqil O‘zbekistonda ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya, pedagogik fikrlar.

Ishdan maqsad: Mustaqil O‘zbekistonda ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya, pedagogik fikrlar haqida ma’lumot berish.

Masalaning qo‘yilishi: Mustaqil O‘zbekistonda ijtimoiy hayot, ta’lim-tarbiya, pedagogik fikrlar haqida bilimga bo‘ladilar;

“Venn diagrammasi”

Grafik organayzer o‘quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

YOzuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:

Grafik organayzer o‘quvchi (talaba)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.




13. Amaliy mashg‘ulot. Ta’lim qonuniyatlari va qoidalari.

Ishdan maqsad: Ta’lim qonuniyatlari va qoidalari haqida ma’lumot berish.

Masalaning qo‘yilishi: Ta’lim qonuniyatlari va qoidalari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi;

- S - кучли томони
- W - кучсиз томони
- O - имкониятлари
- T - хавф-хатар



Муаммолар мавжудлигини тасдиқловчи




14-Амалий машг‘улот. Tarbiyaning umumiy usullari

Ishdan maqsad: Tarbiyaning umumiy usullari, SHaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, psixologik shart-sharoitlarini amaliy jihatdan o‘rgatish.

Masalaning qo‘yilishi: Xulq-atvor va odatni shakllantirish, shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishi ekanligini tahlil etish

1 guruh uchun topshiriq

“Tarbiyaning umumiy usullari” ni Nilufar guli yordamida yoriting



2 guruh uchun topshiriq

Tarbiyaning umumiy usullarin tahlil qiling. Inset jadvaliga tegishli belgilarni qo‘ying. Har bir talabaga jadval shaklidagi matn tavsiya etiladi. Talaba matnni o‘qish jarayonida jadvalning chap tomoniga maxsus belgilarni qo‘yib boradi. (“+” – agar ma’lumot yangi bo‘lmasa, “-” – agar oldingi olgan bilimlariga nisbatan to‘liq bo‘lmasa, V – agar ma’lumot tushunarli bo‘lsa, ? – agar ma’lumot tushunarsiz bo‘lsa yoki qo‘shimcha ma’lumotlarni talab etsa).

Tarbiya psixologiyasi	V - + ?
-----------------------	------------------

V. KEYSLAR BANKI



1-“case study”: Sizning yaqin tanishingiz xafa holatda qo'ng'iroq qilib hafaligining sababini aytib shikoyat qildi. U o'zining yolg'izligini va boshqa hayotga bo'lgan ishonchining yo'qolganligini va u faqat o'lim to'g'risida o'ylashini aytdi.

Savol: Siz, bu haqda u bilan qanday gaplashgan bo'lar edingiz? Sizning vazifangiz unga yordam berish

2-“case study”: Siz ko'chada hammaning oldida bolasini qattiq urayotgan ayolni uchratib qoldingiz, bola qichqirib yig'layapti. SHu vaqtda ayolga tanbeh berilsa, uning jahli chiqib, o'g'lini battar urishi mumkin, indamay o'tib ketishlik ham mumkin emas.

Savol: Bu holatda qanday yo'l tutish mumkin deb o'ylaysiz?

3-“case study”: Siz ko'chada hech kimga ozor bermasdan ketayotgan edingiz, biroq, to'satdan birdaniga orqangizdan gavdali miliuioner kelib, Sizning tirsagingizdan ushlab deydi: “Ioring men bilan”. Sizning taajjublangan savolingizga javob bermay, u bilan ketishni talab qildi.

Savol: Bunday holatda Siz o'zingizni qanday tutar edingiz?

4-“case study”: Sizning qadrdon do'stingiz o'zining xotini bilan janjallashib qoldi va Sizni qozilikka chaqirdi. Siz uning xotini bilan umuman tanish emassiz, Siz rad javobini bersangiz do'stingiz xafa bo'ladi.

Savol: Bu holatda nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

5-“case study”: SHunday odamlar borki, ular o'z shaxsi bilan qiziqmaydi va o'zlari to'g'risida umuman o'ylashmaydi. Bu ham o'ziga xos kasallikdir. Ayniqsa, bu eski davr odamlariga xos. Tasavvur qiling, Sizning onangiz va otangiz xuddi shu odamlar toifasidandir.

Savol: Ular o'z shaxslari bilan qiziqishlari uchun nimalar qilishlari kerak deb o'ylaysiz?

6-“case study”: O'qituvchi darsda qo'pol muomala qiladigan, to'polonchi, mahmadona bir o'quvchini direktor oldiga olib keldi. O'qituvchi direktorga “Bu xaqoratlarni eshitish menga og'ir”, g' dedi.

Savol: Bunday holatda nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

7-“case study”: O'qituvchi talabalardan o'zlari bilgan xalq og'zaki ijodi namuna (maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar, doston kabi) lari mazmunini aytib berishni va ularning echimlarini topishni so'raydi

8-“case study”: O'quvchilar kichik yoshdagi sinflardan katta yoshdagi sinflarga o'tgani sayin ulardagi kuzatuvchanlik o'zgarib boradi. Agar, kichik yoshdagi o'quvchilarda bu kuzatuvchanlik u yoki bu predmet, xodisaning sirtidagi belgilarni ko'rishda namoyon bo'lsa, o'rta va katta yoshdagi o'quvchilarda bunday kuzatuvchanlik ularning voqea-xodisalarining mohiyatini tushuntirishga, ularning yashirin, lekin g'oyat muhim belgilarini aks ettirishga harakat qilishlarida namoyon bo'ladi.

Savollar:

1. Kuzatuvchanlikdagi bunday o'zgarish, nimalar bilan izohlanadi?
2. O'quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantirishda o'qituvchi qanday o'rin tutadi?

9-“case study”: Ona tovuq xavf ostida qolgan jo’jasining chiyillashini eshitishi bilan hamisha yordamga shoshilishi ma’lum. Lekin jo’jani oyog’idan bog’lab, ovoz eshitilmaydigan, ko’zga ko’rinadigan shisha qalpoqqa joylashtirilgan edi. Ona tovuq uning qiynalishlariga mutloq befarq qarab, tashvishlanmadi ham.

Savol: Tovuqning bunday «befarq qarashi»ni nima bilan izohlash mumkin? SHaxsiy kuzatishlaringizdan yoki adabiyotdan shunga o’xshash misollar keltiring.

10-“case study”: O’qituvchi darsini o’tgan darsni so’rashdan emas, balki yangi mavzuni o’tishdan boshladi

Savol: O’qituvchi to’g’ri ish qildimi, Siz nima deb o’ylaysiz?

11-“case study”: Ta’lim-tarbiya ishini demokratlashtirish va tubdan yangilash maqsadida o’qituvchi geografiya darsida diniy aqidalarga oid turli misollar keltirdi

Savol: Siz o’qituvchi ishini qanday baholaysiz?

12-“case study”: Dars boshlangandan keyin ikki o’quvchi chamasi 10 daqiqa kechikib kelishiga qaramay, to’g’ridang’to’g’ri sinfga kirib, o’z joyiga borib o’tirdi

Savol: Sizningcha bunday holatda o’qituvchi nima qilishi kerak edi, fikringiz?

13-“case study”: Direktor darsga 6 daqiqalar chamasi kechikib kelayotgan bir o’qituvchi va 4 nafar o’quvchini hovlida uchratdi, ammo ularga hech narsa demadi

Savol: Direktorning tutgan yo’li to’g’rimi, bu haqda Sizning fikringiz?

14-“case study”: Tanaffusga chiqishga qo’ng’iroq chalindi. O’qituvchilar o’qituvchilar xonasiga biring’ketin kirib kelishdi. SHunda matematika o’qituvchisi: «Gulnoraxon, sinfingizdagi Ahmadjon bugun darsda o’zini juda yomon tutdi. Butun dars davomida bolalar bilan gaplashib o’tirdi. Karimjon esa, kitob o’qib o’tirdi. Bundan tashqari, sinfingizdagi ko’pchilik o’quvchilar uyga berilgan amaliy «case study»ni bajarishmagan», – dedi.

– Mening darsimga esa, to’rtta o’quvchingiz kirmadi, – deya qo’shimcha qildi ona tili o’qituvchisi

Savol: Siz ushbu sinf rahbari tushub qolgan vaziyatni qanday tahlil qilgan va baholagan bo’lar edingiz?

15-“case study”: O’qituvchi matematikadan olgan kontrol ishini tahlil qila turib, qo’yan baholarini quyidagicha izohlaydi:

– Malika – to’rt (4), sening ishing har vaqtdagidek, yaxshi. Ammo, undan bittagina xato chiqdi, afsus, tushunaman, bu tasodifiy xato, lekin nima bo’lganda ham xato xatoda.

– Ahmadjon, senga ham to’rt, tabriklayman, balli azamat! Juda yaxshi, endi buyog’ini bo’shashtirma!

Savol: Mazkur o’qituvchining baholash jarayoniga Sizning munosabatingiz qanday?

16-“case study”: Otag’onalar majlisida bir ona o’rnidan turib shunday dedi: «Qizim yaxshi o’qisin deb hamma ishni o’zim qilaman, nima desa shuni muhayyo qilaman». Boshqa bir ota esa, shunday dedi: «Men o’z o’g’limni matematika, fizika va ximiyani yaxshi blishini istayman! U o’rnini yig’ishtirib qo’yadigan yoki tugmalarini taqib qo’yadigan bo’lib qolgani bilan aqli bo’lib qolmaydi-ku?»

Savol: Ana shu ota-onalarning fikrlariga munosabatingiz qanday? Majlisni o’tkazayotgan sinf rahbarining mazkur ota-onalarga munosabati qanday bo’lishi kerak deb o’ylaysiz?

17-“case study”: Ona 7-sinfda o’qiydigan o’g’liga «Sen magazinga borib kel», - dedi. O’g’il esa, «Borgim kelmayapti», - dedi. SHunda ona «yalqov», «tekinxo’r» va hokazolar deb koyishga tushdi. O’g’ilning jahli chiqib, ko’chaga chiqib ketdi, lekin magazinga bormadi

Savol: Sizningcha onaning xatosi nimada?

18-“case study”: ba’zi oilalarda bolalardan kattalarni «Siz» lashni, unga birinchi bo’lib salom berishni talab qilishsa, boshqa ayrim oilalarda bunga ortiqcha e’tibor bermaydilar.

Savol: Bu holatga Siz qanday qaraysiz?

«case study»

Yosh kelin kuyovlar bir-biriga qaynoq muhabbat bilan turmush qurishgan edi, lekin oradan sal vaqt o’tmay ajralish to’g’risida gapira boshladilar. Xo’sh, sababi nima ekan? “Munosabatlari to’hri kelmagan emish”.

- Xotinim har doim arzimagan narsani bahona qilib janjal ko’taraveradi. Rasvo xarakteri bor, hech qachon hech bir «case study»da yon bosish nimaligini bilmaydi, - deb shikoyat qilar edi er.

- Erim hech bir ishini o’z vaqtida qilmaydi, men bilan hisoblashmaydi. Men ishdan charchab, doim boshim og’rib yotgan vaqtimda u albatta, qaergadir taraqlatib mix qoqoishi kerak. Qachon nimani iltimos qilsang, nuqul ertaga, ertaga deb bahona qiladi... deya unga qarshi javob beradi xotini.

Savollar

1. Yuqorida keltirilgan misolda shahsning qanday salbiy xislatlari odamlar o’rtasida o’zaro nosog’lom munosabatlarning sababchisi ko’rsatib bering?

2. O’zaro muloqat jarayonida shahsning qanday o’ziga xos xususiyatlari o’zaro munosabatlari xal qiluvchi ta’sir ko’rsatadi?

3. Xizmat sohasida va oilaviy munosabatlarda odamlar o’rtasida shaxslararo aloqalarda bir-birini tushunish sog’lom mikromuhitni vujudga keltirishning asosiy sharti ekanligini izohlab bering?

«case study»

O’qituvchi bilan talabaning o’zaro munosabatlari talaba shahsning shakllantirishga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishning eng muhim yo’llaridan biridir. Biroq o’qituvchi faoliyatida har doim ham talaba bilan bo’ladigan o’zaro munosabatlari yaxshi bo’lavermaydi. Bu ko’p jihatdan talaba faoliyatiga qanday rahbarlik qilish uslubiga, o’qituvchining xarakteriga hamda uning o’z tarbiyaviy funksiyasini qanday vositalar bilan amalga oshirishga bog’liq bo’ladi. Auditoriyaga yig’ilgan talabalar tema planini yozib olayotgan vaqtlarida Ivanov cho’ntagidan tarog’ini olib, ancha vaqt sochini tarab o’tiradi.

- Hozir soya tariydigan vaqt emas, - deya tanbeh beradi o’hqituvchi. Ivanov bu tanbehga nihoyatda qo’pollik bilan shunday javob beradi;

- Men bolalar bog’chasining vakilasi nasihatlariga muhtoj emasman.

“Bu betamizni auditoriyadan xaydab chiqarsammikin, o’zim chiqib ketsammikin” degan xayollar yosh o’qituvchining ko’nglidan o’tdi, lekin u bir daqiqa o’ylab turdi-da, boshqa bir qaror keldi.

- Betamizlik hech qachon aql-idrok belgisini bo’lgan emas. Siz institut dog’ tushuryapsiz, - dedi u va darsni davom ettirdi.

Savollar

1. Sizning fikringiz o’qituvchi to’g’ri qildimi?

2. Bu misolda o’qituvchi o’z xarakteridagi qanday xususiyatlarni namoyon qiladi.

VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni:

1. Ma’ruzani tinglay olish. Oliy o’quv yurtida ma’ruza jarayonida talabalardan ma’ruzachini diqqat bilan tinglash, fikr yuritish va eshitganlarini yozib borish (matnlashtirish) talab etiladi. Fikrni bir joyga to’plab, diqqatni ma’ruzachi bayon qilayotgan masalaga safarbar qilish, faollik ko’rsatish bilangina ma’ruza mazmunini tug’ri tushunish, bilish va anglab o’zlashtirish mumkin.

Talaba o’quv-biluv maqsadini aniq tasavvur etib, ma’ruzaga oldindan tayyorlanib kelsa (oldingi ma’ruzada bayon qilingan masala - materialni ko’rib, darslikdan yangi mavzuni o’qib

kelsa), ma'ruzachi bayoniga o'z fikrlarini to'plab, to'la safarbarlik bilan tinglay oladi. Buning uchun talabada ma'ruzani tinglashga kuchli motiv mavjud bo'lishi lozim.

Talaba ma'ruzani tinglash jarayonida asosiy tushunchalar, muxim g'oyalarni o'z daftariga yozib borishi kerak, bunda xam eshitish, xam ko'rish, xam xarakat xotirasi ishlaydi, faoliyat asosida bilim o'zlashtiriladi.

2. Ma'ruzani yozib olish. Xar bir ma'ruza mazmuni (jarayoni)da quyidagilar bo'ladi: ma'ruzaning asosini tashkil etadigan muxim g'oya; muxim g'oyani asoslash, juz'iy xulosalar; qisqa muddatli pauzalar; ta'riflar, tamoyillar, tushunchalar.

Ma'ruzani matnlashtirayotganida talaba asosiy g'oya, muxim masalalar, asosiy tushunchalar, tamoyillar, ta'riflar, xulosalarni o'z daftarida qayd etib, yozib borishi kerak. Ma'ruza jarayonida professor-o'qituvchi shu xil joylarni ovozi o'zgartirish, nutq tempini kamaytirish bilan ajratib beradi, e'tibor berib tinglansa, zarur joylarni yozib olish imkoni bo'ladi.

YOzib olish paytida ma'lum tartibga amal qilinsa (ma'ruzaning muxim masalalari; fakt, dalil, ta'rif, xulosalar; savol-javoblar, mulohazalar), tinglash jarayonida asosiy narsalarni ajrata olish malakasi xosil bo'ladi.

3. Matnlashtirayotganda quyidagilarga rioya qilish lozim:

- xoshiya qoldirish;
- xar bir masalani tartib raqami bilan belgilash va satr boshidan yozish; ravshan yozish, ostiga chizib, ajratish;
- shaxsiy shartli qiskartirishlardan foydalanish:(qarama-qarshilik), kabi;
- sitatalarning xoshiyasini ko'proq qoldirish;
- imloga, xusnixatga rioya qilish, tartibli, toza yozish;
- yozib ulgurmaganlariga joy qoldirib ketish;
- ruchkada yozish;
- yozuvlarni uyda o'qib chiqib, xatolarini to'g'rilash, to'ldirish, bu ishni iloji boricha o'sha kuni yoki vakt ko'p o'tmay qilish;
- o'zingiz qatnashmagan ma'ruzani O'rtog'ingiz matnidan ko'chirib, kitoblardan o'kib o'rganish zarur.

4. Kitob, manbalar bilan ishlash. YUqori malakali mutaxassis bo'lish, o'z bilimlarini muntazam oshirib borish uchun talaba kitob bilan, birinchi manbalar bilan ishlash malakasiga ega bo'lishi zarur. Kitob bilan ishlay olish malakasi nazariy bilimlarni chuqurroq egallashning shartidir.

Birinchi kurs talabalari, odatda, zarur kitobni tanlash, topishga qiynaladilar, kitobni maqsadga muvofiq tarzda qunt bilan o'qish o'rniga ayrim joylarinigina o'zgarishsiz ko'chirib qo'ya qoladilar. Vaxolanki, talaba kitobni qanday topish va undan qanday foydalanishni bilmog'i lozim.

5. Talaba mustaqil o'qib o'rganishi zarur bo'lgan kitoblarni professor -o'qituvchi ma'ruza, seminar paytida tavsiya qiladi va kerakli maslaxatlarni beradi. Oliy o'quv yurti talabasi DTS va malaka talablarining ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-ilmiy, ixtisoslik va boshqa fan bloklariga doir kitoblar, manbalarni o'rganishi zarur. U professor- o'qituvchilarning maslaxati va ko'rsatmalariga amal qilishi kerak. SHu tariqa zarur kitoblarni tanlash va mustaqil ta'lim olish malakalarini egallab oladi.

6. Mustaqil ta'lim olish uchun talaba bibliografiya qanday bo'lishi, qanday tuzilishini bilib olishi lozim. Bibliografiyaga doir yozuvlarni alohida daftarga, bloknotga yoki kartochkalarga qayd etib (yozib) borishi kerak. Bunda quyidagi tartibga amal qilinadi: avvalo, kitob yoki maqola muallifining familiyasi, ismi-sharifi, kitobning nomi, joy nomi, nashriyot nomi, chiqqan yili,

xajmi (necha betligi) kursatiladi (masalan, G'. SHoumarov, *Oila psixologiyasi. Toshkent, "YOzuvchi" nashriyoti 2010, 272-bet*).

Ilmiy jurnal yoki ilmiy to'plamda bosilib chiqarilgan maqola bo'lsa, unda avvalo muallifning familiyasi, ismi-sharifi, so'ngra maqolaning nomi, jurnal (to'plam)ning nomi, joyi, vaqti (yili), soni, so'ngra betlari ko'rsatiladi (masalan, O.Avlaev. *Muammoli ta'limning psixologik asosi "UzMU", Toshkent, 2014 y, 132 bet*).

SHu bilan birga talaba kutubxonadan o'ziga kerakli kitobni kandy qidirib topishni xam bilishi lozim. Xar bir kutubxonada mavjud kitoblar bibliografiyasi (ro'yxati) shifrlanib, bibliografik kartochkalar shkaflardagi qutichalarga alfavit tartibida xamda mavzular bo'yicha (sistemalashtirilib) joylashtirilgan bo'ladi. Talaba o'ziga kerakli kitobning nomi yozilgan kartochkadan kitobning nomi va shifri aniqlab, kitob olishga buyurtma berishi mumkin.

7.Darslik, ilmiy asarlar yoki maqolalarni o'qib o'rganish tartibi kuyidagicha bulishi mumkin: tavsiya etilgan kitob, risola, darslikning bobi, paragrafi (fasli) avvalo boshdan oxirigacha bir marta ukib chikiladi, umumiy tasavvur xosil kilinadi: muallifi, kitobning, makolaning, bob yoki paragrafning nomi bilib olinadi; kitobning muqaddimasi, asarning boshida yozilgan va shu asarning mazmunini ifodalaydigan *sitata, annotatsiya, epigrafi* bilan tanishish shu kitobning muxim g'oyasi va yo'nalishi xakida tasavvur beradi.

So'ngra qo'lda qalam (ruchka) bilan jiddiy e'tibor berib, asosiy matn o'qib o'rganiladi, muxim o'rinlari yozib boriladi. Kitobni bobma-bob yoki paragraflar bo'yicha o'rganish va asosiy g'oyalarni kiska yozib borish maksadga muvofik.

Kitob ukish ijodiy ish bulib, ukish jarayonida fikr yuritish, tankidiy yondashish, muloxaza kilish, luFatlar, ensiklopediyalardan foydalanish lozim. Kitob matnida berilgan jadval, rasm, sxema, grafik, shakl, kurgazmalarni sinchiklab urganish, matn mazmuniga solishtirib kurish, zarur bulsa, kuchirib olish kerak. Kitobni ukish jarayonida olingan ma'lumotlarni baxolash va unga tankidiy nuqtai nazardan karamok, shuningdek, uning muximligini bakolamok zarur buladi.

Uqishda u yoki bu materiallarga xar xil yo'llar bilan belgi quyish tavsiya etiladi.

6.1. Mustaqil ta'lim mavzulari

Psixologiya fanining hozirgi kundagi jamiyatda tutgan o'rni
Psixologiya tarmoqlarining ahamiyati
Psixologiya tadqiqot metodlarining mohiyati
Faoliyat muvofaqiyatida interiorizatsiya va ekstriorizatsiya jarayonlarining ahamiyati
Ehtiyoj va uning turlari
Faoliyat va uning turlari
Pedagogika fanining asosiy tushunchalari
O'rta Osiyoda 14-19-asrlarda ta'lim tarbiya
Turkiston o'lkasida jadidchilik xarakati va uning namondalari
Talimning mazmuni va uning moxiyati
Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi
Kadrlar tayyorlash milliy dasturining raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi o'rni
I.A.Karimovning "Yuksak manaviyat-engilmas kuch" asarida olg'a surilgan fikrlar
Ta'lim turlari
Xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiya usullari
Turkiston o'lkasida jadidchilik xarakati va uning namoyondalari

VII GLOSSARIY

<i>Inglizcha</i>	<i>Ruscha</i>	<i>O'zbekcha</i>	<i>Izox</i>
<i>Herontopsychology</i>	<i>Gerontopsixologiya</i>	<i>Gerontopsixologiya</i>	<i>psixologiya tarmog'i, qarilik davri psixologiyasini o'rganadi.</i>
<i>Gnosis</i>	<i>Gnostik</i>	<i>Gnostik</i>	<i>butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat</i>
<i>Group</i>	<i>Gruppa</i>	<i>Guruh</i>	<i>odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa</i>
<i>World view</i>	<i>Mirovozenie</i>	<i>Dunyoqarash</i>	<i>odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelibchiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi</i>
<i>Depression</i>	<i>Depressiya</i>	<i>Depressiya</i>	<i>tushkunlik kayfiyati</i>
<i>Dialogue</i>	<i>Dialog</i>	<i>Dialog</i>	<i>ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro og'zaki gaplashishi</i>
<i>Dialogical speech</i>	<i>Diologicheskoe rech</i>	<i>Dialogik nutq</i>	<i>nutq turlaridan bo'lib, bunda so'zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko'rsatadi.</i>
<i>Dominant person</i>	<i>Dominantnoe lichnost</i>	<i>Dominant shaxs</i>	<i>boshqalar bilan muomala va munosabat o'rnatishda o'z fikrini o'tkazish xislatining yorqin namoyon bo'lishi</i>
<i>Young psychology</i>	<i>Vozrostnaya psixologiya</i>	<i>YOsh psixologiyasi</i>	<i>turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi</i>
<i>Direction</i>	<i>Napravlenost</i>	<i>Yo'nalish</i>	<i>shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat'i nazar ma'lum yo'lga yo'naltiruvchi barqaror motivlar yig'indisi.</i>
<i>Individual</i>	<i>Individualnost</i>	<i>Individuallik</i>	<i>individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi,</i>

			<i>qaytarilmasligi</i>
<i>Constant mind</i>	<i>Konstantnost vospriyatiya</i>	<i>Idrokning konstantligi</i>	<i>idrok sharoiti o'zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo'lgan narsa obrazlarning nisbatan o'zgarmasligi.</i>
<i>Subject of mind</i>	<i>Predmetnost vospriyatiya</i>	<i>Idrokning predmetliligi</i>	<i>jamiki olamdan olingan ma'lumotlarni ichki olam ob'ektiga kiritish xususiyati</i>
<i>Mind's wholing</i>	<i>selostnost vospriyatiya</i>	<i>Idrokning butunliligi</i>	<i>sezgi a'zlariga bevosita ta'sir etib turgan ob'ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok etish.</i>
<i>Social psychology</i>	<i>Sotsialnaya psixologiya</i>	<i>Ijtimoiy psixologiya</i>	<i>psixologiya fanining o'ziga xos maxsus tarmog'i bo'lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o'rganiladi</i>
<i>Socialization</i>	<i>Sotsiolizatsiya</i>	<i>Ijtimoiylashuv</i>	<i>inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni</i>
<i>Social psychology</i>	<i>Sotsialno-psixologicheskiy eksperiment</i>	<i>Ijtimoiy psixologik eksperiment</i>	<i>asosiy metodlardan biri bo'lib, o'zgaruvchan mustaqil turli xolat va jarayonlarning boshqa nomustaqil xolat va jarayonlarga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlariga tayanadi</i>
<i>Interactive</i>	<i>Interaktivnost</i>	<i>Interaktiv</i>	<i>shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta'sir ko'rsatish jarayoni.</i>
<i>Introvert person</i>	<i>Introvertnaya lichnost</i>	<i>Introvert shaxs</i>	<i>shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi</i>
<i>Profession</i>	<i>Professiya</i>	<i>Kasb</i>	<i>faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub'ektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmui</i>
<i>Content analysis</i>	<i>Kontent-analiz</i>	<i>Kontent-analiz</i>	<i>tekshirilayotgan matnda so'z, ibora, abzatslarni ma'no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli</i>

<i>Observing</i>	<i>Nablyudeniya</i>	<i>Kuzatish</i>	<i>sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rganish, ma'lumotlar to'plash metodi</i>
<i>Communication</i>	<i>Kommunikativnoe</i>	<i>Kommunikativ</i>	<i>shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinuvi jarayoni.</i>
<i>Small group</i>	<i>Malaya gruppya</i>	<i>Kichik guruh</i>	<i>a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kishilar guruhi</i>
<i>Habit</i>	<i>Navыki</i>	<i>Ko'nikma</i>	<i>odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati. K. mahoratning asosini tashkil etadi</i>
<i>Method</i>	<i>Metod</i>	<i>Metod</i>	<i>bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.</i>
<i>Methodology</i>	<i>Metodologiya</i>	<i>Metodologiya</i>	<i>tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir</i>
<i>Motive</i>	<i>Motiv</i>	<i>Motiv</i>	<i>ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.</i>
<i>Motivation</i>	<i>Motivatsiya</i>	<i>Motivatsiya</i>	<i>odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui</i>
<i>Work psychology</i>	<i>Psixologiya truda</i>	<i>Mehnat psixologiyasi</i>	<i>kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan.</i>
<i>Psychology of work activity</i>	<i>Psixologiya trudovoy deyatelnosti</i>	<i>Mehnat faoliyati psixologiyasi</i>	<i>psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsini mehnat sub'ekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo'llari va usullarini ilmiy jihatdan o'rganadi.</i>
<i>Work</i>	<i>Trud</i>	<i>Mehnat</i>	<i>inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat</i>
<i>Special</i>	<i>Spetsialnost</i>	<i>Mutaxassislik</i>	<i>faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining</i>

			<i>kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi</i>
<i>Melancholic</i>	<i>Melanxolik</i>	<i>Melanxolik</i>	<i>temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi</i>
<i>Association</i>	<i>Assotsiatsiya</i>	<i>Assotsiatsiya</i>	<i>psixik hodislar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi.</i>
<i>Monologue</i>	<i>Monolog</i>	<i>Monolog</i>	<i>ma'ruzachi tomonidan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon</i>
<i>Mobile person</i>	<i>Mobilnaya lichnost</i>	<i>Mobil shaxs</i>	<i>shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi</i>
<i>Negativism</i>	<i>Negativizm</i>	<i>Negativizm</i>	<i>individdning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishi</i>
<i>Unofficial</i>	<i>Ofitsialno</i>	<i>Norasmiy</i>	<i>odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.</i>
<i>Unverbal</i>	<i>Neverbalnoe</i>	<i>Noverbal</i>	<i>nutqsiz ifodalangan xarakter, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.</i>
<i>Conflicts</i>	<i>Konflikt</i>	<i>Nizolar</i>	<i>o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozitsiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi</i>
<i>Types of conflicts</i>	<i>Vidy konfliktov</i>	<i>Nizo turlari</i>	<i>nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko'ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa;</i>

			<i>mavqe yoki darajaga ko'ra: vertikal va gorizontal; yo'nalishiga ko'ra: destruktiv va konstruktiv.</i>
<i>Operative memorize</i>	<i>Operativnaya pamyat</i>	<i>Operativ xotira</i>	<i>xotira turlaridan biri bo'lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalaniladi</i>
<i>family</i>	<i>Semya</i>	<i>Oila</i>	<i>turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh.</i>
<i>Psychological process</i>	<i>Psixicheskie protsessы</i>	<i>Psixik jarayonlar</i>	<i>u yoki bu psixik maxsul va natijalarni (psixik obrazlar, xolatlar, tushunchalar, xissiyot va x.k.) xosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.</i>
<i>Psychology</i>	<i>Psixologiya</i>	<i>Psixologiya</i>	<i>odamning ob'ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik xolatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.</i>
<i>Psychological process</i>	<i>Psixicheskie protsessы</i>	<i>Psixik holatlar</i>	<i>psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytiladi. P.H. (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi</i>
<i>Psychodiagnostics</i>	<i>Psixodiagnostika</i>	<i>Psixodiagnostika</i>	<i>shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli</i>
<i>Method of psychology</i>	<i>Metody psixologii</i>	<i>Psixologiya metodlari</i>	<i>psixik xodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari.</i>
<i>Psychocorrection</i>	<i>Psixokorreksiya</i>	<i>Psixokorreksiya</i>	<i>shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni.</i>
<i>Polilogue</i>	<i>Polilog</i>	<i>Polilog</i>	<i>guruh ichidagi munozara bo'lib, barcha</i>

			ishtirokchilar faolashuvi kuzatiladi.
<i>Professiographics</i>	<i>Professiografiya</i>	<i>Professiografiya</i>	mehnat sub'ektining faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod
<i>Professiogramme</i>	<i>Professiogramma</i>	<i>Professiogramma</i>	kasbning turli ob'ektiv xarakteristikalarining tasnifi.
<i>Psychogramme</i>	<i>Psixogramma</i>	<i>Psixogramma</i>	faoliyatning psixologik xarakteristikalarining tasnifi.
<i>Rigid private</i>	<i>Rigidnaya lichnost</i>	<i>Rigid shaxs</i>	shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi
<i>Official</i>	<i>Ofitsialno</i>	<i>Rasmiy</i>	odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqe, martabaning inobatga olinishi
<i>Real</i>	<i>Realno</i>	<i>Real</i>	birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.
<i>Referent group</i>	<i>Referentnye gruppy</i>	<i>Referent guruh</i>	shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.
<i>Sanguine</i>	<i>Sangvinik</i>	<i>Sangvinik</i>	temperament turlaridan bo'lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi
<i>Sympathy</i>	<i>Simpatiya</i>	<i>Simpatiya</i>	bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi
<i>Test</i>	<i>Test</i>	<i>Test</i>	sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo'llaniladigan

			<i>metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.</i>
<i>Training</i>	<i>Trening</i>	<i>Trening</i>	<i>mashq qilmoq, guruxlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsning muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi</i>
<i>Temperament</i>	<i>Temperament</i>	<i>Temperament</i>	<i>– shaxsning individual-psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, u kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi.</i>
<i>Installation</i>	<i>Ustanovka</i>	<i>Ustanovka</i>	<i>yo'nalish, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga va ob'ektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni idrok qilish, ularga baho berish va ularga nisbatan xarakatining tayyorlik xolati</i>
<i>Phlegmatic</i>	<i>Flegmatik</i>	<i>Flegmatik</i>	<i>temperament turlaridan biri bo'lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emotsional xolatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.</i>
<i>Character</i>	<i>Xarakter</i>	<i>Xarakter</i>	<i>– kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo'lib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, o'ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon bo'ladi</i>
<i>Choleric</i>	<i>Xolerik</i>	<i>Xolerik</i>	<i>temperament turi bo'lib, xissiyot jo'shqinligi, kayfiyatning tezda o'zgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman xarakatchanligi bilan ajralib turishi xosdir</i>
<i>Private</i>	<i>Lichnost</i>	<i>SHaxs</i>	<i>ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror</i>

			<i>odam.</i>
<i>Sociality of privates</i>	<i>Sotsializatsiya lichnosti</i>	<i>SHaxs ijtimoiylashuvi</i>	<i>inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.</i>
<i>Inter-private communication</i>	<i>Mejlichnostnye otnosheniya</i>	<i>SHaxslararo munosabat</i>	<i>muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar</i>
<i>Emotion</i>	<i>Emotsiya</i>	<i>Emotsiya</i>	<i>odam va hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki va tashqi qo'zg'oluvchilar ta'siriga javob reaksiyasi</i>
<i>Egocentrism</i>	<i>Egotsentrizm</i>	<i>Egotsentrizm</i>	<i>men, markaz ma'nosida individualizm va egoizmning eng tuban turi.</i>
<i>Emphatics</i>	<i>Empatiya</i>	<i>Empatiya</i>	<i>boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qob</i>
<i>Capability</i>	<i>Sposobnost</i>	<i>Qobiliyat</i>	<i>shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati</i>
<i>Interests</i>	<i>Interesy</i>	<i>Qiziqish</i>	<i>shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki xodisalarga munosabati.</i>
<i>Capabilities</i>	<i>Sposobnosti</i>	<i>Qobiliyatlar</i>	<i>shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati</i>
<i>Mind</i>	<i>Vospriyatiya</i>	<i>Idrok</i>	<i>mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.</i>

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. A. «Barkamol avlod-orzusi». O'quv qo'llanma. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I. A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshkent. 1997 y.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. «O'zbekiston», 2000 y.
4. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Toshkent. «SHarq». 1997 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent. «SHarq». 1997 y.
6. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. «O'qituvchi» 1993 y.
7. Zunnunov A. «Pedagogika tarixi». Darslik. Toshkent. «SHarq» 1997 y.
8. Xoshimov K, Safo Ochil. «O'zbek pedagogikasi antalogiyasi». Darslik. «O'qituvchi» Toshkent. 1995 y.
9. G'aybullaev N.R. «Pedagogika». Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturi. Toshkent. 2000 y.
10. G'aybullaev N, Qurbonov M, Nishonaliyev U. «Pedagogika» fanidan hamjamiy dastur. Toshkent. 2005 y.
11. Mavlonova R va b. «Pedagogika». Darslik. O'qituvchi. 2001y
12. Karimova V. «Milliy istiqlol g'oyasini ta'lim jarayoniga joriy etishning pedagogik hamda psixologik asoslari» «O'qituvchi». O'quv qo'llanma. Toshkent 2002 y
13. Djumaboeva F. «Talabalarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish» O'quv qo'llanma. O'qituvchi. 2002 y
14. Bodmaev B. Psixologiya: Kak ee izuchati usvoit. Darslik Vladost. 1997 y.
15. SHoumarov G. «1001 savolga psixologning 1001 javobi». YUNESKO, YUMPFA loyixasi asosida darslik. Mehnat. 2000 y.
16. Udalova M. «Sotsiologiya i psixologiya i upravleniya». Praktikum. Darslik. Infra. 1999 y.
17. Rogov E. «Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa» Darslik. Vlados. 1999 y.
18. Karimova V. «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot». O'quv qo'llanma. Universitet. 1999 y.
19. Karimova V. «Psixologiya». O'quv qo'llanma. Xalq merosi. 2002 y.
20. Karimova V. «Auditoriyada baxs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi». O'quv qo'llanma. Toshkent. 2000 y.
21. Petrovskaya L. «Psixologiya» O'quv qo'llanma. Pedagogika. 1997 y.
22. Karimova V. «Ijtimoiy psixologiya asoslari». O'quv qo'llanma. O'qituvchi. 1997 y.
23. Nemov R. «Prakticheskaya psixologiya» O'quv qo'llanma. Vlados. 1998 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

24. Xasanboeva T. «Pedagogika tarixi» O‘quv qo‘llanma O‘qituvchi. 1997 y.
25. Bezrukova B.S. «Pedagogika» Ekaterinburg. 1997 y.
26. Ro‘ziev X. «Kasb-xunar kollejlarda pedagogik amaliyotni tashkil etish». O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2001 y.
27. Musurmonova O. «Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». O‘quv qo‘llanma O‘qituvchi 1997 y.
28. Iminov T. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini islox qilish bo‘yicha me’yoriy xujjat». O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 1998 y.
29. Qurbonov O. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi ta’lim to‘g‘risidagi qarorlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 1998 y.
30. G‘aybullaev N. «Pedagogika» Ma’ruzalar matni. Toshkent. 1999 y.
31. Karimova V. «Psixologiya» Ma’ruzalar matni. Toshkent. 2000 y.
32. G‘oziev E. «Psixologiya». Toshkent. 1994 y.
33. G‘oziev E. «Oliy maktab psixologiyasi». Toshkent. 1997 y.
34. Nikalaenko T. «Psixologiya i pedagogika» O‘quv qo‘llanma. Infra. 2000 y.
35. Chelpanov G. «Psixologiya. Filosofiya. obrozovanie» O‘quv qo‘llanma. MODEK. 1999 y.
36. Elkonin D. «Psixologiya igro‘» O‘quv qo‘llanma Vados 1999
37. Abdullaev YU «Xuquqiy psixologiya muqaddimasi» O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona. 1998 y.

